ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI



O‘QITUVCHILAR UCHUN
METODIK QO‘LLANMA

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

Toshkent – 2022

UO‘K 811.512.133(072)
KBK 81.2(5O‘zb)ya7
M 13

Tuzuvchilar:
Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov,
Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Husnora Baxtiyorova

Xalqaro ekspert:
Lannuzzi Susan

Taqrizchilar:
S. Tajbenova *– Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.*
N. Nurmatova *– Toshkent shahridagi 273-maktab o‘qituvchisi.*
N. Paxritdinova *– Toshkent shahridagi 67-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.*

Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 3-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / K. Mavlonova, [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 160 b.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8069-1-7
© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

M U N D A R I J A

Kirish 4
3-sinf o‘quvchisiga ona tili va o‘qish savodxonligi fanidan qo‘yiladigan malaka talablari 6
Mustaqillik maydoni 8
G‘aroyib bolalar 11
Jamoat transporti 15
O‘zbekistonning o‘ziga xos tabiati 21
Antarktida – muz saltanati 26
Dunyo okeanlari 30
Baraka daryosi 35
Salomatlik garovi 40
Vitaminlar 44
Tabiatni asraymiz 49
Virus nima? 53
Dangasalik – yomon illat 58
Tomorqa 63
Jamg‘arma pullarim 70
Yetti xazina 75
Qizil sayyora 80
Zamonaviy texnologiyalar 84
Teleskop – osmonga qo‘yilgan narvon 90
Mikroskop – zarrabin 93
Aqlli yordamchi 97
So‘zdan so‘zning farqi bor 103
Ism qanday qo‘yiladi? 108
Nutqimiz bezagi 114
San’at va madaniyat 119
Sayyohlari ko‘p diyor 124
Kulolchilik 129
Kitobdan yaxshisi yo‘q 133
Ertaklar yaxshilikka yetaklar 137
O‘zim xarid qilaman 142
Birovning mulki 149
O‘quv yili oxirida takrorlash 154

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

KIRISH

Yondashuv

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida til o‘qitishning o‘rganuvchiga asoslangan yondashuvlar turkumidan foydalaniladi. Bu yondashuv tilning real hayotiy vaziyatlarda qo‘llanishi va ana shu vaziyatlarda o‘rganuvchi sezadigan ehtiyojlarni qondirishga asoslanadi. Bunda oldindan tanlab olingan *bo‘lishsizlikni ifodalash, bog‘lovchilarni qo‘llash* kabi grammatik qurilmalar va *kechirim so‘rash, manzilni tushuntirish, rozilik yoki norozilikni ifodalash* kabi muloqot birliklarini mazmunga asoslangan topshiriqlar orqali o‘rgatishga harakat qilinadi.

Maqsad

Ushbu darslik o‘quvchilarni turli hayotiy vaziyatlarda grammatik jihatdan to‘g‘ri va kommunikativ jihatdan erkin so‘zlay oladigan darajaga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygan. O‘quvchining tilni qo‘llashdagi real ehtiyoji (ijtimoiy muloqot, akademik ta’lim) hisobga olingan va zaruriy lingvistik qurilmalar turli nutqiy vaziyatlarda berilgan.

Grammatik bilimni yetkazish

Insonning til malakasi og‘zaki nutqni tushunish, yozma nutqni tushunish, fikrni og‘zaki va yozma ifodalash orqali shakllanishi ilmiy isbotlangan. Ana shundan kelib chiqib, ushbu darslikni yaratishda grammatik bilim alohida emas, nutqiy vaziyat ichida berilishi haqidagi qarash asos qilib olingan. Bunda til o‘qitishga kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanilgan. Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish va o‘z nutqini to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatishdir.

Til ko‘nikma va malakalarini insonning farovon yashashini ta’minlashga xizmat qiladigan boshqa ko‘nikmalardan ayri tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ularni rivojlantirishda inson hayotida uchraydigan vaziyatlardan foydalanish muhim. Bu, birinchidan, o‘quvchida dars jarayoniga nisbatan qiziqish va rag‘batni kuchaytiradi; ikkinchidan, foydalanilgan nutq vaziyatning ichida bo‘lgani uchun insonning xotirasida yaxshiroq saqlanib qoladi. Ayni ana shu nutq esa o‘zida har doim qandaydir grammatik bilimni ham tashiydi.

Avval grammatik qoidani berib, keyin mashq bajarish usuli uzoq yillardan beri ona tili o‘qitishda qo‘llanib kelgan. Uning asosiy kamchiligi amaliyotga yetarli darajada bog‘lanmaganidir. Mazkur usulda mavzuni o‘qigan bola nazariy jihatdan shunday ekanini biladi, ya’ni gapdagi egani, uning qoidasini aytib bera oladi, ammo shu qoida qayerda, qaysi vaziyatlarda qo‘llanishi haqida tasavvurga ega bo‘lmaydi. Kommunikativ yondashuvda esa tilning muloqot vositasi sifatidagi vazifasi birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Ma’lum vaziyatda qanday gapirish to‘g‘ri bo‘ladi, ya’ni qanday ifoda yordamida fikrni bexato yetkazish mumkin – shu masalani hal qilish orqali til qonuniyatlari tushuntiriladi. O‘rganuvchiga ana shu bexato shakl asosida tilga oid qanday qoida borligi shu qoidaning bir necha xil vaziyatda aks etishi orqali tushuntiriladi. Ya’ni bir qoidani o‘zida tashigan turli vaziyatlar o‘quvchi ko‘z oldiga olib kelinadi.

Kommunikativ yondashuvga asoslangan darslarda faqat yozma matnlar bilan cheklanib qolinmaydi. Darslar davomida tilning og‘zaki va yozma shaklidan baravar foydalaniladi. Insonning birlamchi til malakasi og‘zaki nutqdir. Og‘zaki nutqni rivojlantirish tilning qolgan shakllarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Yozma nutq bilan ko‘p ishlash og‘zaki nutq o‘z-o‘zidan rivojlanib qolishiga olib kelmaydi, chunki yozma nutq va og‘zaki nutq mazmun jihatidan bir nuqtada birlashsa-da, ularning amalga oshish jarayoni inson ongida boshqa-boshqa mexanizmning ishlashi orqali ta’minlanadi. Shuning uchun ularning har biriga alohida e’tibor qaratish zarur.

Ushbu darslikda, shuningdek, og‘zaki va yozma nutqni tushunish malakasiga ham alohida e’tibor qaratiladi. Shu vaqtgacha ona tili va o‘qish darslarida matn ustida ishlash bo‘yicha topshiriqlarda matn mazmunini to‘liq ochish nazarda tutilmayotgan edi. Ona tili darslarida matn odatda ma’lum til qoidasining ifodalanishini topish (masalan, ot turkumiga oid so‘zlarni toping yoki ega bilan kesimni toping) maqsadida berilgan bo‘lsa, adabiyot darslarida matnda ifodalangan badiiy jihatlarga urg‘u berilgan. Kommunikativ yondashuv asosidagi topshiriqlar matnning mazmunini anglashga yo‘naltiriladi, so‘zlar va gaplar ana shu mazmunni ifodalashda qanday vazifani bajarayotganiga e’tibor qaratiladi.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, inson tilni ma’lum konstruksiyalar asosida o‘zlashtirib boradi va ana shu konstruksiyalarni qo‘llagan holda o‘z fikrini ifoda etadi. Tilni fonetika, morfologiya, leksikologiya, sintaksis kabi sathlarga ajratib, ketma- ketlikda hamda grammatik chiziqli tartibda o‘rgatish hech qachon bu jarayonga yordam

bera olmaydi. Inson so‘zlar, o‘qir, eshitar hamda yozar ekan, tilning barcha sathlaridan birdaniga foydalanadi. Ya’ni tilni sathlarga ajratish bu tilshunoslik jihatidan ma’qul ish bo‘lib, til o‘qitishda ana shu sathlarni chiziqli ketma-ketlikka terib olib o‘rgatish samarasiz hisoblanadi.

Umuman, til o‘zlashtirish ketma-ketligiga nazar tashlasak (psixolingvistika va neyrolingvistika sohalarining xulosalari), inson birinchi til – ona tilini ma’lum qonun-qoidalar asosida emas, jamiyatdan, kitoblardan, ertaklardan, multfilm va kinolardan qabul qilish orqali o‘zlashtiradi, ya’ni bola juda kichik yoshidan boshlab biz “grammatika” deb ataydigan qoidalarni boshqalarning nutqidan o‘rganib oladi. Shuningdek, o‘z ehtiyojidan kelib chiqib ishlatadi ham. Istalgan birinchi sinf o‘quvchisiga biror nimani ko‘rsatib, bu narsa kimga tegishli ekanini so‘rang, u *“meniki”, “uniki”, “falonchiniki”* yoki *“mening ….m”, “uning ….i/si”, “falonchining ….i/si”* kabi konstruksiyalarni qo‘llab javob beradi. Endi mantiqan qaraymiz, axir u bunday qiyin konstruksiyani qayerdan bilib oldi, hali darslarda bunga kelmadik-ku?! U bularning hammasini nutqiy vaziyatlardan o‘rganib olgan. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi ushbu avvaldan mavjud bilimlarni mustahkamlash va ba’zi to‘g‘rilashlarni kiritishga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash

Ko‘pchilik tanqidiy fikrlash deganda muammoning ikkala tarafini ham ko‘ra olish deb izoh beradi. Uni biror fikr yoki harakatni tanqid qilish degan ma’noga buruvchilar ham yo‘q emas. Aslida esa tanqidiy fikrlash tafakkur qilishning eng yuqori bosqichlaridan biri bo‘lib, insonning aniq va oqilona fikrlashidir. U fikrlar, g‘oyalar, voqealar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aniqlash, fikrlarning dolzarbligini tushunish, ularga baho berish, muammolarga izchil va tizimli yondashishdir. Ushbu darslik o‘quvchilarda aynan mana shu ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Har bir matn, nutqiy vaziyat ostida o‘quvchini fikrlashga undovchi eng kamida bitta savol mavjud bo‘lib, aynan shu savol o‘quvchini asl mohiyatni anglashga yo‘naltiradi, o‘ziga savol berish va vaziyatni baholash tomon olib boradi. Tanqidiy fikrlash til ko‘nikmalari rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Aniq va tizimli fikr yuritish g‘oyalarni ifoda etish uslubini yaxshilaydi. Ifoda uslubining yaxshilanishi o‘quvchining tildan yanada samarali va to‘g‘ri foydalanishini anglatadi.

DARSLIKDAGI BELGILAR IZOHI



O‘qish belgisi darslikda berilgan matnni o‘qishga ishora qiladi.



Savollarga javob berish belgisi darsda savol-javob, bahs-munozaralar vaqti kelganidan xabar beradi.



Mashq daftariga yozish belgisi o‘quvchi daftarida ishlanadigan mashqlar oldidan berilgan.



Audiomatnni tinglash belgisi kelgan o‘rinlarda o‘quvchilarga shu mavzuda berilgan audiomatn eshittiriladi.



Qoida bilan tanishish – qoidalar oldidan berilgan belgi.



Qiziqarli mashg‘ulot belgisi bilan berilgan topshiriq rasm chizish, bo‘yash, yasash yoki loyiha tuzishga doir qiziqarli mashg‘ulot bo‘lishi mumkin.



Partadosh bilan bajarish o‘quvchi o‘z partadoshi bilan birgalikda bajaradigan mashq va topshiriqlarni anglatadi.



Rasmga e’tibor berish belgisi rasmli topshiriqlar oldidan beriladi.



Quvnoq musobaqa sinfda musobaqa uyushtirish nazarda tutilgan topshiriqlar oldidan berilgan.



Topshiriqni bajarish belgisi mustasno holatlarda qo‘llangan topshiriqlarni nazarda tutadi.

3-SINF O‘QUVCHISIGA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANIDAN QO‘YILADIGAN MALAKA TALABLARI

Og‘zaki nutq
OTO‘S.3.ON.1 suhbat jarayonida uchinchi sinf darajasiga mos mavzular yuzasidan adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ravon so‘zlay oladi
OTO‘S.3.ON.2 kichiklar, tengdoshlari hamda kattalar bilan suhbat hamda muhokama jarayonida muloqot odobiga (bir-birini hurmat qilish, so‘zga chiqishni istashini hurmat bilan so‘rash, mavzu yoki matn yuzasidan navbat bilan gapirish) rioya qiladi, fikrini bildiradi va asoslab bera oladi
OTO‘S.3.ON.3 suhbat yoki muhokama jarayonida boshqalarning fikriga munosabat bildiradi, munosabatini asoslab beradi, boshqalarning fikrini o‘z so‘zlari bilan aytib bera oladi
OTO‘S.3.ON.4 suhbat yoki muhokama jarayonida ma’lumot yoki mulohazani aniqlashtirish uchun savollar beradi, tengdoshlarining savollariga javob bera oladi
OTO‘S.3.ON.5 sinf darajasiga mos she’rlarni yoddan, ifodali va ravon aytib bera oladi
OTO‘S.3.ON.6 sinf darajasiga mos mavzu hamda holatlarda rasm, shaxs, narsa va hodisalarni tasvirlab beradi, qo‘shimcha detallar kirita oladi
OTO‘S.3.ON.7 sinf darajasiga mos matnlarni o‘qib / tinglab bo‘lgach, uning asosiy mazmuni va g‘oyasini aytib beradi, rollarni ijro eta oladi
OTO‘S.3.ON.8 sinf dasturidagi avvaldan berilgan mavzu yuzasidan bilimlariga tayangan holda kichik taqdimot o‘tkaza oladi.
OTO‘S.3.ON.9 sinf dasturidagi mavzu yoki shaxsiy qiziqishlari haqida tayyorgarliksiz, tartibli nutq so‘zlaydi, o‘z nutqini aniqlashtiruvchi detallar bilan boyita oladi
OTO‘S.3.ON.10 sinf darajasiga mos mavzu yuzasidan taqdimot nutqi tayyorlaydi, mavzudan chetlashmagan holda so‘zlaydi, ma’lumotlarni tartibga soladi, nutqini mazmunni aniqlashtiruvchi detallar bilan boyita oladi
Tinglab tushunish
OTO‘S.3.TT.1 uchinchi sinf darajasiga mos matnlarda voqea-hodisa, shaxs, narsa yoki joy haqidagi ma’lumotlar so‘zlovchi tomonidan ochiq ifodalanganda savollarga javob bera oladi
OTO‘S.1.TT.2 dialog yoki suhbat jarayonida so‘zlovchining o‘zgarganini anglay oladi
OTO‘S.3.TT.3 so‘zlovchi nutqidagi ohangga tayanib so‘roq, darak, buyruq hamda his-hayajon gaplarni farqlay oladi
OTO‘S.3.TT.4 sinf darajasiga mos badiiy yoki informativ matnni tinglagach, uning asosiy mazmunini, voqealar ketma-ketligi va g‘oyasini aytib bera oladi
OTO‘S.3.TT.5 sinf darajasiga mos badiiy yoki informativ matnni tinglash jarayonida voqea-hodisa sodir bo‘layotgan makon hamda zamon haqida taxmin qila oladi, taxminlarini asoslab bera oladi
OTO‘S.3.TT.6 so‘zlovchining uch bosqichli hamda birma-bir aytilgan ko‘p bosqichli ko‘rsatmalarini tushunadi va ularga amal qila oladi
OTO‘S.3.TT.7 sinf darajasidagi og‘zaki, media, reklama, badiiy hamda informativ matn haqida o‘z fikrini bildiradi va asoslab bera oladi
OTO‘S.3.TT.8 sinf darajasiga mos og‘zaki matnlar uchun rasm, chizma, shakllarni tanlay oladi
O‘qib tushunish
OTO‘S.3.O‘T.1 alohida yoki matn tarkibida kelgan sinf darajasiga mos so‘zlar hamda birikmalarni (tanish, notanish) to‘g‘ri o‘qiy oladi
OTO‘S.3.O‘T.2 sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlarni ravon hamda ifodali o‘qiy oladi
OTO‘S.3.O‘T.3 sinf darajasiga mos matndagi notanish so‘zlar ma’nosini aniqlash uchun bosma yoki elektron lug‘atdan foydalana oladi
OTO‘S.3.O‘T.4 sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlar, grafik chizmalarda ochiq ifodalangan ma’lumotlar (qahramonlar, faktlar, detallar)dan savol berilganda javob beradi hamda javobini asoslab bera oladi

OTO‘S.3.O‘T.5 sinf darajasiga mos qo‘llanma, retsept, xarita, mahsulot yorlig‘ida keltirilgan ko‘p bosqichli ko‘rsatmalarga amal qila oladi
OTO‘S.3.O‘T.6 taqvimdan foydalanib tug‘ilgan kun, bayramlar, ma’lum sanalar, dam olish va ta’til kunlarini belgilay oladi
OTO‘S.3.O‘T.7 sinf darajasiga mos matn hamda tasvirlarni o‘zaro moslashtira oladi
OTO‘S.3.O‘T.8 matnning ma’lum qismini o‘qib, keyinchalik sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealar hamda ularning natijalarini taxmin qiladi, to‘liq o‘qib bo‘lgach, taxminlarini matndagi voqealar bilan qiyoslaydi, matnni mantiqan davom ettira oladi
OTO‘S.3.O‘T.9 sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlarda nazarda tutilgan mavzu, maqsad, asosiy g‘oya, saboqni aniqlaydi va javoblarini asoslab bera oladi
OTO‘S.3.O‘T.10 sinf darajasiga mos matnlardagi ko‘chma ma’noni tushunadi
OTO‘S.3.O‘T.11 sinf darajasiga mos badiiy matndagi bosh qahramonlarni aniqlaydi, ularni ta’riflab bera oladi
OTO‘S.3.O‘T.12 sinf darajasiga mos badiiy matnning xulosa qismini ko‘rsata oladi
OTO‘S.3.O‘T.13 she’riy asarning syujetini, voqealar ketma-ketligini tushunadi, qayta aytib beradi, qofiyani aniqlaydi
OTO‘S.3.O‘T.14 sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnning mazmuni yoki g‘oyasi haqida savol berilganda javobini matn orqali asoslab bera oladi
OTO‘S.3.O‘T.15 onlayn media, reklama hamda sinf darajasiga mos badiiy va informativ matn kimga qaratilgani, muallif nazarda tutgan maqsadni, matn mohiyatini aniqlaydi, javoblarini matnga tayangan holda asoslab bera oladi
Yozma nutq
OTO‘S.3.YN.1 fikr ifodalashda nutq ohangi va kontekstga mos nuqta, vergul, so‘roq, undov, qo‘shtirnoq belgilarini qo‘llay oladi
OTO‘S.3.YN.2 tinish belgilari hamda imlo qoidalariga amal qilgan holda 50–60 ta so‘zdan iborat diktant yoza oladi
OTO‘S.3.YN.3 o‘zi, oila a’zolari hamda do‘stining shaxsiy ma’lumotlarini (ismi, familiyasi, davlati, manzili, telefon raqamini) yoza oladi
OTO‘S.3.YN.4 berilgan rasm, matn (audiomatn) asosida shaxs, narsa yoki ma’lum voqea-hodisani tasvirlab 4–5 ta o‘zaro mustaqil gap tuza oladi
OTO‘S.3.YN.5 turli maqsadlarda (tasvirlash, savol-javob, hikoya qilish, xat, tabriknoma, e’lon, fikr-mulohaza) matn tuzib yoza oladi
OTO‘S.3.YN.6 berilgan rasm, matn (audiomatn) asosida shaxs, narsa yoki ma’lum voqea-hodisani tasvirlab, sarlavha qo‘yib, maqsadga muvofiq elementlarni tanlab 6–9 ta gapdan iborat matn tuzib, yoza oladi
OTO‘S.3.YN.7 sinf darajasiga mos matnlarni rasm, jadval, xarita va shu kabilar bilan boyita oladi
Lingvistik ko‘nikmalar
OTO‘S.3.LK.1 sinf darajasiga mos badiiy matnlarda qofiyadosh so‘zlarni taniydi, aytadi, kerakli o‘rinlarda qofiyadosh so‘zlar topa oladi
OTO‘S.3.LK.2 sinf darajasiga mos og‘zaki va yozma matnlardagi so‘z birikmasi, ko‘chma ma’noli so‘zlar, ibora, hikmatli so‘zlarning ma’nosini berilgan kalit so‘zlar yoki kontekst orqali aniqlaydi, ularni og‘zaki va yozma nutqida samarali qo‘llaydi
OTO‘S.3.LK.3 sinf darajasiga mos og‘zaki va yozma matnda berilgan ishora so‘zlar asosida fanlar kesimida so‘z va atamalar (notanish so‘z, sinonim, antonim, omonim, olinma so‘zlar, so‘z shakllari kabilar)ning ma’nosini aniqlaydi, atamalarni to‘g‘ri talaffuz qiladi, ularni og‘zaki va yozma nutqida samarali qo‘llay oladi
OTO‘S.3.LK.4 sinf darajasiga mos sodda gaplarning egasi, kesimi, aniqlovchisi va to‘ldiruvchisini farqlay oladi
OTO‘S.2.LK.5 sinf darajasiga mos matnlarda gaplarning darak, buyruq, so‘roq hamda his-hayajon ohangida ekanini aniqlaydi, og‘zaki va yozma nutqida to‘g‘ri qo‘llay oladi
OTO‘S.3.LK.6 sinf darajasiga mos matn hamda so‘zlarda bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini amalda qo‘llay oladi
OTO‘S.3.LK.7 sinf darajasiga mos matnlarda ot, sifat, fe’l, olmosh, sonlarni aniqlaydi hamda ularni og‘zaki va yozma nutqida samarali qo‘llay oladi
OTO‘S.3.LK.8 asosiy husnixat, imlo, bo‘g‘in ko‘chirish hamda tinish belgilari qoidalariga amal qilgan holda uchinchi sinf darajasiga mos, o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gaplar hamda kichik matnlar tuzib, yoza oladi

MUSTAQILLIK MAYDONI

(6+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarning mustaqillik, istiqlol, vatan tuyg‘ulari hamda Mustaqillik maydoni haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Mustaqillik maydoni majmuasi bilan yaqindan tanishtirish, binoning joylashishi va tashqi ko‘rinishini tasvirlash, she’r matnidagi ayrim o‘xshatishlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Mustaqillik maydoni bilan bog‘liq so‘z va birikmalarni tushuntirish, sinonimlik haqidagi tushunchalarini kengaytirish. Yozuvchining kontrast uslubini qo‘llashdan maqsadi haqida dastlabki ma’lumotlarni yetkazish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng yangi mavzu tanishtiriladi. Mavzuga kirishib olish uchun o‘quvchilar bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Unda o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

- *Televizor ko‘rib turasizmi?*
- *Televizorda mamlakatimiz bo‘ylab sayohat ko‘rsatuvlari bor, shulardan qaysilarini ko‘rgansiz?*

Savollar umumiy tarzda beriladi va istagan o‘quvchi javob berishi mumkin.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasm asosida suhbat

Darslikda 5 ta rasm keltirilgan. Bu rasmlar Mustaqillik maydoni majmuasi tarkibidagi inshootlar hisoblanadi. O‘quvchilar buni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan yoki televizor orqali tanishgan bo‘lishi mumkin. Ular o‘z tasavvurlari haqida so‘zlab berishlari kerak. Agar sinfda birorta ham o‘quvchi bu maydon bilan tanish bo‘lmasa, o‘qituvchining o‘zi shu maydon haqida biroz so‘zlab berishi kerak bo‘ladi, lekin o‘quvchilarga o‘z tasavvurlarini ifoda etish imkonini berish tavsiya etiladi. Ya’ni o‘quvchi maydon haqida bilmasa ham, rasmlarda nimalar aks etganini og‘zaki tasvirlashga urinib ko‘rishi mumkin. O‘quvchilarga rasmlar ostidagi savollar navbati bilan beriladi, o‘sha savollar vositasida suhbat uyushtiriladi.

Javob:

A	“Baxtiyor ona” haykali hamda globus yoki Mustaqillik va ezgulik monumenti
B	Vazirlar Mahkamasi binosi
D	Senat binosi
E	Metroning “Mustaqillik maydoni” bekati
F	Mustaqillik va ezgulik arkasi

Yozma nutq

1. O‘quvchilar Mustaqillik maydonidagi inshootlardan qaysi biri ularga yoqqani, nimasi bilan yoqqani haqida ikki yoki uchta gap yozishlari kerak bo‘ladi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quvchilardan avvalgi soatda o‘rganilgan Mustaqil maydonidagi inshootlar haqida so‘raladi. Takrorlash maqsadida inshootlar rasmi ko‘rsatilib (o‘qituvchi darslikdagi rasmlardan ham, boshqa rakursdan olingan tasvirlardan ham foydalanishi mumkin), ularning nomi so‘raladi.

Asosiy qism

Tinglab tushunish

O‘quvchilarga “Mustaqillik maydoni” nomli audiomatn qo‘yib eshittiriladi. Bu jarayonda 2 usuldan foydalanish mumkin:

1-usul: o‘quvchilarga audioni eshittirish davomida ba’zan to‘xtab, darslikning 6-betida berilgan savollar bilan murojaat qilish;

2-usul: audiomatnni to‘liq eshittirib bo‘lgach, darslikning 6-betidagi savollar asosida savol-javobga o‘tish.

Shundan so‘ng o‘quvchilarga yanada qiziq bo‘lishi uchun darslikning 6-betida berilgan QR kod orqali Mustaqillik maydonining sun’iy yo‘ldosh orqali olingan suratlari, binolarning joylashishi, monumentlarning o‘rni ko‘rsatilib, majmua bilan yanada yaqindan tanishtirish mum-

kin. Agar o‘quvchilarda smartfon mavjud bo‘lsa, ularni ishlatishga ruxsat beriladi. O‘qituvchi sun’iy yo‘ldosh orqali olingan suratlarni katta ekranda oldindan ko‘rsatishi ham mumkin. Bunda o‘quvchilarning xarita bilan ishlash ko‘nikmalari shakllana boshlaydi.

Sun’iy yo‘ldoshdan olingan suratdan namuna:



Topshiriq

Audiomatn muhokamasidan so‘ng o‘quvchilar darslikning 7-betida berilgan matnni o‘qishlari kerak bo‘ladi. Matndagi ba’zi so‘zlar tushirib qoldirilgan. O‘quvchilar shu vaqtga qadar o‘rganganlariga tayanib, tushirib qoldirilgan inshoot nomini qo‘yib o‘qishlari lozim. Bunda bir o‘quvchi bitta gapni o‘qishi mumkin bo‘ladi. Vaqt yetarli bo‘lganda sinfdagi har bir o‘quvchi bittadan gapni o‘qib chiqishi mumkin.

Tushirib qoldirilgan so‘zlar ketma-ketligi: *Toshkent, bekati, peshtoq, laylak, yam-yashil, xaritasi, Mahkamasi, vazirligi.*

O‘quvchilarga notanish so‘zlar uchraganda gapni o‘qishdan to‘xtab, o‘sha so‘zning ma’nosini so‘rash mumkinligini tushuntirish lozim. O‘quvchi so‘z ma’nosini so‘raganda sinfdan kimdir bilish-bilmasligi so‘raladi, agar hech kim bilmasa, o‘qituvchining o‘zi javob beradi. Darslikning orqasida ba’zi so‘zlarning izohi berilgan, o‘quvchi o‘sha lug‘atdan ham foydalanishi mumkin.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ushbu soatning kirish qismida o‘quvchilardan vatan mavzusiga oid qanday she’r yoki maqol bilishlari so‘raladi. Qaysidir o‘quvchi yoddan aytib berishni istasa, ruxsat beriladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish. “Ona yurt” she’ri asosida

Dastlab o‘qituvchi she’rni ifodali tarzda o‘qib beradi. Shundan so‘ng darslikning 9-betida berilgan so‘zlar va ularning ma’nodoshini moslashtirish mashqi bajariladi. O‘quvchilar she’rni mustaqil o‘qishga o‘tmay turishlari tavsiya etiladi. **Sinonim juftliklar:** *oftob – quyosh; yurt – mamlakat; el – xalq; xush – yaxshi; fe’l – xarakter.* Topshiriqdan so‘ng o‘qituvchi she’rni yana bir marta o‘qib beradi va ko‘ngilli o‘quvchilar xuddi o‘qituvchiga o‘xshatib o‘qishga urinib ko‘rishlari mumkin bo‘ladi.

Savol-javob

O‘quvchilar bilan darslikning 9-betida berilgan savollar asosida savol-javob o‘tkaziladi.

Yozma nutq

2. Darslikning 9-betida yozma topshiriq mavjud. Ushbu yozma topshiriqda o‘quvchilar o‘zlari uchun eng go‘zal joy qayer ekani haqida 4–5 ta gap yozib berishlari kerak. Gaplarda joyning qayer ekani, u joyga qachon borgani yoki nega borishni istashi, u joyda nimalar borligi kabi ma’lumotlar aks etishi kerakligini o‘qituvchi yaxshilab tushuntiradi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish orqali darsga kirishib olish tavsiya etiladi:

Podsholar hayoti haqida nimalarni bilasiz?
Qaysi ertaklarda podsholar qatnashgan?

Asosiy qism

O‘qib tushunish. “Vatan” ertagining 1-qismi asosida

O‘qituvchi dastlab matnni ifodali o‘qib berishi mumkin, bu o‘quvchilar matn o‘qiyotganda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yishlariga yordam beradi. O‘qituvchi bir marta o‘qib bergach, o‘quvchilar matnni ichlarida o‘qib olishlari uchun vaqt beriladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar bilan savol-javob boshlanadi.

Savol-javob

Darslikning 11-betida berilgan savollar asosida o‘tkaziladi. 7-savolning aniq javobi matnning 2-qismida mavjud, bu narsa o‘quvchilarga aytilmasligi lozim, o‘quvchilar bu savolga o‘z tasavvurlari asosida javob berishlari kerak.

Leksikologiya

O‘quvchilar bilan darslikning 11-betida berilgan topshiriq bajariladi. Bunda o‘quvchilar berilgan so‘zlar qatnashgan gapni topib o‘qishlari va o‘sha so‘zning ma’nosini taxmin qilishlari kerak. O‘z taxminlarini lug‘at yoki o‘qituvchining izohi orqali tekshirib olishlariga imkon beriladi. Bu topshiriqni jamoa bo‘lib bajarishga ham imkon berish mumkin. Sinfni ikki qismga bo‘lib, qaysi guruh birinchi topib, ma’nolarini aytib berishi asosida musobaqa tashkil etsa bo‘ladi. Bunday musobaqada har ikki guruh a’zolari ham javob berishiga imkon beriladi, lekin eng tez va to‘g‘ri javob bergan guruh g‘alaba qozonadi.

Yozma nutq

3. Yuqoridagi topshiriqda berilgan so‘zlarni daftarga ko‘chirib yozish zarur. So‘zlarni ko‘chirib yozish ular haqida tasavvurni yana bir marta ongda gavdalantirishni talab qiladi, aynan mana shu narsa so‘z haqida ma’lumotning o‘quvchi miyasida yaxshiroq saqlanib qolishiga imkon beradi. Undan so‘ng o‘quvchilar shu so‘zlardan istalgan 4 tasini tanlab olishlari va ularni qatnashtirib gap tuzib, yozishlari kerak bo‘ladi. Aynan berilgan so‘zni qatnashtirib gap tuzish so‘z haqidagi tasavvurlarni maksimal boyitadi hamda uning nutqqa kirishiga zamin yaratadi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish orqali darsga kirishib olish tavsiya etiladi:

“Vatan” ertagining muallifi kim edi?

Ertakning birinchi qismida qanday voqealar sodir bo‘ldi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish. “Vatan” ertagining 1-qismi asosida

O‘qituvchi dastlab matnni ifodali o‘qib berishi mumkin, bu o‘quvchilar matn o‘qiyotganda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yishlariga yordam beradi. O‘qituvchi bir marta o‘qib bergach o‘quvchilar matnni ichlarida o‘qib olishlari uchun vaqt beriladi. Vaqt o‘tgach, o‘quvchilar bilan savol-javob boshlanadi.

Savol-javob

Darslikning 11-betida berilgan savollar asosida o‘tkaziladi.

Savol-javob nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi ertakning g‘oyasini tushuntirib berishi kerak.

O‘qib tushunish. Kontrast usuli

O‘quvchilar darslikning 13-betida berilgan ikkita parchani o‘qishlari kerak. O‘quvchilardan ikki tasvirning qanday farqlari borligi so‘raladi. Imkon bo‘lsa, xattaxtani ikki ustunga bo‘lib, birinchi hamda ikkinchi matnda tasvirlangan joy xususiyatlarini ajratib yozish mumkin (bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning javoblari asosida o‘zi yozadi). Masalan:

1-matn	2-matn
suvi ko‘p va toza	suvi yo‘q, sahro
gullar, daraxtlar ko‘p	birgina qurigan daraxt bor

Matndagi joylar tasviridagi farqlar tugagach, o‘qituvchi o‘rtaga “Nima uchun yozuvchi ertakda mana shunday ikki xil joyni tasvirlagan?” deya savol tashlaydi. O‘quvchilar turli javoblarni aytishi mumkin. O‘qituvchining vazifasi – ularni fikrlashga undab turish. Keyingi savol esa “Nega qushcha shunday chiroyli joylar turib, sharoiti og‘ir joyga borishni iltimos qildi?” qabilida bo‘lishi lozim.

O‘qituvchi xulosasi: bolajonlar, yozuvchi bu ikki joyning tasvirini keltirish orqali qushchaning vatanga muhabbatini yaxshiroq ochib berishni maqsad qilgan. Ertakda “Mana shunday yaxshi sharoitlarni tashlab ketish darajasida o‘z yurtini yaxshi ko‘rardi” degan g‘oya bor.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Mustaqillik, ozodlik, istiqlol deganda nimalarni tushunasiz?

Sizningcha, nima uchun davlatlar mustaqil bo‘lishi kerak?

Asosiy qism

Yozma nutq

4. O‘quvchilar darslikning 14-betida berilgan “Mustaqillik” matnini o‘qishlari va o‘z so‘zlari bilan qayta yozib berishlari kerak. O‘qituvchi matnni bir marta o‘qib berishi, undan keyin xohlovchilarga yana ikkinchi qayta o‘qitishi tavsiya etiladi.

O‘quvchilarga matnni ko‘chirish kerak emasligi, nimani tushungan bo‘lsa, mustaqillik deganda miyasida qanday fikrlar paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘shani yozib berishlari zarurligini tushuntirish lozim.

G‘AROYIB BOLALAR

(6 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: qobiliyat va iste’dodlarni yuzaga chiqarish jarayoni bilan bog‘liq tasavvurlarni kengaytirish, ushbu jarayonda faol qo‘llanadigan til birliklaridan foydalanishga o‘rgatish, berilgan mashq va topshiriqlar yordamida og‘zaki, yozma, o‘qib va tinglab tushunishga oid nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Bugungi nutqiy mavzu e’lon qilinadi.

“G‘aroyib bola” deganda qanday bola nazarda tutilayotgan bo‘lishi mumkin?

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“5 yoshida 500 ta kitob” audiomatni eshittiriladi.

Matn yuzasidan og‘zaki suhbat quriladi.

1. Iste’dodli bolalar tanlovi g‘olibi bo‘lgan bolakay qayerda yashaydi? Bu davlat haqida nimalarni bilasiz?

O‘quvchilar matnda eshitgan ma’lumotlari asosida ushbu savolga javob beradilar. Berilgan javoblarga izoh talab qilinadi. Agar o‘quvchi javob berishda adashsa, nima uchun shunday javob bergani so‘raladi. To‘g‘ri javob bergan o‘quvchilardan esa javobni qanday qilib bilib olgani haqida so‘rash lozim. Shundan so‘ng ushbu davlat haqida qo‘shimcha ma’lumotlar (qaysi davlat, kimlar yashashi, u yerga borgan yoki bormagani, ushbu davlat haqida nimalarni eshitgani) so‘raladi.

2. Lev Bondarenkoni unchalik qiziqtirmaydigan narsalar nima?

Savolga javob berishda o‘quvchilar matnda ochiq holatda berilgan ma’lumotni aytib berishlari lozim. Bu jarayonni o‘quvchilarning hayot tarzlari bilan bog‘lab ham olib borish mumkin.

3. Bolakayning do‘stlari haqida fikr bildiring.

Bu savolga javob berish biroz murakkabroq. Matnda bolakayning do‘sti sifatida ensiklopediya va turli mavzudagi kitoblar tilga olingan. Ushbu savolga javob berilgandan so‘ng qo‘shimcha tarzda bolaning haqiqiy do‘stlari haqida ham suhbat qurish mumkin. Masalan, “Siz uning do‘sti bo‘lib qolishni istaysizmi? U bilan nimalar haqida gaplashgan bo‘lar edingiz?” tarzidagi qo‘shimcha savollar bilan murojaat etish mumkin.

4. Lev nima uchun bog‘chadan xafa bo‘lib qaytdi?

Bu savolga javob berish jarayonida o‘quvchilar bolaning nima uchun bog‘chadan qoniqmasligi haqida fikr bildiradilar. O‘quvchilardan bu borada qo‘shimcha fikrlar so‘raladi. Lev uchun nimalar qiziqligi haqida gapirib berishni so‘rash mumkin.

5. Bolaning qiziqishlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

Matn asosida javob beriladi. O‘quvchilar ham o‘z qiziqishlari haqida gapirib berishlari mumkin. O‘zi qiziqqan ishlar bilan shug‘ullanishning maroqli tomonlari haqida suhbat quriladi.

6. Siz bir daqiqada nechta so‘z o‘qiy olasiz? Lev-chi?

Ushbu savolga javob berish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarda Levga o‘xshagan bolalar-

ga havas hissini uyg‘ota olishi, shunday bolalar qatoriga qo‘shilish uchun nimalar qilish kerakligi haqida suhbat olib borishi muhim.

7. Ayting-chi, Levning mashhur bo‘lishiga eng asosiy sabab qaysi?

Ushbu savolga javob berishda Levning onasi undagi mutolaaga bo‘lgan qiziqishni erta aniqlaganini hamda uni rivojlantirib borishga yordam bergani alohida ta’kidlanadi. Bundan tashqari, bolaning har bir qiziqishi javobsiz qolmasligi kerakligi haqida suhbat quriladi.

Yozma mashq

1. Audiomatn asosida ma’lumotlarning to‘g‘ri (T) yoki noto‘g‘ri (N) ekanini aniqlang. To‘g‘ri ma’lumotlarni daftaringizga yozib oling.

O‘quvchilar tinglagan ma’lumotlarini qay darajada tushunganlarini aniqlash uchun ushbu topshiriqni bajaradilar. Topshiriq bajarilgach, berilgan ma’lumotlarni o‘quvchilar bilan birgalikda muhokama etish kerak. Noto‘g‘ri deb topilgan ma’lumotlar aslida qanday ekani so‘raladi. Bunda topshiriqning qaysidir qismini xato bajargan o‘quvchi uni nima uchun xato bajarganini tushunib olishiga yordam berish kerak.

1. To‘g‘ri. 2. Noto‘g‘ri. 3. Noto‘g‘ri. 4. To‘g‘ri. 5. Noto‘g‘ri. 6. To‘g‘ri.

Fonetika

2. Berilgan so‘zlarni o‘qing, qator undoshli so‘zlarni aniqlang.

Buning uchun avval o‘qituvchi o‘quvchilardan qator undoshli so‘zlar qanday bo‘lishi haqida ma’lumot so‘raydi, o‘quvchilarning fikrlarini umumlashtirib, qator undoshli so‘zlarga xos bo‘lgan qoidani eslatadi. Har qanday yonma-yon kelgan undosh tovushlar qator undoshli so‘zni hosil qila olmasligi tushuntiriladi. Masalan, kitobxon so‘zi qator undoshli so‘z emas, chunki so‘zdagi “b” va “x” tovushi yonma-yon kelgan bo‘lsa-da, so‘zni bo‘g‘inga ajratganimizda ular alohida bo‘g‘inlar tarkibiga o‘tadi.

Vun-der-**kind, mult-film,** far-**zand.**

Yozma mashq

2. Matndan olingan quyidagi so‘zlarni o‘qing. To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlab, ko‘chiring.

Ushbu mashq xattaxtada bajariladi. O‘quvchilar qaysi so‘zning to‘g‘riligini topadilar, xato deb o‘ylagan so‘zlarining to‘g‘ri shaklini ham yozib ko‘rsatadilar.

Farzand, kitob, kitobxon, ko‘p, g‘aroyib, mehnat.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quvchilarning diqqati darslikdagi suratga qaratiladi. Topshiriqlarni bajarishga kirishishdan oldin surat hamda ma’lumotlar bilan tanishish uchun vaqt beriladi. Shundan so‘ng qisqa og‘zaki suhbat quriladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmlar va qisqa ma’lumotlarga diqqat qiling. Tanishgan ma’lumotlaringiz asosida og‘zaki hikoya tuzing.

1. Sizningcha, rasmdagi qahramon kim va u qayerlik?

Savolga javob berish uchun o‘quvchi rasm va ma’lumotni diqqat bilan kuzatgan bo‘lishi kerak. Shu o‘rinda bolaning tashqi ko‘rinishiga e’tibor qaratiladi. Qahramonning ismi va uning qayerlik ekanligi alohida aytiladi. Ismlarning yozilishi bosh harf bilan va joyga mansublikni ifodalovchi so‘zlar (koreyalik, toshkentlik, farg‘onalik) kichik harflar bilan yozilishiga e’tibor qaratiladi.

2. Uni g‘aroyib bola deb atash mumkinmi? Nima uchun?

Bu o‘rinda berilgan ma’lumot nutqiy mavzu bilan bog‘langanini anglatish lozim. Bolaning g‘aroyib sifatlari alohida ta’kidlanadi.

3. U qaysi soha olimi bo‘lgan?

Qaysi fanlarga qiziqqanligi, qaysi sohaning mutaxassisi bo‘la olishi haqida suhbat quriladi. O‘quvchilar o‘zlaridagi sifatlarni taqqoslashi, ularni nima hayratlantirgani haqida gapirib berishlariga imkon beriladi.

4. Ayting-chi, Ginnesning rekordlar kitobiga kimlar kiritiladi?

Ushbu savolga javob berish uchun Ginnesning rekordlar kitobi haqida qanday ma’lumotlarga egaligi haqida o‘quvchilardan so‘raladi, kitobda qanday ma’lumotlarni uchratish mumkinligi haqida suhbat olib boriladi. O‘qituvchi qo‘shimcha ma’lumotlar beradi. Shundan so‘ng ushbu bolakayning Ginnesning rekordlar kitobiga nima uchun kiritilgani so‘raladi. O‘quvchilar o‘zlari ham kelajakda qaysi iste’dodi bilan ushbu kitobdan joy olishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishlari so‘raladi.

Shundan so‘ng berilgan surat va ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lab matn tuzish topshirig‘i bajariladi.

G‘aroyib bolalar (vunderkind – ajoyib bola) so‘zining ta’rifi tushuntiriladi. Yuqoridagi ma’lumotlar bilan bog‘lanadi.

Yozma mashq. Leksikologiya

3. Siz uchun qaysi so‘zlar notanish? Ularni yozib oling.

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchilar *fizika fanlari doktori, universitet, Xanyon, Ginnesning rekordlar kitobi* kabi so‘zlarni ajratib oladi. O‘qituvchi ushbu so‘zlarning izohini berishga tayyorlanishi kerak.

4. Rasmdagi qahramon haqida bitta fikr yozing.

Topshiriq yozma bajariladi, agar o‘quvchilar biryo‘la matn tuzish topshirig‘ini bajarmoqchi bo‘lsalar, o‘qituvchi ma’lumotlarni tartib bilan keltirish uchun ko‘rsatmalar berishi kerak.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘zbek allomalari, mashhur insonlardan kimlarni bilasiz? Ularning bolaligi haqida ham ma’lumotga egamisiz? Ular qanday bolalar bo‘lgan?

Asosiy qism

Og‘zaki tushunish

Darslikda berilgan matn bir necha marta o‘qittiriladi.

1. Alisher Navoiy bolaligida qanday sifatlarga ega bo‘lgan ekan?

Alisher Navoiyning matnda berilgan sifatlari alohida ta’kidlanadi. Qanday mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishni yoqtirgani, ushbu sifatlar Navoiyning qanday bola ekanidan darak berishi haqida suhbat olib boriladi.

2. Otasi nima uchun uni erta maktabga berdi?

Navoiyning iste’dodi haqida gapiriladi, maktabga borishi haqida berilgan ma’lumot matnning qaysi qismida berilayotganiga e’tibor qaratiladi.

3. Alisherlar oilasining Hirotdan ko‘chib ketishiga nima sabab bo‘libdi?

Matnda ochiq holda berilgan ma’lumotni aniqlash va aytib berish so‘raladi.

4. Alisher uyqudan uyg‘ongach, nima uchun qo‘rqib ketdi?

Ushbu savolga javob berishda o‘quvchilar bola Alisherning ko‘nglidan o‘tgan tuyg‘ular haqida gapirib berishlari kerak bo‘ladi. Keyingi soatda shunga o‘xshash vaziyatda kim o‘zini qanday tutgani haqida suhbat olib boriladi.

5. Alisher ota-onasini qanday qilib topdi?

Alisher ota-onasini topishda nimalarga e’tibor qaratgani haqida gapirilib, ushbu narsalar uning qanday bola ekanidan darak berishi haqida so‘raladi.

6. Alisherni g‘aroyib bola deb o‘ylaysizmi? Nima uchun?

Alisher g‘aroyib bola ekani bilan bog‘liq faktlar aytiladi.

7. Siz ushbu matnga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?

Ushbu matn uchun sarlavha qo‘yish so‘raladi, taklif etilayotgan sarlavhalar izohlanishi kerak bo‘ladi. Eng ma’qul sarlavhani tanlash uchun o‘quvchilardan fikr so‘raladi.

Yozma mashq. Imlo

Matndan “x” va “h” harflari ishtirok etgan so‘zlarni aniqlang va talaffuz qiling. Daftaringizga yozing:

Namuna: *nihoyatda, Hirot, ham, havo, darhol, mehr, yaxshi, uxlab, xursand.*

Daftarga so‘zlar yoziladi, o‘qituvchi avval ularga ushbu so‘zlarni kitobni yopgan holda aytib turib yozdirishi, keyin esa tekshirish imkonini berishi mumkin. Yoki matndagi so‘zlardan tashqari yana 10 ta shunday so‘zni yozdirishi ham tavsiya etiladi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘tilgan darsda o‘qilgan matn yodga solinadi.

Asosiy qism

Og‘zaki tushunish

Matn asosidagi topshiriqlarni bajaring.

Matn asosida 2 ta to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.

Variantlarda berilgan har bir javobning to‘g‘ri yoki xato ekani matnda berilgan ma’lumotlar yordamida izohlanishi kerak.

Alisher o‘qishni Hirotda boshlagan.

Alisher uch yoshidan musiqa, she’r eshitishni yaxshi ko‘rgan.

Yozma nutq

6. Matn xatboshilariga mos sarlavhalarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiring.

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchilar avval matn qismlari uchun berilgan sarlavhalar haqida o‘ylab ko‘rishlari lozim, shundan so‘ng matnda berilgan ma’lumotlarning o‘zaro ketma-ketlikda berilishiga e’tiborni qaratadi.

1. Zehnli bola
2. Ko‘chish
3. Tundagi voqea
4. Aqlli qaror

Savol-javob

3. Siz ham murakkab vaziyatga tushib qo‘rqib ketganmisiz? Qanday yo‘l tutgansiz?

O‘quvchilar hayotda Alisherning holati bilan o‘xshash vaziyatga qachonlardir tushgan bo‘lsalar, shu haqida so‘zlab berishlari kerak. Bunday vaziyatda o‘zlarini qanday tutganliklari haqida so‘raladi. O‘qituvchi suhbat jarayonida o‘quvchilar vaziyat bilan bog‘liq his-tuyg‘ularini ifodalash uchun qo‘llayotgan til birliklariga e’tibor qaratib turadi, ularga so‘z tanlashda yordam beradi.

Yozma mashq. Leksikologiya. Fonetika. Imlo

7. Gaplardagi ajratilgan qismlarning ma’nosini aniqlang va ko‘chirib yozing.

Gaplarda ajratilgan so‘zlarning ma’nolari berilgan izohlar yordamida aniqlanadi va daftarga ko‘chirib yoziladi.

Tiyrak – ziyrak, hushyor.

Karvon – uzoq joylarga yuk va odam tashiydigan, izma-iz yuradigan hayvonlar, aravalar va ularni boshqarib boradigan odamlar qatori.

Darhol – tez, darrov.

Sinchkov – hech narsani e’tibordan qoldirmaydigan.

2. Matndan olingan quyidagi so‘zlarni talaffuz qiling va yozing. Talaffuz va yozuvda qanday farq bor?

Aqlli, to‘rt, nihoyatda, xursand, mehr.

Ushbu mashqni bajarish jarayonida o‘quvchilarga qo‘sh undoshli so‘zlardagi undosh tovushlarning talaffuzi, ayrim so‘zlar tarkibida qator undoshlarning talaffuz qilinmasligi, “h” va “x” tovushlarining talaffuzi bilan bog‘liq qoidalar eslatiladi, boshqa shunday so‘zlar misol tariqasida keltiriladi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Berilgan she’rning sarlavhasiga e’tibor qaratiladi.

Asosiy qism

O‘qib tushinish

She’r matnini bir necha o‘quvchi ifodali o‘qiydi. Shundan so‘ng o‘qituvchi she’rni qayta ifodali qilib o‘qib beradi.

1. Ayting-chi, aql qayerda bo‘ladi?

Ushbu savolga javob berishda o‘quvchilar o‘zlarida bor ma’lumotlarni she’r matnida berilgan ma’lumotlar bilan qiyoslaydi. “Aql miya yoki boshda bo‘ladi” mazmunidagi javoblarni qabul qilish mumkin. Shu o‘rinda aqlning boshda yoki miyada bo‘lishi bilan bog‘liq oilada, ko‘cha-ko‘yda ishlatiladigan iboralar, maqollar yodga solinishi maqsadga muvofiq.

2. Bola nimaga hayron bo‘ldi?

She’r matni asosida bolaning bergan javoblari izohlanadi.

3. Odam nimalarni asrab-avaylashi kerak?

Avval she’r mazmuni asosida javob beriladi, keyin esa odamlar yana nimalarni asrab-avaylashi kerakligi haqida suhbat olib boriladi. Masalan, sog‘likni, vaqtni, ota-onani....

4. Aqlning ozuqasi nima deb o‘ylaysiz?

Aql nimalar bilan oziqlanishi haqida suhbat olib boriladi. Shu o‘rinda telefondan foydalanish, mobil o‘yinlar, ularning inson miyasiga ta’siri haqida suhbat olib boriladi. Aqlni to‘ldirib borish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

5. Harakatlanmagan narsa haqiqatan ham yaroqsiz bo‘lib qoladimi?

Ushbu savolga javob berishda hayotiy kuzatuvlar yordam berishi mumkin. Narsa-buyumlar ishlatilmasa, ular bilan nimalar ro‘y berishi mumkinligi haqida so‘raladi. Ushbu vaziyatlar aqlning ishlatilishi bilan bog‘lanadi.

6. “Aql yoshda emas, boshda!” maqolini izohlang.

Maqolga izoh so‘ralganda, ushbu she’r bilan bog‘liq jihatlari ham ochib berilishi maqsadga muvofiq.

Yozma mashq. Leksikologiya. Punktuatsiya

9. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar bilan ularning izohini moslab daftaringizga yozing.

Berilgan so‘zlarning izohlari aniqlanadi. Shundan so‘ng ushbu izohlar she’r matni yordamida tahlil qilinadi. Ushbu so‘zlar she’rda qanday ma’no bildirayotganini anglashga qaratilgan suhbat olib boriladi.

Mayib – shikastlanish sababli asl holatini yo‘qotish.

Zina – yuqoriga va pastga tushish qurilmasi.

Javohir – qimmatbaho boylik.

Aksari – ko‘pincha.

Noyob – bebaho, ko‘p uchramaydigan.

10. She’rdan bolaning gaplarini ajratib yozing. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘ying.

Ko‘chirma gaplarni yozish bilan bog‘liq qoidalar tushuntiriladi. Bir nechta turli shakldagi misollar keltiriladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar mashqni bajaradilar.

Savol-javob

Shoir bosh, miya va harakatni nimalarga o‘xshatgan? Rasmlardan toping va moslang. Tanlovingizni izohlang.

Bosh – xazina	Miya – sirli xum	Harakat - zina

Shoirning tanloviga munosabat so‘raladi, yana qaysi she’rlarda shunday o‘xshatishlarga duch kelganligi haqida gapirib berish so‘raladi.

She’rni yod olishni uyga vazifa sifatida berish mumkin.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yozma ijodiy faoliyat olib borilishi haqida aytiladi.

Asosiy qism

Yozma nutq

11. O‘tilgan mavzular asosida o‘quvchilar o‘zlari eshitgan yoki o‘qigan matnlaridagi g‘aroyib bolaga xat yozish topshirig‘ini bajaradilar.

O‘tilgan mavzular davomida qanday qahramonlar haqida bilib olganliklari yodga solinadi. Ularning g‘aroyibligi nimada ekani, o‘ziga xos fazilatlari haqida suhbat quriladi.

O‘quvchilar ushbu jarayonda erkin fikrlay olishlariga, u bilan nimalar haqida suhbat qurish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishlariga imkon yaratiladi.

Qolaversa, matnni yozish uchun berilgan ko‘rsatmalarga ham e’tibor qaratish so‘raladi. Xat boshlanmasini yozish uchun o‘qituvchi tomonidan bir nechta shakl tavsiya sifatida beriladi.

Matnda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til birliklarining imlosi xattaxta yoki elektron doska orqali namoyish etilishi maqsadga muvofiq. Ammo xatning aynan bitta namunasi berilmasligi kerak. O‘quvchilardan qaysi so‘zni yozishda ikkilanayotganlari haqida tez-tez so‘rab turiladi.

Berilgan topshiriqni bajarishda muammoga duch kelayotgan o‘quvchilarga alohida shaklda kerakli amaliy tavsiyalar berib boriladi.

O‘quvchilar ijodiy ishlarining taqdimoti bo‘lib o‘tadi, ularga munosabat bildiriladi va baholanadi.

JAMOAT TRANSPORTI

(6+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarga jamoat transporti, ularning ijtimoiy ahamiyati haqida tushuncha berish, jamoat joylarida o‘zini tutish va muomala qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, transport va unga oid til birliklarini faollashtirish, joy nomlarining imlosi, olinma so‘zlar hamda qator unlili so‘zlarni talaffuz qilish, iltifot va murojaat so‘zlarini qo‘llash, manzilni ko‘rsatish va so‘rash jarayoniga doir til birliklaridan og‘zaki va yozma shaklda foydalana olish, yangi so‘zlar ma’nosini kontekstdan aniqlash hamda berilgan mavzu yuzasidan yozma matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar bo‘lim hamda yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirib olish uchun o‘quvchilar bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilinadi:

1. *Transport nima?*

2. *Jamoat transporti deganda nimani tushunasiz?*

O‘quvchilarning javobi tinglangach, transport – yuk va aholini tashish bilan shug‘ullanuvchi vosita, jamoat transporti deganda esa aholining ma’lum qismi birgalikda foydalanadigan transport turi tushunilishi aytiladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmlarga qarang. Jamoat transporti turlarining nomini toping. Ularning o‘xshash va farqli jihatlarini ayting.

Ushbu topshiriqda o‘quvchilar rasmlarga qarab qanday jamoat transporti turlari borligi, transportlarning tashqi ko‘rinishi va qanday harakatlanishi orqali o‘xshash va farqli jihatlari haqidagi tasavvurlarga ega bo‘ladi hamda quyidagi savollarga javob berishlari talab etiladi:

DIQQAT!

Savollar har bir o‘quvchiga alohida beriladi. Savol va javobning takror bo‘lib qolishi ahamiyatsiz, bunda o‘quvchilarni darsga jalb etish hamda har bir o‘quvchining nutqini nazorat qilish va o‘stirish muhimligi nazarda tutiladi. Savollarga to‘liq javob bo‘lmasa, o‘qituvchi to‘ldirib boradi.

Leksikologiya

1. Bu transportlarning qaysilarini bilasiz? Qaysilaridan foydalangansiz?

Ushbu savolga o‘quvchilar rasmlarga qaragan holda, o‘zlariga tanish bo‘lgan transport turining nomini, qanday harakatlanishini hamda qaysi bir transport vositasidan foydalanganini aytib berishi lozim.

O‘quvchilar to‘liq javob bermasa, o‘qituvchi rasmda berilgan jamoat transportlari haqida ma’lumot berib o‘tadi:

• ***Avtobus*** *– yo‘lovchilarni tashiydigan ko‘p o‘rinli avtomobil. Katta yo‘lda harakatlanadi.*

• ***Metro*** *– yer ostida elektr temir yo‘li orqali harakatlanadigan poyezd. Yo‘lovchilarni tashishga xizmat qiladi. Uning yer ustida harakatlanuvchi shakli ham bor.*

• ***Tramvay*** *– elektr kuchi bilan ishlaydigan, bir yoki birdan ortiq vagondan iborat, yo‘lovchi tashuvchi shahar temir yo‘l transporti.*

• ***Samolyot*** *– yo‘lovchilar va yuklarni tashishga mo‘ljallangan, havoda harakatlanadigan transport.*

• ***Trolleybus*** *– elektr kuchi bilan harakatlanadigan, yo‘lovchi tashiydigan avtomobil. Katta yo‘lda harakatlanadi.*

• ***Poyezd*** *– yo‘lovchilar va yuklarni tashishga mo‘ljallangan, bir-biriga ketma-ket ulangan avtomobil. Temir yo‘lda harakatlanadi.*

2. Nega ularni “jamoat transporti” deb ataymiz?

O‘quvchilar bu savolga javob berishda asosiy e’tiborni “jamoat” so‘ziga qaratishlari, uning ma’nosidan kelib chiqishlari lozim.

Bunda o‘quvchilarga “jamoat transporti” haqida quyidagicha qiyosiy ma’lumot berish maqsadga muvofiq:*“Velosipedni ko‘rgansiz, u bilan yo‘lda harakatlanish, uzoq joylarga borish, yuk tashish mumkin, u ham transport. Ammo uni jamoat transporti deyolmaymiz, chunki unda yolg‘iz harakatlanamiz. Demak, jamoat transporti deyilganda, ko‘pchilik harakatlanadigan transport tushuniladi”.*

3. Sizningcha, jamoat transportining eng muhim vazifasi nima?

Bu savolga o‘quvchilar yuqorida berilgan javoblarni umumlashtirib, jamoat transportining asosiy vazifasi insonlarni boradigan manzillariga sog‘-salomat va o‘z vaqtida yetkazish ekanini aytib berishlari lozim.

4. O‘ylab ko‘ring, nega taksi jamoat transporti hisoblanmaydi?

Bu savolga o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari hamda yuqorida tanishgan ma’lumotlari asosida javob berishlari lozim. Bunda o‘quvchilar taksini boshqa transport vositalari bilan taqqoslab, taksi yengil avtomobilda insonlarni manziliga yetkazish bilan shug‘ullanadigan transport vositasi ekani, ammo u ko‘pchilik insonlarga emas, balki bir yoki ikkita yo‘lovchiga xizmat qilgani hamda boradigan manzili o‘zgarib turgani uchun jamoat transporti deyilmasligini aytib berishi lozim**.**

5. Sizga qaysi transport ko‘proq yoqadi? Nima uchun?

Bu savolga o‘quvchilar erkin fikrlab javob berishlari nazarda tutilgan. Ular hayotiy kuzatishlari asosida o‘zlariga yoqqan transport vositasini aytib berishlari lozim.

Rasmlarga izoh bering.

Darslikda to‘rt xil vaziyat aks ettirilgan rasm berilgan. O‘quvchilar rasmdagi holatlarni izohlashlari hamda har bir vaziyatga munosabat bildirishlari lozim.

O‘quvchilar rasm bilan tanishib chiqqanlaridan so‘ng ularga rasmdagi holatlarni ochishga qaratilgan savollar bilan murojaat qilinadi:

1. *Rasmda qayer tasvirlangan?*

2. *Buvi nega tik turibdi? Uning shu holatda ketishi o‘rinlimi?*

3. *Bola nima bilan shug‘ullanyapti? Uning bu holati yaxshimi?*

4. *Bolaning o‘rnida bo‘lganingizda, nima qilgan bo‘lardingiz?*

5. *Bolalar nega bir-birlariga taajjublanib qarashyapti? Ularning qo‘llarida nima bor?*

6. *Jamoat transportiga yegulik bilan chiqish to‘g‘rimi? Nima uchun?*

7. *Bolalar nima qilishyapti? O‘rindiqqa oyoq kiyim bilan chiqish mumkinmi?*

8. *Nega mo‘ylovli amaki bolalarga jahl bilan qaradi?*

9. *Sizningcha, jamoat transportiga aravacha bilan chiqish mumkinmi? Nima uchun?*

Bu rasm asosida tashkillashtirilgan suhbatning asosiy maqsadi o‘quvchilarni munozara jarayoniga tayyorlash, og‘zaki nutqini shakllantirish bilan birga jamoat transportida uchrab turadigan vaziyatlar bilan tanishtirish hamda bu holatlarning o‘rinsiz ekanini rasmni kuzatish hamda unga munosabat bildirish orqali xulosalab, o‘zi anglab yetishiga erishish.

Yozma nutq

1. Jamoat transportida yo‘lovchilar o‘zini qanday tutishi kerak? Bu haqida do‘stlaringiz uchun tavsiyalar yozing.

Bu topshiriq mashq daftarida bajariladi. O‘quvchi bu topshiriqni bajarishda dars davomida o‘zlashtirgan ma’lumotlari hamda hayotiy kuzatishlariga tayangan holda do‘stlariga tavsiya yozishi lozim.

Mashqni bajarib bo‘lgach, har bir o‘quvchiga yozgan tavsiyalari o‘qitiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning og‘zaki nutqi va yozma savodxonligini tekshiradi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quvchilarning diqqatini darsga qaratish hamda mavzuga olib kirish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. *Hikmat deganda nimani tushunasiz?*

2. *Kattalarning nasihati bizga nima beradi?*

O‘quvchilarni aniq javobga yo‘naltirish uchun hayot bilan bog‘lagan holda qo‘shimcha savollar beriladi: *“Darsingizni o‘z vaqtida bajarmasangiz, darsdan kechikib borsangiz, ustingizni kir qilsangiz, qo‘llaringizni tozalab yuvmasangiz, oila a’zolaringiz nima deyishadi? Bu holatda ulardan qanday gaplar eshitasiz? Ular aytgan gaplarni to‘g‘ri deb hisoblaysizmi? Nima uchun?*

O‘quvchilarning javoblari tinglangach, ularga hikmat – aql-zakovat, donolik va uning ifodasi bo‘lgan gap-so‘z, fikr ekanligi, nasihat – bolalarni tarbiyalash, tartibli-intizomli bo‘lishlari va xato qilmasliklari uchun kattalar aytadigan so‘z ekanligi tushuntiriladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikning 24–25-sahifalaridagi “Uch hikmat” hikoyasining 1-qismi o‘qiladi. O‘quvchilar ushbu hikoyani avval ichlarida o‘qib olishlariga vaqt beriladi. Keyin o‘quvchilar hikoyani navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Sinfdagi hamma o‘quvchi ovoz chiqarib o‘qishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘qishlarini nazorat qilib boradi.

O‘quvchilar o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi hikoyani bir marta ifodali qilib o‘qib beradi.

Yozma nutq

2. O‘qigan matningiz asosida beshta savol tuzib, yozing. Partadoshingiz tuzgan savollarga yozma javob bering.

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. O‘quvchilar “Uch hikmat” hikoyasi mazmunidan kelib chiqib savol tuzishlari lozim. O‘qituvchi har bir o‘quvchi mustaqil ravishda savol tuzishini nazorat qiladi.

O‘quvchilar savol tuzib bo‘lgandan so‘ng daftarlarini partadoshlari bilan almashadilar hamda partadoshlari tuzgan savolga javob yozadilar. Bu jarayonda o‘quvchining o‘z partadoshi bilan aloqaga kirishishi, savollarini tushunishi, matn mazmunidan kelib chiqib javob yoza olishi, partadoshining savoliga munosabat bildirishi muhim.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarda “Uch hikmat” hikoyasini tushunish, matnga munosabat bildirish, matn mazmuniga mos savol tuzish ko‘nikmasini shakllantirish asosiy maqsad qilib belgilangan.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, “Uch hikmat” hikoyasi qahramoni Farhod buvisi bilan nimalar haqida suhbatlashdi?

Ushbu savol orqali o‘quvchilarning “Uch hikmat” hikoyasini yodga olishlari nazarda tutiladi. O‘quvchilar javob berib bo‘lgach, “Uch hikmat” hikoyasining keyingi qismi bilan tanishish boshlanadi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish.

Sizningcha, hikoyaning davomida nimalar sodir bo‘ladi?

O‘quvchilarning javoblari tinglangach, darslikda berilgan “Uch hikmat” matnining 2-qismi bilan tanishib chiqishlari aytiladi. Bunda o‘quvchilar bir yoki ikki gapdan o‘qigan holda matnni o‘qib chiqishadi. Bir o‘quvchi o‘qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi kerak.

Matn 2–3 marta qayta o‘qib bo‘lingach, savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Avtobusga chiqqanda yana qaysi qoidalarga amal qilish kerak?

Bu savolga o‘quvchilar mavzu davomida egallagan bilimlari, hayotiy kuzatishlari hamda matn mazmunidan kelib chiqib javob berishlari zarur.

2. Farhod nima uchun mamnun kayfiyatda maktabga kirib keldi?

Bu savolning javobi matnda aniq bitta so‘z bilan ifodalanmagan. O‘quvchi javob berishda matn mazmunidan kelib chiqishi lozim. Bunda o‘quvchida savol orqali matn mazmuniga murojaat qilinayotgan qismni topa olish ko‘nikmasini shakllantirish maqsad qilib olingan.

3. Nima uchun hikoya “Uch hikmat” deb nomlangan?

Bu savolning javobi ham matnda aniq ifodalanmagan. O‘quvchi bu savolga matndan olgan xulosasi asosida javob beradi. Bu jarayonda o‘quvchi hikoya qahramonlari Farhod bilan buvisining suhbatlarini tushunib, buvisining aytgan gaplari Farhodga kundalik hayotida yordam bergani, buvisi aytgan so‘zda donolik, aql-zakovat va insonga foyda keltirishi mumkin bo‘lgan hikmat borligini tushunib, aytib bera olishi lozim. Ya’ni buvi o‘z nabirasiga jami uchta hikmat aytgan va bularning bari bir kunda foyda bergan.

4. Tasavvur qiling, avtobusga bir vaqtda keksa onaxon, qari otaxon va qo‘lida chaqaloq ko‘targan ayol chiqib qoldi. Farhod bularning qay biriga joy berishi kerak? Nima uchun?

Bu savol o‘quvchidan matn mazmuni asosida erkin fikrlashi, mantiqan o‘ylab javob berishi va aytgan javobini izohlab berishini talab qiladi. Bola bu savolga javob topish orqali hayotda shunday vaziyatga duch kelganda to‘g‘ri munosabat bildirishni o‘rganadi, ya’ni o‘zi shunday vaziyatda qanday yo‘l tutishi haqida ham o‘ylab ko‘radi.

5. Nima deb o‘ylaysiz, Farhod bugun 5 baho oladimi?

Bu savolning javobi matnda aynan keltirilmagan. O‘quvchi matnning umumiy mazmunidan kelib chiqib, mantiqan o‘ylab javob berishi lozim. Bunda o‘quvchilardan erkin fikrlab javob berish talab etiladi.

O‘quvchilar savollarga javob berib bo‘lgach, ularning javoblariga munosabat bildiriladi.

Yozma nutq

3. Buvisi Farhodga aytgan uchta nasihatni tartib bilan yozing.

Bu topshiriq mashq daftarida bajariladi. Matnda buvisi Farhodga aytgan nasihati aniq keltirilmagan. O‘quvchi matndagi gaplarning mazmunidan kelib chiqib, nasihat qilingan o‘rinlarni topib yozishi lozim. Bu jarayonda o‘quvchi matn bilan ishlaydi.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, o‘qituvchi yozma savodxonlik va mazmunini tekshiradi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Metro haqida bilasizmi? Uning boshqa transportlardan qanday farqi bor?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan “Metroda” she’ri hamda muallifi tanishtiriladi. O‘quvchilarga she’rni mustaqil, ovoz chiqarmay o‘qishlari aytiladi.

She’rni o‘qib bo‘lishgach, o‘qituvchi bir marta baland ovozda o‘qib eshittiradi. So‘ng 28-sahifadagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollarning javobi she’r matnida aks etgan. O‘quvchilar savollarga she’r matni mazmunidan kelib chiqib javob berishlari lozim. Bunda asosiy maqsad o‘quvchining o‘qib tushunish malakasini, badiiy didini shakllantirishdir. O‘quvchilar she’r matniga munosabat bildira olishi, so‘zlarni o‘zaro bog‘lab mazmun chiqara olishi hamda matn mazmunida qo‘llangan o‘xshatishlarni tushunib, his qilib aytib berishi nazarda tutilgan.

Bunda asosiy e’tibor **5- va 6-savollarga** qaratiladi. Bu savollarga o‘quvchi erkin fikrlab, mantiqan o‘ylab javob berishi lozim.

5-savolda so‘ralgan “Go‘zal edi, nafosatga boy edi” jumlasi tabiat tasviriga emas, balki holatga nisbatan, vaziyatga nisbatan qo‘llanganini bola tushunib aytib bera olishi lozim.

6-savolga esa bola hayotiy kuzatishlari asosida mantiqan o‘ylab javob berishi nazarda tutiladi. Bu savol o‘quvchini masalaning ikkinchi tomonini ham o‘ylab ko‘rishga undaydi.

Yozma mashq. Leksikologiya

4. Ajratilgan so‘zlar she’rda qanday ma’noda qo‘llanayotganini sinfda muhokama qiling. Bu so‘zlarning izohini daftarga yozing.


O‘quvchilar darslikda berilgan: boy, go‘zal, manzil, nafosat so‘zlari she’r matnida qanday ma’noda kelayotganini muhokama qiladi. Bu jarayonda so‘zlar doskaga yoziladi, ular qanday ma’nolarda kelishi so‘raladi va aynan she’rda qanday ma’noda qo‘llangani muhokama qilinadi.

Muhokamadan so‘ng, berilgan so‘zlarning izohini lug‘atdan topib, ko‘chirib yozishlari aytiladi.

Yozma nutq

5. Berilgan namunalar qatnashgan gaplar tuzing.

Darslikda quyidagi birliklar berilgan, o‘quvchilar ushbu birliklarni ma’nosini tushungan holda qo‘llab gap tuzishlari lozim.



O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lgach, ularning imlosi, gapni mantiqan to‘g‘ri shakllantirishi tekshiriladi. Bu topshiriqning asosiy maqsadi o‘quvchilarda turli xil vaziyatlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan murojaat birliklari ma’nosini tushunish va qo‘llash holatlari haqida ma’lumot berishdan iborat.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, siz qanday jamoat transportidan foydalanasiz?

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“Ilk jamoat transporti” audiomatnini tinglang.

Audiomatn eshittirilgach, darslikning 44-sahifasidagi savollar beriladi.

Bu savollar orqali o‘quvchilarning eshitib tushunish ko‘nikmasi tekshiriladi. Savollarning javobi audiomatnda berilgan. O‘quvchilar savolni o‘qib, audiomatnni mulohaza qilib, hayotiy kuzatishlari asosida javob berishi lozim.

Yozma mashq

Transport va unga bog‘liq ma’lumotlarni moslashtiring.

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. O‘quvchilar audiomatn asosida jumlalarni moslashtirb aytib berishi lozim.

Bu topshiriqdan asosiy maqsad o‘quvchining audiomatn tarkibidan ma’lumotni ajrata olishi hamda ushbu ma’lumotga munosabatini shakllantirishdan iborat.

Javob:

1. ***Tramvay*** *– Toshkentdagi ilk jamoat transporti. 1901-yili ishga tushirilgan.*

2. ***Avtobus*** *– 1909-yildan Toshkent ko‘chalari bo‘ylab yura boshlagan. Dastlab 10 dona bo‘lgan. Hozir poytaxtimizda 150 dan ortiq yo‘nalishda yo‘lovchilarga xizmat qilmoqda.*

3. ***Metropoliten*** *– O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib 1977-yilda foydalanishga topshirilgan. Elektr toki bilan harakatlanadi.*

4. ***Trolleybus*** *– Toshkent shahrida 2010-yilda harakati to‘xtatilgan.*

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, siz maktabga qanday kelasiz? Kelish davomida qanday binolarni uchratasiz?

Asosiy qism

Muhokama. Og‘zaki/yozma nutq.

6. Yo‘nalishni to‘g‘ri tuzib chiqing.

Darslikda juda qiziqarli xarita berilgan. O‘quvchilarga xarita haqida ma’lumot beriladi: *“Sizga havola etilayotgan xaritada bolalarning maktabga borish yo‘llari berilgan. Ko‘rib turganingizdek, qiz bolaning borish yo‘li qizil rangda,*

og‘il bolaniki ko‘k rangda. Siz ixtiyoriy ravishda ulardan birini tanlab, bolalarning yo‘l davomida bosib o‘tadigan manzillarini bog‘lab gaplar tuzing hamda gaplarni mazmunan bog‘lab matn ko‘rinishida yozing”.

Bolalar mashqni yaxshiroq tushunib olishi uchun xarita asosida qisqacha suhbat tashkil etish ham mumkin.

Muhokama

Xaritadan biror joyni ko‘rsatib, partadoshingizdan bu joyga qanday borish mumkinligini so‘rang.

Bu mashq o‘quvchilarda o‘zaro hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunda o‘quvchi o‘z partadoshidan darslikda berilgan xaritadan biror manzilga borishni tushuntirishni so‘raydi, partadosh sherigi esa bu manzilga borish yo‘llarni aytib berishi lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning og‘zaki nutqini kuzatib boradi.

MUSTAHKAMLASH

Nutqiy mavzu yakunlangach, mustahkamlash darsi bo‘lib o‘tadi. Unda berilgan topshiriqlar o‘quvchining fan yuzasidan tutgan daftariga bajariladi. Topshiriqlar o‘tilgan nutqiy mavzu doirasida berilgan. O‘quvchilar og‘zaki va yozma holatda topshiriqlarni bajarishi lozim.

Asosiy qism

Muhokama

Ayting-chi, qanday jamoat transporti turlari haqida ma’lumotga ega bo‘ldingiz? Sizningcha, qaysi jamoat transportidan foydalanish qulay? Nima uchun?

Bu topshiriq og‘zaki suhbat asosida tashkil qilinadi. O‘quvchilarning har biridan savolga munosabat so‘raladi. Bunda o‘quvchilar nutqiy mavzu davomida egallagan bilimlari asosida tanishgan transportlari haqida ma’lumot aytib bera olishlari hamda foydalanish qulay deb hisoblagan jamoat transportlarining afzalliklarini erkin fikrlab aytib berishlari lozim.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqi, olinma so‘zlarni talaffuz qilishi, narsalarning amaldagi harakatlaridan xulosa chiqarib, munosabat bildira olishi tekshiriladi.

Yozma nutq

Jamoat transportida uchraydigan holatlarni guruhlarga ajratib yozing.

Kattalarga joy berish, o‘rindiqqa suyanib ketish, yugurish, baland ovozda suhbatlashish, salom berish, taom yeb ketish, yo‘l berish, chiqishga qiynalganlarga yordam berish, pul to‘lash, quloqlik taqib olish.

O‘rinli holat	O‘rinsiz holat
salom berish	yugurish

Bu topshiriqni har bir o‘quvchining o‘zi mustaqil bajaradi. Bunda o‘quvchilar hoshiya ichida berilgan jumlalarni o‘qib, mulohaza yuritgan holda guruhlarga ajratib yozishlari lozim.

O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lgach, har bir o‘quvchining yozganlari tekshiriladi hamda nima uchun o‘rinli va nima uchun o‘rinsiz deb hisoblashlari so‘raladi.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning jumlalar mazmunini tushunishi, transportdagi vaziyatlar haqida ma’lumotni o‘zlashtirilgani hamda imlosi tekshiriladi.

Tasavvur qiling, sizning transportingiz bor. U qanday bo‘ladi? U orqali odamlarga qanday yordam berasiz? Transportingizda qanday qonun-qoidalar joriy qilasiz? Ularni yozing.

Bu topshiriqda o‘quvchilar egallagan bilimlari asosida erkin fikrlab, o‘zlarining transportlarini qanday tasavvur qilishlarini yozib berishlari lozim. Bunda o‘quvchining so‘z qo‘llash mahorati, imlosi hamda so‘zlarni mazmunan bog‘lab, bog‘lanishli matn tuza olishi tekshiriladi.

O‘ZBEKISTONNING O‘ZIGA XOS TABIATI

(6+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: tabiat, atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, uni tasvirlash bilan bog‘liq jarayonda faol qo‘llanadigan til birliklaridan foydalanishga o‘rgatish, berilgan mashq va topshiriqlar yordamida og‘zaki, yozma, o‘qib va tinglab tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Bugungi nutqiy mavzu e’lon qilinadi.

1. Tabiat manzalarini kuzatishni yoqtirasizmi?
2. Sizni nimalar hayratlantiradi?
3. O‘zbekiston qanday tabiatga ega?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Xaritaga qarab O‘zbekistonning tabiati haqida suhbatlashing.

O‘quvchilar darslikda berilgan xarita va ma’lumotlarga e’tibor qaratadilar. Ma’lumotlar bir necha o‘quvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi.

1. Xaritaga qarab ayting-chi, O‘zbekiston qaysi davlatlar bilan qo‘shni ekan?

Berilgan ma’lumotlar ichidan chegaradosh bo‘lgan davlatlar bilan bog‘liq ma’lumot alohida ta’kidlanadi. Mamlakatlarning nomlari qanday talaffuz qilinayotganiga e’tibor qaratiladi.

2. Siz qaysi hududda yashaysiz? Xaritadan topib ko‘rsating.

O‘quvchilar xaritadan o‘zlari yashaydigan hududni aniqlab olishlari kerak. Agar o‘quvchilar buni aniqlashga qiynalsalar, hududlarning nomlari yozilgan xarita namoyish etilishi ham mumkin. Shu o‘rinda “viloyat” so‘zining ma’nosi haqida izoh berish kerak.

3. Yurtimizda qanday tog‘ tizmalari bor ekan?

O‘quvchilar berilgan ma’lumotlar ichidan tog‘lar bilan bog‘liq ma’lumotlarni topib, aytadi. Shu o‘rinda tog‘larga xos bo‘lgan “yastanib yotibdi” iborasining ma’nosi izohlanadi, qo‘shimcha misollar asosida tushuntiriladi.

4. Yurtimizdagi daryolarni ko‘rsating.

Berilgan ma’lumotlar ichidan daryolar bilan bog‘liq ma’lumotga e’tibor qaratiladi.

5. Cho‘lning nomini ayting.

Ochiq holatda berilgan ma’lumot aniqlanadi va og‘zaki tavsif beriladi.

6. Qurib borayotgan Orol dengizi haqida nimalar ayta olasiz?

Ushbu savolga javob berishda o‘quvchilar o‘zlari bilgan ma’lumotlarni aytishlari kerak bo‘ladi. Har bir o‘quvchi javoblarni tinglashi hamda turli-tuman ma’lumotlarni aytishi kerak. O‘qituvchi ham Orol dengizi bilan bog‘liq ma’lumotlarni eslatishi mumkin.

7. Yurtimizda yashaydigan hayvonlar va qushlar haqida nimalarni bilib oldingiz?

Berilganlar asosida javob topiladi. Qirilib ketganlik va qirilib ketish xavfi kabi hodisalarning mohiyati haqida so‘z boradi. Ushbu birliklar qachon, qanday vaziyatda qo‘llanishi haqida tushuncha beriladi.

Yozma mashq. Morfologiya

1. Yuqoridagi ma’lumotlar asosida quyidagi jadvalni to‘ldirib yozing.

Jadvalni to‘ldirishda berilgan ma’lumotlardan foydalaniladi. So‘zlarni guruhlarga ajratib yozishda nimalarga e’tibor berish kerakligi haqida suhbat olib boriladi. So‘zlarning so‘roqlari, ular ifodalayotgan ma’nolar so‘zlarni guruhlarga ajratish uchun asos bo‘lishi tushuntiriladi.

Muhokama

Ayting-chi, nima uchun ayrim so‘zlarni bosh harflar bilan yozdingiz?

O‘quvchilar o‘z javoblarini beradilar, o‘qituvchi xattaxtaga qanday so‘zlarni bosh harflar bilan yozish kerakligini berilayotgan javoblar asosida yozib boradi. Shundan so‘ng hosil bo‘lgan guruhlar asosida misollar topib yozish mashqi bajarilishi mumkin.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quvchilar audiomatnni tinglashga tayyorlanadilar. Matnning mavzusiga e’tibor qaratiladi.

O‘quvchilardan “xongul” deganda nima nazarda tutilayotgani haqida so‘raladi.

Asosiy qism

Tinglab tushunish

O‘quvchilar audiomatnni tinglashga tayyorlanadi. Kerakli o‘rinlarni o‘zlari uchun qulay usulda qayd etib borish mumkinligi aytiladi. Audiomatn eshittiriladi.

1. Avstraliya, Afrika va Xitoyning noyob hayvonlari qaysilar?

O‘quvchilar ushbu savolga javob berish uchun matnni diqqat bilan tinglagan bo‘lishlari kerak. Berilayotgan javoblarning umumiy bo‘lmasligiga e’tibor qaratish kerak. Har bir davlatdagi noyob hayvon alohida aytilishi maqsadga muvofiq.

2. Nega xongulni O‘zbekistonning eng noyob hayvoni deb bilamiz?

O‘qituvchi “noyob” so‘zining ma’nosi, Qizil kitob haqida ma’lumot beradi. Shu mavzuda suhbatlashadi. Shundan so‘ng berilgan savolga o‘quvchilar to‘liq javob beradilar.

3. Nega bug‘uning bu turiga “xongul” deb nom berilgan?

Matnda xongulning bunday atalashi sabablari keltirilgan. O‘qituvchi hayvonlarga nom berishda nimalarga e’tibor berish kerakligi haqida ayrim misollarni keltirib o‘tishi, o‘quvchilardan ham misol keltirishni so‘rashi mumkin.

4. Bug‘ularning qirilib ketishiga nima sabab bo‘ldi?

Matnda bug‘ularning qirilib ketishiga 2 ta sabab keltirilgan. Birinchisi – odamlarning hayvonlarni keragidan ortiq ovlashi, ikkinchisi – bug‘ularni yo‘lbarslar yeb qo‘yganligidir. O‘quvchilar o‘z tasavvurlaridagi ma’lumotlarni aytishi ham mumkin. Bunday holatda o‘qituvchi ularning fikrlarini ham tinglab, aynan mantnda qanday sabablar keltirilganini aytishni so‘rashi kerak.

5. Tarixda Buxoro bug‘ulari ko‘proq qaysi hududlarda yashagan?

Savol nima uchun “tarixda” so‘zi bilan boshlanayotganiga e’tibor qaratiladi. Esda saqlab qolingan ma’lumotlar asosida savolga javob beriladi.

6. Bug‘ularni asrab qolish uchun nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz?

Ushbu savolga o‘quvchilar tabiatni asrash haqidagi tasavvurlari asosida, qolaversa, matnda hayvonlarning yo‘qolib ketishiga sabab bo‘layotgan harakatlarning aksini bajarish orqali ularni saqlab qolish mumkinligini anglagan holda javob berishlari mumkin.

Yozma nutq

2. Harflarni to‘g‘ri joylashtirib, so‘zlarni yozing. Bosh harflar imlosiga e’tibor bering.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning bosh harflar imlosi hamda so‘zning hosil bo‘lishi bilan bog‘liq bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘quvchilar o‘zlari mustaqil holatda shunday so‘z o‘yinlariga misollar keltirishi ham mumkin.

Amudaryo, Sirdaryo, bug‘u, Zarafshon, Avstriya, Buxoro, panda.

3. Eshitganlaringiz asosida xongul haqidagi ma’lumotlarni yozing.

Ushbu topshiriq matnda berilgan ma’lumotlarni boshqa shaklda ifodalash hamda tinglab tushunish bilan bog‘liq ko‘nikmani rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarga savollarga qisqa va aniq javob yozish kerakligi aytiladi.

Munozara

Ayting-chi, qo‘riqxonada nimalar qo‘riqlanadi?

O‘quvchilar o‘rganganlari va o‘zlarida mavjud ma’lumotlar asosida savollarga javob beradilar. Qo‘riqxona mavzusida og‘zaki suhbat olib boriladi. Ushbu mavzu doirasida qo‘llanadigan til birliklarini tanlashga e’tibor qaratiladi.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

“Qo‘rqoq bug‘u” ertagi bilan tanishish aytiladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan matn bir necha marta o‘quvchilar yordamida o‘qib eshittiriladi.

1. Bug‘ularning majlis qilishdan maqsadi nima edi?

Matnda ochiq holatda berilgan ma’lumot aytib beriladi. Bug‘ularning muammosi, ushbu majlisda ular nimani hal qilmoqchiligi haqida suhbat olib boriladi.

2. Qo‘rqinchli maxluqqa aylanish uchun bug‘u nimalarni kiyib oldi?

Bug‘u boshiga ajdar niqobini kiygani, ustiga yo‘lbarsning yo‘l-yo‘l terisini yopib olgani, tuyoqlariga ayiqning o‘tkir tirnoqlarini bog‘lab olgani birma-bir aytiladi. Ba’zi bug‘ular qo‘rqinchli bug‘uni ko‘rgandan so‘ng qanday holga tushganlari haqida ham suhbat olib boriladi.

3. Bo‘rilar nega bug‘uning hiylasini bilib qolishdi?

Javob berish jarayonida o‘quvchilar matnda shu savolga javob bo‘ladigan qismni qayta o‘qib berishlari mumkin. So‘ng ushbu holatni o‘z so‘zlari bilan tushuntirishlari so‘raladi.

4. Sizningcha, bug‘ular qanday yo‘l tutishi kerak edi?

Bu savolga javob berishda o‘quvchining ijodiy fikrlay olish qobiliyati sinovdan o‘tkaziladi. O‘quvchilar muammoni hal qilishning bir necha xil usullarini tavsiya qiladi. Har bir berilgan usulning afzalliklari va kamchiliklari haqida suhbat olib boriladi. Eng yaxshi deb topilgan usul qaysi ekani aniqlanadi.

5. Jasurlik va qo‘rqoqlik deganda nimalarni tushunasiz? Misollar bilan o‘z fikringizni asoslang.

O‘qilgan matn asosida jasurlik, qo‘rqoqlik singari tuyg‘ular ta’riflanadi. O‘quvchilar hayotiy vaziyatlardan kelib chiqqan holda ushbu tuyg‘uni boshdan o‘tkazganda nimalarni his qilganlari haqida so‘zlab beradilar. So‘zlash jarayonida voqealarning ketma-ketlik bilan bayon etilishiga, so‘z va iboralarning o‘z o‘rnida qo‘llanishiga e’tibor qaratiladi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘tilgan darsda tanishilgan matn yodga solinadi.

Asosiy qism

Yozma mashq

Matn asosidagi topshiriqlarni bajaring.

4. Matn qismlarini to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiring.

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchilar matndagi ma’lumotlarning o‘zaro ketma-ketlikda berilishiga e’tibor qaratadi.

Ayniqsa, xulosa qismiga alohida e’tibor qaratilishi kerak. Nima uchun shu qism xulosa sifatida berilgani haqida so‘raladi. Matnning xulosasi qanday berilishi, u qanday mazmunda bo‘lishi kerakligi tushuntiriladi.

1. O‘rmondagi majlis.
2. Bug‘uning rejasi.
3. To‘daga hujum.
4. Niqob ostidagi qo‘rquv.
5. Xulosa.

Leksikologiya

5. Matndan olingan quyidagi so‘z va iboralar bilan ularning izohini moslab, daftaringizga yozing.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun o‘quvchi avval matndan ushbu so‘zni topadi, u matnda qanday ma’noni ifodalayotgan bo‘lishi mumkinligi haqida mulohaza yuritadi. Shundan so‘ng berilgan so‘zlarning izohini aniqlaydi. Ayrim o‘quvchilar ushbu so‘zlarning izohini tushunib olganlaridan so‘ng ular ishtirokida og‘zaki gap tuzishlari mumkin.

Chek qo‘yish – tugatish.
Navqiron – yosh, kuch-quvvatga to‘lgan.
O‘kirmoq – kuchli ovoz chiqarish.
To‘da – to‘plangan hayvonlar guruhi.
Shu tob – shu vaqt.

Muhokama

Quyidagi gaplarda qanday farq bor? Izohlang.

Ushbu mashq o‘quvchilarni nutqning boyligini ta’minlovchi vositalar bilan tanishtirishga qaratilgan. O‘quvchilardan qaysi ustundagi gapning mazmuni afzal ekani, nima uchunligi so‘raladi. Berilayotgan til birliklarining vazifasi tushuntiriladi.

Yozma mashq

6. Matndan quyidagi so‘roqlarga javob bo‘luvchi so‘zlardan topib yozing.

Topshiriq o‘quvchilarning so‘zlarni turkumlarga ajratish bilan bog‘liq bilimlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Har bir guruhdan kamida beshtadan so‘z topib, yozish so‘raladi. Mashq bajarib bo‘lingandan so‘ng ayrim o‘quvchilarning yozgan so‘zlari birgalikda izohlanadi.

Yozma mashq

5. Hikoyadan chiqargan (bitta) xulosangizni yozing.

Hikoyaning xulosasi haqida yuqorida gap borgani uchun o‘quvchilar o‘zlari qanday xulosaga kelganlari haqida yozadilar. Ehtiyoj bo‘lsa, chiqarilgan xulosalar izohlanishi ham mumkin.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yaylov nima?

Ushbu savolga javoblar tinglanadi, kerakli xulosalar chiqariladi.

Yaylov – chorva mollari erkin o‘tlaydigan, yo-yilgan holda boqiladigan keng dala, maydon, o‘tloq.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Berilgan she’r bir necha bor ifodali o‘qiladi.

She’r o‘qib bo‘lingach, ushbu she’rdagi qahramonning o‘zini qanday his qilayotgani haqida suhbat olib boriladi.

1. She’r qahramoni tabiatdagi nimalarni tasvirladi?

She’r matnida berilgan tavsif qayta o‘qib eshittirilishi yoki so‘zlab berilishi mumkin.

2. Ayting-chi, nima uchun bolalarning ko‘zlari “alang-jalang”?

Buning uchun har bir bola o‘zini yaylovdagidek his qilishi kerakligi aytiladi, shu asosda bolaning ushbu harakati izohlanadi. “Alang-jalang” harakatning qanday belgisi ekani haqida suhbat olib boriladi.

3. Qahramon o‘zini nimaga o‘xshatdi? Izohlang.

Ushbu savolga javob berish uchun she’rdagi ayrim misralarga diqqat qaratiladi. Qahramon nima uchun o‘zini qushga o‘xshatayotgani tushuntiriladi.

4. Yaylovda yana nimalar bo‘ladi?

O‘quvchilar o‘z kuzatuvlari asosida yaylovda yana nimalarni uchratish mumkinligi haqida so‘zlab beradilar.

5. Siz qayerga borganingizda rohatlanasiz? Nima uchun?

Bu savolga ham o‘quvchilar o‘z kuzatuvlari, his qilganlari, boshidan o‘tkazganlari asosida javob bershlari maqsadga muvofiq. Ushbu suhbat jarayonida sayohat tafsilotlari haqida gapirganda muayyan vaziyatlar, his-tuyg‘ular bilan bog‘liq til birliklarining ifodalanishiga e’tibor qaratiladi, o‘quvchilarga mavzu bilan bog‘liq yangi so‘zlar haqida ma’lumot berish mumkin.

Yozma mashq. Leksikologiya

8. Quyida berilgan ma’nodosh so‘zlarni o‘qing. She’r matnidan olingan so‘zlarning ma’nodoshlarini topib yozing.

Berilgan so‘zlarga mos keluvchi ma’nodosh so‘zlar aniqlanadi va yoziladi.

Bepoyon – oxiri yo‘q, cheksiz.
O‘t – maysa.
Yel – shamol, shabada.
Osmon – samo, falak.
Yayov – piyoda.
Qo‘shiq – ashula.

Yozma nutq

9. She’r matni asosida yaylovni o‘z so‘zlaringiz bilan tasvirlab yozing.

Yaylov haqidagi suhbat hamda she’r matnidan kelib chiqqan holda kichik matn yoziladi. Unda tasviriy vositalardan foydalanishga alohida ahamiyat qaratish kerakligi aytiladi.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yozma ijodiy faoliyat olib borilishi haqida aytiladi.

Asosiy qism

Yozma nutq

10. O‘tilgan mavzular asosida o‘quvchilar rasmga qarab O‘zbekiston tabiati haqida matn yozadilar.

O‘tilgan mavzular davomida tabiatni tasvirlash bilan bog‘liq qanday til birliklaridan foydalanilgani yodga solinadi. O‘zbekiston qanday tabiatga ega ekani haqida suhbat quriladi.

O‘quvchilar ushbu jarayonda erkin fikrlay olishlariga, tabiatni tasvirlashda nimalar to‘g‘risida yozish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishlariga imkon yaratiladi.

Qolaversa, matnni yozish uchun berilgan ko‘rsatmalarga ham e’tibor qaratish so‘raladi. Yozilayotgan matn darslikda berilgan rasm bilan ham bog‘lanishi kerakligi, berilgan ko‘rsatmalardan foydalanish lozimligi tushuntiriladi.

Matnda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til birliklarining imlosi xattaxta yoki elektron doska orqali namoyish etilishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilardan qaysi so‘zni yozishda ikkilanayotganlari haqida tez-tez so‘rab turiladi.

Berilgan topshiriqni bajarishda muammoga duch kelayotgan o‘quvchilarga kerakli amaliy tavsiyalar alohida berib boriladi.

O‘quvchilar ijodiy ishlarining taqdimoti bo‘lib o‘tadi, ularga munosabat bildiriladi va baholanadi.

MUSTAHKAMLASH

Kirish

Bugungi dars mustahkamlash darsi ekani aytiladi. “O‘zbekistonning o‘ziga xos tabiati”

mavzusi yuzasidan qisqacha suhbat olib boriladi.

Rasm asosida O‘zbekistonning tabiati haqida o‘quvchilar yozgan matnlar tahlil qilinadi, kerakli tavsiyalar beriladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Ushbu bo‘limda sizga ko‘proq qaysi matn yoqdi? Javobingizni izohlang.

Nutqiy mavzu doirasida o‘tilgan matnlar mazmuni haqida o‘ylab ko‘rish, ulardan qaysi biri ma’qul kelgan bo‘lsa, ushbu matn haqida fikr bildirish so‘raladi. Og‘zaki nutq ifodalashda so‘z tanlash, o‘quvchining o‘zini tutishi, fikrni izchillik bilan tushunarli qilib yetkazish bilan bog‘liq og‘zaki nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

Yozma nutq. Sintaksis

1. Quyida berilgan gaplarni mos so‘zlar bilan to‘ldirib, ularni daftaringizga ko‘chiring.

1. Buxoro bug‘usi Qizil kitobga kiritilgan, ... u kamayib ketayotgan jonivorlar sirasiga kiradi.	chunki	shu-ning uchun	balki
2. Ilgari Buxoro bug‘usini yurtimizning barcha hududlarida uchratish mumkin bo‘lgan, ... hozir ularning soni keskin kamayib ketgan.	balki	biroq	go‘yo
3. Mart-aprel oylarida bug‘ular shox tashlaydi, ... yoz kelishi bilan chiroyli shoxlar yangidan o‘sib chiqa boshlaydi.	shu sa-babli	shun-ga ko‘ra	lekin
4. Sayyohlar “Zarafshon” qo‘riqxonasiga ... xongulni ko‘rish uchun boradilar.	ammo	faqat	go‘yo

2. Berilgan xulosalardan “Qo‘rqoq bug‘u” ertagi mazmuniga mos kelganini aniqlang, uni daftaringizga yozing. Har bir xulosani izohlash orqali o‘z javobingizni tushuntiring.

A. Ko‘rdingizmi, aziz bolajonlar, qo‘rqoqqa ip ilon bo‘lib ko‘rinadi.

B. Demak, yovdan qo‘rqqan – yovga do‘st, elni suygan – elga do‘st.

D. Qissadan hissa shuki, birov niqob kiyish bilan botir bo‘lib qolmaydi. Jasurlik kishining yuragida bo‘ladi.

3. Bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirib, matnni ko‘chiring.

Niqob ostidagi bug‘u ham hech bo‘rilarga bunday yaqin kelmagan edi. Ularning … (olovdek, yulduzdek, cho‘g‘dek) yonib turgan ko‘zlarini ko‘rib, … (yuragi, tanasi, oyog‘i) “shuv” etibdi. Oyoqlari qaltirabdi. Shu tobda (bo‘ri, ayiq, tulki) kabi … (o‘kirishi, baqirishi, hayqirishi) kerakligini eslabdi. U bor kuchi bilan “…” (baqiribdi, o‘kiribdi, hayqiribdi). Biroq qo‘rqib ketgani uchun … (bo‘ri, ayiq, tulki)ning emas, bug‘uning hadik to‘la beo‘xshov ovozi … (yangrabdi, chiqibdi, eshitilibdi).

4. Bolalar, bilasiz, Qizil kitobga yo‘qolib borayotgan o‘simlik va hayvon turlari kiritiladi. Nima uchun bunday kitob kerakligi haqida fikrlaringizni yozing.





ANTARKTIDA – MUZ SALTANATI

(6 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: tabiatni tasvirlash jarayoni bilan bog‘liq tasavvurlarni kengaytirish, ushbu jarayonda faol qo‘llanadigan til birliklaridan foydalanishga o‘rgatish, berilgan mashq va topshiriqlar yordamida og‘zaki, yozma, o‘qib va tinglab tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Ushbu mavzu doirasida nimalar haqida suhbat qurish mumkinligi haqida ma’lumot beriladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

O‘quvchilar e’tibori darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi.

1. Ayting-chi, Antarktida Yer sharining qaysi qismida joylashgan?

O‘quvchilar rasmda berilgan Yer shariga e’tibor qaratishadi. Antarktida Yerning qaysi qismida joylashganini aytib, u haqida nimalarni bilishlarini so‘zlab berishlari mumkin. (Eslatma: Antarktida Yer sharining janubiy qutbida joylashgan.)

2. Antarktidaning bu qadar sovuq bo‘lishiga asosiy sabab nimada deb o‘ylaysiz?

Dastlab o‘quvchilar o‘z taxminlarini aytadi. O‘z fikrlarini asoslashga harakat qiladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi quyidagi ma’lumotlarni aytib o‘tadi. O‘quvchilar ma’lumotlar asosida o‘z tasavvurlari haqida gapiradilar.

Odatda sayyoradagi eng sovuq joylar – qutblar. Chunki bu yerlarga quyosh nurlari to‘g‘ridan to‘g‘ri tushmaydi, balki qiyshiq holatda tushadi. Quyosh nurlarining bunday tushishi issiqlikni deyarli hosil qilmaydi.

3. Antarktidada yashaydigan chag‘alay, bo‘ronqush nima bilan oziqlanadi deb o‘ylaysiz?

Bu savolga o‘quvchilar o‘zlari bilgan, kuzatgan ma’lumotlar asosida javob beradi. Agar o‘quvchilar haqiqatdan yiroq javoblarni bersa, o‘qituvchi nima uchun ularning javoblari xato ekanini tushuntirishga harakat qiladi. To‘g‘ri javoblar izohlanadi.

4. Dengiz qoplonining nimasi qoplonga o‘xshaydi?

Bu savolga javob berish orqali o‘quvchilar narsa va buyumlarga nom tanlashda nimalarga e’tibor berish haqida bilib olishadi, ya’ni tashqi ko‘rinishdagi o‘xshashlik asosida nom tanlanganini, qaysi belgilar qoplonning belgilariga o‘xshashligi haqida suhbat olib boriladi.

5. Dengiz filiga nega bunday nom berilgan?

Ushbu savolning maqsadi ham yuqoridagidek bo‘lib, o‘quvchilar savollarga javob berishda hayvonlarga xos bo‘lgan sifatlarni to‘g‘ri tanlay olishi, ulardan o‘rinli foydalana olishi muhim sanaladi.

6. Delfin haqida nimalarni bilasiz?

O‘quvchi delfin haqida nimalarni bilishi haqida gapiradi, o‘qituvchi bu ma’lumotlar bilan qayerda tanishganini so‘rashi, ular haqida juda ko‘p qiziqarli ma’lumotlar borligini aytib, bunga qiziqib ko‘rish kerakligini aytadi.

7. Ko‘k kit va kashalotning qanday farqli jihatlarini ko‘ryapsiz?

O‘quvchilar hayvonlarning tashqi belgilari asosida ko‘k kit va kashalotning qanday farqli jihatlari borligi haqida gapiradi. Bu o‘rinda ham hayvonlarni ta’riflash bilan bog‘liq til birliklaridan o‘rinli foydalana olishga e’tiborni qaratish muhim.

Yozma mashq. Talaffuz va imlo

1. Antarktidada qanday hayvonlar yashar ekan? Ularning nomini talaffuz qiling hamda daftaringizga ko‘chirib yozing.

Ushbu mashqni bajarish jarayonida o‘quvchilar rasm ostida berilgan hayvon nomlarini talaffuz qiladilar, o‘qituvchi har bir so‘zni alohida talaffuz qildirib, uning imlosi va talaffuzida qanday farq borligini sinf doskasida tushuntirib beradi. Masalan, “kashalot” so‘zida “o” harfi “o‘” tarzida talaffuz etiladi, ammo “o” yoziladi deb. Buning sabablari tushuntiriladi.

Delfin, chag‘alay, bo‘ronqush, tyulen, dengiz fili, ko‘k kit, kashalot, dengiz qoploni.

Yozma nutq

2. Hayvonlarning nomlari ishtirok etgan xabar mazmunidagi gap yozing.

Namuna: *Antarktidada chag‘alay, bo‘ronqush kabi qushlar yashaydi.*

Buning uchun xabar mazmunidagi gaplar qanday ifodalanishi haqidagi ma'lumotlar yodga solinadi. Buni o'quvchilarning o'zidan ham so'rash mumkin. Keyin shunday mazmundagi gaplarni matn ichidan aniqlab ko'chirish so'raladi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Antarktida haqida o'tilgan mavzuda olingan ma'lumotlar asosida suhbat quriladi, Antarktida haqida qiziqarli matn bilan tanishish aytiladi.

Asosiy qism

O'qib tushunish

O'quvchilar e'tibori darslikda berilgan ma'lumotga qaratiladi. O'quvchilarning bir nechtasi ushbu matnni qismlarga bo'lgan holda o'qib chiqishi mumkin. Ushbu jarayonda o'qituvchi matnda uchragan talaffuzi va imlosida farq mavjud bo'lgan so'zlarning o'qilishiga diqqat bilan e'tibor berib turadi. Bunday so'zlar qanday talaffuz qilinishini tushuntiradi.

Shundan so'ng har bir o'quvchi mustaqil holatda matn bilan to'liq tanishib chiqishi uchun 3 daqiqa vaqt beriladi. Har bir o'quvchi matnni diqqat bilan o'qib chiqadi.

Quyidagi savollar asosida suhbat tashkillashtiriladi.

1. Antarktidaga birinchi bo'lib kim yetib borgan?

Ushbu savol matnda ochiq holatda berilgan ma'lumotni aniqlashga qaratilgan. O'quvchilar imkon qadar to'liq javob berishga harakat qiladi, o'qituvchi ulardan shuni talab qilishi maqsadga muvofiq.

2. Qadimda Antarktida qanday o'lka bo'lgandi?

O'quvchilar matnning keyingi qismiga e'tibor qaratib, Antarktida bilan bog'liq ma'lumotlarni aytib berishi lozim. Shu o'rinda o'qituvchi o'quvchilarga "Ushbu ma'lumotga ishonasizmi yoki yo'q?" tarzidagi savol bilan murojaat qilishi mumkin. O'qituvchi bunday ma'lumotlar nimalarga asoslanib keltirilishini tushuntirib beradi.

3. Antarktida muzliklari ostida qanday boyliklar bor?

O'quvchilar boyliklar haqida gapirib berganlaridan so'ng har bir foydali qazilmadan nimalar ishlab chiqarish mumkinligi haqidagi ma'lumotlarni yodga olish so'raladi. Bundan tashqari, odamlar nima uchun ushbu boyliklardan foydalana olmasligi haqida suhbat olib boriladi. O'qituvchi berilayotgan javoblarning ichida matndan olingan asoslar borligiga e'tiborni qaratadi. Ichimlik suvi haqida ham eslatib o'tadi. Uning qanday boylik ekani so'raladi.

4. Muz holatidagi ichimlik suvi haqida nimalarni bilib oldingiz?

Hisob-kitoblarga qaraganda, Antarktidadagi barcha muz erib ketsa, dunyo okeanlarining suvi 62 metrga ko'tarilishi aytiladi, bundan tashqari, nima uchun Antarktidada ichimlik suvining hajmi katta ekani haqida so'raladi. O'quvchilar o'z tasavvurlari asosida javob beradilar, o'qituvchi ularni yo'naltiradi, ayrim ko'rsatmalarni berib turishi kerak.

5. Antarktidaning iqlimi haqida nimalarni o'rgandingiz?

Bunda ham o'quvchilar Antarktidadagi iqlim haqida gapiradilar, o'qituvchi ularning nutqini kuzatib, kerakli ko'rsatmalarni berib boradi.

6. Antarktidada tadqiqotchilar qanday yashaydi?

O'quvchilar har bir element haqida gapiradilar, bunday bo'lishining sabalarini tushuntirishga urinib ko'radilar.

7. Xalqaro shartnomaga ko'ra, Antarktida qanday hudud?

Ushbu savolga javob matn asosida beriladi, ammo o'quvchilar buning sabablarini izohlashda muammoga duch kelishi mumkin. O'qituvchi bu o'rinda ularga kerakli ma'lumotlarni yetkazib berishi zarur.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O'tilgan mavzudagi matn yodga olinadi. Ayrim o'quvchilar uni qayta so'zlab berishlari mumkin. Matnni qayta so'zlashni bir nechta o'quvchidan qismlarga bo'lgan holda ham so'rash mumkin.

Asosiy qism

Yozma mashq. Punktuatsiya

3. "Antarktida" matni asosida berilgan gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlab yozing.

O‘quvchilar matnni qay darajada o‘qib tushungaliklarini aniqlash maqsadida ushbu topshiriqni bajaradilar. Javoblar izohlanishi kerak.

1. To‘g‘ri. 2. To‘g‘ri. 3. Noto‘g‘ri. 4. Noto‘g‘ri. 5. To‘g‘ri.

4. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring.

Ushbu mashqni bajarish uchun avval o‘quvchilarga o‘ylab olish uchun vaqt beriladi. O‘quvchilar matnni o‘qib bo‘lganlaridan so‘ng uning qayeriga qanday tinish belgisini qo‘yish mumkinligini aytadi.

O‘qituvchi matnning tinish belgilari qo‘yilgan shaklini ekran orqali namoyish etishi kerak.

Antarktidaning cheksiz muzliklarida ham hayot qaynaydi. Sohil bo‘ylarida ajoyib qushlar, pingvinlar yashaydi. Qirg‘oq yaqinida kitlar, kashalotlar, delfinlar, tyulenlarning bir necha turi, dengiz fili va dengiz qoplonlari suzib yuradi.

Mashq bajarib bo‘lingandan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilardan vergulning qo‘llanish o‘rinlari haqidagi xulosalarini so‘rashi maqsadga muvofiq.

Gaplarni o‘qing. To‘g‘ri yozilgan gaplarni daftaringizga ko‘chirib yozing.

Ushbu topshiriq xattaxtada bajariladi. O‘quvchilar navbat bilan xattaxtaga chiqib to‘g‘ri yozilgan gaplarni aniqlaydilar, ularni ko‘chiradilar. Qaysi so‘z xato yozilganini aytib, uni o‘qituvchi bilan birgalikda tahlil qiladilar.

Shu o‘rinda o‘qituvchi matn tarkibidagi imlosi qiyin bo‘lgan bir nechta so‘zlarning imlosini o‘rgatib ketish maqsadida qo‘shimcha qilishi va yozdirishi mumkin.

1. Bundan million yillar avval Antarktida issiq o‘lka bo‘lgan.

2. Dunyodagi barcha ichimlik suvning asosiy qismi ham shu muzliklarda jam bo‘lgan.

3. Antarktidada havo juda sovuq, ayrim joylar quyosh nurini deyarli ko‘rmaydi.

4. Asrlar o‘tib, Antarktida sekin-asta muz saltanatiga aylana boshlaydi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ushbu darsda qiziqarli multfilmni tomosha qilish aytiladi. O‘quvchilarning bunga munosabati kuzatiladi, bu haqida qisqa suhbat quriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning e’tiborini ekranga qaratadi.

Asosiy qism

Tinglab (ko‘rib) tushunish

“Jajji pingvin Loloning sarguzashtlari” multfilmini tomosha qiling.

1. Bu multfilmni avval ham ko‘rganmisiz? U nima haqida?

O‘quvchilar multfilm haqida gapiradilar. Uning nima haqida ekanini o‘z so‘zlari bilan tushuntirishga urinadilar, o‘qituvchi ularning so‘z tanlashlariga diqqat qilib, ularga ko‘maklashishi mumkin.

2. Antarktida qanday joy ekan?

Ushbu savolga javob berishda o‘quvchilar oldingi darslarda olingan ma’lumotlar, multfilmdan olgan taassurotlari asosida Antarktidani tasvirlashga harakat qiladi. O‘qituvchi imkon qadar hammani faollashtirishi, har bir o‘quvchining fikr bildirishiga erishishi lozim.

3. Pingvinlar qish faslida qayerda yashashadi? Ular Antarktidaga qachon qaytishadi?

Pingvinlar qish faslida Shimoliy dengizda yashashi, bahorda Antarktidaga qaytib kelishi haqida aytib beradilar. Agar o‘quvchilar ushbu savolga javob bera olishmasa, o‘qituvchi javobni aytib berishi kerak emas. Aksincha, multfilmning o‘sha qismini qayta namoyish etishi va javobni o‘quvchilar o‘zlari aniqlashlariga imkon berishi kerak.

4. Pingvin dadalar Antarktidada nima qilishadi?

Pingvin dadalar in qurishi, tuxum bosib yotishi, tuxumdan chiqqan palaponlarni parvarish qilishi haqida gapiriladi. Har bir vazifa alohida ta’kidlanadi.

5. Antarktidada bahor qachon boshlanadi? Bu vaqtda pingvin oyilar nima qilishadi?

Antarktidada bahor noyabr oyida boshlanishi, bu vaqtda pingvin oyilar o‘z inlariga tuxum qo‘yishi haqida aytiladi. O‘quvchilardan bu yerda nima ajablantirayotgani haqida so‘rash mumkin. O‘quvchilar noyabr oyidan bahorning boshlanishi ularni taajjubga solayotgani haqida gapiradi yoki o‘qituvchi bundan taajjublanayotganini aytishi kerak. Bu hodisaning sabablari birgalikda muhokama qilinishi mumkin.

6. Pingvinlar nega Totoga: “Sen bizning haqiqiy sardorimizsan”, deb aytishdi?

O‘quvchilar Toto qo‘shni indagi tuxumni saqlab qolganini aytib berishadi. Totoning harakatlariga qanday munosabatda ekanliklari so‘raladi.

7. Pingvin dadalar nima uchun dengizga yo‘l olishdi?

O‘quvchilar tinglaganlari asosida fikr bildirishadi. Dadalarning qorni ochligi tufayli tuxum-

larni tashlab ketishgani haqida gapiriladi. Hayvonlar qanday qilib 1,5 oy davomida oziqlanmasdan kun kechirishi mumkinligi haqida so‘raladi, javoblar tinglanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni to‘g‘ri javob tomon yo‘naltirib borishga erishishi kerak.

8. Antarktidada yoz qachon boshlandi? Qanday holatlar kuzatilar ekan?

Antarktidada yoz dekabr oyidan boshlanishi aytiladi. Shu o‘rinda nima uchun pingvinlar oziqlanish uchun uzoq vaqtga ketishlari, aynan yoz oylarida qanday holat kuzatilishini shu o‘rinda aniqlab, sabablari haqida gapiradilar.

9. Lolo qanday pingvin? U kim bilan do‘st bo‘ldi?

Loloning harakatlari, o‘zini tutishiga munosabat bildiriladi. U qanday do‘st bo‘lishi mumkinligi haqida so‘raladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning berayotgan javoblariga diqqat qaratadi, aslida Loloning harakatlari, berayotgan savollari bolalarga xos qiziquvchanlik ekanini tushuntirishi kerak.

Yozma nutq

Antarktidada qish va yoz fasllarida qanday holat kuzatilar ekan? Bittadan gap yozing.

O‘quvchilar tinglagan ma’lumotlari asosida ushbu topshiriqni bajaradilar. Gaplarda qo‘llangan tinish belgilari va so‘zlarning imlosiga e’tibor qaratiladi.

Ayrim o‘quvchilar yozgan gaplarini o‘qib beradi, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda ularni baholaydi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘tilgan mavzular bo‘yicha o‘rganilgan ma’lumotlar asosida og‘zaki suhbat quriladi. Muzlash holati bilan bog‘liq jarayonlar yodga olinadi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Berilgan she’r matni ifodali qilib bir necha marta o‘qitiladi.

She’rni o‘qitish jarayonida ifodali o‘qishga qiynaladigan o‘quvchilardan ushbu vazifani so‘rash ham maqsadga muvofiq. Bunda o‘qituvchi ayrim ko‘rsatmalarni berishi, takrorlashni so‘rashi ham mumkin.

1. She’r kimning nomidan aytilyapti?

O‘quvchilar she’r kimning nomidan aytilayotganini aniqlaydilar, buni qanday aniqlaganliklari so‘raladi. Aniqroq tushuntirish uchun so‘z shakllari o‘zgartirilgan holatda taqqoslashga taqdim etilishi mumkin.

2. Muz nega yiqitadi?

Muzda qanday qilib yiqilish mumkinligi haqida so‘raladi. Buning asosiy sababchisi kim yoki nimaligi haqida gapiriladi.

3. Nega she’rda Karimjonga “o‘yinqaroq” deb ta’rif berilgan?

She’r mazmuniga asoslangan holda Karimjon qanday bola ekani haqida so‘raladi. O‘quvchilar tasavvurlaridagi Karimjon haqida gapirib beradilar.

4. “Chorakda “ikki” chiqsa, Toyg‘anish benaf bo‘lar” deganda nimani tushundingiz?

Karimjonning o‘yinqaroqligi nimalarga olib kelishi mumkinligi, umuman olganda, vaqtdan to‘g‘ri foydalanish haqida suhbat quriladi. Narsalarni avaylash, o‘zini ehtiyot qilish haqida tushuncha beriladi.

Yozma nutq. Leksikologiya. Sintaksis

7. She’rda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ko‘chirib yozing hamda ma’nosini ayting.

She’rda “toyg‘anish”, “gurssa-gurssa”, “toyish” singari so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan. Ushbu so‘zlar daftarga ko‘chiriladi, ma’nolarini izohlash so‘raladi.

Toyg‘anish – toyish, sirpanish.

Gurssa-gurssa – taqlid so‘z, yerga yiqilgan holatni ifodalash uchun qo‘llanadi.

Toyish – sirpanish.

8. She’rdan olingan ushbu parchani o‘z so‘zlaringiz bilan yozing.

O‘quvchilarga ko‘chirma gaplarni yozish qoidasi biror namuna asosida tushuntiriladi. Shundan so‘ng berilgan she’riy parcha ko‘chirma gap holatiga keltiriladi. Yozilgan gaplar tekshiriladi va baholanadi.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yozma ijodiy faoliyat olib borilishi haqida aytiladi. Mavzular asosida aytilgan barcha ma’lumotlar takrorlanadi.

Asosiy qism

Yozma nutq

9. O‘tilgan mavzular asosida o‘quvchilar berilgan ma’lumotlar va rasmga qarab kichik hikoya yozadilar.

O‘tilgan mavzular davomida Antarktidaning tabiati bilan bog‘liq qanday til birliklaridan foydalanilgani yodga solinadi.

O‘quvchilar ushbu jarayonda erkin fikrlay olishlariga, tabiatni tasvirlashda nimalar to‘g‘risida yozish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishlariga imkon yaratiladi.

Qolaversa, matnni yozish uchun berilgan ma’lumotlarga ham e’tibor qaratish so‘raladi. Yozilayotgan matn darslikda berilgan rasm bilan ham bog‘lanishi kerakligi, pingvin va morj haqida berilgan ma’lumotlarning imkon qadar barchasidan muayyan izchillikda foydalanish lozimligi tushuntiriladi.

Matnda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til birliklarining imlosi xattaxta yoki elektron doska orqali namoyish etilishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilardan qaysi so‘zni yozishda ikkilanayotganlari haqida tez-tez so‘rab turiladi.

Berilgan topshiriqni bajarishda muammoga duch kelayotgan o‘quvchilarga kerakli amaliy tavsiyalar alohida berib boriladi.

O‘quvchilar ijodiy ishlarining taqdimoti bo‘lib o‘tadi, ularga munosabat bildiriladi va baholanadi.

DUNYO OKEANLARI

(6+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: suv havzalari, ularning nomlanishi, unda yashaydigan jonivorlar bilan bog‘liq tasavvurlarni kengaytirish, ushbu jarayonda faol qo‘llanadigan til birliklaridan foydalanishga o‘rgatish, berilgan mashq va topshiriqlar yordamida og‘zaki, yozma, o‘qib va tinglab tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Ushbu mavzu doirasida nimalar haqida suhbat qurish mumkinligi bo‘yicha ma’lumot beriladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

O‘quvchilar e’tibori darslikda berilgan xaritaga qaratiladi.

Xaritada nimalar tasvirlangani so‘raladi.

Xaritaga diqqat bilan qarang. Savollarga javob bering.

1. Okean haqida eshitganmisiz? Sizningcha, okeanlar boshqa suv havzalaridan nimasi bilan farq qiladi?

Okeanlar haqida mavjud tasavvurlar aniqlashtirib olinadi. Suv havzalari yodga olinadi, ular okeanlar bilan taqqoslanadi. Qanday belgilarga ko‘ra ularni taqqoslash mumkinligi eslatib turiladi.

Okean – Yer yuzidagi eng katta suv havzasi.

2. Xaritada nechta okean tasvirlangan? Nomlarini ayting.

O‘quvchilar xarita bilan ishlaydi. Okeanlarning nomlari aytiladi. Dunyoda nechta okean borligi haqida xulosa chiqarish uchun qo‘shimcha savollar beriladi.

3. Nima uchun okeanlarga bunday nom berilgan deb o‘ylaysiz?

O‘quvchilar o‘z fikrlarini aytishgandan so‘ng joy nomlarini tanlashda nimalarga e’tibor berilgani, yana nimalar asosida joyga nom tanlash mumkinligi haqida umumiy xulosalar chiqariladi.

4. Eng katta okean qaysi?

O‘quvchilar berilgan xarita yordamida dunyo okeanlarining maydonini o‘zaro solishtiradi va shu asosda ushbu savolga javob beradi.

5. Xaritaga qarab ayting-chi, Yer sharining asosiy qismi quruqlikdan iboratmi yoki suvlikdan?

Bu savolga javob berish uchun o‘quvchilar grafik ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni o‘qiy olishi, taqqoslashi kerak bo‘ladi.

6. Okeanda qanday jonzotlar yashaydi?

Okeanda qanday jonzotlar yashashi haqida suhbat olib boriladi, o‘quvchilar bu ma’lumotlar bilan qayerlarda tanishganliklarini so‘zlab berishlari ham mumkin.

Yozma mashq. Imlo. Sintaksis

1. Okean hamda qit’a nomlarini ko‘chirib yozing.

Xaritada ko‘rsatilgan okean hamda materiklari nomlarini ko‘chirib yozadilar, ular nima uchun bosh harf bilan yozilishi eslatib o‘tiladi.

Okean nomlari: Tinch okean, Atlantika okeani, Hind okeani, Shimoliy Muz okeani.

Materik nomlari: Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Yevrosiyo, Afrika, Avstraliya.

Yozma nutq

2. Dunyo okeanlari nomlarini qatnashtirib gaplar tuzing.

Ushbu jarayonda o‘qituvchi tuzilayotgan gaplar faqatgina darak mazmunida bo‘lib qolmasligi uchun harakat qilishi lozim. O‘quvchilar turli mazmundagi gaplarni tuzib, kerakli tinish belgilarini o‘z o‘rnida ishlatishlariga imkon yaratilishi maqsadga muvofiq.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Okeanlar haqida oldingi mavzuda olingan ma’lumotlar asosida suhbat quriladi, okeanlar to‘g‘risida qiziqarli matn bilan tanishish aytiladi.

Asosiy qism

Tinglab tushunish

O‘quvchilar berilgan audiomatnni diqqat bilan tinglashga tayyorlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga kerakli o‘rinlarni daftarga qayd etib olish mumkinligini eslatib o‘tadi.

1. Yer sharining suv bilan qoplanishi faqat okeanlar hissasiga to‘g‘ri keladimi? Javobingizni izohlang.

Matnda ushbu ma’lumot ochiq ko‘rinishda berilgan, o‘quvchilar qiyoslashlari asosida savolga javob beradilar. O‘quvchi imkon qadar aniq javobni olishga intilishi kerak.

2. Yer sharining deyarli yarmini qoplagan okean qaysi?

Ushbu savolga javob berish jarayonida o‘qituvchi avval matnda berilgan ma’lumotlarga tayanishni so‘raydi, shundan so‘ng ushbu ma’lumot yana esda qolishi uchun buni xaritadan foydalangan holda aniqlashtirishni so‘rashi mumkin.

3. Ayting-chi, okean tubi bir tekismi? Fikringizni izohlang.

Matnda okeanning tubi tekis yoki notekisligi haqida ochiq ma’lumot berilmagan. O‘quvchilar o‘z tasavvurlari va bilimlari asosida savolga javob beradilar. O‘qituvchi berilayotgan javoblarning matnda okeanning tubi haqida berilgan ma’lumotlar bilan bog‘langan yoki bog‘lanmaganini kuzatadi, zarurat bo‘lsa, ushbu ma’lumotlarni eslatadi.

4. Jonivorlar asosan okeanning qaysi qismida yashaydi?

O‘quvchilar o‘z javoblarini berishgach, o‘qituvchi ulardan javoblarni izohlashni so‘raydi.

Yozma mashq

3. Okeanlar haqidagi to‘g‘ri fikrlarni ko‘chirib yozing.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilar berilgan gaplarni diqqat bilan o‘qib chiqadilar. So‘ng har bir fikr haqida mulohaza yuritib, ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi haqida xulosa chiqarishlari lozim.

1. Noto‘g‘ri. 2. To‘g‘ri. 3. Noto‘g‘ri. 4. To‘g‘ri. 5. Noto‘g‘ri. 6. To‘g‘ri.

4. Tinglagan matningiz asosida 3 ta gap yozing.

Namuna: *Yer yuzida to‘rtta ulkan okean bor.*

O‘quvchilar tinglagan matnlari asosida 3 ta gap yozadilar. Ushbu gaplar ifoda maqsadiga ko‘ra turli mazmunda bo‘lishi mumkin, shuningdek, bu jarayonda o‘qituvchi daftarga qayd etib olingan ma’lumotlardan foydalanish qulayligini eslatib o‘tadi.

Yozilgan gaplar o‘zaro almashinib tekshirilishi mumkin. Bu jarayonda o‘quvchilar yozilgan gapning mazmuni, imlosi va tinish belgilari o‘z o‘rnida ekaniga e’tibor qaratishlari lozim.

Bilimingizni sinang

Test sinovi bajariladi. O‘quvchilar tinglab tushunish bilan bog‘liq ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazadilar.

1. Ular dengiz suviga qo‘shimcha mineral moddalarni olib keladi. Bular…?

B. Daryolar

2. Yer sharining deyarli yarmini qoplagan okean qaysi?

E. Tinch okean

3. O‘txo‘r dengiz jonivorlarini nima yemishsiz qoldirmaydi?

A. Daryolar B. Okean D. Quyosh E. Tuzlar

Dengiz va okeanni “ummon” deb ham ataymiz.

Ushbu eslatmani daftarga yozib olish tavsiya etiladi. O‘quvchilar ushbu izoh bilan bog‘liq gap tuzish topshirig‘ini bajarishlari mumkin.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Qaysi rasmda to‘lqin tasvirlangan?

O‘quvchilarning to‘lqin haqidagi tasavvurlari aniqlashtirib olinadi. Berilgan rasmlar birma-bir nomlanadi, to‘lqinlarni qayerda uchratish mumkinligi haqida suhbat quriladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Ikki to‘lqin” matnining birinchi qismi bir necha marta o‘qitiladi. Ayrim so‘zlar talaffuzi va imlosiga e’tibor qaratiladi.

Dengiz – okeanning quruqlikka tutashgan yoki quruqlikka yorib kirgan bo‘lagi.

Berilgan so‘zning izohini daftarga ko‘chirib olish so‘raladi.

1. Katta va kichik to‘lqinning fe’l-atvori bir xil ekanmi? Javobingizni izohlang.

O‘quvchilar o‘qiganlari asosida savolga imkon qadar to‘liqroq javob berishlari mumkin. Har bir o‘quvchi to‘lqinlarning bittadan sifatini aytib, uni tavsiflab bersa ham bo‘ladi. Javoblar aytib bo‘lingandan so‘ng matnning shu savolga javob bo‘ladigan qismini qayta o‘qib berish orqali javoblar tekshirib olinadi.

2. Katta to‘lqin kichik to‘lqinga qanday mehribonchilik ko‘rsatdi? Ayting-chi, bu to‘g‘rimi?

Muzqaymoq bilan bog‘liq voqea yodga solinadi, ushbu harakatning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekaniga munosabat so‘raladi. Suhbat so‘ngida o‘quvchilar Katta to‘lqinning qaysi harakatlari to‘g‘ri, qaysilari esa noto‘g‘ri ekanini aniq aytib berishlari kerak. Masalan, “mehribon ekani yaxshi, lekin uni bu ko‘rinishda ifodalash yaxshi emas” tarzida.

3. Katta to‘lqin nima uchun qamalib qoldi?

Katta to‘lqin qamalib qolishining ikkita sababi haqida gapiriladi. O‘quvchilar avval katta to‘lqinning juda balandga ko‘tarilganini aytishsa, bunday bo‘lishiga yana bir sabab borligini aytishlari kerak, ya’ni katta to‘lqinning maqsadi, uning fe’l-atvori haqida suhbat olib boriladi.

4. Qoyalarni katta to‘lqinning hujumidan nima qutqarib qoldi?

O‘quvchilar qoyalarni ularning orqasidagi chuqurlik qutqarib qolgani haqida aytishadi.

Barcha fikrlar umumlashtiriladi, birinchi qism uchun kerakli xulosalar chiqariladi.

Yozma mashq. Leksikologiya. Morfologiya

5. Quyidagi so‘zlarning izohini toping va ko‘chirib oling.

Berilgan so‘zlarning izohlari aniqlanadi va daftarga ko‘chirib olinadi.

Paluba – kemalarning taxta qoplangan yuzasi, sahni.

To‘lqin – qattiq chayqalib turgan suv betidagi po‘rtana.

Machta – kemaning qoq o‘rtasiga o‘rnatilgan, yelkan osish, kuzatish va signal berish uchun xizmat qiladigan ustun.

6. Matndan katta va kichik to‘lqinlarga xos sifatlarni, ko‘plik (-lar) ma’nosidagi hamda hajm-o‘lchovni bildiruvchi so‘zlarni aniqlab yozing.

O‘qituvchi *-lar* qo‘shimchasining vazifasi haqida eslatib o‘tadi. Shundan so‘ng matndan ko‘plik shaklidagi so‘zlarni aniqlab, daftarga ko‘chirish topshirig‘i bajariladi.

Sifat	Ko‘plik ma’nosidagi so‘zlar	Hajm-o‘lchovni bildiruvchi so‘zlar
inoq	to‘lqinlar	ulkan
ochiqko‘ngil	ular	kichik
uchar	baliqlar	bahaybat
shiddatli	kitlar	katta
kuchli	chag‘alaylar	baland
shafqatsiz	kemalar	
sevimli	qoyalar	
xursand		

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

“Ikki to‘lqin” matnining birinchi qismidagi voqealar yodga olinadi, buning uchun o‘quvchilar ushbu qismni qayta so‘zlab berishlari ham mumkin. Ikkinchi qismni o‘qish uchun tayyorgarlik ko‘riladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Ikki to‘lqin” matnining ikkinchi qismi bir necha marta o‘qitiladi. Ayrim so‘zlar talaffuzi va imlosiga e’tibor qaratiladi.

1. Qamalib qolgan Katta to‘lqinga chag‘alay nima uchun yordam bermadi? Axir qiynalganlarga yordam berish kerak emasmi?

Avval qiynalganlarga yordam berish fazilati haqida suhbat quriladi, shundan so‘ng katta to‘lqinning vaziyatiga o‘tiladi. Chag‘alayning munosabatiga baho beriladi, buning sabablari aniqlanadi.

2. Ayting-chi, chag‘alay kichik to‘lqinga nima uchun yordam berdi?

Bu savolda ham chag‘alayning harakatlariga munosabat bildiriladi. Kichik to‘lqinning akasi bilan o‘rtasidagi munosabati baholanadi.

3. Kichik to‘lqin katta to‘lqin bilan qanday qilib uchrasha oldi?

Matnda ochiq holatda berilgan ma’lumotlar asosida kerakli javob olinadi.

4. Ertak xulosasini ayting.

Imkon qadar har bir o‘quvchidan ertak xulosasini so‘rash tavsiya etiladi. O‘quvchilarning har biri turli xulosalarni aytishlari uchun ularga ko‘maklashish, ularni yo‘naltirib borish kerak.

To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fikrni farqlang.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilar berilgan gaplarni diqqat bilan o‘qib chiqadilar. So‘ng har bir fikr haqida mulohaza yuritib, ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi haqida xulosa chiqarishlari lozim.

1. To‘g‘ri. 2. Noto‘g‘ri. 3. Noto‘g‘ri. 4. To‘g‘ri. 5. To‘g‘ri.

Yozma nutq. Sintaksis

7. Matndan xabar, so‘roq va buyruq ohangidagi gaplardan bittadan ko‘chirib yozing. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘ying.

O‘quvchilar matnga qayta murojaat etadilar, matn tarkibidagi gaplarni ko‘chiradilar. Tinish belgilarining qo‘yilish sababini og‘zaki izohlaydilar.

8. Kerakli qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Shundan so‘ng chag‘alay unga qoyalar atrofidan quruqlikka o‘tadigan yo‘lni ko‘rsatibdi.

2. Hozirgina yosh bolakayning qo‘lidagi muzqaymog‘ini tortib olganingni ham o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim.

Qo‘yilgan qo‘shimchalarning gapdagi vazifasi haqida ma’lumot beriladi. Ulardan foydalanmaslik gapning mazmuniga qanday ta’sir etishi haqida suhbat olib boriladi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘tilgan mavzular bo‘yicha og‘zaki suhbat quriladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Berilgan she’r matni ifodali qilib bir necha marta o‘qitiladi.

Jarayonda she’rni ifodali o‘qishga qiynaladigan o‘quvchilarga o‘qitish ham maqsadga muvofiq. Bunda o‘qituvchi ularga ayrim ko‘rsatmalarni berishi, takrorlashni so‘rashi ham mumkin.

1. Kemaning odamlarga qanday foydasi bor?

Avval kemaning o‘zi nima ekani haqida, shundan so‘ng kemalarning foydalari haqida suhbat olib boriladi.

2. She’rda qaysi suv havzalari aytib o‘tilgan? Ularning farqini ayting.

Dengiz, daryo, okean, ariq haqida suhbat olib boriladi. O‘quvchilar ularning farqini aytganlaridan so‘ng o‘qituvchi izohli lug‘atdan so‘zlar izohini aniqlab, ular o‘rtasidagi aniq farqlarni tushuntirib berishi mumkin. Bunday suv havzalarini qayerlarda uchratish mumkinligi haqida so‘raladi.

3. She’rdagi qahramon ariqlar va mayda baliqlar nomidan qaysi jonivorga salom yo‘llagan? Uni qayerda ko‘rgansiz?

Janob kit. Ushbu javob berilgandan so‘ng o‘qituvchi o‘tilgan mavzularni yodga soladi va kitning okeanlarda yashashi haqida suhbat olib boradi.

4. Nima deb o‘ylaysiz, ariq faqat qishloqda bo‘ladimi?

Ariq – sun’iy ravishda hosil qilingan suv yo‘li, o‘zani va undagi suv. “Ariq” so‘zining izohi yordamida ariqning qayerlarda uchrashi va undan qanday maqsadda foydalanilishi haqida suhbat olib boriladi.

Leksikologiya

“Yo‘ldosh” so‘zining ma’nolarini aniqlang.

“Yo‘ldosh” so‘zining bir necha ma’nolari borligi aytiladi. Har bir ma’nosiga oid misollar keltiriladi.

Yo‘ldosh.

1. Yo‘lda, safarda birga bo‘lgan kishi, hamroh.

2. Biror ishni bajarish jarayonida birga bo‘lgan kishi.

3. Biror planeta yoki yulduz atrofida harakat qiluvchi osmon jismi.

4. Erkaklar ismi.

Jonivorlar orasidan kitni toping.

Berilgan rasmlar asosida suhbat olib boriladi. Har bir rasmda berilgan hayvon nomlanadi. Delfin, kit, akula haqida, ularning tashqi ko‘rinishidagi farqlar hamda hayot tarzlari haqida suhbat qurish mumkin.

Ayting-chi, nima uchun kitga “Janob” deb murojaat qilingan? Bu so‘zni qachon ishlatamiz?

“Janob” so‘zining qo‘llanish doirasi haqida ma’lumot beriladi. She’rdagi vazifasi haqida suhbat olib boriladi.

She’rda “mayda” so‘zi nimani bildiryapti?

A. Hajmni B. Miqdorni D. Rangni E. Uzunlikni

“Mayda” so‘zi turli birliklar bilan qo‘llanishi tushuntiriladi. Ushbu she’rda hajm ma’nosida qo‘llangani aniqlanadi.

Yozma mashq. Fonetika

9. She’rdagi qofiyadosh so‘zlarni yozib oling.

Qofiyadosh so‘zlar haqidagi ma’lumotlar yodga olinadi, she’r matnidagi “daryoni, dunyoni, dengizga, bizga, payt, ayt, ariqdan, baliqdan” singari so‘zlar ko‘chirib olinadi. Ularning she’rdagi o‘rni, mazmuni haqida fikrlar so‘raladi.

Yozma nutq

10. Ajratib ko‘rsatilgan satrlarni o‘z nutqingizga aylantirib yozing.

She’riy misralarni jumlalarga aylantirish mashqi bajariladi. O‘quvchilar mazmunni saqlab, satrlarni gaplarga aylantirishadi. O‘qituvchi ushbu mashqni bajarish uchun biror namunani ko‘rsatishi kerak.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘tilgan mavzu bo‘yicha og‘zaki suhbat quriladi.

Asosiy qism

Yozma nutq

O‘quvchilar biror jonzot haqida matn tuzish jarayoniga tayyorlanadi. Uni qanday tasvirlash mumkinligi haqida savol-javob qilinadi.

11. Ayting-chi, okeanlarda qanday jonivorlar yashaydi? Uni tasvirlab kichik matn tuzing.

Tuzgan matningizda jonzotlarning quyidagi belgilariga e’tibor bering:

nomi; hajmi; o‘ziga xos xususiyatlari.

Rasmdagi jonivorlarni tasvirlab matn tuziladi. Matn tuzish jarayonida yuqorida berilgan ko‘rsatmalarga amal qilish eslatib turiladi. Ayrim so‘zlar va ma’lumotlar xattaxta yoki elektron doska yordamida yodga solinishi mumkin.

Og‘zaki nutq

She’rni yoddan aytib bering.

She’r yoddan so‘raladi. Og‘zaki nutqqa e’tibor qaratiladi.

Shundan so‘ng yozilgan matnlarni o‘qib berishlari so‘raladi. Kerakli maslahatlar beriladi.

MUSTAHKAMLASH

DARS JARAYONI

Kirish

Kemacha sizning maktubingizni istagan odamingiz yoki jonivorga yetkazib bermoqchi. Kimga xat yozar edingiz? Imkoniyatdan foydalaning!

O‘quvchilar o‘zlari sevgan jonivorlar yoki multfilm qahramonini yodga olishlari uchun kichik suhbat quriladi. Har bir o‘quvchidan kimga xat yozmoqchi ekanini aniqlab olish so‘raladi.

Asosiy qism

Yozma nutq. Sintaksis

Berilgan ko‘rsatmalar asosida o‘quvchilar jonivorlarga xat yozadilar.

12. Ko‘rsatmalar bilan tanishing. Xat yozing.

Boshlanmalardan birini tanlashingiz mumkin:

1. Assalomu alaykum …! 2. Do‘stim (dugonam) …! 3. Salom, mening…! 4. …!

Ushbu boshlanmalarning har biri qisqacha tahlil qilinadi, kimga qanday boshlash ma’qulligi so‘raladi. O‘quvchilar nima uchun ushbu tanlovni amalga oshirganini tushuntirishga harakat qiladi.

Unga nimalar haqida aytmoqchisiz?

1. Bilasan(siz)mi, …

2. Men xohlardimki, …

Matnda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til birliklarining imlosi xattaxta yoki elektron doska orqali

namoyish etilishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilardan tez-tez qaysi so‘zni yozishda ikkilanayotganlari haqida so‘rab turiladi.

Berilgan topshiriqni bajarishda muammoga duch kelayotgan o‘quvchilarga alohida shaklda kerakli amaliy tavsiyalar berib boriladi.

O‘quvchilar ijodiy ishlarining taqdimoti bo‘lib o‘tadi, ularga munosabat bildiriladi va baholanadi.

13. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi xatoliklarni aniqlang va matnni xatosiz ko‘chiring.

Eslatma! Ushbu matnni tahrir qilishda -ni, -lar qo‘shimchalari, bosh harflar imlosi hamda talaffuz bilan imlodagi farqli jihatlarga e’tibor bering.

Berilgan ko‘rsatma asosida matn tarkibidagi xatolar topiladi. Avval o‘quvchilardan matnda nechta xato borligini aniqlash so‘raladi. Ularning javoblari o‘qituvchining javobi bilan taqqoslanadi. Mustaqil holatda matn tahrir qilinadi. Shundan so‘ng matnning eng to‘g‘ri holati ekran orqali namoyish etiladi.

Yer sharining juda katta qismi, ya’ni 71 foizi suv bilan qoplangan. Bu suvlar to‘rtta ulkan okean: Tinch okean, Atlantika okeani, Hind okeani, Shimoliy muz okeani hamda ko‘plab dengiz-u daryo hissasiga to‘g‘ri keladi. Tinch okean hududining o‘zi Yer sharining deyarli yarmini qoplagan.

BARAKA DARYOSI

(6+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilar ongida daryolar, ularning tabiatdagi o‘rni va vazifasi haqida tushuncha hosil qilish, mavzuga oid til birliklarini faollashtirish, berilgan rasmlar asosida fikrni tartibli hamda mantiqli ifodalash, mavzuga oid so‘z va birikmalarni qo‘llash, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, darak gap, darak gaplarning aytilish ohangi, ularda tinish belgisining qo‘llanishiga doir ko‘nikmalarni hosil qilish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar bo‘lim hamda yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirib olish uchun ular bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilinadi:

Suv havzalari deganda nimani tushunasiz? Ular bizga nima uchun kerak?

O‘quvchilarning javobi tinglangach, suv havzasi – suv olinadigan hududga nisbatan aytilishi, uning kundalik hayotimizda muhimligi, insoniyat, hayvonot olami, jonli tabiatning ajralmas qismi ekani tushuntiriladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Quyida nomi berilgan suv havzalarini tasvirlab bering. Ularning o‘zaro farqli jihatlari haqida so‘zlang. Izohli lug‘atdan foydalaning.

Darslikda turli suv havzalarining nomi berilgan. Ularning har biri doskaga yozilib, baland ovozda o‘qib beriladi. So‘ngra har bir o‘quvchidan suv havzasi haqida bilgan ma’lumotlari so‘raladi. Ularning bergan javoblarini o‘qituvchi to‘ldirib boradi. Bunda o‘quvchiga lug‘at bilan ishlash jarayoni ham tushuntiriladi:

- *Doskada yozilgan suv havzasining nomini o‘qing.*
- *Darslikning so‘nggi sahifalaridagi izohli lug‘atni oching.*
- *Qidirayotgan so‘zingizning bosh harfini alifbo tartibida lug‘atdan toping.*
- *So‘zga berilgan izohni o‘qing.*

O‘quvchilar har bir suv havzasi haqida izohli lug‘atdan ma’lumot topgach, ular taqqoslanadi, farqli jihatlari guruh bilan birgalikda muhokama qilinadi. O‘qituvchi muhokama jarayonida o‘quvchilarning javoblarini to‘ldirib, to‘liq ma’lumot berib boradi:

- ***Ariq** – ekin ekish va sug‘orish uchun ekin maydonida tortilgan maxsus suv yo‘li, jo‘yak.*
- ***Daryo** – tabiiy o‘zandan doimiy ravishda oqib turadigan katta suv.*
- ***Ko‘lmak** – chuqur joyga to‘planib qolgan yomg‘ir suvi, halqob suv.*

• ***Anhor*** *– katta sug‘orish kanali.*

• ***Ko‘l*** *– atrofi berk, chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi.*

• ***Okean*** *– ulkan suv havzasi.*

• ***Dengiz*** *– okeanning quruqlikka tutashgan bo‘lagi.*

• ***Hovuz*** *– suv saqlash uchun xizmat qiladigan, maxsus qazilgan chuqurlik.*

Yozma nutq

1. Berilgan so‘zlar ishtirokida uchta gap tuzib, yozing.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O‘quvchilar suv havzalari haqida ma’lumotga ega bo‘lgach, ularni qatnashtirib gap tuzishlari lozim. O‘quvchilarning topshiriqni mustaqil bajarishlari nazorat qilinadi.

O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lishgach, yozgan gaplari o‘qitiladi va guruh bilan birgalikda tekshiriladi.

Bu topshiriqni bajarishdan asosiy maqsad o‘quvchilarning suv havzalariga oid lug‘at boyligini oshirish hamda ularga so‘zni o‘rinli qo‘llashni o‘rgatishdan iborat.

Og‘zaki nutq

O‘zbekiston gerbiga qarang. Savollarga javob bering.

Darslikda O‘zbekiston gerbining rasmi bor. O‘quvchilarga gerb davlatimiz ramzi ekani, undagi har bir tasvir ma’no ifodalashi aytiladi hamda rasm ostidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Gerbimizda qaysi daryolar tasvirlanganini bilasizmi?

Gerbda ikkita daryoning tasviri berilgan. Bunda o‘quvchilar egallagan bilimlariga asosan daryolar qadim tarixga ega ekani, bir necha asrlardan buyon yurtimizni suv bilan ta’minlab kelishi hamda ularning Amudaryo va Sirdaryo deb nomlanishini aytib bera olishi nazarda tutilgan. O‘quvchilar yetarlicha javob berolmasa, o‘qituvchi qo‘shimcha ma’lumot bilan to‘ldirib boradi.

2. Nima deb o‘ylaysiz, nega gerbda aynan shu daryolar tasvirlangan?

Bu savol orqali o‘quvchilarning yurtimiz Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashganligi, bu daryolar tabiatimiz uchun muhimligi hamda xalqimizga berilgan ne’mat ekanini bilishi maqsad qilingan.

3. Tabiatda daryolar qanday paydo bo‘ladi?

Bu savolga o‘quvchilar darslar davomida egallagan bilimlari hamda hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab, mantiqan javob berishlari lozim. Bu jarayonda o‘quvchilarga “Suvning vatani” hikoyasini yodga olishlari va uning mazmunida kelib chiqib javob berishlari aytiladi.

4. **Daryolar tabiatda qanday vazifani bajaradi?**

O‘quvchi daryolar insoniyat, hayvonot olami va o‘simliklar dunyosi uchun tiriklik manbai ekanini, u bo‘lmasa, hamma joy cho‘lga aylanib ketishini tushunib, mantiqan fikrlab aytib bera olishi lozim.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, baraka nima degani? Baraka daryosi deganda nimani tushunasiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

“Baraka daryosi” audiomatnini tinglang.

O‘qituvchi taqdim qilingan audiolarni ovoz kuchaytirgich orqali eshittirishi lozim.

Yozma mashq

2. Amudaryo haqida aytilgan to‘g‘ri fikrlarni ko‘chirib yozing. Noto‘g‘ri fikrlarni esa tuzatib ayting.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O‘quvchilar tinglagan audiomatnlari asosida berilgan gaplarni to‘g‘ri va noto‘g‘riga ajratib yozishlari lozim. Bunda avval audiomatn qayta eshittiriladi, o‘quvchilar eshitib bo‘lgach, berilgan gaplarni ovoz chiqarmay ichlarida o‘qib, mustaqil ravishda to‘g‘ri deb bilganlarini mashq daftariga ko‘chirib yozishlari lozim.

Bu jarayonda asosiy e’tibor o‘quvchining audiomatnni tushunishi, berilgan gaplar nima uchun to‘g‘ri yoki nima uchun noto‘g‘ri ekanini matn asosida aytib bera olishiga qaratiladi.

Javob:

• *Amudaryoning uzunligi 2540 kilometrga teng.*

• *O‘zbekiston gerbida Amudaryo va Sirdaryo tasvirlangan.*

• *Amudaryoni arablar “Jayxun” deb atashgan.*

Yozma nutq

Berilgan chizmaga qarab kichik matn tuzing.

Bunda o‘quvchiga Amudaryo haqidagi ma’lumot chizma va qisqa matn ko‘rinishida berilgan bo‘lib, o‘quvchi chizmadagi yo‘nalishlar va ma’lumotlarni bog‘lab, daryoning uzunligi, kengligi va chuqurligi haqida kichik matn tuzishi lozim.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, yozganlari o‘qitiladi. Matnning imlosi, gaplarni mantiqan to‘g‘ri shakllantirishi tekshiriladi.

Bu topshiriqni bajarishdan asosiy maqsad o‘quvchilarda chizma va ma’lumotlarni bog‘lab, matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishdir.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, irmoq nima? U qanday hosil bo‘ladi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

O‘quvchilar darslikda berilgan “Ikki irmoq” matnini o‘qishlari lozim. Bunda o‘quvchilar bir yoki ikki gapdan o‘qigan holda matnni o‘qib chiqishadi. Bir o‘quvchi o‘qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi talab qilinadi.

Matn 2–3 marta qayta o‘qib bo‘lingach, 56-sahifadagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Katta irmoq nima uchun tez oqa oldi?

Bu savolning javobini topish uchun o‘quvchi matn bilan qayta ishlaydi. Matndagi gaplarni mazmunan bog‘lab, katta irmoq kuchli ekani hamda yo‘lida hech qanday to‘siq uchramagani uchun tez harakatlana olishini aytib berishi lozim.

2. Daraxtlar nima maqsadda katta irmoq yo‘liga peshvoz chiqdi?

Bu savolga o‘quvchilar matndan daraxtlarning irmoq oldiga peshvoz chiqqan o‘rnini topib, irmoq va daraxtning suhbati asosida mantiqan fikrlab javob berishi lozim.

3. Katta irmoq nima uchun daraxtlardan qochdi?

Bu savolning javobi katta irmoqning daraxtlar bilan suhbati jarayonida aytgan so‘zlari orqali aniqlashadi, ya’ni katta irmoqqa xos bo‘lgan chiranish, qizg‘anchiqlik uning daraxtlarga aytgan gapida namoyon bo‘lishini o‘quvchilar tushungan holda javob berishlari lozim.

4. Katta irmoq qanday halokatga uchradi?

O‘quvchilar matndan katta irmoqning halokatga uchragan o‘rnini topib, bunga sabab bo‘lgan jarayonlarni aytib berishi lozim.

5. Kichik irmoqqa daraxtlar qanday yordam ko‘rsatdi?

Bu savolning javobi matnda keltirilgan. O‘quvchilar kichik irmoqning mehnatkashligi, daraxtlarga yordam bergani bois quruqlikka singib hamda bug‘lanib ketishdan omon qolganini, tabiat go‘zal bo‘lishiga hissa qo‘shganini aytib bera olishi nazarda tutilgan.

6. Bunday hodisalar tabiatda rostdan ham sodir bo‘lishi mumkinmi? Agar mumkin bo‘lsa, qanday sodir bo‘ladi?

Bu savolning javobi matnda aynan keltirilmagan. O‘quvchi hikoyadagi voqealar real tabiatda sodir bo‘ladigan voqea-hodisalarning badiiy talqini ekanini his qilishi lozim. Chindan ham tog‘dan oqib tushgan irmoqlar daryoni hosil qiladi.

O‘quvchilar savollarga javob berib bo‘lgach, ularning javoblariga munosabat bildiriladi.

Muhokama

Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Darslikda test berilgan. O‘quvchilar to‘g‘ri javobni topib, nima uchun to‘g‘ri ekanini, qolgan variantlarni nima uchun noto‘g‘ri deb hisoblashlarini aytib berishi lozim. Bu topshiriq orqali ***peshvoz chiqibdi*** birikmasining ma’nosi anglashiladi.

To‘g‘ri javob: B va E

Matnda ajratib ko‘rsatilgan quyidagi bo‘laklarning ma’nosini muhokama qiling.

Darslikda berilgan til birliklari o‘qituvchi tomonidan baland ovozda o‘qib beriladi. Ularni birma-bir doskaga yozib, ma’nosi guruh bilan muhokama qilinadi.

Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning bergan javoblarini tinglab, ularni to‘ldirgan holda ibora, qiyoslash, o‘xshatishlar so‘zlarning ta’sirchanlik kuchini oshirishini tushuntirib berishi lozim.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Kichik irmoq keyin qayerlarga bordi deb o‘ylaysiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

O‘quvchilar darslikda berilgan “Ikki irmoq” hikoyasining 2-qismini o‘qishlari lozim. Bunda o‘quvchilar bir yoki ikki gapdan bo‘lib, matnni o‘qib chiqishadi. Bir o‘quvchi o‘qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi talab qilinadi.

Matn 2–3 marta qayta o‘qib bo‘lingach, savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Daryo kichik irmoqqa qanday maslahat berdi?

Ushbu savolning taxminiy to‘g‘ri javobi quyidagicha (lekin o‘quvchi buni o‘z tilidan aytishi lozim): vaqtingni behuda sarflab yurma, bizga qo‘shil, sen bilan birgalikda qudratli bo‘lamiz. Agar ko‘lga tushsa, suv ifloslanishi, quruqlikda esa singib ketishi mumkinligini aytadi.

2. Daryo qanday hosil bo‘lgan ekan?

Ushbu savolning taxminiy to‘g‘ri javobi quyidagicha: kichik-kichik irmoqlar qo‘shilib, katta daryoni hosil qilgan.

3. Kichik irmoq daryoga qo‘shilganidan so‘ng nimalar sodir bo‘ldi?

Ushbu savolning taxminiy to‘g‘ri javobi quyidagicha: daryo yanada kuchli bo‘ldi, kengaydi (kattalashdi), xarsangtoshlarni tolqon qildi, kemalarni yelkasida bemalol ko‘tarib yurdi, asovga aylandi.

4. Generatorning yurishidan hosil bo‘lgan kuch nima edi?

Bu daryoning kuchi bilan elektr toki olinishiga ishora. Daryo oqimi gidroelektr stansiya (GES)ning generatorlarini harakatga keltiradi. Natijada elektr toki ishlab chiqariladi. Odamlar bundan bahra oladi, suvsiz dasht-u biyobonlarga suv yetib boradi.

5. Bu ertakdan qanday xulosalar chiqarish mumkin?

Bu savolga o‘quvchilarning javoblari turli xil bo‘lishi mumkin.

DIQQAT! *Yuqoridagi savollarning javoblari faqat taxminiy bo‘lib, o‘quvchilar aynan shu so‘zlarni, shakllarni qo‘llab javob berishi shart emas, shu yo‘nalishda javob bersalar yetarli. Agar o‘quvchi bu yo‘nalishni topa olmasa, o‘qituvchi ko‘maklashib yuborishi lozim. Bundan tashqari, namunaviy javoblar asosida o‘qituvchi yakuniy xulosani ham e’lon qiladi.*

Muhokama

Matnda ajratib ko‘rsatilgan bo‘laklarning ma’nosini sinfda muhokama qiling.

Darslikda berilgan til birliklari o‘qituvchi tomonidan baland ovozda o‘qib beriladi. Ularni birma-bir doskaga yozib, ma’nosi guruh bilan muhokama qilinadi.

Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini tinglab, ularni to‘ldirgan holda ibora, qiyoslash, o‘xshatish kabi jihatlar so‘zlarning ta’sirchanlik kuchini oshirishini tushuntirib berish lozim.

Ayting-chi, bu sifatlar odamlarga ham xosmi? Odamlarga nisbatan ham bu so‘z birikmalarini qo‘llash mumkinmi?

O‘quvchilar bu savolga yuqorida keltirilgan birliklarning mazmunidan kelib chiqib, ularni odamlarga qo‘llash mumkinmi, yo‘qmi, agar qo‘llansa, qay holatda qo‘llanishi, qo‘llanmasa, nima uchunligini aytib berishi lozim.

Yozma nutq. Sintaksis. Punktuatsiya

3. Ertakdan xabar, so‘roq va buyruq mazmunidagi ikkitadan gap ko‘chiring. Tinish belgilariga e’tiborli bo‘ling.

Bunda o‘quvchilar matn bilan ishlaydi. Har bir gapga so‘roq berib, mazmunini anglagan holda ixtiyoriy ikkitadan so‘roq, buyruq va xabar mazmunidagi gapni ko‘chirib yozishi lozim.

Bu topshiriqda asosiy e’tibor o‘quvchining gaplarga to‘g‘ri so‘roq berishi hamda tinish belgilarini o‘rinli qo‘llay olishiga qaratiladi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, “Ikki irmoq” hikoyasidan qaysi qahramon sizga yoqdi? Nima uchun?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

O‘quvchilar darslikda berilgan “Ikki irmoq” matnini tushunishga qaratilgan testlarni mustaqil ravishda bajarishadi. O‘qituvchi topshiriqni qanday bajarish kerakligini tushuntiradi. Bu topshiriqlarda asosiy e’tibor so‘z va jumlaning kontekstdagi ma’nosiga qaratilgan. O‘quvchilar matn mazmunidan kelib chiqib, bir-ikkita gapni o‘zaro qiyoslab, javoblarni topib, yozishi lozim.

Yozma nutq

4. Ertakning 1- va 2-qismiga mos keluvchi quyidagi kichik mavzularni ikki ustunga ajratib yozing.

Bunda hikoya mazmuniga mos keluvchi voqealar berilgan. O‘quvchilar hikoyaning ikkala qismidan berilgan mavzular ularning qaysi bandida ishtirok etganini aniqlab, ularni ikki ustunga ajratib yozishlari lozim.

5. Bo‘sh o‘rinlarni to‘ldiring va ko‘chirib oling.

Darslikda hikoyadan olingan parcha keltirilgan bo‘lib, unda ayrim so‘zlarning o‘rni bo‘sh qoldirilgan hamda ushbu o‘rinlarga qo‘yish

uchun so‘z va qo‘shimchalar berilgan. O‘quvchilar gaplarni mazmuniga moslab ushbu o‘rinlarga kerakli so‘z va qo‘shimchalarni qo‘yib ko‘chiradilar. Bu topshiriq orqali o‘quvchining yozma savodxonligi, gaplarning mazmuniga mos jumla hamda qo‘shimchalarni qo‘ya olishi tekshiriladi. Bundan tashqari, o‘quvchi so‘zlarni o‘rinli joylashtirib, katta irmoqning qo‘pol nutqini xushmuomala nutqqa aylantirishi mumkin. Bu orqali bir xil mazmunni ikki xil gap bilan ifodalash mumkin ekani ko‘rsatib berilgan.

6. Siz ertakdagi voqeaning odamlar hayotiga qanday aloqasi bor deb o‘ylaysiz? Fikringizni yozing.

Bu topshiriqda o‘quvchilar hikoyadan olgan taassurotlari hamda hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab, o‘z tushunchasini yozishi lozim. Bu o‘rinda o‘quvchi hikoyadagi voqealarni real hayotga ko‘chirib, odamlar hayotiga bog‘liqlik tomonini ochib berishi maqsadga muvofiq.

Bu topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar matn bilan ishlaydi. Matnga munosabat bildira olishi, bog‘lanishli nutq tuza olishi, gapni to‘g‘ri shakllantirishi hamda yozma savodxonligi tekshiriladi.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, siz ham she’r yozganmisiz? Sizningcha, yaxshi she’r qanday bo‘lishi kerak?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda ikkita she’r berilgan, dastlab she’r hamda muallifi tanishtiriladi. O‘quvchilarga she’rni mustaqil, ovoz chiqarmay o‘qishlari aytiladi.

She’rni o‘qib bo‘lishgach, o‘qituvchi bir marta baland ovozda o‘qib eshittiradi.

So‘ng 61-sahifadagi topshiriqlarni bajarish boshlanadi.

Muhokama

Berilgan sarlavhalar ichidan she’rlarga mosini toping.

Bunda o‘quvchiga she’r mazmuniga mos sarlavha qo‘yishi uchun bir nechta tanlovlar berilgan. Sarlavhalar nomi o‘qib beriladi. O‘quvchilar she’r mazmunidan kelib chiqib javob berishlari lozim. Bunda asosiy maqsad – o‘quvchining o‘qib tushunish malakasini shakllantirish. O‘quvchilar she’r matniga munosabat bildira olishi, so‘zlarni o‘zaro bog‘lab mazmun chiqara olishi hamda matnda qo‘llangan o‘xshatishlarni tushunib, unga mos sarlavha ayta olishiga qaratiladi.

O‘quvchilar she’rlarga mos sarlavhalarni aytganlaridan so‘ng nima uchun aynan shu sarlavhani tanlaganlari, bu sarlavhani tanlashda ularga yordam bergan birliklar haqida aytib, fikrini isbotlab berishi talab etiladi.

Javob: *1-she’r –* ***“O‘zbekiston”,*** *2-she’r –* ***“Tog‘lar”.***

Barcha o‘quvchilarning javobi tinglangach, muhokama jarayoni boshlanadi. Bu jarayonda she’r matniga oid savollar bilan she’rning badiiy xususiyati ochib beriladi. O‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini ta’minlash maqsadida guruh bo‘lib ishlashdan foydalansa bo‘ladi.

Bunda o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi va har bir guruh birgalikda 1- va 2-she’rning qofiyalarini aniqlaydi, she’rdagi o‘xshatishlarni topib, nima uchun bunday o‘xshatishdan foydalanganligi so‘raladi. Aniq javobga yo‘naltirilgan savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. *Ezgulik nimaga o‘xshatilgan?*
2. *Shoir ikki daryo oralig‘i deganda nimani nazarda tutgan?*
3. *Shoir nima uchun daryoni ko‘zining oq-u qorasiga o‘xshatgan?*
4. *Shoir nimalarni billur kokil, uzun karvon, narvonga qiyoslagan? Nima uchun?*

Yozma nutq. Leksikologiya

7. Berilgan she’riy misralarda “daryo” so‘zi qanday ma’noda qo‘llanganini aniqlab, yozing.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Darslikda *daryo* so‘zining bir nechta ma’nolari misollar bilan berilgan. O‘quvchi ular bilan tanishib, she’r matnida qo‘llangan *daryo* so‘ziga mos keladigan jumlani topib, yozishi lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning jumlalar mazmunini tushunishi, so‘zlar ko‘p ma’noga ega ekanini his qilishi hamda ularni she’r matniga qiyoslay olishiga qaratiladi.

MUSTAHKAMLASH

Nutqiy mavzu yakunlangach, ushbu mustahkamlash darsi bo‘lib o‘tadi. Unda berilgan topshiriqlar o‘quvchining fan yuzasidan tutgan daftariga bajariladi. Topshiriqlar o‘tilgan nutqiy mavzu doirasida berilgan. O‘quvchilar og‘zaki va yozma holatda topshiriqlarni bajarishi lozim.

Asosiy qism

Muhokama

Ayting-chi, qanday suv havzalari bor ekan? Ular bizga nima uchun kerak? Fikringizni asoslab gapirib bering.

Bu topshiriq og‘zaki suhbat asosida tashkil qilinadi. O‘quvchilarning har biridan savolga munosabat so‘raladi. Bunda o‘quvchilar nutqiy mavzu davomida egallagan bilimlari asosida erkin fikrlab, mulohaza yuritib, hayotiy misollar bilan aytib berishlari lozim.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning suv havzalari va u bilan bog‘liq til birliklaridan foydalana olishi, nutqiy mavzuga munosabat bildira olishi hamda og‘zaki nutqi tekshiriladi.

Og‘zaki nutq

Berilgan jumlalarni o‘qing. Ularning “Ikki irmoq” matniga qanday aloqasi bor? Ushbu o‘rinlarni matndan topib, izohlab bering.

O‘qituvchi tomonidan berilgan jumlalar xattaxtada yozilib, ularning ma’nosi o‘quvchilardan birma-bir so‘raladi. So‘ng har bir o‘quvchi ushbu o‘rinlarni matndan topib, qanday holatda qo‘llanganini aytib berishi lozim.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi, matndan kerakli o‘rinni topib, munosabat bildira olishi tekshiriladi.

Yozma nutq

Suv havzalarini toza saqlash va ulardan unumli foydalanish haqida do‘stingizga uchta tavsiya yozing.

Bu topshiriqni har bir o‘quvchining o‘zi mustaqil bajaradi. Bunda o‘quvchilar nutqiy mavzudan egallagan bilimlari asosida suv havzalarini toza saqlash, ulardan to‘g‘ri va unumli foydalanish hamda buning yaxshi tomonlari haqida do‘stlariga tavsiya yozishlari lozim.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, yozgan tavsiyalari birma-bir o‘qitiladi. Bu jarayonda o‘quvchining so‘z boyligi, so‘zlardan o‘rinli foydalana olishi hamda mazmunli bog‘lanishli nutq tuza olishi tekshiriladi.

SALOMATLIK GAROVI

(6 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda nonushta, tushlik va kechki ovqat dasturxoni, taomnomalariga oid lug‘at boyligini shakllantirish. Taomlar nomining talaffuzi va imlosini o‘rgatish. Qoidalar ishlab chiqishda qo‘llanadigan til birliklari, ovqatlanishga oid odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish. Ovqatni yeyishga oid so‘z birikmalari, iboralarni o‘rgatish. Narsa va harakatni bildiruvchi so‘zlarning farqini anglatish. Ko‘p ma’noli so‘zlarning kontekstual ma’nosini aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirishib olish uchun o‘quvchilar bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Unda o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

- *Nonushtaga kim nima yeydi?*
- *Tushlik paytida nimalar yeyishni yoqtirasiz?*
- *Qaysi taomlarni tayyorlashni bilasiz yoki qaysi taomlarni tayyorlashda onangizga yordam berasiz?*

Savollar umumiy tarzda beriladi va istagan o‘quvchi javob berishi mumkin.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

O‘quvchilar uch guruhga ajratilib, “Nonushta”, “Tushlik”, “Kechki ovqat” deb nomlanadi. Ulardan o‘z nomiga tegishli dasturxonni topish va tasvirlab berish so‘raladi. Bu imkonsiz bo‘lsa, rasm ostidagi savollar bilan o‘quvchiga murojaat qilish ham mumkin.

1-dasturxon: nonushta; 2-dasturxon: tushlik; 3-dasturxon: kechki ovqat.

Yozma nutq

1. Ushbu topshiriqni xattaxtada ham, daftarda ham bajarish mumkin. Jarayonda qaysi biri qulay bo‘lsa, shu usulni qo‘llash tavsiya etiladi. Bizningcha, eng maqbuli – xattaxtada bajarish. Xattaxta uch ustunga ajratiladi va 1-, 2-, 3-dasturxon deb yozib qo‘yiladi. O‘quvchilar xattaxtaga chiqib, dasturxonlarda nimalar borligini yozadi. Bunda o‘quvchilardan faqat nomini yozish talab qilinadi. Topshiriq yakunlangach, o‘qituvchi tekshirib, xatolarni to‘g‘rilab qo‘yadi.

1-dasturxon	2-dasturxon	3-dasturxon
choy non asal oqqand quymoq mevalar bo‘tqa bo‘g‘irsoq	choy non mevalar tuz suyuq osh	choy non palov pomidor

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *To‘g‘ri ovqatlanish deganda nimani tushunasiz?*

• *Yegan ovqatimiz bizni kasal qilishi mumkinmi?*

• *Siz ovqat sabab kasal bo‘lib qolganmisiz?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish

O‘quvchilar navbati bilan qoidalarni o‘qiydi va undan tushunganini og‘zaki bayon qiladi.

Muhokama

Darslikning 63-betida berilgan rasmli topshiriq muhokama tarzida bajariladi. Unda o‘quvchilar rasmda ko‘rsatilgan mahsulotlardan qaysi biri zararli ekanini, nimasi bilan zararli ekanini aytishi kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘quvchilar shu mahsulotni zararli deyishiga yuqoridagi qaysi qoida asos bo‘lganini aytib berishi lozim. Ushbu muhokamani ham guruhlarda musobaqa tarzida tashkillash mumkin. Ikki guruhga bo‘linib, foydali va zararli mahsulotlarni tanlab, ularning xususiyatlarini aytib berish tarzida tashkillash tavsiya etiladi.

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida berilgan ko‘plab topshiriqlarni guruhlarda ishlash tarzida amalga oshirish mumkin. Bunda o‘qituvchi jarayonning kechishiga qarab individual yoki guruhlarga bo‘lib topshiriq berishdan birini o‘zi tanlashiga imkon berilgan. Kichik sinflarda ko‘proq guruhda ishlash orqali o‘quvchilar o‘zaro muloqotga kirishishga o‘rganadi, o‘zlarini jamiyatning bir bo‘lagi sifatida his qiladi. Guruhlarda ishlash bir-birini qo‘llab-quvvatlash, o‘rtaga fikr tashlash va uni muhokama qilish, bir-birini hurmat qilish kabi umuminsoniy ko‘nikmalarning rivojlanishiga ham katta yordam beradi.

Yozma nutq

2. O‘quvchilar darslikning 63-betidagi yozma topshiriqqa ko‘ra, “Mening zararli odatlarim” mavzusida matn yozishi kerak. Bunda yuqorida o‘rgangan 5 qoidadan qaysi birini buzib turishi haqida yozish talab etiladi.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Narsalarni aralashtirib yeyish zararli ekaniga ishonasizmi?*

• *Sizningcha, ko‘p ovqat yeb qo‘ysa, nima bo‘ladi?*

• *Biror marta qorningiz og‘rib qolganmi? Sababi nima edi?*

• *“Nafsni tiyish” deganda nimani tushunasiz?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Nafs balosi” she’ri asosida

Dastlab o‘qituvchi she’rni ifodali tarzda o‘qib beradi. Shundan so‘ng o‘quvchilar to‘rtliklarni navbat bilan o‘qiydilar. O‘qituvchi o‘quvchilar she’rni yana bir bor ichda o‘qib olishlari uchun vaqt beradi. She’r matnini ichda o‘qib olish o‘quvchilarning diqqatini yanada oshiradi. Avvalgi safar bittagina to‘rtlik o‘qigan bola she’rni to‘liq o‘zi o‘qimagani uchun savollarga aniq javob berishda qiynalishi mumkin. Shuning uchun she’rlar kelgan o‘rinlarda uni ichda o‘qib olishga ozgina vaqt berish tavsiya etiladi.

Savol-javob

O‘quvchilar bilan darslikning 64-betida berilgan savollar asosida savol-javob o‘tkaziladi.

Leksikologiya

Savollardan keyin berilgan topshiriq og‘zaki yoki xattaxtada bajarilgani ma’qul. Ushbu topshiriqda she’r matnidan ayrim birikmalar keltirilgan, o‘quvchilar shulardan qaysi biri ***yemoq*** ma’nosini anglatishini topishi kerak bo‘ladi. Bunda avval birikma tarkibidagi so‘zlarni alohida-alohida tahlilga tortish, so‘ng umumlashtirib ma’no chiqarish samarali bo‘ladi. Masalan, *to‘g‘ri qoringa ketdi – to‘g‘ri* so‘zi *xatosiz, bevosita* ma’nosini anglatadi, *qorin* so‘zi *oshqozon, qorin bo‘shlig‘i* degan ma’noni anglatadi, *ketdi* so‘zi *ma’lum maqsad sabab biror joyga bormoq, jo‘namoq* ma’nosida qo‘llanadi. Mana shu uch ma’noni birlashtirsak, *oshqozonga tomon bexato, to‘siqsiz yo‘naldi* degan umumiy ma’no hosil bo‘ladi. Bu *yemoq* fe’lining ma’nosiga yaqin. Bu bilan o‘quvchilarda ibora va turg‘un birikmalarning ma’nosini yechish ko‘nikmasi rivojlanib boradi. Bu topshiriqda birikmalar konteksti she’r deb qaraladi.

Javoblar: *pok-pokiza tushirdi, qayoqqadir bo‘ldi zim, to‘g‘ri qoringa ketdi, ko‘rgach baham.*

Yozma mashq. Morfologiya

3. O‘quvchilar she’r matni bilan yana bir topshiriqni bajaradi. Unga ko‘ra, mashq daftarida darslikning 65-betida berilgan jadvalni to‘ldirishadi.

Bu o‘quvchilarning ot va fe’l so‘z turkumlarini farqlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Ushbu topshiriqni daftarda ham bajarish mumkin, lekin sinfning holati va jarayon taqozo qilsa, xattaxtada bajarsa ham bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarga savol tariqasida berilib, o‘qituvchi tomonidan yozilishi yoki o‘quvchilarning o‘zi so‘z qaysi ustunga tegishli ekanini aytib, chiqib yozishi mumkin. Namunaviy javoblar:

Narsa nomini bildiruvchi so‘zlar	Harakatni bildiruvchi so‘zlar
qatiq	kelib
palov	o‘tirdi
qorin	tushirdi
ishkom	ketdi
uzum	mo‘ralab
qovun	zim bo‘ldi
	yemoq
	yig‘ladi
	tiymadi
	kirsa

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Ovqatlanishda ham odob-axloq qoidalari bo‘lishi mumkinmi?*

• *Dasturxon atrofida kattalar sizga tanbeh berishganmi? Nima uchun?*

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“Ovqatlanish odobi” audiomatni asosida

Audiomatn bir yoki ikki marta qo‘yib eshittiriladi. Shundan so‘ng darslikning 65-betida berilgan savollar asosida muhokama o‘tkaziladi. Muhokamadan so‘ng shu betda berilgan sarlavhalardan eng mosi tanlanadi. O‘quvchilar o‘zlari aytgan variantlarni asoslab berishi kerak bo‘ladi. Ya’ni aynan shu sarlavha mos tushadi deyishining sababini aytib berishi zarur.

Yozma nutq

4. Darslikning 65–66-betlarida audiomatnga mos tarzda rasmlar berilgan, o‘quvchilar ana shu rasm hamda audiomatnga tayangan holda bir nechta gap tuzishi kerak bo‘ladi. Bu gaplar bir-biridan mustaqil bo‘lishi mumkin, ya’ni o‘quvchilar yaxlit matn yaratishi talab qilinmaydi. Bundan tashqari, tuzilgan gaplar qoida ko‘rinishida, ohangida bo‘lishi talab qilinadi. O‘quvchilar audiomatnda eshitgan, uyda kattalar aytgan, lekin rasmda yo‘q qoidalarni ham kiritishi mumkin.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Ertaklarda tulki qanday qahramon sifatida tasvirlanadi?*

• *Odamlarni ham tulki desa bo‘ladimi? Qanday odamlarni tulki deyish mumkin?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Tulki bilan laylak” ertagi asosida

O‘qituvchi dastlab o‘quvchilar ertakni ichlarida o‘qib olishlari uchun vaqt beradi. Vaqt tugagach, o‘qituvchining o‘zi bir marta o‘qib beradi, so‘ng o‘quvchilardan bir nechtasi matnni o‘qib ko‘radi. Matn bir necha marta o‘qilgach, darslikning 67-betidagi savollar asosida muhokama o‘tkaziladi.

Leksikologiya

Darslikning 67-betida savollardan keyin ertak matnidan olingan ko‘p ma’noli so‘zlar berilgan. Shu so‘zlarning ikkitadan ma’nosi izoh sifatida yozilgan. O‘quvchilarning vazifasi ertak matnida ana shu ma’nolardan qaysi biri qo‘llanganini topishdan iborat. Ushbu topshiriqni guruhlarga bo‘lib yoki umumiy muhokama tarzida tashkillab bajarish mumkin. Bunda o‘qituvchi bitta so‘zning qaysi ma’nosi ishlatilganini topishni ko‘rsatib, qolgan uchtasini topshiriq sifatida berishi ham mumkin. Javoblar:

chaqirmoq – *taklif qilish, biror joyga kelishga undash;*

suzmoq – *tayyor yegulikni idishga taqsimlab solish;*

qo‘ymoq – *qo‘lidagi narsani biror joyga o‘rnashtirish;*

tortmoq – *ulashish, tarqatish, qo‘yish.*

Mana shu topshiriq orqali o‘quvchilar ongida so‘zlarning bir necha ma’nolari bo‘lishi mumkinligi, o‘sha ma’nolardan qaysi biri ishlatilganini esa faqatgina vaziyatga qarab aniqlash mumkinligi haqidagi qoida shakllanadi. Bu til o‘zlashtirishdagi eng muhim ko‘nikma hisoblanadi.

Yozma nutq

5. Darslikning 68-betida 8 ta gap berilgan. Shu gaplarda yuqorida o‘rganilgan so‘zlar turli ma’nolarda qo‘llangan. O‘quvchilarning vazifasi o‘sha ma’nolardan qaysi biri ishlatilayotganini topishdan iborat. O‘quvchilar gaplarni ko‘chirib yozishlari kerak bo‘ladi, lekin undan oldin sinfda muhokama tashkillanadi. Muhokamada gaplarda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qanday ma’noda qo‘llanayotgani aniqlanadi. Ma’nolarni aniqlashda 67-betdagi izohlardan foydalanish tavsiya etiladi.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

- *“Salomatlik garovi” mavzusida nimalarni o‘rgandingiz?*
- *Mavzudagi ma’lumotlar biror odatingizni o‘zgartirishga undadimi?*

Asosiy qism

Yozma nutq

6. O‘quvchilar ushbu soatda matn yaratishi kerak bo‘ladi. Matnni darslikning 68-betida berilgan savollarga javob yozish asnosida yaratishlari mumkin. Ya’ni o‘quvchilarning ana shu savollarga yozma javob berishining o‘zi ularning matn yaratgani hisoblanadi. Har bir savolga javobni yangi xatboshidan boshlash kerakligini tushuntirish lozim.

O‘quvchilardan risoladagidek matn tuzishlari kutilmaydi. Yozgan matnlari asosida ularning kamchiliklarini aniqlash maqsad qilingan. Shuning uchun ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida matn yaratish topshiriqlari juda ko‘p uchraydi. Bunday topshiriqlar o‘quvchining imloviy, grammatik kamchiliklarini aniqlashda juda ham qo‘l keladi. O‘qituvchi o‘quvchining bir matnida 10 ta xato ko‘rsa, hamma kamchiliklarni to‘g‘rilashni o‘rgatishi shart emas, bir matnda bitta kamchilikni rostlashning o‘zi yetarli.

VITAMINLAR

(6+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: suv havzalari, ularning nomlanishi bilan bog‘liq tasavvurlarni kengaytirish, ushbu jarayonda faol qo‘llanadigan til birliklaridan foydalanishga o‘rgatish, berilgan mashq va topshiriqlar yordamida og‘zaki, yozma, o‘qib va tinglab tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. Ushbu mavzu doirasida nimalar haqida suhbat qurish mumkinligi haqida ma’lumot beriladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

O‘quvchilar e’tibori darslikda berilgan rasmga qaratiladi.

1. Rasm nima haqida?

O‘quvchilar o‘z tasavvurlari asosida rasmda nimalar tasvirlanganini aytib beradilar. Mahsulot nomlari, vitaminlarning nomlarini aytish so‘raladi. Ushbu rasm nima uchun kerak, qanday paytlarda bu rasmdan foydalanish mumkinligi so‘raladi.

2. Qanday vitaminlarni bilib oldingiz?

Rasmda berilgan vitamin nomlari aytiladi.

3. Qanday mahsulotlarda A vitamini bor?

Bunday savollar o‘quvchilarning grafikli ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni o‘qiy olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar A vitamini bor mahsulot nomlarini birma-bir sanaydilar.

4. Baliqda qanday vitaminlar bor?

Ushbu savolga javob berish uchun o‘quvchilar baliq tarkibida bir nechta vitaminlarning borligini aniqlagan bo‘lishi kerak. Qaysi vitaminlar borligi haqida ma’lumot beriladi.

5. C vitamini qaysi mahsulotlarda uchraydi?

C vitamini haqida gap ketganda uning nomlanishiga e’tibor qaratiladi. Xalqaro atama sifatida shunday nom tanlanganini tushuntirib o‘tish mumkin. C vitamini mavjud mahsulot nomlari birma-bir aytiladi. Umumiy xulosalar chiqarib borish so‘raladi. Masalan, “C vitamini asosan meva va sabzavotlarda uchraydi” kabi.

6. Qo‘ziqorinda qanday vitaminlar bor?

Qo‘ziqorinni nechta o‘rinda tasvirlanganiga e’tibor qaratiladi. Uning tarkibida bir necha xil vitaminlar borligi aytib o‘tiladi.

7. Nonda ham vitamin bormi?

Nonda uchraydigan vitaminlar haqida suhbat olib boriladi. Shu o‘rinda o‘quvchilar har kungi iste’mol qiladigan taomlari haqida gapirishlari mumkin. Nonning qanday turlarini iste’mol qilishlari haqida ma’lumot aytib, uning xususiyatlarini sanab berishlari ham mumkin.

8. Tuxumda qanday vitaminlar bor?

O‘quvchilar ushbu savolga rasm asosida javob beradilar. Kundalik hayotda tuxumni qanchalik iste’mol qilishlari, tuxumdan tayyorlanadigan taomlar haqida suhbat olib boriladi.

9. D vitamini qaysi mahsulotlarda uchraydi?

D vitamini qaysi mahsulotlarda uchrashi haqida ma’lumot berilgandan so‘ng o‘quvchilar uning foydali xususiyatlari haqida gapirib berishlari mumkin.

10. Ayting-chi, bu vitaminlarning inson salomatligiga qanday ta’siri bor?

O‘quvchilar o‘zlari eshitgan ma’lumotlari asosida har bir vitamin va mahsulotning foydali jihatlari haqida gapiradilar.

Yozma mashq

1. Berilgan vitamin turlari qaysi mahsulotlar tarkibida uchrashini yozing.

A, C, D vitaminlari qaysi mahsulotlarda uchrashi haqida yozadilar. Bunda uyushiq bo‘laklarning gaplardagi ifodasi, tinish belgilardan foydalanish qoidalariga amal qilish kerakligi eslatiladi. Zarurat sezilsa, namuna ko‘rsatiladi.

2. Ushbu mahsulotlarning foydaliligi haqida gaplar tuzib, yozing.

O‘quvchilar yuqoridagi mashqda nomlari keltirilgan mahsulotlarning foydali jihatlari haqida kichik matn yaratadilar. Qo‘llanadigan til birliklari, so‘z shakllari, tinish belgilari bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Vitaminlar haqida o‘tilgan mavzuda olingan ma’lumotlar asosida suhbat quriladi, vitaminlar haqida qiziqarli matn bilan tanishish aytiladi.

Nima deb o‘ylaysiz, matn nima uchun “Vitaminjon” deb nomlangan?

Biz qachon “jon” qo‘shimchasidan foydalanamiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

O‘quvchilar berilgan matnni diqqat bilan ifodali o‘qish uchun tayyorlanadi. Matn bir necha marta qayta o‘qitiladi. So‘ng matn yuzasidan berilgan savollar asosida suhbat olib boriladi.

1. A vitamini nega xafa bo‘ldi?

A vitaminining xafa bo‘lishi bilan bog‘liq vaziyat yodga solinadi. Ushbu holatning sabablari aniqlanadi.

2. A vitamini C va D vitaminlari bilan qayerda ko‘rishdi?

Vitaminlar bir-birlari bilan qayerlarda uchrashishi mumkinligi so‘raladi. Olimjonning oshqozonidagi holatni qanday tasavvur qilayotganlari haqida suhbat olib boriladi. Vitaminlar nima uchun bunday holatda tasvirlangani so‘raladi.

3. C vitamini nimadan xavotirga tushdi?

Vitaminlar Olimjonning sog‘ligidan havotirda ekanligi haqida suhbat olib boriladi. Vitaminlarning sog‘liqqa ta’siri haqida ma’lumotlar aytiladi.

4. Olimjon haqida fikr bildiring.

Olimjonning xatti-harakatlari asosida uning qanday bola ekani haqida fikr bildiriladi. Har bir bola Olimjonning sifatlarini o‘zidagi sifatlar bilan taqqoslashi kerakligi so‘raladi.

Barcha fikrlar umumlashtiriladi, birinchi qism uchun kerakli xulosalar chiqariladi.

Yozma nutq. Leksikologiya

3. Berilgan so‘z va birikmalarni ularning izohi bilan moslashtirib ko‘chiring.

Berilgan so‘zlarning ma’nolari aniqlanadi, ular matn tarkibida qaysi o‘rinda uchraganiga e’tibor qaratiladi. Shu asosda ularning tanlangan ma’nolari mos kelgan yoki kelmagani tekshiriladi.

Yaxlatmoq – muzlatmoq.

Hafsalasi pir bo‘lmoq – ko‘ngli qolmoq.

Fahmlamoq – tushunmoq.

Susaymoq – pasaymoq.

4. A, D, C, E vitaminlarining xususiyatlarini yozing.

Namuna: *D vitamini bo‘y o‘sishi uchun juda zarur.*

Ushbu topshiriq matnda berilgan ma’lumotlar asosida yoziladi. O‘quvchilar ko‘rsatilgan vitaminlarning xususiyatlarini ajratib olib, ular haqida matn yaratadilar.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

“Vitaminjon” matnining birinchi qismi mazmuni yodga olinadi. O‘quvchilar ushbu matnni so‘zlab beradilar.

O‘qituvchi ularning nutqini kuzatadi, kerakli so‘zlar, til birliklaridan o‘rinli foydalanishi uchun ularga ko‘maklashadi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Vitaminjon” matnining ikkinchi qismi bir necha marta o‘qitiladi. Ayrim so‘zlar talaffuzi va imlosiga e’tibor qaratiladi.

1. Olimjon nima uchun haftalab kasal bo‘lar ekan?

Savollarga matnda berilgan ma’lumotlarga asoslanib javob beriladi.

2. Antibiotik nima? Sizga ham shifokor antibiotik tavsiya qilganmi?

Antibiotik nima ekani haqida so‘raladi. O‘quvchilar o‘z tasavvurlari asosida antibiotiklar haqida bilganlarini aytadilar. Kundalik hayotda qachon bu so‘zga duch kelganlari, ularni qanday ko‘rinishda qabul qilganlari haqida suhbat olib boriladi.

3. D vitamini bilan A vitamining suhbatini aytib bering.

O‘quvchilar matndan shu qism bilan bog‘liq suhbatni ajratib olib, uni qayta so‘zlab berish uchun tayyorlanishadi. Bunda vitaminlarning kayfiyati, so‘zlash ohangini e’tiborga olish muhimligi eslatib turiladi.

4. E vitamini qanday ma’lumotlarni aytdi?

E vitamini aytib bergan ma’lumotlar sanaladi. O‘quvchilardan qo‘shimcha ma’lumot sifatida bu haqida nimalarni bilishlarini so‘rash mumkin.

Yozma mashq. Talaffuz va imlo

5. Ayting-chi, vitaminlar Olimjonning tushiga kirib nima degan bo‘lishi mumkin?

Vitaminlarning maqsadini tushunib yetganligini aniqlab olish uchun o‘quvchilardan ayrim savollarga javoblar olinadi, ular Olimjonning tushiga kirib nimalar degan bo‘lishi mumkinligi so‘raladi.

Barcha fikrlar umumlashtiriladi, ikkinchi qism uchun kerakli xulosalar chiqariladi.

5. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni talaffuz qiling va daftaringizga yozing. Talaffuzi va yozuvda qanday farqni sezdingiz?

Imlosi va talaffuzi bir-biridan farq qiluvchi so‘zlar matnda ajratib ko‘rsatilgan. O‘quvchilarning e’tibori aynan shunday tovushlarga qaratiladi. Nima uchun shunday talaffuz qilinishi, olinma so‘zlar haqida ma’lumot beriladi. Bunday qoidalarga mos keluvchi so‘zlarga misollar aytiladi.

6. Berilgan so‘zlarni namunadagi kabi bo‘laklarga ajratib yozing.

So‘z yasalishi

Foydali – foyda+li, shifokor – shifo+kor, sutli – sut+li, haftalab – hafta+lab, quvvatsiz – quvvat+siz, boshoqli – boshoq+li, so‘zla – so‘z+la, baquvvat – ba+quvvat, ishla – ish+la, sportchi – sport+chi, ko‘pchilik – ko‘p+chilik, chandiqsiz – chandiq+siz.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

“Vitaminjon” matni voqealari yodga olinadi, buning uchun o‘quvchilar matnni qayta so‘zlab berishlari ham mumkin.

Asosiy qism

Yozma nutq

7. Olimjon qanday bola? Uning sifatlarini jadvaldan ajratib yozing.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilar Olimjonga xos bo‘lgan sifatlarni yaxshi bilishlari kerak. Shuningdek, jadval ichida berilgan sifatlar matndan olinganiga e’tibor qaratiladi.

Chimxo‘r, qaysar, qoqsuyak, kamquvvat, tanbal, rangpar, ozg‘in, nimjon, uyquchi.

8. Olimjonning zararli odatlarini yozing.

Namuna: 1. Olimjon chimxo‘r, ovqatni tanlab yeydi, foydali mahsulotlar bilan ovqatlanishni yomon ko‘radi.

O‘quvchilar birin-ketin Olimjonning zararli odatlarini yozadilar. Zararli odatlarni yozish jarayonida bu odatlar qanday zarar keltirishi haqida ham fikr bildirishlari va shu orqali ikki qismli gap yoki qo‘shma gaplarni hosil qilishlari mumkin. Buning uchun o‘qituvchi ularga yordam berishi kerak. *Shuning uchun, shu sababli* kabi birikmalardan foydalanib gapni davom ettirish mumkinligini tavsiya etadi.

9. Tarkibida A vitamini uchraydigan ko‘katlar rasmi berilgan. Ularning nomini yozing hamda foydali jihatlari haqida o‘zaro bahs yuriting.

Avval rasmda berilgan ko‘katlar nomlanadi, shundan so‘ng matnda berilgan ma’lumotlarga tayangan holda qanday vitaminlar borligi, foydali jihatlari haqida fikr bildiriladi.

Petrushka, shovul, ismaloq, shivit.

Og‘zaki nutq

Topishmoqlarning javobini toping.

1. Karam. 2. Tarvuz.

Ushbu mahsulotlarning foydali jihatlari haqida fikr bildiring.

Berilgan topishmoqlar bir necha marta o‘qiladi, ularning javobini topish so‘raladi. O‘quvchilar she’rda berilgan qaysi belgilarga ko‘ra ushbu topishmoqning javobini topganlarini tushuntiradilar. Masalan, qat-qat to‘n belgisi asosida bu narsani piyoz, karam singari sabzavot deb o‘ylash mumkin. Lekin “zo‘r ketaman do‘lmaga” degan misra uning karam ekanini anglatishini aytishlari kerak.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Bozor nima?

Bozorga nima uchun boramiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Berilgan she’r matni ifodali qilib bir necha marta o‘qitiladi.

She’rni o‘qitish jarayonida ifodali o‘qishga qiynaladigan o‘quvchilardan ushbu vazifani so‘rash ham maqsadga muvofiq. Bunda o‘qituvchi unga ayrim ko‘rsatmalarni berishi, takrorlashni so‘rashi ham mumkin.

Shuningdek, berilgan rasmlarga ham e’tiborni qaratish kerak. Ularni nomlash, tasvirlanishi haqida qisqa suhbat qurish mumkin.

1. Tabiatning ijod mahsuli nima ekan?

Bunda sabzavotlarning yetilib pishishi va insonlar dasturxoniga yetib kelishi nazarda tutilayotgani haqida fikr yuritiladi. Meva va sabzavotlarning inson salomatligiga ta'siri to'g'risida suhbat qurilib, tabiatning bizga bergan ne'mati ekanligi tushuntiriladi.

2. She'rda qanday sabzavot va poliz ekinlari ta'riflangan?

Ushbu savolga javobni yozma ko'rinishda olish ham mumkin. O'quvchilar daftarlariga ikki ustunni chizib, biriga sabzavotlarning, ikkinchisiga poliz ekinlarining nomini yozib chiqadilar.

3. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini lug'atdan aniqlang.

She'r matnida ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor qaratiladi. Avval o'quvchilarning o'zlaridan so'zlarni izohlash so'raladi, keyin esa lug'at yordamida so'zlarning ma'nolari izohlanadi.

4. She'rdagi ranglar nomini ayting. Bu ranglarni yana qanday ataymiz?

She'r matnida har bir sabzavot va mevalarning rangi keltirilgan bo'lib, o'quvchilar ularni matn tarkibidan ajrata olishi kerak. Shundan so'ng ushbu ranglarni yana qanday atash mumkinligi so'raladi. Ranglar nomi nimalarga asosan tanlanishi haqida suhbat olib boriladi.

Yozma nutq

10. She'rda tilga olingan "tabiiy darmon"larni jadvalga namunadagi kabi joylashtiring.

Berilgan topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar she'rda qaysi meva, sabzavot va poliz ekinlari haqida gap ketayotganini, ularni bir-biridan ajrata olishi kerak. So'ng ularning she'rdagi ta'rifini yozishlari yoki o'zlari shunday ta'riflarni o'ylab topib, yozishlari so'ralgan. Bunda namunadan foydalanish yaxshi natija beradi.

		She'rdagi tasviri yoki sizning ta'rifingiz
Poliz ekinlari	qovun	
	tarvuz	
	bodring	yashil
Sabzavotlar	bulg'or	qizil, yashil
	pomidor	qizil, yashil
	piyoz	
	baqlajon	siyohrang
	sabzi	oltin qoziq, sariq
Mevalar	xurmo	olovrang
	nok	
	uzum	
	anjir	
	olma	
	anor	to'q qizil

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O'tilgan mavzular yuzasidan tezkor savollar berilishi mumkin.

"Bozor" she'rini yod olgan o'quvchilar uni aytib beradilar.

Asosiy qism

Yozma nutq

11. Ayting-chi, siz qaysi mahsulotlarni ko'p iste'mol qilasiz? Ularni ikki ustunga yozib ko'ring. Ular foydalimi yoki zarali?

Har bir o'quvchi o'zi yoqtirgan va ko'p iste'mol qiladigan mahsulotlar nomini ikki ustunga, ya'ni foydali va zararli kabi ustunlarga ajratib yozadilar.

Bunda ustun shaklida so'zlarni qanday yozish bo'yicha qoidalar eslatib turiladi.

12. O'rganganlaringiz asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.

Berilgan jadval birinchi dars hamda "Vitaminjon" matnida berilgan ma'lumotlar asosida to'ldiriladi.

O'quvchilar "Vitaminjon" matniga yana qaytib, unda berilgan ma'lumotlar bilan qayta tanishadilar, yodga oladilar. O'rganganlarini jadval ko'rinishida ifodalaydilar.

Vitamin	Foydali jihatlari	Qanday kasalikda foydali hisoblanadi?	Qanday mahsulotlar tarkibida uchraydi?
A vitamini	ko'rish qobiliyati uchun	ko'rish qobiliyati susayishida	petrushka, shivit, shovul, ismaloq

D vitamini	suyak hosil bo‘lishida foydali	ko‘p terlash, behollik, tez-tez shamollashda, tishlar qurtlashida	baliq, tuxum, pishloq
E vitamini	kuch-quvvat	quvvat beradi	o‘simlik yog‘i, gulkaram, ismaloq

13. “Vitaminjon” hikoyasi asosida Olimjonning kasallik varaqasini to‘ldiring.

Ushbu topshiriq ham o‘quvchilarning turli shakldagi jadvalli ma’lumotlarni to‘ldirish, ularni o‘qib tushunish bilan bog‘liq ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu jadvalni to‘ldirishda ham “Vitaminjon” matnida berilgan ma’lumotlar yordam beradi.

MUSTAHKAMLASH

Kirish

“Vitaminlar” mavzusi yuzasidan qisqacha suhbat olib boriladi.

O‘quvchilar “Vitaminjon” hikoyasi asosida yozgan kasallik varaqasi tahlil qilinadi, kerakli tavsiyalar beriladi.

Asosiy qism

Muhokama

Quyidagi savollar bilan o‘tilgan mavzular mustahkamlanadi:

✓ *Siz uchun ushbu bo‘limda eng qiziqarli mavzu qaysi?*


✓ *Qanday yangi ma’lumotlarni bilib oldingiz?*

✓ *O‘rganganlaringiz siz uchun foydali bo‘ldimi? Nima uchun?*

Nutqiy mavzu doirasida o‘tilgan matnlar mazmuni haqida o‘ylab ko‘rish, ulardan qaysi biri ma’qul kelgan bo‘lsa, ushbu matn haqida fikr bildirish so‘raladi. O‘quvchida so‘z tanlash, o‘zini tutish, fikrni izchillik bilan tushunarli qilib yetkazish bilan bog‘liq og‘zaki nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

Yozma nutq

1. Vitaminlar haqida berilgan rasm yordamida quyidagi mahsulotlar tarkibida qanday vitaminlar uchrashini yozing. (Nutqiy mavzuning 1-soatidagi rasm)



Tuxum –
Go‘sht –
Avokado –
Gulkaram –
Pishloq –
Sut –
Ismaloq -

Javoblar:

Tuxum – B_1, B_{12}, D.

Go‘sht – mol go‘shtida B_5, B_6, B_{12}, baliq go‘shtida A, B_2, B_3, B_6, D.

Avokado – B_3, B_5, B_9

Gulkaram – B_9, E, K.

Pishloq – B_2, B_{12}, D.

Sut – B_5, B_{12}.

Ismaloq - B_2, E, K.

2. Quyida berilgan “kasalliklar”dan birini qo‘yib, jadval asosida matn tuzib, yozing. Bemorga kasallikka mos ism tanlang.

urishqoq | **erkatoy** | **yolg‘onchi** | **dangasa**

Bemor (ism):	
Kasallik nomi:	
Kasallik tavsifi:	
Sababi:	
Davolash uchun tavsiyalar:	

Og‘zaki nutq

3. “Bozor” she’rini qayta o‘qing va yod oling.

TABIATNI ASRAYMIZ

(6 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: tabiat va atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, ushbu jarayonda faol qo‘llanadigan til birliklaridan foydalanishga o‘rgatish, berilgan mashq va topshiriqlar yordamida og‘zaki, yozma, o‘qib va tinglab tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi.
Biz tabiatdan qanday foydalanamiz?
Tabiatni qanday asrash mumkin?

Asosiy qism

Tinglab tushunish

Ozon qatlami haqidagi audiomatnni tinglang. Savollarga javob bering.

O‘quvchilar audiomatnni tinglashga tayyorlanadilar. Kerakli, muhim deb hisoblangan ma’lumotlarni qayd etib borish so‘raladi.

1. Ozon qatlamining eng asosiy vazifasi nima?

O‘quvchilar esda qolgan ma’lumotlari asosida ushbu savolga javob beradilar. Berilgan javoblar bir necha xil bo‘lishi mumkin, lekin o‘qituvchi savolga e’tibor berishni va eng muhim, asosiy vazifasi nima ekanini aniqlashni so‘raydi. Ozon qatlamining eng asosiy vazifasi Yerni Quyoshning zararli nurlaridan himoya qilish ekani haqidagi javob eng to‘g‘risiligi aytiladi.

2. Nega ozon qatlami ko‘zga ko‘rinmaydi? U qayerda joylashgan?

O‘quvchilar ozon qatlamining ko‘rinishi, tarkibi haqidagi ma’lumotlarni yodga oladi. Uning tarkibi gazdan iborat ekani, Yerdan uzoqda joylashgani, atmosferada ozon qatlami juda ozligi ushbu savol uchun berilgan to‘g‘ri javoblar hisoblanadi.

3. Quyosh tizimida nechta sayyora bor? Ularda hayot yo‘qligining asosiy sababi nimada?

Savolga javob berish uchun o‘quvchilar matnda aytilgan ma’lumotlarni yaxshi eslab qolgan bo‘lishlari kerak. O‘qituvchi qayd etib olish mumkin deganda aynan mana shunday ma’lumotlarni qayd etish kerakligini eslatadi.

4. “Ona sayyoramiz “krem” va “ko‘zoynak”dan foydalanadi” degan gapni qanday tushundingiz?

O‘qituvchi ushbu o‘rinda ozon qatlamining vazifasi berilgan narsalarning vazifalari bilan o‘xshash ekanini aytadi, ushbu so‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llanganini tushuntiradi.

5. Ozon qatlamini saqlab qolish uchun nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz?

Savolga javob berishda matndagi ma’lumotlardan tashqari yana nimalarga e’tibor berish kerakligi so‘raladi. O‘quvchilar kelajakda qanday ixtirolarni yaratish orqali ushbu muammoni hal etish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishga yo‘naltiriladi.

Og‘zaki va yozma mashq

O‘quvchilar e’tibori darslikda berilgan rasmga qaratiladi. Tinglangan audiomatn va berilgan rasmning o‘zaro bog‘liqligi haqida suhbat olib boriladi.

1. Matnda uchragan quyidagi so‘zlarni bir necha marta talaffuz qiling va yozing. So‘zlarning izohini lug‘atdan bilib oling.

Berilgan so‘zlar bir necha marta talaffuz qilinadi va yoziladi. Ularning ma’nolari izohli lug‘atdan aniqlanadi. Buni o‘yin shaklida amalga oshirsa ham bo‘ladi.

Ozon – kislorodning bir ko‘rinishi, o‘ziga xos hidi bo‘lgan gaz.

Atmosfera – Yerni va boshqa planetalarni o‘rab turgan gazsimon qobiq.

Molekula – moddaning barcha kimyoviy xossalarini namoyon qiladigan eng kichik zarrachasi.

Xlor – kimyoviy element nomi.

Ftor – kimyoviy element nomi.

Brom – kimyoviy element nomi.

Freon – kimyoviy element nomi.

Krem – pardoz qilishda ishlatiladigan vosita.

2. Audiomatnga asoslangan holda to‘g‘ri fikrlarni ko‘chirib yozing.

Bu topshiriq o‘quvchilarning tinglab tushunish malakasini shakllantirishga qaratilgan, o‘quvchilar matnda uchratgan ma’lumotlari asosida berilgan fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlaydilar. Noto‘g‘ri deb topilgan fikrlar izohlanadi.

1. To‘g‘ri. 2. No‘to‘g‘ri. 3. Noto‘g‘ri. 4. To‘g‘ri. 5. To‘g‘ri.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quvchilar berilgan rasmlarni diqqat bilan kuzatadilar. Rasmda nimalar tasvirlangani haqida qisqa suhbat olib boriladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

1. 1-rasmga munosabat bildiring. Bolalar nima uchun bunday harakat qilishyapti?

Birinchi rasmda qanday holat tasvirlangani haqida gapirish so‘raladi. Shundan so‘ng bolalarning xatti-harakatlari izohlanadi, buning sabablari haqida suhbat olib boriladi.

2. 2-rasmdagi manzara sizda qanday taassurot qoldirdi? Nima uchun?

2-rasmdagi manzarada asosiy urg‘u daraxtlarning kesilganligiga, o‘rmon yong‘inlari va ularning sabablariga qaratiladi. Ushbu tabiat hodisalarining sabablari haqida fikr bildirish so‘raladi.

3. 3-rasmda atrof-muhitga ta’sir qilayotgan narsa nima? Uni qanday bartaraf etish mumkin deb o‘ylaysiz?

3-rasmda zavod va fabrikalardan chiqayotgan tutunlar, zaharli gazlar tabiatga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligi haqida suhbat olib boriladi. Buning zararli oqibatlari haqida fikrlar so‘raladi.

4. 4-rasmni izohlang. Sizni nima tashvishga solyapti?

4-rasmda chiqindilarni suvga oqizish bilan bog‘liq holat tasvirlangan. Ushbu holat haqida tegishli fikrlar aytiladi, buning zararli oqibati haqida tushuncha beriladi.

5. Siz ushbu rasmlar qatorida yana qanday manzara turishi kerak deb hisoblaysiz? Nima uchun?

O‘quvchilar o‘z kuzatuvlari asosida yana nimalar tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani haqida o‘ylab ko‘radilar va shu haqida gapirib beradilar. Ular o‘z fikrlarini, “Mening nazarimda, bu rasmlar qatorida ..... lar tasvirlangan manzara turishi kerak” ko‘rinishida ifodalashlariga e’tibor qaratish zarur. Har bir o‘quvchidan o‘z fikrini izohlashi so‘raladi.

6. “Tabiatni muhofaza qilish” deganda nimani tushunasiz? “Muhofaza” so‘zi o‘rnida yana qaysi so‘zlarni ishlatishimiz mumkin?

“Muhofaza” so‘zining ma’nosi aniqlashtirib olinadi, qanday qilib tabiatni muhofaza qilish mumkinligi so‘raladi. Shuningdek, har bir o‘quvchi umri davomida tabiatni asrash uchun qilgan bitta harakatini eslab ko‘rishini so‘rash mumkin. O‘quvchilar o‘z xatti-harakatlarini tushuntirib beradilar.

Yozma nutq. Leksikologiya

3. Tabiat bilan bog‘liq qanday so‘zlarni bilib oldingiz? Yozing.

O‘quvchilar tabiat bilan bog‘liq so‘zlar, masalan, *ekologiya, atrof-muhit, manzara, chiqindi, zararli gazlar, o‘simliklar, tog‘, o‘rmon* singari so‘zlarni yozishi mumkin.

4. Tabiat muhofazasi bilan bog‘liq harakatni ifodalovchi so‘zlarni yozing.

Asrash, avaylash, saqlash, muhofaza qilish, himoya qilish kabi so‘zlarni yozadilar. Ushbu so‘zlar aynan harakatni ifodalashi kerakligiga e’tibor qaratiladi.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tabiatdagi eng kuchli narsa nima?

Inson kuchlimi? Uning tabiatga ta’siri qanday?

O‘qituvchi o‘quvchilarning nutqini kuzatadi, kerakli so‘z va til birliklaridan o‘rinli foydalanishlarida ko‘maklashadi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Nima uchun inson dunyoda hammadan kuchli?” matni bir necha marta o‘qitiladi. Ayrim so‘zlar talaffuzi va imlosiga e’tibor qaratiladi.

O‘qish jarayonida matnni qismlarga ajratish, o‘rtog‘ining nutqini kuzatish kabi usullardan foydalanish ham mumkin.

1. Ayting-chi, kim kuchli ekani haqidagi bahs nimadan boshlandi?

Ushbu savolga javob berish uchun o‘quvchilar bahsning boshlanish nuqtasi, ya’ni voqealar rivojining borishiga turtki bo‘lgan sababni aniqlab, u haqida gapirib berishlari kerak.

2. Muz nima uchun yomg‘irni o‘zidan kuchli deb bilarkan? Yomg‘ir-chi?

Berilgan savolga javob berish uchun o‘quvchilarda muayyan fikrning sababini aniqlash, ma’lumotlarning o‘zaro bog‘liqligini anglash bilan bog‘liq ko‘nikmalar yetarlicha shakllangan bo‘lishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilardan qo‘shimcha ravishda: “Haqiqatan ham tabiatda

shunday hodisa ro‘y beradimi, buni kuzatganmisiz?” deb so‘rashi mumkin.

3. Yer o‘rmonning kuchli ekaniga nimani sabab qilib ko‘rsatibdi? O‘rmon-chi?

4. Alanga nimadan qo‘rqar ekan? Alanganing oddiy maysadan ham kuchsizligini izohlang.

5. Qo‘y kuchlimi yoki bo‘ri? Nima uchun?

3-, 4- va 5-savollarga javob berishda o‘quvchilar voqealarning o‘zaro bog‘liqligini ketma-ketlik bilan aytib beradi. O‘z fikrlarini asoslashga harakat qiladi. Ularga munosabat bildirishi ham mumkin. Buning uchun o‘qituvchi qo‘shimcha savollar bilan murojaat qilib, ularni yo‘naltirib boradi.

6. Nima uchun inson dunyoda hammadan kuchli ekan?

Ushbu savolga javob berish jarayonida avval ertak matniga tayanishni, keyin esa mustaqil o‘ylab ko‘rishni so‘rash kerak. “Haqiqatan ham shundaymi? Agar shunday bo‘lsa nima uchun? Yer yuzida insondan ham kuchli narsa bormi? U nima?” singari qo‘shimcha savollar berib boriladi.

7. Qanday qilib tabiat bilan zanjirdek bog‘lanish mumkin?

Tabiat zanjiri haqida fikr so‘raladi, u qanday hosil qilinishi, qanday qonuniyatlarga asoslanishi haqida suhbat olib boriladi.

8. Ayting-chi, aslida hammadan ham kuchli inson qanday bo‘lishi kerak?

Insonning tabiatga ta’siri, u bilan munosabati haqida suhbat quriladi. Har bir o‘quvchining xulosasi alohida ta’kidlab boriladi, suhbat so‘ngida o‘ziga xos qoidalar majmuyini hosil qilish mumkin.

Yozma mashq

5. Suhbatdoshlarga so‘roq bering va ularni jadvalga to‘g‘ri joylashtiring.

Ushbu mashqni bajarish jarayonida o‘quvchilar avval matn tarkibidan suhbatdoshlarni ajratib olishlari kerak. Shundan so‘ng ularga so‘roq berib, mazmuniga ko‘ra guruhlarga ajratish topshirig‘ini bajarishlari mumkin.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

“Nima uchun inson dunyoda hamma narsadan kuchli?” matnidagi voqealar yodga olinadi, buning uchun o‘quvchilar ushbu ertakni qayta so‘zlab berishlari ham mumkin. Ertak asosida chiqarilgan xulosalar tinglanadi. Ertakni qayta so‘zlash paytida o‘qituvchi o‘quvchilarning nutqini kuzatib, voqealarning ketma-ketligi va asosli fikr bildirilishiga e’tibor qaratadi. Og‘zaki nutqda uchrayotgan kamchiliklarni o‘zi uchun qayd etib boradi, ushbu kamchiliklar bilan qo‘shimcha ishlaydi.

Asosiy qism

Munozara

1. Ayting-chi, matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning yana qanday ma’nodoshlari bor?

O‘quvchilar ertak matniga qaytib, unda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni aniqlaydi. Shundan so‘ng ushbu so‘zlarning ma’nodoshlarini aytadi. Agar o‘quvchilar ushbu so‘zlarni aytishga qiynalsa, o‘qituvchi xattaxta yoki elektron doska yordamida turli so‘zlarni ko‘rsatib, ular ichidan ushbu so‘zlarni aniqlashni so‘rab ularga yordam berishi mumkin.

Olov – alanga – o‘t – gulxan.

Inson – odam – shaxs – kishi.

2. Ertak bilan tanishgach, qanday xulosa chiqardingiz? Qaysi hukmlarga qo‘shilasiz?

A. Inson hamma narsadan kuchli.

B. Tabiatga faqat insonlar zarar yetkazadi.

D. Tabiat hodisalari insonga bo‘ysunadi.

E. Dunyodagi barcha jonzotlar odamdan qo‘rqadi.

F. Odamlar kuchini tabiatni asrashga sarflashi kerak.

O‘quvchilar har bir berilgan hukmni muhokama qiladi, nima uchun ushbu fikrga qo‘shilishi yoki qo‘shilmasligini asoslashga urinadi. O‘qituvchi ularga qo‘shimcha savollar berib, to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga ko‘maklashishi kerak.

6. Ertak asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Yozma nutq. Morfologiya. Leksikologiya

1. Matndan harakatni bildirgan so‘zlarni quyidagi tartibda ko‘chirib oling: suv muzlaydi.

O‘quvchilar matndan aynan shu so‘zga mos keladigan harakatni bildiruvchi so‘zni aniqlashga harakat qiladi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi berilgan so‘zlar uchun harakatni bildiruvchi so‘zlarni tanlashda nimalarga e’tibor qaratish kerakligini, ya’ni ularning ma’nosi, gapdagi o‘rni, berilgan so‘z bilan bog‘lanishiga oid bilimlarni yetkazishi kerak.

Qirg‘ovul uchadi, yomg‘ir yog‘adi, yer muzlaydi, o‘rmon egallaydi, yonadi, olov yonadi, shamol esadi, maysa o‘sadi, inson tutadi, gapiradi va hokazo ....

2. Ajratilgan so‘zlar o‘rniga mos birliklardan birini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Buning uchun o‘quvchilar ajratilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini yaxshi tushunib olishi

kerak. Shu bilan birga nima uchun ma’nodoshlardan aynan biri ushbu gap mazmuniga to‘g‘ri kelishi o‘qituvchi tomonidan yetarli darajada tushuntirib boriladi.

1. Bunga maysa qarshi fikr bildiribdi.

2. – Daraxtni ildizi bilan qo‘porishga, alangani o‘chirishga quvvatim yetadi, – debdi shamol.

3. – Sen, muz, juda kuchli ekansan-ku! – gapiribdi qirg‘ovul.

4. Hammadan kuchlisi inson ekani barchaga aniq bo‘libdi.

3. Ertakdan olgan xulosangizni yozing.

O‘quvchilarning yozma nutqi tekshiriladi, o‘quvchilar ertakdan olgan xulosalarini yozma ifodalaydilar.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘tilgan mavzular bo‘yicha og‘zaki suhbat quriladi.

Asosiy qism

O‘qib tushinish

Berilgan she’r matni ifodali qilib bir necha marta o‘qitiladi.

She’rni o‘qitish jarayonida ifodali o‘qishga qiynaladigan o‘quvchilardan ushbu vazifani so‘rash ham maqsadga muvofiq. Bunda o‘qituvchi o‘quvchiga ayrim ko‘rsatmalarni berishi, takrorlashni so‘rashi ham mumkin.

1. Odamlar nimani orzu qilarkan? Nima uchun?

O‘quvchilar savolga she’r mazmunidan kelib chiqib javob berishlari kerak bo‘ladi. Nima uchun bog‘ barpo etishni orzu qilishlarini ham har kim o‘z fikri bilan tushuntirib berishi kerak.

2. Qahramonimiz niholni qanday parvarishlabdi?

Savolga javob berishda avval ushbu jarayon haqida suhbat olib boriladi. Shundan so‘ng biror narsani dildan parvarish qilish, mehr berish kabi tushunchalar izohlanadi, ularning nihol ekish jarayoni bilan bog‘liq jihatlari yoritib beriladi.

3. Buni unga kim o‘rgatibdi? Sizga ham kimdir nihol ekish yoki gul parvarishlashni o‘rgatganmi?

Ushbu savolga javob berish orqali o‘quvchilar she’rda ifodalangan holat haqida gapiradilar, shundan so‘ng o‘z hayotlari bilan bog‘liq shunday holatlarni, undagi voqealarni gapirib berishlari mumkin. Ushbu an’ananing foydali tomonlari haqida suhbat olib boriladi.

4. Qahramonimiz nimadan zavqlandi?

Odamlar nihol ekish va uni parvarish qilishdan zavqlanadimi? Insonlar yana nimalardan zavqlanishi mumkin? Bunday holatni oila a’zolaringizdan kimlarda kuzatgansiz? Siz ham mehnat qilishdan zavqlana olasizmi? Qachon va qanday hollarda?

5. “Mehr boyladim” deganda nimani tushundingiz? Yana kim yoki nimaga mehr beramiz?

Ushbu birikmaning ma’nosi, uning ko‘chma ma’noda qo‘llanayotganini anglash uchun suhbat o‘tkaziladi. Yana shunday ko‘chma ma’noda qo‘llanuvchi “mehr qo‘ydim”, “ko‘nglim ketdi”, “dilimdan joy oldi” singari birikmalarning ma’nolari ham izohlanib ketishi mumkin.

6. “Bunyod” so‘zining ma’nolarini aniqlang.

A. Barpo etmoq
B. Paydo bo‘lmoq
D. O‘stirmoq
E. Yaratmoq
F. Parvarishlamoq

Ushbu testda birdan ortiq javob to‘g‘ri kelishi mumkin. Shu orqali bir so‘z bir necha xil ma’noda qo‘llanishi mumkinligi qo‘shimcha misollar asosida tushuntiriladi.

Gaz – qadimgi uzunlik o‘lchovi. Bir gaz 71 santimetrga to‘g‘ri keladi.

Ushbu so‘zning izohi tushuntiriladi. Undan qayerda foydalanish, uni qanday matnlarda uchratish mumkinligi haqida qo‘shimcha ma’lumotlar keltiriladi.

Yozma nutq. Fonetika. Leksikologiya. Sintaksis

7. She’rdagi qofiyadosh so‘zlarni yozib oling.

Qofiyadosh so‘zlar bilan bog‘liq bilimlar yodga solinadi, she’r matnidagi qofiyadosh so‘zlar juft-juft holda ko‘chirib yoziladi. Qofiyadosh so‘zlar she’r misralarining qaysi o‘rnida kelayotganiga alohida e’tibor berilishi kerak.

Odamlar – dadamlar, avaylab – boylab, shox – bog‘.

8. Quyidagi so‘zlarning yana qanday ma’nodoshlari bor? Topib, yozing.

Berilgan so‘zlarning ma’nodoshlari aniqlanadi va yoziladi. Agar o‘quvchilar ushbu so‘zlarni topishga qiynalsalar, o‘qituvchi ularga turli variantlarni ko‘rsatish orqali yordam berishi mumkin. Bunda o‘qituvchi to‘g‘ridan to‘g‘ri javobni aytmaydi, aksincha, o‘quvchilarga tanlov qilish, fikrlash uchun kerakli vaziyatni yaratib berishi kerak.

Nihol – ko‘chat; odam – shaxs, kishi, inson; orzu – niyat, istak; chiroyli – go‘zal, maftunkor, xushsurat, ko‘rkam.

9. She’rdan qanday xulosa chiqardingiz? Bitta gap bilan ifodalang.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun ham o‘quvchilar o‘z xulosalari haqida o‘ylab ko‘rishlari kerakligi aytiladi. Shundan so‘ng har bir o‘quvchidan bir gap bilan bildirilgan fikr so‘raladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan o‘z fikrlarini ifodalashda turli so‘zlar va usuldan foydalanishni so‘rashi kerak.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Bugungi darsning umumiy mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar xat yozish jarayoniga tayyorlanadi.

O‘quvchilarga tabiatni asrash, buning uchun nimalar qilish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rish kerakligi aytiladi, buning uchun ozroq vaqt ajratiladi.

Asosiy qism

Yozma nutq

10. “Tabiatni qanday asrashimiz mumkin?” mavzusida xat yozing.

Berilgan rasmlarga o‘quvchilar e’tibori qaratiladi, shu o‘rinda tabiatdan foydalanish bilan bog‘liq fikrlarni ifodalash orqali, ya’ni har bir rasmni izohlash va shu orqali gaplarni o‘zaro bog‘lash yordamida xat yozish mumkinligi tushuntiriladi. Gaplar o‘zaro mazmun jihatidan bog‘lanishi uchun qanday birliklardan foydalanish mumkinligi eslatib turiladi.

Xat yozishning o‘ziga xos qoidalari borligi eslatilib, uni boshlash bilan bog‘liq boshlanmalarga e’tibor qaratiladi. Ulardan birini tanlash tavsiya etiladi.

Ushbu rasmlar va xat boshlanmasidan foydalanishingiz mumkin.

Boshlanmalardan birini tanlashingiz mumkin:

1. Bolalar, tabiatni asrashimiz zarur. Qanday qilib deysizmi? Buning uchun...

2. Do‘stim (dugonam) …! Men senga tabiatni asrash haqida tavsiyalarimni aytib o‘tmoqchiman… .

3. …! Bilasanmi, nima uchun tabiatni asrashimiz kerak? Chunki…

Eslatma! **Gaplarni to‘g‘ri tuzing. Tinish belgilarini o‘z o‘rnida qo‘llang. Gaplarni to‘g‘ri va chiroyli yozing.**

Matnda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til birliklarining imlosi xattaxta yoki elektron doska orqali namoyish etilishi maqsadga muvofiq.

11. Yozgan xatingizdan harakatni bildirgan so‘zlarni aniqlang va belgilang.

Namuna: *Men senga tabiatni asrash haqidagi tavsiyalarimni aytib o‘tmoqchiman.*

Berilgan topshiriqni bajarishda muammoga duch kelayotgan o‘quvchilarga kerakli amaliy tavsiyalar alohida berib boriladi.

O‘quvchilar ijodiy ishlarining taqdimoti bo‘lib o‘tadi, ularga munosabat bildiriladi va baholanadi.

VIRUS NIMA?

(6+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilar ongida virus, uning oldini olish uchun olib boriladigan chora-tadbirlar haqida tasavvur hosil qilish, bunga oid til birliklarini faollashtirish, olinma so‘zlar, ularning talaffuzi va imlosini o‘rgatish, matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma’nolari bilan tanishish, atamalar yordamida lug‘at hosil qilish, matn tarkibidagi gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini ajratish, berilgan gaplarning asosiy mazmunini tushunish, ushbu mazmunni yuzaga chiqaruvchi bo‘laklarni aniqlash, bosh bo‘laklarning turlari bilan tanishtirish hamda mavzuga oid yozma matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar bo‘lim hamda yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirib olish uchun og‘zaki suhbat o‘tka-

ziladi. Suhbat jarayonida quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilinadi:

Ayting-chi, virus nima? Uni ko‘z bilan ko‘rish mumkinmi?

O‘quvchilarning javobi tinglangach, darslikdagi topshiriqlar bajariladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmdagi holatlarga izoh bering. Virusdan saqlanish uchun ularning qay biriga amal qilish, qay biriga amal qilmaslik kerakligi haqida so‘zlang. Darslikda turli xil holatlarni ifodalovchi rasmlar ustun shaklida berilgan. O‘quvchilar rasmdagi holatlar bilan tanishib, yo‘nalish chizig‘i orqali birinchi ustundagi rasmlarni ikkinchi ustundagi rasmlar bilan taqqoslab, holatlar o‘rtasidagi farqni aytib berishi lozim.

O‘quvchilar bu rasmlarni hayotiy voqealar bilan ifodalashi, pandemiya sharoitida joriy etilgan qonun-qoidalar bilan bog‘lab, og‘zaki ifodalab berishi mumkin. Masalan, birinchi rasmda betob bo‘lgan inson masofa saqlamasa, virus yuqib qolishi, ikkinchi rasmda esa virus yuqtirmaslik uchun insonlarning niqobda bo‘lishi, masofa saqlashi tasvirlangan. Bunda ikkinchi holatga amal qilish kerakligini aytib berishi lozim.

Shu tariqa o‘quvchilar har bir holatni taqqoslab, izohlab beradilar. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning og‘zaki nutqini hamda berayotgan javoblarining mazmunini kuzatib boradi. O‘quvchilar javob berishga qiynalishsa, aniq javobga yo‘naltiruvchi, rasmdagi detallar bilan bog‘liq savollar beriladi.

O‘quvchilarning rasmlarga bergan izohlaridan so‘ng, rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi:

1. Gripp yoki COVID-19 kabi viruslar haqida nimalarni bilasiz?

Bu savolga javob berishda o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari hamda kattalardan eshitgan suhbatlari asosida erkin fikrlab, javob berishi lozim. Yaqin o‘tgan yillarda xalq orasida COVID-19 kasalligi ko‘payib, karantin qoidalari joriy etildi. O‘quvchilar karantinni ko‘rgan, u haqida bilgan ma’lumotlarini aytib berishi mumkin. Bu yerda asosiy e’tibor o‘quvchining erkin fikri, real hayotda ko‘rgan holatiga munosabatini aytib berishiga qaratiladi.

2. Virusdan himoyalanish uchun yana qanday choralarni ko‘rish mumkin?

O‘quvchilar yuqoridagi rasmdan olgan tasavvurlari hamda hayotda ko‘rgan, eshitgan holatlari asosida virusdan himoyalanish uchun ko‘rish kerak bo‘lgan choralarni aytishlari lozim. Masalan, hamma joyni toza-ozoda saqlash, xonalarni tez-tez shamollatish, yuvuqsiz qo‘l bilan taom yemaslik kabi choralar ham borligini aytib berishi maqsadga muvofiq.

3. Viruslar ko‘proq qanday joylarda bo‘ladi?

Bu savol o‘quvchining erkin fikrlab, mantiqan javob berishini talab qiladi. Bunda o‘quvchi virus tarqaydigan joylarni aytib berishi lozim. Masalan, jamoat joylarida, tozalikka rioya qilinmaydigan har qanday yerda virus uchrashi mumkinligini aytib o‘tish o‘rinli.

4. Virus bilan kasallanishning oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?

Bu savol ham o‘quvchining hayotiy kuzatishlariga bog‘liq. O‘quvchilar virus yuqtirgan odam yo‘talishi, aksa urishi, sovqotishi, holsizlanishi, harorati ko‘tarilishi kabi yomon oqibatlar haqida aytishi lozim.

Og‘zaki nutq

Berilgan so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing va yozing.

Darslikda virus tarqalishidagi holatlar bilan bog‘liq so‘zlar berilgan. Bu so‘zlar o‘quvchilarga ketma-ketlikda o‘qitiladi. O‘qib bo‘lganlaridan so‘ng daftarlariga yozishlari aytiladi.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning olinma so‘zlar imlosi va talaffuzini o‘zlashtirishlariga qaratiladi.

1. Rasmlarga qarang. Karantin paytida vaqtni mazmunli o‘tkazish uchun tavsiyalar yozing.

Darslikning 86-sahifasida har xil vaziyatlarni ifodalovchi rasmlar berilgan. O‘quvchilar bilan ushbu rasmlar yuzasidan suhbat uyushtiriladi. Unga ko‘ra, dastlab o‘quvchilardan yurtimizda COVİD-19 virusi xavfidan himoyalanish uchun joriy etilgan karantin vaqtida nima ishlar bilan mashg‘ul bo‘lganligi so‘raladi. So‘ng rasmlar mazmunini ochuvchi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. *Birinchi rasmdagi bola nima bilan mashg‘ul?*
2. *Ayting-chi, gullarning chiroyli unib-o‘sishiga sabab nima?*
3. *Bola deraza oldida nima qilyapti?*
4. *Bu bolalar birgalikda nima qilishyapti? Ularning harakati to‘g‘rimi?*
5. *Bola koptok bilan nima qilyapti? Buni salomatlikka foydasi bormi?*
6. *Qizning qo‘lidagi nima? U nima qilyapti?*

Ushbu savollarga javob olingach, o‘quvchilarga karantin paytida vaqtni mazmunli o‘tkazish uchun tavsiyalar yozishi kerakligi aytiladi.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning mustaqil ravishda yozishlari nazorat qilib boriladi. Hamma o‘quvchilar yozib bo‘lgach, yozgan tavsiyalari birma-bir o‘qitiladi. Bunda gaplarning mantiqan va mazmunan bog‘lanishiga e’tibor qaratiladi. Eng yaxshi yozgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, COVİD-19 virusi tarqalishining oldini olishda qanday ishlar amalga oshirildi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikning 86–87-sahifalaridagi “Sen mening qahramonimsan” hikoyasining 1-qismi o‘qiladi. O‘quvchilar ushbu hikoyani avval ichlarida o‘qib olishlariga vaqt beriladi. Keyin ular hikoyani navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Sinfdagi hamma o‘quvchi ovoz chiqarib o‘qishi lozim. O‘qituvchi tomonidan ularning o‘qishi nazorat qilib boriladi.

O‘quvchilar o‘qib bo‘lgach, matn o‘qituvchi tomonidan bir marta ifodali o‘qib beriladi. So‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi:

1. Sizningcha, Saraning onasi qanday olima? U nima ishlar qiladi?

Bu savolning javobi matnda aniq keltirilmagan. O‘quvchilar Sara va onasining suhbati orqali u qanday olima ekanini mantiqan o‘ylab, javob berishlari lozim.

Javob: ***virusolog*** *– viruslar bilan shug‘ullanuvchi, viruslar tarqalishini aniqlovchi hamda viruslarga qarshi kurashuvchi olima.*

2. Sara nima uchun qahramon bo‘lishni istaydi?

O‘quvchilar onasi Saraga “Sen mening qahramonimsan” degani, u qahramonlarga o‘xshab uchib, odamlarga virusga chalinmaslik bo‘yicha baland ovozda tavsiyalar bermoqchi bo‘lganini aytishi lozim.

3. Super qahramonlar haqida nima bilasiz?

Bu o‘quvchining o‘ziga qaratilgan savol. Matnda Saraning qahramonlari noyob qobiliyatga ega bo‘lishlari aytilgan. Mana shu jumla orqali bolalar o‘zlari bilgan super qahramonlar haqida aytib berishlari lozim.

4. Saraga qanday yordamchi kerak?

Bu savolning javobi matnda aniq ifodalangan, o‘quvchi matndan ushbu o‘rinni topib, Sara uchun ucha oladigan va baland ovozda gapira oladigan yordamchi kerak ekanini aytib berishi lozim.

5. Nima deb o‘ylaysiz, hikoyaning davomi qanday kechadi?

Bu savol o‘quvchining erkin fikrlab, mantiqan o‘ylab javob berishiga qaratilgan. O‘quvchilar bu savolga ijodiy yondashib, erkin javob berishlari mumkin.

O‘quvchilar savollarga javob berib bo‘lganlaridan so‘ng hikoyaning 1-qismi uchun qisqa xulosa aytiladi.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Sizningcha, Sara qanday qahramonlik ko‘rsatadi?

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“Sen mening qahramonimsan” hikoyasining 2-qismi audiomatnini tinglang.

Audiomatn eshittirilgach, darslikning 88-sahifasidagi savollar bilan suhbat boshlanadi:

1. Siz Arioni qanday tasavvur qilyapsiz? U suratdagi maxluqqa o‘xshaydimi?

Bu savolning javobi matnda aniq berilmagan. O‘quvchilar Sara va Arioning suhbatidan so‘ng Ario qanday maxluq ekanini rasmda berilgan tasvir orqali hamda o‘zlarining tasavvurlari orqali ifodalab berishi lozim.

2. Ario Saraga: “Men doim sening yuragingda yashaganman”, deganda nima demoqchi bo‘lgan?

Bu savolning javobini o‘quvchilar mantiqan o‘ylab, erkin fikrlab aytib berishlari lozim. Bunda o‘quvchi Saraning qahramonligi, jur’ati, shijoati uning o‘zidagi xislat ekanini tushunib, ijodiy yondashib javob berishi nazarda tutilgan.

3. Piramidalar qaysi mamlakatda joylashgan? Salem qayerlik bola?

Bu savolga o‘quvchi egallagan bilimlari, hamda matnda Salem haqida keltirilgan o‘rinlarni topib, piramidalar Misrda joylashgani, Salem misrlik bola ekanini aytishi lozim.

4. Nima uchun Salem Saraga hamrohlik qildi?

Bu savol ham bolaning erkin fikrlab javob berishiga qaratilgan, bunda o‘quvchilar Saraning qahramon bo‘lishi uchun unga qanday yordamchi kerak ekani aytilgan o‘rinni topib, Salemning baland ovozda gapira olgani uchun hamroh bo‘lganini aytib berishi lozim.

5. Sara va Salem yuqoridan turib bolalarga nimalarni aytgan deb o‘ylaysiz? Ular aytgan gaplarni xuddi ulardek aytib ko‘ring-chi.

Bu savolning javobi matnda berilgan. O‘quvchilar matdan ushbu o‘rinni topib, rolga kirib birin-ketin aytib berishi lozim.

O‘quvchilarning javoblari tinglangandan so‘ng ularga og‘zaki topshiriqni bajarishlari aytiladi.

Og‘zaki nutq

Karantin vaqtida nimalar qilganingiz haqida so‘zlab bering.

Bu savol doskaga yozib qo‘yiladi hamda o‘qituvchi har bir o‘quvchidan navbatma-navbat ushbu savolga javob so‘rab chiqadi. O‘quvchilar hayotiy kuzatishlari hamda eshitgan ma’lumotlari asosida erkin fikrlab javob berishlari lozim.

Bu jarayonda o‘quvchining og‘zaki nutqi o‘qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi hamda yakunda ularga kamchiliklarini aytib, izohlab beriladi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, Sara qahramon bo‘ldimi? Qanday qilib?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

O‘quvchilar darslikda berilgan “Sen mening qahramonimsan” matnining 3-qismini o‘qishlari lozim. Bunda o‘quvchilar bir yoki ikki gapdan bo‘lib matnni o‘qib chiqishadi. Bir o‘quvchi o‘qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi talab qilinadi.

Matn 2–3 marta qayta o‘qilgach, savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Sasha karantin vaqtida nimalar qildi?

O‘quvchilar bu savolning javobini matndan topib, Sasha karantin vaqtida kasal otasiga qaragani, ko‘p kitoblar o‘qigani, oyisidan shirin taomlar tayyorlashni o‘rganganini aytib berishi lozim.

2. Ario nima uchun Sasha, Leyla va Kimni super qahramon deb biladi?

O‘quvchilar matndan ushbu o‘rinni topib, Sasha, Leyla va Kimning super qahramonligi nimada ekanini aniqlab, ularning karantin vaqtida qilgan ishlarini aytib berishi lozim.

3. Ario Sarani qahramon deb atadi. Siz bunga qo‘shilasizmi?

O‘quvchi matndan olgan xulosasi asosida erkin fikrlab, javob berishi lozim. Bu o‘rinda Saraning qahramonligini ochib bergan harakatlari aks etgan o‘rinlarni topib, kitobdan o‘qib berishi ham mumkin. Asosiy e’tibor matnni tushunishga qaratiladi.

4. Super qahramon bo‘lish uchun odamda qanday xislatlar bo‘lishi kerak?

Bu – erkin fikrlab, mantiqan o‘ylab javob beriladigan savol. O‘quvchilarning javoblari tinglangach, ularga qahramonlikka dovyuraklik, shijoatli bo‘lish bilan birga biror ishda jonbozlik ko‘rsatish, o‘z burchini vaqtida ado etish, har ishda e’tiborli bo‘lish ham kirishi aytiladi.

5. Ayting-chi, siz ham o‘zingizni super qahramon deb bilasizmi? Nima uchun?

Bunda o‘quvchining erkin fikrlab javob aytishiga imkon bering. U o‘zining qahramon ekanini his qilsin. Sinfdagi har bir o‘quvchida men ham qahramon ekanman degan xulosani shakllantiring.

O‘quvchilarning bergan javoblari tinglab bo‘lingach, o‘qituvchi tomonidan hikoya haqida yakuniy xulosa aytiladi.

Yozma nutq

2. Agar o‘zingizni super qahramon deb bilsangiz, super qobiliyatlaringizni birma-bir yozib chiqing.

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda o‘quvchilar o‘zlarning qahramonlik sifatlarini birma-bir namunadagi kabi yozishlari lozim.

Topshiriqni bajarib bo‘lishgach, har bir o‘quvchiga yozganlari o‘qitiladi. Kamchiliklari aytilib, imloviy, uslubiy xatolari tekshiriladi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, karantin vaqtida qanday qahramonlik ko‘rsatdim deb hisoblaysiz?

Asosiy qism

Yozma nutq. Leksikologiya. Sintaksis

3. Berilgan gaplar tarkibidan tushib qolgan so‘zni aniqlang va uni o‘z o‘rniga qo‘yib ko‘chiring.

Darslikda “Sen mening qahramonimsan” hikoyasidan olingan gaplar berilgan. Ushbu gaplardan ayrim so‘zlar tushirib qoldirilgan bo‘lib, qo‘yish uchun 3 xil variant berilgan. O‘quvchilar ulardan to‘g‘ri yozilganini topib, kerakli o‘ringa qo‘yishlari lozim.

Bunda o‘quvchilar matn bilan ishlashlari, matndan o‘sha o‘rinni topib, so‘zning to‘g‘ri variantini yozishlari mumkin. Bu yerda asosiy e’tibor o‘quvchini olinma so‘zlar imlosi bilan tanishtirishga qaratiladi.

Javob:

1. *koronavirus* 2. *super* 3. *multfilm*

4. Berilgan so‘zlarni izohi bilan moslashtiring, ularni lug‘at tuzish qoidalariga binoan alifbo tartibida daftaringizga ko‘chiring.

Darslikda jadval berilgan bo‘lib, uning bir ustuniga matn tarkibidan olingan ayrim so‘zlarning yozilishi, ikkinchi ustuniga esa o‘sha so‘zlarning izohi berilgan. O‘quvchilar so‘zlarni izohi bilan moslab, ularni alifbo tartibida ketma-ketlikda yozishlari lozim.

Javob:

Karantin – *yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish uchun davlat tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlar.*

Koinot – *biz kuzatishimiz mumkin bo‘lgan, bizni o‘rab turgan olam, yer-u osmon.*

Piramida – *ehrom. Qadimgi misrliklar toshdan yaratgan ulkan inshootlar.*

Virus – *ko‘zga ko‘rinmas, kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlar.*

COVID-19 – *2019-yil oxirida aniqlanib, 2020-yilda butun dunyo bo‘ylab tarqalgan, asosan nafas yo‘llarini zararlovchi yuqumli kasallik nomi.*

5. Matndan olingan parchani o‘qing. Partadoshingiz bilan “ko‘rinmas xavflar” ro‘yxatini tuzing.

Bu topshiriq o‘quvchilarning mustaqil fikrlab, ijodiy yondashib yozishlariga qaratilgan. Ular matndan olingan jumlani o‘qib, namunada berilgan kabi “ko‘rinmas xavflar ro‘yxati”ni tuzib chiqishlari lozim.

Topshiriqni bajarib bo‘lishgach, har bir o‘quvchiga yozganlari birma-bir o‘qitiladi. Eng yaxshi tuzilgan ro‘yxat egasi rag‘batlantiriladi.

6. Berilgan gaplarni yuqoridagi matn mazmuniga asoslangan holda to‘ldirib, daftaringizga ko‘chiring.

Darslikda matndan olingan gaplar berilgan. Ushbu gaplarning ayrim o‘rinlari tushirib qoldirilgan bo‘lib, o‘quvchilar gapning so‘roq berilgan qismiga mos gaplarni topib yozishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining matn bilan ishlashi, kerakli o‘rinni topib, so‘roq berib yozishiga qaratiladi.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, viruslar bizga qanday xavf tug‘diradi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan “Viruslar” she’ri hamda muallifi tanishtiriladi. O‘quvchilarga she’rni mustaqil, ovoz chiqarmay o‘qishlari aytiladi.

She’rni o‘qib bo‘lishgach, o‘qituvchi bir marta baland ovozda o‘qib eshittiradi.

So‘ng 93-sahifadagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollarning javobi she’r matnida aks etgan. O‘quvchilar savollarga she’r mazmunidan kelib chiqib javob berishlari lozim. Bunda asosiy maqsad – o‘quvchining o‘qib tushunish malakasini shakllantirish. O‘quvchilar she’r matnga munosabat bildira olishi, so‘zlarni o‘zaro bog‘lab mazmun chiqara olishi hamda matnda qo‘llangan o‘xshatishlarni tushunib aytib bera olishiga e’tibor qaratiladi.

Yozma nutq

7. Virus haqida xabar matni yozing.

Bunda o‘quvchining axborotni yetkazib bera olish ko‘nikmasi tekshiriladi. O‘quvchi xuddi gazetada xabar berilgani kabi kasallik haqida odamlarga xabar berishi kerak. Ularda tasavvur paydo bo‘lishi uchun virusning sifatlari va rasm berilgan. Bundan tashqari og‘zaki tarzda o‘qituvchi ham xabar matnining boshlanmasi, ayrim o‘rinlarini aytib berishi mumkin. O‘quvchi dars davomida egallagan bilimlari asosida axborot matnini yozadi.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, har bir yozganlari o‘qitiladi. Gap tuzishdagi xato va kamchiliklar izohlab beriladi. Eng yaxshi yozilgan matn egasi rag‘batlantiriladi.

Virus nima?

MUSTAHKAMLASH

Nutqiy mavzu yakunlangach, ushbu mustahkamlash darsi bo‘lib o‘tadi. Unda berilgan

topshiriqlar o‘quvchining fan yuzasidan tutgan daftariga bajariladi. Topshiriqlar o‘tilgan nutqiy mavzu doirasida berilgan. O‘quvchilar og‘zaki va yozma holatda topshiriqlarni bajarishi lozim.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Muhokama

Ayting-chi, virusdan saqlanish uchun qanday qoidalarga rioya qilish kerak? Nima uchun?

Bu topshiriq og‘zaki suhbat asosida tashkil qilinadi. O‘quvchilarning har biridan savolga munosabat so‘raladi. Bunda ular nutqiy mavzu davomida egallagan bilimlari asosida virusdan saqlanish uchun nimalar qilish kerakligini hamda buning sabablarini erkin fikrlab aytib berishi lozim.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning virus hamda undan saqlanish qoidalarini o‘zlashtirgani, nutqiy mavzuga munosabat bildira olishi hamda og‘zaki nutqi tekshiriladi.

Yozma nutq. Imlo

Berilgan so‘zlardagi xatolikni aniqlab, daftaringizga to‘g‘rilab ko‘chirib yozing.

verus, bakteria, covit-19, korantin,
pondemiya, antevirus, voksina,
grip, shomollash.

Bu topshiriqda o‘quvchilar berilgan so‘zlardagi xatoliklarini aniqlab, daftarlariga yozishlari lozim. Bunda o‘quvchilarning olinma so‘zlar imlosini qanday o‘zlashtirgani tekshiriladi.

Og‘zaki nutq

“Sen mening qahramonimsan” matnini hikoya qilib bering.

O‘quvchilardan ketma-ketlikda “Sen mening qahramonimsan” hikoyasini aytib berishlari so‘raladi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning og‘zaki nutqini kuzatib, bir o‘quvchini kelgan joyidan to‘xtatib, keyingi o‘quvchi davom ettirishini so‘raydi.

DANGASALIK – YOMON ILLAT

(10+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilar ongida dangasalik tushunchasiga oid til birliklarini faollashtirish, harakatning bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydigan birliklarni qo‘llash, sabab-oqibat tarzidagi qo‘shma gaplarni, gap mazmunida taxmin, gumon, ehtimollikni ifodalash, badiiy matnning mazmuniy xususiyatlarini anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirishib olish uchun o‘quvchilar bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Unda o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

- *Illat so‘zi nimani anglatishini bilasizmi?*
- *Qanday odamlar “dangasa” deyiladi?*
- *Dangasalik qilgan multfilm qahramonlarini bilasizmi?*
- *Dangasalik qilsangiz, oila a’zolaringiz nima deydi?*

Savollar umumiy tarzda beriladi va istagan o‘quvchi javob berishi mumkin.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasm asosida savol-javob

Darslikning 94-betida 6 ta rasm berilgan. Ushbu rasmlar orasida dangasalar va harakatchanlar tasvirlangan. O‘quvchilar shular orasidan dangasalarni aniqlashlari lozim. Har bir rasmda nima tasvirlanganini so‘rash tavsiya etiladi. Hamma rasm haqida o‘quvchilar o‘z fikrlarini aytib bo‘lgach, topshiriqning asosiy shartiga o‘tish mumkin. Dangasalik ifodalangan rasmlar: 2, 3, 5, 6. O‘quvchilar rasmdagi qahramonni nima uchun dangasa deyayotgani haqida ham aytib berishi lozim.

Yozma nutq

1. Taxmin, gumon va ehtimollikni ifodalashni o‘rgatishga qaratilgan topshiriq. Unda o‘quvchilar 94-betda berilgan dangasa bolalar ifoda-

langan rasmlar haqida namunadagi kabi gaplar tuzishi kerak bo‘ladi. Namunadagi gap 3-rasm haqida:

A. Akmal doim soat 8 gacha uxlaydi, chunki u dangasa.

B. Akmal soat 8 gacha uxlab qoldi, kecha mehmonga borishganda qattiq charchagan bo‘lsa kerak.

Bunda A gap hukm bo‘lsa, B gap taxmin, gumon, ehtimollikni ifodalamoqda.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Bo‘sh vaqtingizda nimalar bilan shug‘ullanasiz?*

• *Vaqtni bekor o‘tkazish deganda nimani tushunasiz?*

• *Bekorchi odam qanday bo‘ladi?*

QO‘SHIMCHA MA’LUMOT! O‘zbek tilida “bekorchi odam” deya ishlatish to‘g‘ri bo‘lmaydi (garchi bu so‘z tilga singgan bo‘lsa-da, aslida, bu mantiqiy xato). Bekor so‘zi *ishsiz, yumushsiz* degan ma’nolarni anglatadi *(kor – ish, yumush),* shuning uchun ham “bekorchi odam” emas “bekor odam” deyish to‘g‘ri bo‘ladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Dangasaning ta’tili” she’ri asosida

O‘qituvchi dastlab she’rni ifodali, ravon o‘qib beradi. Shundan so‘ng she’r matni yonida berilgan so‘zlar izohi muhokama qilinadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga ana shu so‘zlarning ma’nosi haqida tushuntirish berib bo‘lgandan so‘ng o‘quvchilar she’rni o‘zlari o‘qishi mumkin bo‘ladi. Bunda dastlab o‘quvchilarga ichda o‘qib olishlari uchun vaqt beriladi, undan keyin o‘quvchilar navbati bilan ovoz chiqarib she’rni bir marta o‘qiydi.

Savol-javob

Darslikning 96-betida berilgan savollar asosida savol-javob o‘tkaziladi. Bu savollar asosan she’r matnini tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan, shuning uchun ham ularning to‘g‘ri javoblari mavjud.

Savol raqami	Javob	
1	1. Tikkaga kelgan oftob “Tur!” deb qiladi xitob.	2. Nonushtami yo tushlik – Bilolmay hayron sho‘rlik.
2	To‘ygach ovqatga qorin, Ish yoqmasligi tayin.	
3	Shoir “uxlab qolgan”, “uxlab yotibdi” degan ma’noni bermoqchi bo‘lgan, chunki tush ko‘rishi uchun odam uxlashi kerak. *Hoynahoy* so‘zining qo‘llanishi esa *menimcha* degan ma’no yuklamoqda. Shunda ushbu qatorning ma’nosi “menimcha, uxlab qolganov” bo‘ladi.	
4	*Pana* degan so‘zning ma’nosi nazardan yashirin joy ekanini bilgan holda *kitoblar yo‘q joyda, kitoblardan qochib* degan ma’nolarni anglatishini tushunish mumkin.	
5	1. Tushlikka yaqin uyg‘ondi	2. Ovqatlandi
	3. Kompyuter o‘ynadi	4. Uxladi
	5. Hovlini bir marta kezdi	6. Uxladi

Leksikologiya

Darslikning 96-betida jadval berilgan. Birinchi ustunda she’rdan olingan qatorlar, ikkinchi ustunda esa mazmun aks etgan. O‘quvchilar ana shu ikki ustunni moslashtirishi kerak bo‘ladi. Bu topshiriqni xattaxtada ham bajarish mumkin. Bunda o‘qituvchi xattaxtaga 1 dan 7 gacha bo‘lgan raqamlarni yozib qo‘yadi va har bir raqamdagi qatorni o‘qib, o‘quvchilardan qaysi harfdagi izoh mos kelishini so‘raydi, to‘g‘ri aytgan bola chiqib, raqam yoniga harfni yozib qo‘yadi. Bunda u nimaga asoslanib shunday javob berganini tushuntirib berishga urinib ko‘rishi lozim.

Javoblar: *1 – e; 2 – i; 3 – h; 4 – f; 5 – a; 6 – d; 7 – k.*

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Odam nima uchun dangasa bo‘lib qoladi deb o‘ylaysiz?*

• *Odamni mehnat qilishga nimalar undab turadi deb o‘ylaysiz?*

Asosiy qism

Tinglab (ko‘rib) tushunish.
“Dangasa” multfilmi asosida

O‘quvchilarga “Dangasa” multfilmidan olingan parcha qo‘yib beriladi. Undan keyin savol-javob tarzidagi muhokamani boshlash mumkin. Bu yerda 4-savolga diqqat qaratish lozim. Bu savolning to‘g‘ri javobi yo‘qday ko‘rinsa-da, aslida, ona bolasini juda ham erkalatib, taltaytirib yuborgani uchun u shunday dangasa va ishyoqmas bo‘lib qolgan degan xulosaga kelish mumkin.

Og‘zaki / Yozma nutq

Darslikning 97-betida multfilm asosida rasm berilgan. O‘quvchilar ana shu rasm hamda “Dangasa” multfilmi voqealariga tayangan holda namunadagi kabi gaplar tuzishi lozim. Ushbu topshiriqni bajarishga kirishishdan oldin multfilm yana bir marta qo‘yib berilishi maqsadga muvofiq. Gaplar tuzishda asosan qahramonning nimalar qilmaganiga urg‘u qaratilishi lozim. Multfilmda qahramonning ismi tilga olinmagan, shuning uchun o‘quvchilar o‘zlari istalgan ismni qo‘yib olishlari mumkin.

Ushbu topshiriqni ham og‘zaki, ham yozma bajarish mumkin. Darslikda og‘zaki topshiriq sifatida berilgan bo‘lsa ham, ba’zi gaplarni yozish mumkin, lekin avvalo og‘zaki tarzda gap tuzib olish lozim.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Mehnatkash inson hech qachon kam bo‘lmaydi, deganda nimani tushunasiz?*

• *Kattalardan halol pul topish haqida eshitganmisiz?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish. “Dangasa” multfilmining ertak tarzidagi matni asosida

O‘qituvchi matnni bir marta ifodali va ravon o‘qib beradi. Shundan so‘ng o‘quvchilar matnni navbat bilan ovoz chiqarib o‘qishlari mumkin. Matnni o‘qish davomida matn orasida berilgan savollarni o‘rtaga tashlab, muhokama qilish muhim. O‘quvchilar bilan matn ikki marta o‘qib chiqiladi. Shundan so‘ng savol-javob tarzidagi muhokamaga o‘tish mumkin. Darslikning 99-betida berilgan savollarning barchasi shaxsiy munosabat bildirishga qaratilgan. Shuning uchun bu savollarning aniq javoblari mavjud emas, shunday bo‘lsa-da, birinchi va ikkinchi savollar javobining mazmuni quyidagicha bo‘lishi lozim:

1. *Bola bu pullarni o‘zi ishlab topmagan edi, shuning uchun qadrsiz bo‘lgan.*

2. *Chunki bu pullari o‘zi mehnat qilib, qiynalib topgan, shuning uchun bu pullar unga qadrli.*

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Uyalib qolish nima?*

• *Biror marta dangasalik sabab uyalib qolgan odamni ko‘rganmisiz?*

Asosiy qism

Yozma nutq

2. Darslikning 99-betida dangasaligi sabab uyalib qolgan o‘quvchi haqida hikoya yozish kerakligi aytilgan va bu hikoyaning taxminiy tarkibi berilgan. O‘quvchilar shu savollarga javob berish asnosida hikoya matni yaratishi mumkin. O‘quvchilarga bu hikoya to‘qima bo‘lishi, voqealarni bemalol to‘qib chiqarish mumkinligini tushuntirish kerak. Asosiy g‘oya shunday bo‘lishi kerak: kimdir dangasalik qilgan, shu dangasaligi oqibatida keyin odamlar oldida uyalib qolgan.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, o‘z hikoyalarini o‘qib beradi.

O‘quvchilarning hikoyalarini o‘qituvchi o‘zida olib qoladi. Keyingi soat tahrir soati bo‘lgani uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchining hikoyasini tekshirib kelgan bo‘lishi lozim.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Bolajonlar, bugun sizlar bilan o‘z xatolarimizni to‘g‘rilashni o‘rganamiz. Men sizlar yozgan

hikoyalarni tekshirib keldim, xatolaringizni belgilab qo‘yganman, o‘sha xatolarni to‘g‘rilab, hikoyamizni qayta ko‘chirishimiz kerak.

Asosiy qism

Tahrir

O‘qituvchi hammaga o‘z hikoyasini tarqatadi. Shundan keyin o‘quvchilar xatolarini to‘g‘rilab, matnni qayta ko‘chirishni boshlaydilar. Bunda o‘qituvchi tushunarsiz joylarni so‘rash mumkinligini eslatib o‘tadi.

DIQQAT! Ushbu soat hikoya yozilgan kunga to‘g‘ri kelib qolganda uni bitta orqaga surish mumkin. Ya’ni darslikdagi keyingi soatga o‘tib ketish va ertasi kunni tahrir soati bilan boshlash kerak. Chunki o‘qituvchida hikoyalarni tekshirish uchun vaqt bo‘lishi lozim.

7-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Odam dangasa bo‘lib yuraversa, hayotida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin?*

• *Mehnatkash, harakatchan odamlar nima uchun omadli bo‘ladi deb o‘ylaysiz?*

Asosiy qism

Yozma nutq

3. Darslikning 99-betida 5 ta rasm berilgan. O‘quvchilar mana shu rasmlarga izoh yozishi kerak. O‘quvchilar birgina gap bilan izohlashlari ham mumkin. Masalan, bu kundalikda “ikki”lar ko‘p. Bu kishining kiyimlari yirtiq-yamoq.

Muhokama

Keyin mana shu rasmlar asosida muhokama o‘tkazib olish tavsiya etiladi.

Quyidagicha savollarni qo‘llash mumkin:

Qaysi rasmlarda dangasalik oqibati tasvirlangan deb o‘ylaysiz? Qaysi ishga dangasalik qilganliklari uchun shu ahvolga tushishgan deb o‘ylaysiz? O‘rtoqlaringizga tushuntirib bering.

1-rasmda 2 bahoga to‘la kundalik tasvirlangan. Bu kundalik vazifalarni bajarishga, o‘qishga dangasalik qilgan o‘quvchining kundaligi, agar u shu ishlarni o‘z vaqtida bajarganida, bunday bo‘lmas edi.

2-rasmda sadaqa so‘rab yuradigan, tilanchilik qiladigan sog‘lom erkak tasvirlangan. Agar shu erkak dangasa bo‘lmasa, mehnat qilsa, bunday yurmas edi.

3-rasmda semirib ketgan bola tasvirlangan. Ko‘plab semiz odamlar kam harakat qilganlaridan shu ahvolga tushib qolgan bo‘ladi. Bu ham qaysidir ma’noda dangasalikka kiradi, chunki u mehnat qilgan, harakatda bo‘lganida edi, shunchalik semirib ketmagan bo‘lar edi.

4-rasmda oddiy, namunali o‘quvchi ko‘rsatilgan. Bu o‘quvchining sochlari, kiyimlari tartibli, semiz ham emas. Demak, u dangasa emas.

5-rasmda ishda muvaffaqiyatga erishgan odam tasvirlangan. Bu odam ko‘p va yaxshi o‘qigani, mehnatsevar bo‘lgani, hech qachon dangasalik qilmagani uchun mana shunday omadga erishgan, hozir u tashkilot boshlig‘i.

O‘quvchilardan mana shu mazmundagi gaplar kutiladi, aynan shunday bo‘lishi talab etilmaydi.

4. O‘quvchilar darslikning 100-betida berilgan namunaga o‘xshash gaplar tuzib yozishi kerak bo‘ladi. Bundan oldin o‘tkazilgan muhokamada aytilgan gaplar topshiriqni bajarishda yordam beradi.

8-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Dangasalarning odatlari haqida nimalarni bilamiz?*

• *Qanday odamlarni dangasa deb atar edik?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish. She’rlar asosida

Darslikning 100-betida ikkita she’r berilgan. O‘qituvchi dastlab birinchi she’rni o‘qib beradi va pastdagi “nolimoq” va “tanbeh” so‘zlarining izohini moslashtirishni so‘raydi. ***Tanbeh*** *– nojo‘ya harakat uchun berilgan ogohlantirish;* ***nolimoq*** *– shikoyat qilish, norozilik bildirish.*

Keyin ikkinchi she’rni o‘qib beradi va “tang” so‘zining izohi bilan tanishtiradi: ***tang*** *– qiyin, hal qilish mushkul bo‘lgan.*

Mana shulardan so‘ng o‘quvchilar ichida o‘qib olishi uchun vaqt ajratiladi. So‘ng o‘quvchi-

lar she’rlarning mazmunini so‘zlab berishi kerak bo‘ladi. Bunda she’rlarni yoddan aytish emas, ulardagi voqealarni o‘z so‘zi bilan bayon qilish so‘raladi.

Yozma nutq

5. *Nolimoq, tanbeh, tang* so‘zlarini qatnashtirib gap tuzish topshirig‘i. O‘quvchilar o‘zi tuzgan gaplarni o‘qib berishlari kerak. Gaplarda so‘z tartibi bilan bog‘liq xatolar aniqlansa, o‘qituvchi xatoni tushuntirishi lozim.

9-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *“o‘qigan” va “o‘qimagan” so‘zlari o‘rtasida qanday farq bor?*

• *Shunga o‘xshash misollar ayta olasizmi?*

Asosiy qism

Yozma nutq

6. Darslikning 101-betida 7 ta gap berilgan. Ushbu gaplarda bo‘sh o‘rinlar qoldirilgan, o‘quvchilar ana shu o‘rinlardan qaysi biriga -ma qo‘shimchasini qo‘shish mumkin ekanligini topib, gaplarni ko‘chirishlari kerak bo‘ladi. -ma qo‘shimchasi qo‘yiladigan gaplar:

*Salim hech qachon mehnat qil**ma**gan, shuning uchun darrov charchab qoladi.*

Olima ikki baho ol**ma**gan, chunki u juda yaxshi o‘qiydi.

Sevara she’rni yodla**ma**gan edi, shuning uchun o‘qituvchidan tanbeh eshitdi.

Shokir kechqurun yaxshi uxla**ma**gan edi, shuning uchun uning ko‘zini uyqu bosyapti.

Karima dangasa emas, bugun kayfiyati yo‘qligi uchun qo‘li ishga bor**ma**yapti.

Lingvistik qoida

Yozma topshiriq bajarilgach, o‘qituvchi o‘quvchilardan 101-betdagi qoidani ichda o‘qishni, keyin 3–4 ta o‘quvchidan nimalarni tushunganini so‘raydi. Oxirida o‘zi bir necha misollar keltirib, qoidani tushuntirib beradi.

Og‘zaki nutq

Qoida tushuntirib berilgach, o‘quvchilar bilan “Zanjir o‘yini” o‘ynaladi. Bunda darslikning 101-betida berilgan gaplarni davom ettirish kerak bo‘ladi. Asosiy shart: hamma bitta gap aytishi lozim va o‘sha gap voqeaga taalluqli bo‘lishi, mavzudan uzoqlashmagan bo‘lishi kerak.

10-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Kun tartibi nima ekanini bilasizmi? Unda nimalar aks etadi?*

• *Dangasa va mehnatkash odamning kun tartibida qanday farq bo‘lishi mumkin?*

Asosiy qism

Jamoaviy ish

O‘quvchilar bir necha guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh o‘z kun tartibini ishlab chiqadi. Kun tartibi ishlab chiqishda o‘z vaqtida dam olish, o‘qish, o‘ynash, jismoniy mehnat ham me’yorida bo‘lishiga diqqat qaratish lozim. Har bir guruh o‘z kun tartibini boshqa guruh a’zolariga tushuntirishi, unda nimalar ko‘rsatilganini og‘zaki aytib berishi lozim. Bunda o‘quvchilar bir-biriga savol berishi, tushunmagan o‘rinlarini so‘rashi mumkinligi eslatiladi.

MUSTAHKAMLASH

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Dangasalar haqida nimalarni bilib oldik?*

• *Dangasalikning oqibati qanday bo‘lishi mumkin?*

Asosiy qism

Yozma nutq

1. Qaysi gapni dangasalar aytadi? Ko‘chirib yozing.

1. Shu ishni hozir qilishim shartmi? Keyinroq bajarib qo‘yarman.

2. O‘qituvchimiz negadir uyga vazifa bermabdi. Demak, uy vazifa qilmasam ham bo‘larkan.

3. Mana shu uy vazifalari jonimga tegdi, hozir o‘ynab kelay, bularni keyin qilarman.

4. O‘hho‘, soat 8 bo‘libdi-ku, uxlab qolibman, tezroq harakat qilishim kerak.

5. Obbo, soat 8 bo‘libdi-ku, baribir kech qolibman, bugun maktabga bormay qo‘ya qolaman.

O‘quvchilar ushbu gaplardan qaysi biri dangasa bolaning gapi ekanini topishi va yozishi kerak bo‘ladi. *Javoblar:*

Shu ishni hozir qilishim shartmi? Keyinroq bajarib qo‘yarman.

Mana shu uy vazifalari jonimga tegdi, hozir o‘ynab kelay, bularni keyin qilarman.

Obbo, soat 8 bo‘libdi-ku, baribir kech qolibman, bugun maktabga bormay qo‘ya qolaman.

2. Quyidagi gaplarni shunday o‘zgartiringki, natijada gaplardagi voqea amalga oshmagan bo‘lsin.

1. Abbos bugun uy ishlarida oyisiga yordamlashdi.

2. Salimaning hamma baholari besh.

3. Gulzoda bog‘idagi gullarni yaxshi parvarish qiladi.

4. Bugun hamma uy vazifasini bajarib kelibdi.

Dars davomida -ma qo‘shimchasi haqida suhbatlashildi, shunga oid qoida bilan tanishildi va mashqlar bajarildi. Ushbu topshiriq ham aynan -ma qo‘shimchasini qo‘llay olish haqida. O‘quvchilar berilgan gaplarni bo‘lishsiz shaklga o‘tkazishi kerak bo‘ladi. O‘quvchilarga -ma qo‘shimchasidan foydalanish kerakligi oldindan aytib qo‘yilmasligi lozim. Ularning o‘zi shu qoidani qo‘llashni mantiqan topa olishi kerak.

Og‘zaki nutq

3. Dangasa bolaning fe’l-atvori qanday bo‘ladi? Shu haqda muhokama uyushtiring. Gapirganingizda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishiga e’tibor qarating:

- dangasaning fe’l-atvori;
- nima uchun dangasa deyilishi;
- dangasalikning oqibati nima bo‘lishi mumkinligi.

O‘quvchilar bilan dangasa bolalarning fe’l-atvori haqida suhbatlashish kerak bo‘ladi. Bunda o‘qituvchining o‘zi bitta misol bilan boshlab bergani ma’qul. Darslikda o‘quvchilarning nutqida qanday ma’lumotlar bo‘lishi kerakligi ko‘rsatilgan, o‘quvchi shulardan birortasini aytmasa, savol berib so‘rab olish kerak. Buni jamoaviy shaklda tashkillasa ham bo‘ladi. Ya’ni fe’l-atvorni bir o‘quvchi, uning oqibatini boshqa o‘quvchi aytishi ham mumkin.

TOMORQA

(9-1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilar ongida tomorqa ekinlari, mehnat, dehqonchilik, qishloq xo‘jaligiga oid til birliklarini faollashtirish, berilgan suhbat matni tarkibidan kishilarning nomlari, hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar, joy nomlarini ajratish, ularning bosh harf bilan yozilishiga e’tibor qaratish, ko‘plik ma’nosidagi so‘zlarni aniqlash, ularning imlosi, faoliyat-jarayon fe’llarining yasalishi va qo‘llanishini o‘rgatish, berilgan rasmlar asosida ma’lum mavzu yuzasidan taqdimot nutqi tayyorlash ko‘nikmasini shakllantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, biror ekin ekkanmisiz? Nima uchun?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmga qarang. Tomorqada nimalar tashkil qilish mumkinligini ayting. Darslikda tomorqada nimalarni tashkil qilish mumkinligini izohlovchi sxema berilgan. O‘quvchilarga ushbu rasm bilan tanishib chiqishlari aytiladi. O‘quvchilardan rasmda nimalarni ko‘rayotgani so‘raladi. So‘ngra o‘qituvchi ushbu sxemani doskada yoki proyektorda ko‘rsatib, tushuntiradi: *“Bu yerda tomorqa rasmi berilgan, uning atrofidagi rasmlar orqali tomorqadan nima maqsadda foydalanish mumkinligini ko‘rishimiz mumkin. Demak, biz tomorqamizda bog‘, issiqxona, gulzor va poliz tashkil qilishimiz mumkin”.*

O‘quvchilarda rasm bilan bog‘liq tasavvur paydo qilingandan so‘ng rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi:

1. Tomorqa deganda nimani tushunasiz?

Bu savolga javob berishda o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari hamda kattalardan eshitgan suhbatlari asosida erkin fikrlab javob berishi lozim.

O‘quvchilarning javoblari eshitilgach, ularga *tomorqa* so‘zi haqida ma’lumot beriladi.

***Tomorqa** – hovli-uy yonida joylashgan yer bo‘lagi. Ekin ekiladigan, aholi foydalanadigan yer qismi.*

2. Tomorqaga nimalar ekish mumkin ekan?

Bu savolga o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab javob berishlari ham mumkin. Bunda ular tomorqaga daraxt, poliz ekinlari, gullar ekish mumkinligini va bu mahsulotlarning nomlarini aytib berishi maqsadga muvofiq. Bu topshiriqdan maqsad o‘quvchining tomorqa bilan bog‘liq so‘z boyligini oshirishdan iborat.

3. Tomorqada nimalar tashkil etish mumkin?

Bu savolga javob berishda o‘quvchiga yuqorida tanishgan sxema yordam beradi. Shu sxemadan foydalangan holda tomorqada bog‘, poliz, gulzor, issiqxona tashkil etish mumkinligini aytib berishi lozim.

4. Poliz nima? Uy sharoitida qanday poliz ekinlarini yetishtirish mumkin?

Bu savoldan asosiy maqsad o‘quvchilarning poliz haqidagi tushunchalarini bilish hamda ularda ushbu so‘z haqida to‘liq tasavvur hosil qilishdan iborat.

***Poliz** – ekinlar ekiladigan yer maydoni. Asosan qovun, bodring kabi palak otib o‘sadigan ekinlar ekiladigan joyga nisbatan aytiladi. Shu bilan birga polizda pomidor, ko‘katlar, sabzi, tarvuz, sholg‘om, turp, qalampir, kartoshka, piyoz kabi mahsulotlar yetishtiriladi.*

5. Issiqxona nima? Unda qanday mahsulotlar yetishtiriladi?

Bu savoldan asosiy maqsad o‘quvchilarning issiqxona haqidagi tushunchalarini bilish hamda ularda ushbu so‘z haqida to‘liq tasavvur hosil qilishdan iborat.

***Issiqxona** – o‘simliklarni sovuqdan himoyalab parvarishlash va erta yetishtirish uchun quriladigan maxsus qurilma, inshoot. Bunda o‘simliklarning hamma tomoni o‘rab olinadi, xona isitish vositalari bilan yetarli haroratda saqlanadi.*

Issiqxonada asosan pomidor, bodring, bulg‘or qalampiri, limon yetishtiriladi.

6. Gulzor nima? Uning qanday foydali tomonlari bor?

***Gulzor** – gul ekiladigan ekin maydoni. Unda turli xil gullar o‘stiriladi. Gulzorlardagi gullar o‘zining chiroyli manzarasi hamda yoqimli ifori bilan insonga xush kayfiyat ulashadi. Bundan tashqari, gulzorlardan asalarilar shifobaxsh asal yig‘ishadi, gullar toza havo manbai hisoblanadi. U changlarni o‘ziga yutib, bizga toza havo chiqazib beradi.*

7. Bog‘ nima? Qanday mevali daraxtlarni bilasiz?

Bunda o‘quvchilar bog‘ haqidagi tasavvurlarini aytadilar. U yerda qanday mevali daraxtlarni o‘stirish mumkinligini sanab berishlari lozim.

***Bog‘** – turli xil mevali daraxtlar hamda uzum yetishtiriladigan yer maydoni. Olma, anor, o‘rik, shaftoli, gilos kabi mevali daraxtlarni ekish mumkin.*

8. Tomorqadan qanday daromad olish mumkin?

Bu savolga o‘quvchilar yuqorida berilgan javoblar hamda sxemadan olgan tushunchalari asosida xulosa chiqarib, erkin tarzda javob berishlari mumkin. Bu jarayonda o‘quvchining mantiqan o‘ylab, erkin fikrini og‘zaki tarzda ifodalab berishi tekshiriladi.

Og‘zaki nutq

Tasavvur qiling, tomorqangiz bor. Undan qanday foydalanasiz? So‘zlab bering.

Har bir o‘quvchiga ismi bilan murojaat qilib, tomorqasi borligi haqida tasavvur paydo qilinadi. Ularni yo‘naltirish uchun quyidagi savollar o‘qib eshitiladi:

- *U qanday ko‘rinishga ega?*
- *Qanday ekinlar ekasiz? Nima uchun?*
- *Bir yilda taxminan qancha daromad topasiz?*
- *Daromadingizni ko‘paytirish uchun yana nimalar qilasiz?*

O‘quvchilar tayyorlanib olishlari uchun vaqt beriladi. Bu jarayonda fikrlarini erkin ifodalab berishlari uchun daftarga turli rasm, jadval, sxemalar chizishlari ham mumkin.

Asosiy e’tibor o‘quvchining og‘zaki nutqini tekshirish hamda mavzu doirasida olgan taassurotlari asosida mantiqan fikrlab, o‘z rejalari, o‘z g‘oyalarini aytib berishga yo‘naltirishga qaratiladi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, ko‘chat ekishni bilasizmi?

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“Ko‘chat ekish sirlari” audiomatnini tinglang va savollarga javob bering.

Audiomatn eshittirilgach, darslikning 103-sahifasidagi savollar bilan suhbat boshlanadi:

1. Mevali daraxt ekish uchun qulay fasl qaysi? Nima uchun?

Bu savolning javobi audiomatnda keltirilgan. O‘quvchilar tinglagan matnlari asosida mevali daraxt ekish uchun bahor fasli qulay ekanini, bu faslda ekilishining sababi esa yoz va kuz fasllarida daraxt ildizlari mustahkam bo‘lib, tuproqqa chuqurroq singib ketishi, sovuqqa bardoshli bo‘lishi ekanini aytib berishi lozim.

2. Eng keng tarqalgan mevali daraxtlar qaysilar?

Bu savolga o‘quvchilar tinglagan matnlari asosida olma, gilos, nok, shaftoli deb javob berishlari lozim. O‘quvchi qo‘shimcha qilishi va buni asoslab berishi ham mumkin.

3. Sizning uyingizda qanday mevali daraxtlar bor? Ularga ta’rif bering.

Bu o‘quvchining o‘ziga qaratilgan savol bo‘lib, u hayotiy kuzatishlari asosida uyida bor mevali daraxtlarni aytib berishi lozim. Ko‘p qavatli uylarda yashaydigan o‘quvchilardan esa mahallasi, ko‘chalarda, maktab hovlisida uchratgan daraxtlari haqida aytib berishlari so‘raladi.

4. Ko‘chat ekayotganda nimalarga e’tibor qilish kerak? Bu nega muhim?

Audiomatnda ko‘chat ekish qoidalari keltirilgan. O‘quvchilar matndan ushbu qismni yodga olib aytib berishi lozim. Bunda matnda keltirilgan ma’lumotdan tashqari hayotiy kuzatishlari asosida bilgan ma’lumotlarni ham aytishlari mumkin.

5. Ko‘chat ekilgandan so‘ng nima qilish kerak? Bu nega muhim?

Bu savolga o‘quvchilar audiomatndagi ma’lumot hamda hayotiy kuzatishlari asosida javob berishi lozim.

Javoblar tinglangandan so‘ng o‘quvchilarga yozma topshiriqni bajarishlari aytiladi.

Yozma nutq

1. Ko‘chat ekish qoidalarini ketma-ketlikda yozing.

Bu topshiriqni bajarishdan avval o‘quvchilarga audiomatn yana bir marta eshittiriladi. So‘ng o‘quvchilar eshitgan ma’lumotlarini namunadagi singari ketma-ketlikda yozib davom ettirishlari lozim.

Bunda matnda berilgan ma’lumotlarni so‘zma-so‘z yozib berish talab etilmaydi. O‘quvchilar o‘zlarining ifoda birliklari bilan yozib berishlari mumkin. Bu jarayonda ularning yozma savodxonligi ham tekshiriladi.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, dehqon kim? U nimalar bilan shug‘ullanadi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish. Leksikologiya

Darslikning 103–105-sahifalaridagi ertak o‘qiladi. O‘quvchilar ushbu hikoyani avval ichlarida o‘qib olishlariga vaqt beriladi. Keyin ular hikoyani navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Sinfdagi hamma ovoz chiqarib o‘qishi lozim. O‘qituvchi tomonidan o‘qish jarayoni nazorat qilib boriladi.

O‘quvchilar o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi tomonidan bir marta ifodali qilib o‘qib beriladi. So‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi:

1. Serfarzand odamning yashash sharoiti qanday ekan? Javobingizni izohlang.

Bu savolning javobi matnda keltirilgan. O‘quvchi matn tarkibidan ushbu o‘rinni topib, serfarzand odamning yashash sharoiti yaxshi emasligini aytib berishi lozim. Bu o‘rinda o‘quvchi ushbu gapning mazmunini chiqarish uchun *serfarzand* va *amal-taqal qilib* so‘zlarining ma’nosi bilan tanish bo‘lishi kerak.

Serfarzand *– farzandlari ko‘p bo‘lgan inson.*

Amal-taqal qilib *– zo‘rg‘a, biror chora, iloj topib, bir amallab.*

2. Nima uchun ota qishloqdan ketibdi?

Bu savolning javobi ham matnda keltirilgan, o‘quvchilar ushbu o‘rinni topib, gaplarni o‘zaro bog‘lab, ma’no-mazmun chiqargan holda ota qishloqdagi odamlar singari oltin koniga ishlash uchun ketayotganini aytib berishi lozim.

3. “Ro‘zg‘or tebratish to‘ng‘ich o‘g‘ilning gardaniga tushibdi”, deganda nimani tushundingiz?

Bunda o‘quvchi ***“gardaniga tushmoq”*** iborasining ma’nosini tushunib, gapdagi umumiy mazmuni bilan aytib berishi lozim. O‘quvchi gapning mazmunini ochib berolmasa, ushbu iboraning ma’nosi va gapdagi mazmun-mohiyati o‘qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi.

Gardaniga tushmoq **–** *zimmasiga olmoq, mas’uliyatli bo‘lmoq.*

4. Ayting-chi, to‘ng‘ich o‘g‘il qaysi xislatlari uchun boyib ketdi?

O‘quvchi matndan ushbu o‘rinni topib, to‘ng‘ich o‘g‘ilning harakatlaridan mehnatkash, tadbirkor ekanini aytib berishi lozim.

5. Nima deb o‘ylaysiz, agar ota oltin izlab ketmaganida, ular qanday yashayotgan bo‘lardilar?

Bu o‘quvchini tasavvur qilishga undaydigan savol. Unga ko‘ra, bola ota ketmaganida, vaziyat qanday bo‘lishini tasavvur qilib, aytib berishi lozim. Fikrlar turlicha bo‘lishi mumkin, asosiy e’tibor o‘quvchining og‘zaki nutqda fikrini erkin ifodalab berishiga qaratiladi.

6. Haqiqiy xazina shundoqqina uyimizning yonida ekan, bilmagan ekanman”, deganda ota nimani nazarda tutgan? Ushbu fikrni izohlang.

Bu savolning javobi akaning tadbirkorligi hamda otaning ishi yurishmay uyga qaytgan holatidan anglashiladi. O‘qituvchi bu o‘rinda qo‘shimcha ma’lumotlar bilan xazina bu – insonning harakati, mehnati natijasida yuzaga keladi, asl boylik qo‘llarimizda, harakat qilsak, hammasiga yetishishimiz mumkin deya tushuntirib bermog‘i lozim.

7. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

Har bir o‘quvchining dunyoqarashi turli xil, ularning har biridan alohida ertakdan olgan taassurotlari hamda chiqargan xulosalari so‘raladi. Xulosalar turli xil bo‘lishi mumkin, asosiy e’tibor o‘quvchining fikrini erkin ifodalab berishi hamda og‘zaki nutqiga qaratiladi.

O‘quvchilar savollarga javob berib bo‘lganlaridan so‘ng o‘qituvchi tomonidan qisqa xulosa aytiladi.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, ota va o‘g‘il haqida berilgan ertakdan nimalarni bilib oldingiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Ertakka mos sarlavha tanlang.

Berilgan sarlavhalar doskaga yozib qo‘yiladi hamda har bir o‘quvchidan ertak uchun tanlagan sarlavhasi so‘raladi. O‘quvchi tanlagan sarlavhalarini hamda nima uchun uni tanlaganlarini matn bilan isbotlab berishi lozim.

Yozma mashq. Leksikologiya. So‘z yasalishi. Morfologiya

2. To‘ng‘ich o‘g‘il qanday qilib katta savdogarga aylandi? Ketma-ketlikda yozing.

Bu topshiriq o‘quvchilarga matn qismlarini anglashda yordam beradi. O‘quvchilar matndan ushbu o‘rinni topib, namunada berilgan tartibda ketma-ketlikda yozib chiqishlari lozim.

Bu topshiriq o‘quvchilarning matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish hamda ularga matn qismlarini aniqlashni o‘rgatishga qaratilgan.

3. Moslashtirib ko‘chiring.

Bu topshiriq mashq daftarida bajariladi. O‘quvchilar berilgan gaplarning ma’nosiga ko‘ra moslab yozishlari lozim.

Javob:

***ovora-yu sarson** – maqsadiga yeta olmayotgan*

***amal-taqal** – zo‘rg‘a, bazo‘r*

***gardaniga tushmoq** – zimmasiga tushmoq*

***jamg‘armoq** – yig‘moq*

***ro‘zg‘or tebratmoq** – oila boqish*

***biri ikki bo‘lmaslik** – foyda ko‘rmaslik*

4. Berilgan qaysi so‘zlarga *tozala* so‘zidagi *-la* qo‘shimchasini qo‘shish mumkin? Aniqlab, yozing.

Darslikda bir necha so‘zlar keltirilgan bo‘lib, o‘quvchi ushbu so‘zlar orasidan -la qo‘shimchasi qo‘shish mumkin bo‘lgan so‘zlarni topib, yozishi lozim.

Dastlab, o‘qituvchi tomonidan *tozala* so‘zi tahlil qilib beriladi: *toza – qanday? toza biror narsaning changdan xoli ekani, tartiblanganini anglatadi. Tozala – nima qil? Tozala – tozalash jarayoniga undovchi harakat, toza qilishni boshlash deganidir.*

O‘quvchilar olgan ma’lumotlari asosida har bir so‘zga so‘roq beradilar hamda *-la* qo‘shiladigan so‘zlarni aniqlab yozadilar.

***Javob:** gulla, ishla, o‘yla, tishla.*

5. Matn tarkibidan kishi nomlari, joy nomlari va hayvonlarning nomlarini aniqlab, alohida ustunlarga yozing.

Bu topshiriq matn bilan ishlash, so‘zlarga so‘roq berish, kerakli o‘rinlarni aniqlab, yozishga qaratilgan. O‘quvchilar ertak matnidan kishi, hayvon va joy nomlarini aniqlab, mashq daftarida ajratilgan alohida o‘rinlarga yozishlari lozim.

Javob:

***Kishi nomlari:** boy, xizmatchi, farzand, bola, qo‘shni, ota, o‘g‘il, aka-uka, savdogar.*

***Joyni ifodalovchi nomlar:** shahar, bozor, uy, to‘qayzor, qishloq.*

***Hayvonni ifodalovchi nomlar:** eshak, ho‘kiz.*

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, ertak sizga yoqdimi? Nima uchun?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

O‘qigan ertagingizni gapirib bering. Gapirish jarayonida adabiy talaffuz qoidalariga rioya qiling. Sinfdoshingiz aytgan ertakni diqqat bilan tinglang. Unga munosabat bildiring.

Bu topshiriqni bajarishda “Oltin oltilik” deb nomlangan zanjir o‘yinini o‘ynaymiz. Bunda doskaga oltita o‘quvchi chiqariladi. Ularga ertakning mazmunini birgalashib aytib berish topshiriladi. Birinchi o‘quvchi boshlaydi, o‘qituvchi xohlagan joyida to‘xtatib, keyingi o‘quvchi davom ettirishini aytadi. Shu tariqa doskada turgan oltita o‘quvchi ertakni aytib, mazmunini ochib berishi lozim. Qolgan o‘quvchilar ularning suhbatini tinglaydi. Keyingi oltita o‘quvchi chiqib, birinchi chiqqan oltitalik guruhning ertakni aytib berishiga munosabat bildiradi hamda o‘zlari ertakni yana navbat bilan aytishni boshlaydi. Shu tariqa o‘yin davom etadi. Ertakni eng tushunarli qilib aytib bergan guruh rag‘batlantiriladi.

Muhokama

Maqollarni o‘qing. Ma’nosini tushuntiring.

Bu topshiriq ham og‘zaki bajariladi. O‘quvchilar berilgan maqollarni navbat bilan o‘qib, ma’nosini sharhlab berishlari lozim. Bunda ular maqollardagi har bir so‘zni hayotiy voqealar bilan bog‘lab aytib berishlari o‘rinli hisoblanadi.

O‘quvchilarning dunyoqarashi har xilligini inobatga olgan holda ularning har biridan maqoldan olgan tushunchasini aytib berish so‘raladi.

O‘quvchilarning javoblari tinglangach, o‘qituvchi tomonidan har bir maqolga alohida izoh berib o‘tiladi.

Yozma nutq

6. Qaysi maqol sizga ko‘proq yoqdi? Ushbu maqolning mazmunini izohlab yozing.

Bunda o‘quvchilar o‘zlariga yoqqan maqolni tanlab, shu maqolning ma’nosi, qanday holatlarda ishlatilishi, maqoldagi so‘zlarning o‘rni, o‘xshatishlarni izohlab yozishlari lozim.

Bunda o‘quvchilarning erkin fikrlari hamda bog‘lanishli nutq tuzish ko‘nikmasi tekshiriladi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, siz ham dalada ishlaganmisiz? Nima uchun?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

She’rni o‘qish

Darslikda berilgan “Yer chopildi – javob topildi” she’ri hamda muallifi tanishtiriladi. O‘quvchilarga she’rni mustaqil, ovoz chiqarmay o‘qishlari aytiladi.

She’rni o‘qib bo‘lishgach, o‘qituvchi bir marta baland ovozda o‘qib eshittiradi.

So‘ng 108-sahifadagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollarning javobi she’r matnida aks etgan. O‘quvchilar savollarga she’r mazmunidan kelib chiqib javob berishlari lozim. Bunda asosiy maqsad – o‘quvchining o‘qib tushunish malakasini shakllantirish. O‘quvchilar she’r matniga munosabat bildira olishi, so‘zlarni o‘zaro bog‘lab mazmun chiqara olishi hamda matn mazmunida qo‘llangan o‘xshatishlarni tushunib aytib bera olishiga e’tibor qaratiladi.

Yozma nutq

7. Ajratib ko‘rsatilgan satrlarni o‘z nutqingizga aylantirib yozing. She’r satrlari bilan yozgan gapingiz o‘rtasida qanday farqni sezdingiz? Qaysi biri ta’sirli? Nima uchun?

Bunda o‘quvchilarning matn mazmunini tushunib, uni saqlab qolgan holda qayta matn yaratish ko‘nikmalari tekshiriladi. O‘quvchilar she’r matni tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan bandni o‘qib, uning ma’nosini saqlagan holda o‘z nutqlari bilan ifodalab berishlari lozim.

O‘quvchilar yozib bo‘lishgach, yozgan matnlari o‘qitiladi hamda partadoshidan she’r bandi va yozilgan matn o‘rtasidagi farqli va ustun jihatlarini aytib berishi so‘raladi.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, yer chopishning foydali tomonlari bormi? Siz ham yer chopganmisiz?

Asosiy qism

She’rni o‘qish

Darslikda berilgan “Yer chopildi – javob topildi” she’ri har bir o‘quvchidan so‘raladi. Bu jarayonda o‘quvchilarning she’rni rolga kirib, ohang bilan og‘zaki nutqda ifodalab berishlari tekshiriladi.

Yozma mashq. Fonetika

8. She’rdagi qofiyadosh so‘zlarni aniqlang, ularni jufti bilan yozing.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilar she’r matni bilan qayta ishlaydilar. Bunda ular she’rning ohangini yuzaga keltiradigan so‘zlarni topib, namunadagi kabi jufti bilan yozishlari lozim.

Javob: *Onamga – xonamga, o‘tirdim – o‘chirdim, chaqqon – har yon, hech – kech, chiqdim – chiniqdim, ko‘nglim – yo‘lim, topildi – chopildi.*

7-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, daromad nima? Uni qanday topish mumkin?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikning 108–109-sahifalaridagi “Daromadli ish” matni o‘qiladi. O‘quvchilar ushbu matnni avval ichlarida o‘qib olishlariga vaqt beriladi. Keyin navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Sinfdagi hamma o‘quvchi ovoz chiqarib o‘qishi lozim. O‘qituvchi tomonidan o‘qish jarayoni nazorat qilib boriladi.

O‘quvchilar o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi tomonidan bir marta ifodali qilib o‘qib beriladi. So‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Savollar o‘quvchining o‘ziga qaratilgan bo‘lib, ular o‘qigan matnlari asosida xulosa chiqarib, erkin fikrlab javob berishlari lozim. Bu savollardan asosiy maqsad o‘quvchilarning matnga munosabatini tekshirish hamda ular kelajakda daromadli ish qilish, tadbirkorlik hissini uyg‘otishdan iborat.

Shu bilan birga asosiy e’tiborni 4-savolga qaratib, joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi savol-javob orqali tushuntiriladi.

Yozma nutq

9. *Sizda ham she’rdagi kabi holat bo‘lganmi? Shu haqida qisqa matn tuzib, yozing.*

10. *Mamlakat* va *mamlakatlar* so‘zlarining ma’nosini izohlab yozing. Ma’nolar o‘rtasida qanday farq bor?

Bu topshiriq o‘quvchilarga birlik va ko‘plikni ajratib olishga yordam beradi. Bunda ular mamlakat deganda bitta mamlakat, mamlakatlar deganda ko‘p mamlakat nazarda tutilishini izohlab yozishlari lozim.

O‘quvchilar yozishga qiynalishsa, bitta kitobni ko‘rsatib, *bu – kitob*, ikkita kitobni ko‘rsatib, *bu – kitoblar* kabi misollar bilan yo‘nalish beriladi.

11. Matn tarkibidan *-lar* qo‘shimchasi ishtirok etgan so‘zlarni topib, ko‘chiring.

Bu topshiriqda o‘quvchi *matn bilan qayta ishlash* imkoniyatiga ega bo‘ladi. Unga ko‘ra, matn tarkibidan ko‘plikda kelgan so‘zlarni topib, yozishlari lozim.

Javob: *bobolar, egatlar, ko‘chatlar, pomidorlar.*

8-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tasavvur qiling, tadbirkor bo‘lib qolsangiz, qanday ishlarni amalga oshirasiz?

Asosiy qism

Loyiha tayyorlang

Darslikda namuna sifatida loyiha berilgan. Ushbu loyiha o‘qituvchi tomonidan doskada yoki proyektorda ko‘rsatiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga loyihani ko‘rsatgan holda uning mazmuni bilan batafsil tanishtiradi.

So‘ng esa o‘quvchilarga loyiha tayyorlash uchun yo‘nalish beradi. Bunda darslikda loyiha uchun mavzu berilgan: “Pomidor yetishtiramiz”.

O‘quvchilar loyiha tuzish haqida ma’lumotga ega bo‘lgach, ularga loyiha tayyorlash uchun quyidagi ko‘rsatmalar beriladi:

- kerakli narsalar;
- yetishtirish jarayoni;
- olinadigan foyda.

Bunda o‘quvchilar erkin fikrlab, chizmalar bilan ijodiy yondashib fikrlarini yozishlari lozim.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, har biriga yozganlari o‘qitiladi. Gap tuzishdagi xato va kamchiliklar izohlab beriladi. Eng yaxshi yozilgan matn egasi rag‘batlantiriladi.

9-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, biznes-reja tuzishda sizga nima yordam berdi?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Sinfda biznes-rejangiz taqdimotini qilib bering.

Hisob-kitoblaringiz, rejalaringiz yozilgan qog‘ozni sinfdoshlaringizga ko‘rsating.

Bunda har bir o‘quvchi navbat bilan sinfdoshlariga tuzgan biznes-rejasi taqdimotini qilib berishi lozim. Bu jarayonda boshqa o‘quvchilar hamda o‘qituvchi biznes-rejaga munosabat bildirishlari lozim.

Bu topshiriqdan asosiy maqsad o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish hamda ularni ko‘pchilik oldida nutq so‘zlashga o‘rgatishdan iborat.

Dars so‘ngida eng yaxshi taqdimot qilib bergan o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

MUSTAHKAMLASH

Nutqiy mavzu yakunlangach, ushbu mustahkamlash darsi bo‘lib o‘tadi. Unda berilgan topshiriqlar o‘quvchining fan yuzasidan tutgan daftariga bajariladi. Topshiriqlar o‘tilgan nutqiy mavzu doirasida berilgan. O‘quvchilar topshiriqlarni og‘zaki va yozma holda bajarishi lozim.

Asosiy qism

Muhokama

Ayting-chi, tomorqadan qanday maqsadlarda foydalansa bo‘lar ekan? Fikringizni asoslang.

Bu topshiriq og‘zaki suhbat asosida tashkil qilinadi. O‘quvchilarning har biridan savolga munosabat so‘raladi. Bunda o‘quvchilar nutqiy mavzu davomida egallagan bilimlari asosida erkin fikrlab, mulohaza yuritib, hayotiy misollar bilan javob berishlari lozim.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning tomorqa va u bilan bog‘liq til birliklaridan foydalana olishi, nutqiy mavzuga munosabat bildira olishi hamda og‘zaki nutqi tekshiriladi.

Og‘zaki nutq

Tez aytishlarni o‘qing. Ularni bir nafasda aytib ko‘ring.

Dorivor daraxt do‘lana, mevasi dona-dona.

Belbog‘ini belga bog‘lab, bog‘bon bobo bog‘ga bordi.

Erkin ekkan ekinlar dalani erkin enlar.

Chuvalchang chuvalashib chirmoviqqa chirmashdi.

Berilgan tez aytishlarni o‘qituvchi xattaxtaga yozadi. Bunda har bir o‘quvchi tez aytishlarni ketma-ketlikda o‘qib, aytib bera olishi lozim. Bir nafasda aytib berish majburiy emas, buni ulardan ixtiyoriy ravishda so‘rash mumkin.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqi, so‘zlarni ketma-ketlikda to‘g‘ri talaffuz qilishi tekshiriladi.

Yozma nutq

“Tomorqa” nutqiy mavzusida berilgan matnlardan ixtiyoriy bittasini tanlab, matn yuzasidan beshta savol tuzib yozing.

Bu topshiriqni har bir o‘quvchining o‘zi mustaqil bajaradi. Bunda o‘quvchilar nutqiy mavzudan egallagan bilimlari asosida matnlar bilan qayta ishlagan holda matn mazmunini ochishga qaratilgan savol tuzishlari lozim.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, yozgan savollari birma-bir o‘qitiladi. Bu jarayonda o‘quvchining so‘z boyligi, so‘zlardan o‘rinli foydalana olishi hamda mazmunan bog‘langan nutq tuza olishi tekshiriladi.

JAMG‘ARMA PULLARIM

(7 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: pulni jamg‘arish, jamg‘arma va undan foydalanish bilan bog‘liq tasavvurlarni kengaytirish, ushbu jarayonda faol qo‘llanadigan til birliklaridan foydalanishga o‘rgatish, berilgan mashq va topshiriqlar yordamida og‘zaki, yozma, o‘qib va tinglab tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi.

Sizning ham jamg‘arma pullaringiz bormi?

Ularni qanday jamg‘arasiz?

Nima uchun jamg‘armangiz bo‘lishini xohlaysiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Savollarga javob bering.

1. Pulni nimalarga sarflaymiz? Nima maqsadda?

Ushbu savolga javob berishda har bir o‘quvchidan pulni qanday sarflash haqida so‘raladi. O‘quvchilar pulni kimdan olishlari, nima maqsadda olishlari haqida gapirib berishlari kerak.

2. O‘ylab ko‘ring-chi, pulga hamma narsani sotib olish mumkinmi? Fikringizni isbotlang.

Pulga nimalarni sotib olish mumkinligi haqida suhbat quriladi, shundan so‘ng pulga nimalarni sotib olib bo‘lmasligi haqida ma’lumot beriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni to‘g‘ri javob sari yo‘naltirib boradi, ammo to‘g‘ri javobni aytmasligi kerak. Ushbu savolga javob berishda darslikda berilgan rasmdan foydalanish lozim.

3. Ayting-chi, nimalarni sotib olib bo‘lmaydi?

Ushbu savolga javob berish uchun shunday vaziyatga har bir o‘quvchini tushirib ko‘rish yaxshi natija beradi. O‘quvchi o‘zi tushgan vaziyatdan kelib chiqqan holda javob berishi, xulosalar chiqarib olishiga imkon berish kerak.

Pulga nimalarni sotib olish mumkin?

Pulga nimalarni sotib olib bo‘lmaydi?

Berilgan rasmlar yordamida suhbat olib boriladi. Har o‘quvchi o‘z javobini izohlashi, nima uchun shunday o‘ylayotgani haqida gapirishi kerak. Agar o‘quvchilar buni noto‘g‘ri deb bilsalar, o‘qituvchi ulardan buning izohini so‘rashi, nima uchun ushbu tanlov amalga oshirilganini tushuntirib berishi kerak.

Yozma nutq

1. Jadvalni to‘ldiring.

Ushbu topshiriq asosida o‘quvchilarning yuqorida o‘zlari bildirgan fikrlarini yozma ifodalash ko‘nikmasi shakllantiriladi. O‘quvchilar berilgan rasmlar hamda o‘zlari aytgan fikrlar asosida jadvalni to‘ldirishi zarur.

Sotish olish mumkin	Sotib olish mumkin emas
Uy	Oila
Mashina	Vaqt
Oziq-ovqat	Baxt
Turli xizmatlar	Ishonch

O‘qituvchi o‘quvchilarning jadvallarini ko‘rib chiqadi, har bir o‘quvchi hech bo‘lmaganda darslikdan tashqari bitta yangi so‘z yozishi kerakligini aytadi. Aynan ana shu narsa yoki tushuncha haqida har bir bolaning fikrini so‘rash kerak.

2. Daftaringizga namunadagidek gaplar tuzib yozing.

Namuna:

Vaqtni pulga sotib olib bo‘lmaydi.

Ushbu topshiriq ham jadval ko‘rinishida berilgan ma’lumotlarni matn ko‘rinishida ifodalash bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘zlari tuzgan gaplarni o‘qib beradilar. O‘qituvchi ularning uslubini, imloviy va ishoraviy xatolarini ko‘rib chiqib baholaydi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Pulni tejash, iqtisod qilish deganda nimani tushunasiz?

“Iqtisod” so‘ziga alohida to‘xtalib, uning ma’nosi tushuntiriladi.

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“Pulning qopqonlari” audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.

O‘quvchilar audiomatnni tinglash jarayoniga tayyorlanadi. Diqqat bilan eshitish, kerakli o‘rinlarni qayd etib borish, kalit so‘zlarni yozib olish kabi topshiriqlarni bajarib borishlari mumkin.

1. Xasis odam qanday bo‘ladi? Xasis odam bilan tejamkor odamning farqi bormi? Izohlang.

Savolga berilgan javoblar natijasida o‘quvchilar xasis va tejamkor odamning o‘zaro farqini anglab olishi, tejamkorlik fazilat, xasislik esa illat ekanini tushunib olishlari kerak.

2. Pulning “qopqonlari”dan eng kattasi qaysi ekan?

Ochiq ko‘rinishda berilgan ma’lumot aytiladi. Nima uchun reklamalar pulning “qopqoni” deya atalishiga asoslar keltiriladi.

3. Keyingi qopqon qaysi? U haqida nimalarni bilib oldingiz?

Ochiq ko‘rinishda berilgan ma’lumot aniqlanadi, o‘quvchilar u haqida bilib olganlari to‘g‘risida gapirib beradilar.

4. O‘ylab ko‘ring, balki boshqa “qopqon”lar ham bordir? Ular nimalar?

Bundan tashqari yana nimalar pulni o‘ylamay sarflab yuborishga sababchi bo‘lishi mumkinligi o‘quvchilardan so‘raladi. O‘quvchilar shaxsiy hayotidan kelib chiqqan holda javob beradilar. O‘qituvchi chiqarilayotgan xulosalarning to‘g‘ri yoki xato ekanini aniqlashtirishga yordam beradi.

5. Ayting-chi, boy bo‘lish yaxshimi yoki yomonmi? Javobingizni izohlang.

Ushbu savolga javob berish o‘quvchilardan kengroq mushohada qilishni talab qiladi. O‘qituvchi suhbat jarayonini shunday olib borishi kerakki, suhbat so‘ngida o‘quvchilar inson qachon haqiqiy boy va baxtli bo‘lishi mumkinligini anglab yetishi kerak.

To‘g‘ri javobni aniqlang.

Albatta, xasislik va pulni yaxshi ko‘rish – illat. Ushbu gapdagi “illat” so‘zining matndagi ma’nosini aniqlang.

A. Xastalik. B. Jinoyat. D. Kamchilik. E. Gunoh.

Berilgan so‘zning bir necha xil ma’nolari borligi tushuntiriladi, matnda aynan kamchilik ma’nosida kelayotganini aniqlash uchun ko‘rsatmalar beriladi.

Noto‘g‘ri fikrlarni aniqlang.

• Reklamalar ehtiyojimizdan ortig‘ini xarid qilishga undaydi.

• Qimmatbaho va “yoqimtoy” mahsulotlar rastalarning bir burchagida turadi.

• Ayrim hollarda pulni noo‘rin ishlatish mumkin.

• Supermarketga faqat olinadigan narsalar ro‘yxati bilan kirish kerak.

Avval o‘quvchilarning fikrlari tinglanadi. Shundan so‘ng har bir berilgan fikr alohida tavsiflanadi, nima uchun to‘g‘ri yoki xato ekanligiga matndan asoslar keltiriladi.

Yozma nutq. So‘z yasalishi. Leksikologiya

3. Matn mazmunini ochuvchi kalit so‘zlarni yozing.

Bunda audiomatnni tinglash jarayonida amalga oshirilgan faoliyat, ya’ni kalit so‘zlarni yozib olish foyda berishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarning yozgan kalit so‘zlarini tahlil qiladi, nima uchun ushbu so‘z kalit vazifasini bajarayotganini tushuntirib berishni so‘rashi kerak.

4. Faraz qiling, mahsulotlar do‘konidasiz. “Yoqimtoy” mahsulotlar ro‘yxatini tuzing va yozing.

O‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan mahsulot nomlarini yozadilar. O‘qituvchi ushbu nomlarning ro‘yxat ko‘rinishida xatosiz, imkon qadar o‘zbek tilidagi so‘zlar yordamida ifodalanayotganiga ahamiyat beradi.

5. So‘zlarga mos qo‘shimchalarni qo‘shib, yangi so‘z yasang.

Berilgan asos va qo‘shimchalar yordamida yangi so‘z hosil qilish jarayoni yodga olinadi. Har bir qo‘shimcha qaysi so‘zga mos kelishi aniqlanadi, ushbu qo‘shimchalar yordamida yana qanday so‘zlar yasash mumkinligi haqida ma’lumotlar beriladi.

Xasislik, jarangsiz, ko‘maklashish, afzallik, o‘rinsiz.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘tilgan mavzu haqida suhbat quriladi, pulni qanday sarflash kerakligi haqidagi ma’lumotlar yodga solinadi, o‘quvchilarning bu boradagi fikrlari tinglanadi.

Asosiy qism

O‘qib tushinish

“Bir bor ekan, pul bor ekan” sarlavhali matnni o‘qishga tayyorgarlik ko‘riladi. O‘quvchilar matnni qismlarga bo‘lgan holda o‘qishadi. Bundan tashqari, matnni to‘la o‘qib chiqish uchun 5 daqiqa vaqt berish kerak. Shunda o‘quvchilar matnning mazmunini yaxlit holda anglay oladilar.

1. Ushbu suhbatning boshlanishiga nima sabab bo‘ldi?

O‘quvchilar matnning boshlanish qismiga e’tibor qaratadilar. Ushbu suhbatning boshlanishiga sabab bo‘lgan voqea haqida gapirib berishlari kerak.

2. Buvaning kasbi nima ekan?

Bu savolga sinchkovlik bilan javob berish kerak. Chunki matnda buvaning gapi mazmunida uning quruvchi bo‘lib ishlagani haqida ma’lumot keltirilgan. Ana shunday ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni aniqlash so‘ralgan.

3. Odamlar qadimda puldan foydalanishganmi? Javobingizni izohlang.

Ushbu savolga javob berishda o‘quvchilar mulohaza yuritishi va berilgan ma’lumotlarga asoslangan holda javob berishlari kerak.

4. Qog‘oz pulni o‘ylab topishga nima sabab bo‘lgan?

Qog‘oz pulning paydo bo‘lishi sababi haqida ma’lumot beriladi. O‘quvchilar qog‘oz pulning qimmatbaho tangalardan ko‘ra afzal tomonlari haqida qo‘shimcha ma’lumot berishlari ham mumkin.

5. Odamlar o‘zlari uchun pul yasab olishlari mumkinmi? Nega?

Matnning aynan shu ma’lumot berilgan qismi aniqlanadi va kerakli javoblar beriladi. Fikrlarning asoslanganligiga e’tibor qaratiladi.

6. Malika hikoya so‘ngida qanday xulosaga keldi? Sizningcha, bu to‘g‘rimi?

Ushbu savolga o‘quvchilar erkin holda javob beradilar. “To‘g‘ri” yoki “Noto‘g‘ri” degan javoblarning har ikkalasi ham qabul qilinadi, ammo ushbu javoblar uchun izoh so‘raladi. Izohlarning qanchalik haqiqatga yaqin ekanligiga ko‘ra javoblarga munosabat bildiriladi.

7. “Pul berdiz-a?”. Ayting-chi, ushbu gapning yozilishi to‘g‘rimi?

Ushbu gapning yozilishida gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi, uni hosil qiluvchi vositaga e’tibor qaratiladi. Bundan tashqari, ushbu gap og‘zaki nutqda shunday talaffuz qilinishi, aslida yozma nutqda “Pul berdingiz-a?” kabi shaklda yozilishi kerakligi tushuntiriladi. Shunday misollar aytiladi.

Yozma mashq. So‘z yasalishi

6. Matn tarkibida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e’tibor bering. Berilgan jadvalning bo‘sh kataklarini to‘ldirib, daftaringizga yozing.

Ushbu topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilar so‘zlarning yasalishi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishadilar. O‘qituvchi ushbu qismlarning nomlariga, qo‘shimcha qo‘shilganda so‘z o‘zagida ro‘y beradigan o‘zgarishlarga o‘quvchilar e’tiborini qaratadi. Berilgan so‘zlar matn tarkibidan olinganini aytib o‘tadi, ularni matn tarkibidan aniqlaydilar.

O‘g‘ri+lik – o‘g‘rilik, sot+uvchi – sotuvchi, ramz+iy – ramziy, boy+lik – boylik, to‘la+v – to‘lov.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

“Bir bor ekan, pul bor ekan” matnidagi voqealar yodga olinadi, buning uchun o‘quvchilar ushbu hikoyani qayta so‘zlab berishlari ham mumkin. Hikoya asosida chiqarilgan xulosalar tinglanadi. Hikoyani qayta so‘zlash paytida o‘qituvchi o‘quvchilarning nutqini kuzatishi, voqealarning ketma-ketligi, asosli fikr bildirilishiga e’tibor qaratadi. Og‘zaki nutqda uchrayotgan kamchiliklarni o‘zi uchun qayd etib boradi, ushbu kamchiliklar bilan qo‘shimcha ishlaydi.

Asosiy qism

Yozma mashq

“Bir bor ekan, pul bor ekan” matni asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

7. Berilgan ma’lumotlarni matn mazmuniga mos holatda ketma-ketlikda joylashtiring.

Ushbu topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilarda o‘qib tushunish ko‘nikmasining qay darajada shakllanganiga e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar voqealar qanday tartibda ro‘y berganini aniqlashlari lozim bo‘ladi.

1	2	3	4
A	E	B	D

8. Quyida pulning paydo bo‘lish bosqichlari berilgan, ularni to‘g‘ri ketma-ketlikda yozing.

Ushbu jarayonlar qog‘oz pulning paydo bo‘lish bosqichlarini anglatadi, o‘quvchilar ularning ketma-ketligini aniqlab berishlari lozim.

1. Buyumlar o‘zaro almashtirilgan.
2. Kumush, oltin, mis parchalari bilan savdo qilingan.
3. Oltin va kumush tangalar yasagan.
4. Qog‘oz pul o‘ylab topilgan.

9. Jadvalda berilgan qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, gaplarni to‘ldiring. Nima uchun ushbu qo‘shimchadan foydalanganingizni izohlang.

Berilgan so‘zlardagi nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimchalarni qo‘yish so‘ralgan, o‘quvchilar qo‘shimchalarni o‘zaro qiyoslaydi va mosini o‘rniga qo‘yadi.

Qo‘shimchalarning vazifalari tushuntiriladi. Buning uchun xattaxtadan foyalanish kerak. So‘zni so‘zga bog‘laydigan qo‘shimcha aniq misollar bilan, so‘z yasaydigan qo‘shimcha ham aniq misollar bilan tushuntirilishi kerak.

Sotuvchi bizga muzqaymoq sotdi, biz esa pulini to‘ladik.

Nabirasining ziyrakligidan buvasi quvonib ketdi.

Pul – har bir davlatning ramziy belgisi, boylik timsoli.

Pulni kimda-kim o‘zicha yasab olsa, odamlarni ham, davlatni ham aldagan, o‘g‘rilik qilgan bo‘ladi.

Yozma nutq

10. Matn asosida quyida berilgan voqea-hodisalarning sabablarini izohlab yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarda berilgan ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lay olish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar muayyan voqea-hodisaning ro‘y berishi sababini matnda berilgan ma’lumotlar asosida tushuntirishga harakat qiladi. Ko‘rsatilayotgan sabablar berilgan ma’lumotlar bilan mos kelishiga alohida ahamiyat qaratiladi.

Keyinchalik oltin qiymatini bosa oladigan qog‘oz pullar o‘ylab topilgan. Sababi oltin va kumush tangalar og‘ir bo‘lib, olib yurishga noqulay bo‘lgan.

Qog‘oz pullar ichidagi suratlarda sirli belgilar mavjud edi. Sababi agar bunday belgilar bo‘lmasa, ba’zi nopok odamlar o‘zlaricha qalbaki pul yasab olishlari mumkin.

Odamlar mis, kumush, oltin parchalari bilan savdo qilishgan. Chunki odamlar biror narsaning o‘rniga boshqa bir buyum berishdan sekin-asta voz kechishgan.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yaxshi do‘stlarning qanday bo‘lishi haqida suhbat olib boriladi. Shundan so‘ng darslikda berilgan “Yaxshi do‘stlar bor ekan” she’riga e’tibor qaratiladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Berilgan she’r matni ifodali qilib bir necha marta o‘qitiladi.

She’rni o‘qitish jarayonida ushbu vazifani ifodali o‘qishga qiynaladigan o‘quvchilardan so‘rash ham maqsadga muvofiq. Bunda o‘qituvchi ularga ayrim ko‘rsatmalarni berishi, takrorlashni so‘rashi ham mumkin.

1. Ayting-chi, bola o‘rtoqlarini qanday siylagan bo‘lishi mumkin?

“Siylamoq” so‘zining ma’nosi o‘quvchilarning fikrlari asosida izohlanadi, shundan so‘ng she’r matniga asoslangan holda javoblar beriladi.

2. Nima uchun bolaning o‘ziga pul yetmay qoldi?

Bolaning o‘sha paytdagi holatidan kelib chiqqan holda javob berish lozimligi aytiladi.

3. Bola nima uchun o‘zini omadli deb o‘yladi?

Omad nima ekani haqida so‘z boradi, bolaning omadi nimada ekani haqida qisqa suhbat quriladi.

4. Qarz nima? Do‘sti qarzga pul berib to‘g‘ri qildimi? Nima uchun?

Qarz haqida suhbat olib boriladi, shundan so‘ng she’rdagi vaziyat muhokama qilinadi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini asoslab berishi kerakligiga alohida e’tibor qaratiladi.

5. Bola to‘g‘ri ish qilgan deb o‘ylaysizmi? Nima uchun?

“Bu to‘g‘rimi, bola qanday yo‘l tutishi kerak edi?”, “Bu bolaning o‘rnida siz bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lar edingiz?” singari qo‘shimcha savollar orqali bolalarning fikrlari rivojlantiriladi.

6. Ayting-chi, sizningcha, yaxshi do‘st qanday bo‘ladi?

Yaxshi do‘st haqida fikrlar tinglanadi, o‘zining qanday do‘st ekaniga baho berish so‘raladi. Yaxshi do‘sting bo‘lishi qanchalik ahamiyatli ekanligi haqida suhbat olib boriladi.

Yozma nutq. Leksikologiya. Sintaksis

11. “Siylamoq” so‘zining matndagi ma’nosini aniqlab, yozing. Shu so‘z ishtirokida 1 ta gap tuzing.

Berilgan variantlar ichidan ushbu so‘zning ma’nosi aniqlanadi, qolgan variantlar nima uchun xato ekani izohlanadi. Aniqlangan ma’no yordamida ushbu so‘z ishtirokida gaplar tuziladi.

12. “So‘l” so‘zining ma’nosiga mos gapni aniqlab, yozing.

Buning uchun avval ushbu so‘zning ma’nosi aniqlanadi, shundan so‘ng aynan shu ma’nodagi so‘z ishtirok etgan gap berilgan javob belgilanadi.

13. She’rdan chiqargan bitta xulosangizni yozing.

O‘quvchilar she’rdan qanday xulosa chiqarish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishlari kerak. O‘zlari chiqargan bitta xulosani yozadilar. Agar o‘quvchilar she’rdan bitta emas, bir nechta xulosa chiqargan bo‘lsalar, ushbu xulosalar ichidan eng muhim qaysi ekanini aniqlash aytiladi. Shu xulosa daftarga yoziladi.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, oilada pul tejashning qanday yo‘llari bor? Siz oila a’zolaringizga qanday qilib bu borada yordam berishingiz mumkin?

Bugungi darsning umumiy mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar loyiha tayyorlash jarayoniga olib kiriladi.

Asosiy qism

Loyiha. Leksikologiya. Punktuatsiya

“Kommunal to‘lovlarni qisqartira olamiz” mavzusida loyiha tayyorlang.

Ota-onangiz oylik daromadining katta qismini kommunal to‘lovlar uchun sarflashini bilasiz. Ba’zan ta’minotchidan qarz ham bo‘lib qolishadi. Lekin siz ularga yordam berishingiz mumkin. Buning uchun elektr, suv va tabiiy gazdan samarali foydalanish haqida tavsiyalar tayyorlang.

Darslikda berilgan rasmlarga e’tibor qaratiladi. Rasmlar asosida suhbat quriladi. O‘quvchilar uyda gaz, suv va elektr tokidan qanday foydalanishlari haqida gapirib beradilar. Aslida elektr toki, gaz va suvdan qanday foydalanish kerakligi haqida so‘raladi.

Eslatma! **Gaplarni to‘g‘ri tuzing. Tinish belgilarini o‘z o‘rnida qo‘llang. Gaplarni to‘g‘ri va chiroyli yozing.**

Matnda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til birliklarining imlosi xattaxta yoki elektron doska orqali namoyish etilishi maqsadga muvofiq.

Yozma mashq

14. Mashq daftaringizga loyihangiz asosida gaplar tuzib yozing.

Loyihani yaratishga yordam sifatida berilgan topshiriqni bajarish mumkin. Bu o‘quvchilar fikrlarini tartibli tarzda ifodalashlariga yordam beradi. Har bir resursdan oqilona foydalanish bo‘yicha kerakli tavsiyalar yozib chiqiladi.

Berilgan topshiriqni bajarishda muammoga duch kelayotgan o‘quvchilarga alohida shaklda kerakli amaliy tavsiyalar berib boriladi.

O‘quvchilar ijodiy ishlarining taqdimoti bo‘lib o‘tadi, ularga munosabat bildiriladi va baholanadi.

7-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Bugungi darsning umumiy mazmuni tushuntiriladi. O‘quvchilar hikoya tuzish jarayoniga tayyorlanadi. Buning uchun o‘quvchilar pullarni jamg‘arish va ulardan qanday foydalanish mumkinligi haqidagi fikrlari bilan o‘rtoqlashadilar.

Asosiy qism

Og‘zaki/yozma nutq.

15. Berilgan rasm asosida hikoya tuzing va yozing.

Partadoshingiz bilan rasmlarda aks etgan voqea haqida fikr almashing.

Berilgan rasmlar asosida partadoshlar o‘zaro suhbat olib borishlari uchun imkoniyat yaratiladi. Ular o‘zaro qaysi mavzuda hikoya yozishi, qaysi rasm haqida ma’lumot berishi, tavsiyalar yarata olishi mumkinligi haqida suhbat quradilar.

Hikoya uchun chiroyli sarlavha o‘ylab toping.

Olib borilgan suhbat asosida hikoya uchun sarlavha tanlanadi. O‘qituvchi tanlangan sarlavhalarni o‘quvchilardan so‘raydi, ularga kerakli ko‘rsatmalarni beradi.

Yozgan hikoyangizni partadoshingizga bering. Partadoshingizning hikoyasi haqida o‘z fikringizni ayting.

Bu jarayonda o‘quvchi hikoyaning sarlavhasiga e’tibor qaratishi kerak, hikoya matni sarlavha mazmuniga, berilgan rasmga mosmi – shular haqida fikr aytib, o‘z munosabatini og‘zaki ifodalashi mumkin. O‘qituvchi esa ularni yo‘naltirib, kerakli baholarni qo‘yib boradi.

YETTI XAZINA

(6+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilar ongida “yetti xazina” (sigir, tovuq, asalari, ipak qurti, objuvoz (moyjuvoz), tegirmon va o‘rmon) haqida tasavvur uyg‘otish, ularga oid til birliklarini faollashtirish, matn tarkibida berilgan ayrim so‘z, ibora, hikmatli so‘z, tasviriy ifodalarning mazmunini izohlay olish, berilgan matn tarkibidan hayvon va parranda nomlarini bildirgan otlar, hayvon va parrandalarning turlari, ularga qo‘yilgan nomlar, ularning imlosi, belgi bildiruvchi so‘zlar haqida ma’lumot berish, ushbu so‘zlardan yozma nutqda foydalangan holda mavzu bilan bog‘liq matn yaratish, tinglangan audiomatn tarkibidan so‘zlarga so‘roq berish orqali shaxs va narsalarning harakatini bildiruvchi so‘zlarni ajratish, -la, -illa, -ulla kabi qo‘shimchalar yordamida fe’l hosil qilish, yasama fe’llarning talaffuzi va imlosi ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar bo‘lim hamda yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirishib olish uchun o‘quvchilar bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilinadi:

Xazina nima? Sizda ham xazina bormi?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

Darslikda *yetti xazina* deb ataladigan narsalarning rasmi va nomi berilgan. O‘quvchilar rasm bilan tanishib chiqadi. Bu jarayonda o‘qituvchi doskada yoki proyektorda rasmlarni ko‘rsatgan holda nomlarini baland ovozda o‘qib beradi.

So‘ng rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

DIQQAT!

Savollar har bir o‘quvchiga alohida beriladi. Savol va javobning takror bo‘lib qolishi ahamiyatsiz, bunda o‘quvchilarni darsga jalb etish hamda har bir o‘quvchining nutqini nazorat qilish va o‘stirish muhimligi nazarda tutiladi. Savollarga javob yetarli bo‘lmasa, o‘qituvchi tomonidan to‘ldirib boriladi.

1. Siz xazina deganda nimani tushunasiz?

O‘quvchilar bu savolga erkin fikrlab, xazina deganda nimani tushunishlarini aytib berishi lozim. Barcha o‘quvchilarning javobi tinglangach, o‘qituvchi tomonidan xazina so‘zining to‘liq ma’nosini tushuntiriladi:

Xazina *kishilarga, tashkilot yoki davlatga qarashli bo‘lgan pul, qimmatbaho buyum va narsalardir. Shuningdek, biz uchun foyda keltiradigan, o‘zimiz uchun qadrli bo‘lgan narsalar ham xazina deyiladi.*

2. Nima uchun rasmdagi narsalarni xazina deyish mumkin?

Bu savol o‘quvchilarning erkin fikrlab, javob berishiga yo‘naltirilgan. Savolning javobiga aniq bir talab qo‘yilmaydi. O‘quvchilarning rasm va hayotiy kuzatishlari asosidagi erkin fikri tinglanadi.

3. Sizningcha, sigir nima uchun xazina deyiladi?

Bu savolga o‘quvchilardan kutilayotgan taxminiy javob quyidagicha: *Sigir sut beradi. Bu tanamiz uchun foydali bo‘lib, sutdan qatiq, qaymoq, pishloq, sariyog‘ kabi mahsulotlar tayyorlanadi.*

4. Tovuqning nimasi xazina?

Bu savolga o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida tovuq bizga tuxum va go‘sht mahsuloti berishi, bu mahsulotlar ko‘plab vitaminlarga boy ekanini aytishi nazarda tutilgan.

5. Asalari nega xazina?

O‘quvchilar oldingi sinf darslaridan olgan bilimlari hamda hayotiy kuzatishlari asosida asalarilarning shifobaxsh asal yig‘ishi, daraxt gullarini changlatishda yordam berishini aytib bera olishi lozim. O‘quvchilar yetarlicha javob berolmasa, o‘qituvchi tomonidan aniq javobga yo‘naltiriladigan savol berilishi maqsadga muvofiq.

6. Ipak qurti ham xazinami? Nega?

O‘quvchilarning hayotiy kuzatishlari asosida bergan javoblari eshitiladi. O‘quvchilar yetarlicha javob berishmasa, ipak qurti, uning pillasidan olinadigan ipak tolasi haqida ma’lumot beriladi.

7. Moyjuvoz-chi?

O‘quvchilar bu savolga rasm asosida mantiqan fikrlab javob berishi lozim. Turli donlardan yog‘ni siqib oladigan qurilma moyjuvoz ekanini aytib berishi lozim.

8. Tegirmon-chi?

Bu savolga o‘quvchilar kundalik iste’mol qilinadigan non mana shu tegirmonda yanchilgan undan tayyorlanishi, tegirmon bug‘doy yanchib, un olinadigan qurilma ekanini aytishi lozim.

9. O‘rmon ham xazinami? Nega?

O‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida, o‘rmonda ekilgan daraxtlardan uy qurish, qog‘oz ishlab chiqarish va turli xomashyo olishda foydalanilishini aytib berishi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, o‘rmon hayotimiz uchun zarur bo‘lgan toza havo manbai, o‘simliklar va hayvonot dunyosi uchun ham xazina ekani haqida ma’lumot berish maqsadga muvofiq.

Yozma nutq

1. Rasmdagi narsalarning xazina ekanini izohlab gaplar tuzing.

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilarga rasm asosidagi suhbat jarayoni yordam beradi. O‘quvchilar suhbat davomida egallagan bilimlari orqali namunada keltirilgan narsalarning nima uchun xazina ekanini yozib berishi lozim.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning mustaqil yozib bajarishlari nazorat qilib boriladi. O‘quvchilar yozib bo‘lganidan so‘ng har biriga tuzgan gaplari o‘qitiladi. Bu jarayonda o‘quvchining mazmunan bog‘lanishli nutq tuza olishi hamda yozma savodxonligi tekshiriladi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, yetti xazina haqida nimalarni bilib olidingiz?

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“Yetti xazina” audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.

Audiomatn eshittirilgach, darslikning 122-sahifasidagi savollar beriladi. Savollarning har biri o‘quvchining o‘ziga qaratilgan bo‘lib, undan eshitgan matnlaridan olgan xulosalari asosida erkin fikrlab javob berishlari talab etiladi.

Bu savollar orqali o‘quvchilarning eshitib tushunish ko‘nikmasini tekshirish bilan birga yetti xazinadan tashqari kitob, bilim ham xazina ekanini bildirish, yetti xazinaning biri bilan shug‘ullanishni tasavvur qildirishga qaratilgan savollar orqali esa ularda erkin tadbirkorlik hissini uyg‘otish maqsad qilingan.

Yozma nutq

2. Berilgan so‘zlarni to‘g‘ri moslashtirib o‘qing. Hosil bo‘lgan gaplarni daftaringizga yozing.

Darslikda yetti xazina, ularga tegishli bo‘lgan harakat va narsalarning nomi tartibsiz holda ustunlarga joylashtirib berilgan. O‘quvchilar birinchi ustundan bitta so‘zni tanlab, unga mos narsaning nomi va harakatini o‘qiydi.

So‘ng namunada keltirilgan kabi gap ko‘rinishida yozishi lozim.

3. Tinglagan matningiz tarkibida uchragan so‘zlar ichidan harakatni bildiruvchi so‘zlarni ajratib yozing.

Audiomatn tarkibida uchraydigan ayrim so‘zlar jadvalda aralash holda berilgan. O‘quvchi ushbu so‘zlar orasidan harakatni bildiruvchilarini topib, yozishi lozim. Bunda ular quyidagi tartibda mustaqil ishlab, so‘zlarni topib, yozadi:

1. Berilgan so‘zni o‘qiydi.
2. Unga so‘roq beradi.
3. Harakatni ifodalaydigan so‘zni yozadi.

O‘quvchilar bajarib bo‘lgach, yozgan so‘zlari o‘qitiladi hamda o‘qituvchi tomonidan tekshiriladi.

Muhokama

4. Harakatni bildiruvchi so‘zlarni quyidagi tartibda tahlil qiling.

Bu topshiriq guruh bilan birga bajariladi. O‘qituvchi harakatni bildiruvchi so‘zlarni doskaga yozadi. So‘zlarning har birini o‘qib, bolaga tushuntirgan holda tahlil qilib beradi: “*Masalan,* ***tasvirla*** *– mana bu rasm (doskada quyoshni rasmni chizadi)ni chizish davomida quyoshni ko‘z oldimga keltirdim. Men harakatlandim, shuning uchun “tasvirla” so‘zi harakatni bildiradi. Hozir sizga ham daraxtni “tasvirla”, desam, qog‘oz, qalam olishga yoki gapirishga tushib ketasiz. Ushbu harakatlaringizning har biri bir so‘z bilan ataladi. Ular harakatni bildiruvchi so‘zlardir”.*

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, halol inson deganda kimni tasavvur qilasiz? U qanday bo‘ladi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikning 123–124-sahifalaridagi “Mehribon aka-ukalar” hikoyasi o‘qiladi. O‘quvchilar ushbu hikoyani avval ichlarida o‘qib olishlariga vaqt beriladi. Keyin navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Sinfdagi hamma o‘quvchi ovoz chiqarib o‘qishi lozim. O‘qituvchi tomonidan o‘qish jarayoni nazorat qilib boriladi.

O‘quvchilar o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi tomonidan bir marta ifodali qilib o‘qib beriladi.

So‘ngra matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Aka-ukaning qanday xislatlari bor edi? Sanab bera olasizmi?

Bu savolning javobi matnda aniq ko‘rsatilmagan, o‘quvchilar matndan aka-ukalar dehqonning o‘g‘illari ekani, ular otalariga o‘xshab serg‘ayrat, mehnatkash, halol ekani berilgan jumla orqali aka-ukaning xislatlarini aniqlab, aytib berishi lozim.

2. Halol inson qanday bo‘ladi?

Bunda o‘quvchining lug‘at boyligini oshirish hamda bu so‘zga oid tushunchani shakllantirish maqsad qilingan. Dastlab o‘quvchilarning javoblari tinglanadi. So‘ng o‘qituvchi tomonidan to‘ldirilib, “halol” so‘ziga izoh beriladi: ***Halol*** *– kishining o‘ziga qarashli, o‘z mehnati bilan, peshona teri to‘kib topgan narsasi.*

3. Nima deb o‘ylaysiz, nega aka-ukalarning hosili yildan yilga ortib bordi?

Bu savolning javobi matnda berilgan birnechta gapdan anglashiladi, ya’ni o‘quvchi buning sababi aka-ukalarning tinmay mehnat qilishi, halolligi bilan bog‘liq ekanini aytib berishi lozim.

4. Ukasi nega o‘z bug‘doyidan akasiga berdi? Uning bu ishi to‘g‘ri edimi?

5. Akasi nega o‘z bug‘doyidan ukasiga berdi? Uning ishi to‘g‘ri edimi?

Bu savollar orqali o‘quvchining matnga munosabati anglashiladi. Savollarning javoblari matnda aniq ifodalangan. O‘quvchilar ushbu o‘rinlarni matndan topib, aka-ukalarning nima uchun bunday qilganini mulohaza qilib aytishi lozim.

6. Nima deb o‘ylaysiz, aka-ukalar nega o‘z bug‘doyidan masjid imomiga, sartaroshga, muazzinga berishdi?

Bu savol o‘quvchining o‘ziga qaratilgan savol bo‘lib, har bir o‘quvchi matndan olgan o‘z tushunchasi asosida erkin fikrlab javob berishi mumkin.

7. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

Bu savolga ham javoblar turlicha bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarning bergan javoblari tinglanadi hamda oxirida o‘qituvchi tomonidan yakuniy xulosa aytiladi.

Yozma mashq. Leksikologiya

5. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni mos izohlari bilan yozing.

Darslikda “Mehribon aka-ukalar” matnida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar va ushbu so‘zlarga tegishli bo‘lgan ma’nolar berilgan. O‘quvchilar so‘zlarga mos ma’nolarni moslashtirib yozishlari lozim.

Bu topshiriq har bir o‘quvchi tomonidan mustaqil bajariladi. O‘quvchilar yozib bo‘lgandan so‘ng o‘qituvchi tartib bo‘yicha ularga yozganlarini o‘qitadi. Bu jarayonda boshqa o‘quvchilar o‘qiyotgan sinfdoshini kuzatib, topshiriq to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarganini aytib turadi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, mehribon aka-ukalar o‘rnida bo‘lganingizda siz ham bug‘doy ulasharmidingiz?

Asosiy qism

Yozma mashq. Imlo

6. Matndan olingan quyidagi so‘zlarni o‘qing. To‘g‘ri yozilganlarini aniqlab ko‘chiring.

Ushbu topshiriqda matndan olingan so‘zlar xato shaklda yozib berilgan. O‘quvchilar so‘zlarni o‘qib, to‘g‘ri yozilgan so‘zlarni daftarlariga ko‘chiradilar.

Topshiriqni bajarishda matndan foydalanishlari mumkin. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining so‘zni matndan topib, nimasi xato ekanini bilib olishiga qaratiladi.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, yozgan so‘zlari navbat bilan o‘qitiladi hamda qolgan so‘zlarning nima uchun xato ekani aytiladi.

7. Matn tarkibidan aka-ukalarning sifatlarini bildiruvchi, *qanday?* so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarni aniqlab, ushbu kataklarni to‘ldiring.

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. O‘quvchilar matn tarkibidan aka-ukalarning sifatlarini aniqlab, kerakli o‘ringa yozib chiqishlari lozim. Bunda o‘quvchilar matn bilan qayta ishlaydi hamda kerakli o‘rinni topib, savol berib, kishiga xos bo‘lgan sifatni ajratib yozadi.

Muhokama

Matn asosida 2 ta to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.

Ushbu topshiriqda matndan olingan 5 ta ma’lumot keltirilgan. O‘quvchilar ushbu ma’lumotlarni o‘qib, ular orasidan 2 ta to‘g‘ri ma’lumotni topib aytishi hamda qolganlari nima uchun xato ekanini izohlab berishi lozim.

Yozma nutq

8. Hikoyadan olgan xulosangizni yozing.

Bu topshiriq o‘quvchilarning turli fikrlarini yuzaga chiqaradi. Matn hammaga tanish, guruhda savol-javoblar va topshiriqlar orqali muhokama qilindi. Ammo hikoyadan hamma turli xil xulosa chiqaradi. Har bir o‘quvchi matndan olgan xulosasini yozishi lozim.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, ularning har biriga yozgan xulosalari o‘qitiladi. Eng yaxshi yozilgan xulosa egasi rag‘batlantiriladi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, ziyofat nima? U qanday bo‘ladi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan “O‘rmonda ziyofat” she’ri hamda muallifi tanishtiriladi. O‘quvchilarga she’rni mustaqil, ovoz chiqarmay o‘qishlari aytiladi.

She’rni o‘qib bo‘lishgach, o‘qituvchi bir marta baland ovozda o‘qib eshittiradi. So‘ng 129-sahifadagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Ayting-chi, yovvoyi va xonaki hayvonlarning qanday farqi bor?

Bu savolning javobi she’r matnida aynan keltirilmagan, o‘quvchilar she’rning umumiy mazmuni hamda o‘zlarida bor bilimlarga tayangan holda javob berishlari lozim.

O‘quvchilarning javobi tinglangach, o‘qituvchi tomonidan *yovvoyi* va *xonaki* so‘zlariga to‘liq izoh beriladi:

Xonaki *– uyda, xonadonda boqiladigan, qo‘lga o‘rgatilgan, parvarish qilinadigan jonivor.*

Yovvoyi *– qo‘lga o‘rgatilmagan, tabiat quchog‘ida erkin hayot kechiruvchi jonivor.*

2. Oshxonadagi hayvonlarning vazifasini ayting. Nima uchun ularga ushbu vazifalar berilgan deb o‘ylaysiz?

She’rning 2–3-bandlarida hayvonlarning qanday harakat bilan shug‘ullanayotgani keltirilgan, o‘quvchilar ularni o‘qib, mulohaza qilgan holda hayvonlarning vazifasini aytib berishlari lozim.

3. Mehmonga qaysi hayvonlar keldi? Kim qaysi ovqatni buyurtma qildi?

Bu savol o‘quvchilardan she’r bandlarini tushunib, mulohaza bilan javob berishni talab qiladi. Bu orqali o‘quvchilarda hayvonlarning nomlari va nima bilan oziqlanishi haqida tasavvur paydo bo‘ladi.

4. Qaysi jonivor kechikdi? Nima uchun?

O‘quvchilarning ushbu jonivorni she’r matnidan topib, ushbu hayvonga xos bo‘lgan xususiyat bilan bog‘lab javob berishi nazarda tutilgan.

5. Ayting-chi, kechikkan jonivor vaqtida kelganida yeyish uchun nimani buyurtma qilgan bo‘lar edi?

Bu savolga o‘quvchilar erkin fikrlab, mantiqan o‘ylab javob berishlari mumkin. Javoblar tinglangach, toshbaqa asosan meva, sabzavotlar yeyishi aytiladi.

6. Siz she’rga yana qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?

Bu ham o‘quvchidan ijodiy yondashishni talab qiladi. O‘quvchilar she’r matnidan olgan xulosalari asosida aytishlari mumkin.

O‘quvchilarning har biridan qo‘ygan sarlavhalari hamda nima uchun ushbu sarlavhani tanlaganliklari so‘raladi.

Yozma mashq. Leksikologiya. Morfologiya

9. She’r matni asosida jadval tuzib to‘ldiring.

Bu topshiriq daftarda bajariladi. O‘quvchilar she’r matni tarkibidan hayvonlarning, ular kelgan joyning hamda yeydigan ovqatlarining nomini aniqlab, jadval tuzib, yozishlari lozim.

10. Berilgan tushunchalarga mos keluvchi so‘zlarni she’r matnidan topib, yozing.

O‘quvchilar darslikda berilgan tushunchalarga mos keladigan so‘zlarni she’r matnidan topib, namunada berilgan shaklda yozishlari lozim. Bunda ularning lug‘at boyligi tekshiriladi.

11. She’r matnidan *qanday*? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni aniqlab, yozing.

Bu topshiriqda o‘quvchilar she’r matni bilan qayta ishlaydilar. Ular she’r matnidan *qanday* so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarni topib, namunada keltirilgan tartibda yozishlari lozim.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, non qanday tayyorlanishini bilasizmi?

Asosiy qism

Yozma nutq

12. Rasmlarga qarang, bug‘doyning nonga aylanguncha bosib o‘tgan yo‘li haqida hikoya yozing.

Darslikda bug‘doy nonga aylanguncha kechadigan jarayon bilan bog‘liq rasmlar ketma-ketlikda berilgan. Dastlab o‘quvchilar rasm haqida qisqa suhbat uyushtiradilar. Unda nima tasvirlanganini aniqlashtiruvchi savollar beriladi.

So‘ngra o‘qituvchi o‘quvchilarga rasm ketma-ketligiga rioya qilgan holda hikoya yozishlarini aytadi.

Topshiriq mashq daftarida bajariladi.

O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lgach, yozgan hikoyalari o‘qitiladi, xato va kamchiliklari to‘g‘rilanadi.

YETTI XAZINA

MUSTAHKAMLASH

Nutqiy mavzu yakunlangach, ushbu mustahkamlash darsi bo‘lib o‘tadi. Unda berilgan topshiriqlar o‘quvchining fan yuzasidan tutgan daftariga bajariladi. Topshiriqlar o‘tilgan nutqiy mavzu doirasida berilgan. O‘quvchilar og‘zaki va yozma holatda topshiriqlarni bajarishi lozim.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Ayting-chi, “yetti xazina”ga nimalar kiradi? Ular nima uchun “yetti xazina” deyiladi? Fikringizni asoslab, gapirib bering.

Bu topshiriq og‘zaki suhbat asosida tashkil qilinadi. O‘quvchilarning har biridan savolga munosabat so‘raladi. Bunda o‘quvchilar nutqiy mavzu davomida egallagan bilimlari asosida erkin fikrlab, mulohaza yuritib, hayotiy misollar bilan aytib berishlari lozim.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning yetti xazina va u bilan bog‘liq til birliklaridan foydalana olishi, nutqiy mavzuga munosabat bildira olishi hamda og‘zaki nutqi tekshiriladi.

Yozma nutq

“Mehribon aka-ukalar” matnidan o‘zingizga notanish bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini tuzing. Ularning ma’nosini guruh bilan muhokama qilib, daftaringizga yozing.

Bu topshiriqni har bir o‘quvchining o‘zi mustaqil bajaradi. Bunda o‘quvchilar “Mehribon aka-uka” matni tarkibidan ma’nosini bilmagan so‘zlarini yozib chiqadilar. So‘ng har bir o‘quvchiga yozgan so‘zlari o‘qitiladi hamda bu so‘zlarning ma’nosi dastlab o‘quvchilardan so‘raladi. O‘quvchilarning javobi tinglangach, o‘qituvchi tomonidan so‘z va uning to‘liq izohi doskaga yozib qo‘yiladi. Shu tariqa o‘quvchilar ma’nosini bilmaydigan so‘zlar aniqlanib, ular uchun lug‘at tayyorlanadi.

“Yetti xazina”dan birini tanlang. Undan yaxshi daromad olish uchun qanday ishlarni amalga oshirasiz? Fikringizni yozing.

Bu topshiriqni har bir o‘quvchining o‘zi mustaqil bajaradi. Bunda o‘quvchilar nutqiy mavzuda egallagan bilimlari asosida erkin fikrlab yozishlari lozim.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, yozgan matnlari birma-bir o‘qitiladi. Bu jarayonda o‘quvchining so‘z boyligi, so‘zlardan o‘rinli foydalana olishi hamda mazmunli bog‘lanishli nutq tuza olishi tekshiriladi.

QIZIL SAYYORA

(6 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda osmon jismlari, xususan, Mars sayyorasi haqida tushuncha hosil qilish, ularda koinot bilan bog‘liq atamalar, ularning yasalishi hamda unga oid til birliklarini faollashtirish, matn tarkibida berilgan atamalarni aniqlash, ularning ma’nolarini topish, atamalar yordamida lug‘at tuzish, qo‘sh/qator, unli/undoshli so‘zlarning talaffuzi, bo‘g‘inlab ko‘chirish, berilgan matnning asosiy g‘oyasi va mazmunini tushunish, mazmunni ochib beruvchi birliklarni ko‘rsata olish, berilgan rasm asosida mavzu bilan bog‘liq gaplar hosil qilish hamda mavzuga oid matn tuzish ko‘nikmasini shakllantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Marskezarlar haqida oldin ham eshitganmisiz? Ayting-chi, ular Marsda nima qiladi?

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“Qizil sayyora” audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.

Audiomatn eshittirilgach, darslikning 131-sahifasidagi savollar beriladi.

Bu savollar orqali o‘quvchilarning eshitib tushunish ko‘nikmasi tekshiriladi. Savollarning javobi audiomatnda berilgan. O‘quvchilar savolni o‘qib, eshitganlarini mulohaza qilib, javob berishi lozim. Savollarning javobi quyidagicha:

1. Nima uchun Mars sayyoralarning eng mashhuri?	Marsda hayot borligiga ishonishgan.
2. Marsning hajmi, joylashish o‘rni, atmosferasi haqida qanday ma’lumotlar berildi?	Yerga o‘xshaydi.
3. Qadimda Marsda suv havzalari bo‘lganmi? Nega hozir sayyorada suv mavjud emas?	Daryo, ko‘l va dengizlar bo‘lgan. Suvlar parlanib, yo‘qolib ketgan.
4. Marsni tarixda kimlar o‘rgangan? Bu haqida so‘zlab bering.	Misrlik astronomlar, Galileo Galiley.
5. Nega Marsni “Qizil sayyora” deb ataymiz?	Tuprog‘i qizil rangda bo‘lganligi bois.

Yuqoridagi savollarning javoblari taxminiy bo‘lib o‘quvchilar aynan shu so‘zlarni, shakllarni qo‘llab javob berishi shart emas, shu yo‘nalishda javob bersa yetarli. Agar o‘quvchi bu yo‘nalishni topa olmasa, namunaviy javoblar asosida o‘qituvchi yakuniy xulosani e’lon qiladi.

Yozma mashq. Fonetika

1. Berilgan so‘zlar ichidan yuqoridagi qoidaga mos keluvchilarini toping. Ularni bo‘g‘inlab ko‘chiring.

Darslikda audiomatndan olingan bir nechta so‘zlar berilgan. O‘quvchilar ushbu so‘zlar orasidan qator undoshli so‘zlarni topib, ularni namunadagi kabi bo‘g‘inlarga ajratib yozishi lozim. Topshiriqni bajarishdan avval o‘quvchilarga qator undoshli so‘zlar haqida ma’lumot beriladi: bir bo‘g‘inda yonma-yon kelgan ikki xil undosh qatnashgan so‘zlar qator undoshli so‘zlardir. *Masalan: g‘isht, do‘st, qirq, transport, daraxt.*

Topshiriqni bajarib bo‘lishgach, guruh bilan birgalikda tekshiriladi. O‘qituvchi doskada qoidaga mos tushuvchi so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib yozadi. Bunda o‘quvchilar partadoshi bilan daftarini almashtirib, bir-birinikini tekshiradi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

1. *Kelajakda odamlar Marsga uchib borishiga ishonasizmi? Sizningcha, bu qachon, qanday sodir bo‘ladi?*

2. *Odamlar Marsga yetib borganidan so‘ng qanday ishlarni amalga oshiradi deb o‘ylaysiz?*

3. *Boshqa sayyoralarga yetib borish uchun odamlarga birinchi navbatda nimalar kerak deb o‘ylaysiz?*

Ushbu savollar o‘quvchidan mantiqan fikrlab erkin javob berishini talab qiladi. Bu savollardan asosiy maqsad: o‘quvchilarning tasavvur olamini kengaytirish, dars jarayoniga diqqatini oshi-

rish, kosmosga qiziqadigan o‘quvchilarning qobiliyatini yuzaga chiqarish. O‘quvchining o‘ziga qaratilgan bu kabi savollar o‘quvchilarning erkin fikrlab, ijodiy yondashib javob berishga undaydi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Dialogni partadoshingiz bilan birga o‘qing.

Darslikda berilgan dialogni o‘quvchilar partadoshlari bilan birga o‘qiydi. Bu jarayonda ular mustaqil ravishda, past ovozda partadoshlari bilan aloqaga kirishadilar. O‘qituvchi kuzatuvchi bo‘lib, hammani nazorat qilib boradi. So‘ng o‘qituvchi rolga kirib, dialogni baland ovozda o‘qib beradi.

Muhokama

Marsda loviya va kartoshka urug‘lari unib chiqishi nimasi bilan hayratlanarli? Sizningcha, olimlar bu urug‘larni qanday parvarish qiladi?

Bu savolga javob berishda o‘quvchilarga suhbat jarayonidagi til birliklari hamda hayotiy kuzatishlari yordam beradi. Ular mantiqan fikrlab, ijodiy tarzda o‘z fikrlarini aytishi lozim.

Yozma nutq

2. Berilgan so‘zlarni tartiblang va namunadagidek gaplar hosil qiling. Ularni daftaringizga ko‘chiring.

Darslikda dialog matnidan olingan gaplarning jumlalari tartibsiz holatda berilgan. O‘quvchilar so‘zlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda tartiblab, hosil bo‘lgan gaplarni yozishi lozim.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, har birlariga yozgan gaplari o‘qitiladi. Bu jarayonda ularning yozma savodxonligi hamda so‘zlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylab, mazmunga mos gap tuzishiga e’tibor qaratiladi.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, Quyosh haqida nimalarni bilasiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

O‘quvchilar darslikda berilgan “Quyoshning bolalari” matnini o‘qishlari lozim. Bunda ular bir yoki ikki gapdan matnni o‘qib chiqishadi. Bir o‘quvchi o‘qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi talab qilinadi.

Matn 2–3 marta qayta o‘qib bo‘lingach, savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Kibr deganda nimani tushunasiz?

Bu savolning javobi matnda aynan keltirilmagan. O‘quvchilar matndagi bir nechta gaplarni o‘qib, kibr nima ekani haqida tushuncha hosil qilishlari mumkin, ya’ni Plutonning o‘ziga ortiqcha baho berib, o‘zini hammadan ustun qo‘yishi kibr illati ekanini tushunib, aytib bera olishi lozim.

2. Nima uchun Plutonda kibr paydo bo‘ldi?

O‘quvchilar Plutonning o‘ziga yuqori baho berishi, aql-zakovati va chaqqonligiga ishonib, boshqalarni pisand qilmasligi unda kibrni paydo qilganini aytib bera olishi lozim. Bu o‘rinda o‘qituvchi kibr illat ekanini hayot bilan bog‘lab, bu haqida ma’lumot berishi maqsadga muvofiq.

3. Quyosh bobo nega musobaqa uyushtirmoqchi bo‘ldi?

Bu savolning javobi matnda aniq ifodalangan, ya’ni Quyosh bobo Plutonni tarbiyalash maqsadida musobaqa uyushtirmoqchi bo‘lgan. O‘quvchilar matnda berilgan o‘rinni topib, javob bera olishi lozim.

4. Plutonning mag‘lub bo‘lishiga asosiy sabab nima edi?

Bu savolning javobi Plutonning musobaqaga munosabatidan anglashiladi. U o‘ziga bino qo‘yib, tezligiga ishonadi-yu, ammo uxlab qolishini o‘ylamaydi, oqibatda musobaqaga oxiri yetib keladi. O‘quvchilar bu o‘rinlarni matndan topib, munosabat bildirib javob bera olishi lozim.

O‘quvchilar javob berib bo‘lishgach, o‘qituvchi bildirilgan fikrlar asosida matnni xulosalaydi.

Yozma mashq. Sintaksis

3. Maqollarni yozing, mazmunini muhokama qiling. Ularning qaysi biri siz o‘qigan matn mazmuniga mos?

O‘quvchilar darslikda berilgan maqollarni daftarlariga ko‘chirib oladilar. Maqollarning mazmuni guruh bilan muhokama qilinadi. Har bir o‘quvchidan maqolning ma’nosi va qanday vaziyatda undan foydalanish mumkinligi so‘raladi.

O‘quvchilar javobi o‘qituvchi tomonidan aytilgan fikrlar bilan to‘ldirib boriladi. O‘quvchilardan maqollar orasidan matn mazmuniga mos keladigani qaysiligi hamda nima uchun aynan shu maqolni tanlaganini matn asosida dalillab berish so‘raladi.

4. Berilgan gapdagi ajratilgan bo‘laklarga so‘roq berib, yozing.

Darslikda bitta gap keltirilgan bo‘lib, ayrim so‘zlar ajratib berilgan. O‘quvchilar ajratib beril-

gan so‘zlarga namunada keltirilgan kabi so‘roq berib yozishi lozim. Bu topshiriq orqali o‘quvchiga berilgan gap tarkibidan harakatni bildiruvchi hamda harakatni yuzaga chiqarayotgan so‘zni aniqlash o‘rgatiladi.

Muhokama

“Quyoshning bolalari” hikoyasidagi hayotiy haqiqat va to‘qimalarni aniqlab, izoh bering.

Bu topshiriq matndagi ma’lumotlarning hayotiy haqiqatlarga yaqinligini tekshiradi. Bu topshiriqni bajarishda oldingi darslarda o‘tilgan “Oy yerdan kattami?” kabi mavzularda egallagan bilimlar hamda hayotiy kuzatishlar yordam beradi.

O‘quvchilarga berilgan chizma tushuntiriladi. Matndan olingan ma’lumotni hayotda uchrash yoki uchramasligi jihatdan aniqlab yozishi talab etiladi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, Quyoshning bolalari bor ekanmi?

Asosiy qism

Yozma mashq. Leksikologiya. Morfologiya. Imlo

5. Sayyoralarning nomini Quyoshga yaqinligi bo‘yicha tartib bilan yozing.

Darslikda quyosh tizimidagi sayyoralarning shakli aks etgan rasm berilgan. O‘quvchilar bu rasm orqali tasavvur hosil qilib oladilar. So‘ng “Quyoshning bolalari” matnini yodga olib, bu sayyoralarni Quyoshga yaqinligi bo‘yicha yozib chiqadilar. Bu o‘rin matnda so‘zma-so‘z aks etmagan, o‘quvchilar matnning umumiy mazmunidan kelib chiqib, shu qismni matndan topib, yozishlari lozim.

Javob: *Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun.*

6. Berilgan so‘zlar yordamida har bir sayyoraga xos sifatlarni yozing. Ushbu so‘zlarga so‘roq bering.

Darslikda sayyoralarga xos bo‘lgan sifatlar berilgan. O‘quvchilar “Quyosh bolalari” matni bilan ishlab, ushbu sifatlarga mos sayyora nomlarini matndan topib, namunada keltirilgan shaklda so‘roq berib yozishlari lozim.

7. Matn yordamida quyidagi so‘zlarni tekshiring, xatosini to‘g‘rilab, ko‘chiring.

Darslikda xato yozilgan so‘zlar berilgan. O‘quvchilar bu so‘zning nimasi xato ekanini topishi muhim. Bu jarayonda o‘qituvchi so‘zni doskaga yozib, o‘qib beradi. O‘quvchilar “Quyoshning bolalari” matnidan ushbu so‘z kelgan o‘rinlarni topib, xatosini aytib, to‘g‘rilab ko‘chirishlari lozim.

Yozma nutq

8. Ushbu iboralarga mos rasmlarni aniqlang. Ularning izohini yozing. Rasmlarga mos bo‘lgan boshqa so‘z va iboralarni ayting.

Darslikda uchta holat aks etgan rasm hamda shu holatlarga mos ibora berilgan. Iboralarning o‘rni tartibsiz joylashgan. O‘quvchilar iboralarni o‘qib, izohini yozib, qaysi rasmga mosligini aytib bera olishi lozim. Insonning bir holatini bir necha so‘z bilan ifodalash mumkinligini, shuningdek, bu rasmlardagi holat uchun yana qanday iboralarni ishlatish mumkinligi so‘raladi.

Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning mustaqil tarzda bajarishlarini nazorat qiladi, og‘zaki muhokamada esa nutqlarini to‘ldirib boradi.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarda iborani nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish, so‘z boyligi, rasm va ma’lumotni birlashtirib tasavvur qila olish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

9. Quyidagi qoidaga mos keluvchi so‘zlarni matndan toping va yozing.

Dastlab, qo‘sh undoshlar haqida berilgan qoida baland ovozda o‘qiladi uning talaffuzi va imlosi haqida tushuntirib beriladi. So‘ng o‘quvchilarga “Quyoshning bolalari” matnidan ushbu qoidaga mos keluvchi so‘zlarni topishlari aytiladi. O‘quvchilar tartib bilan doskaga chiqib, matndan topgan qo‘sh undoshli so‘zlaridan bittasini yozib, talaffuz qilib beradilar.

Bu topshiriqlar orqali o‘quvchi matn bilan ishlaydi, matn mazmunini tushunish bilan birgalikda harakat, harakatni bildiruvchi bo‘lak, ibora va uni nutqiy vaziyatlarda qo‘llash, qo‘sh undoshli so‘z, uning talaffuzi va imlosi haqidagi ma’lumotga ega bo‘ladi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, kosmos nima? U haqida nimalarni bilasiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan “Mittivoyning kosmosga uchgani va adashib, notanish joyga borib qolgani” she’ri hamda muallifi tanishtiriladi. O‘quvchilarga she’rni mustaqil, ovoz chiqarmay o‘qishlari aytiladi.

She’rni o‘qib bo‘lishgach, o‘qituvchi bir marta baland ovozda o‘qib eshittiradi.

So‘ng savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Mittivoy kosmosda nimalarni ko‘rdi?

Ushbu savolning javobi she’r matnida keltirilgan, o‘quvchining taxminiy javobi quyidagicha bo‘lishi kerak: Oy, Quyosh, yulduz, sayyora, Somon yo‘li, chaqmoq.

2. Somon yo‘li haqida nimalarni bilasiz?

Bunda o‘quvchi oldingi darslarda egallagan bilimlari asosida Somon yo‘li yulduzlar turkumi ekanini aytib bera olishi nazarda tutilgan. O‘quvchilar yetarlicha javob berolmasa, Somon yo‘li haqidagi tasavvurlarini kengaytirish maqsadida videolavha ko‘rsatish mumkin.

3. Haqiqatan ham Mittivoy kosmosga uchganmi?

Bu savolning javobi she’r matni oxirida kelgan ikki jumla asosida yuzaga chiqadi. O‘quvchi she’r matnidan bu o‘rinni topib, aytib bera olishi lozim.

4. Mittivoyning onasi nima uchun xavotir oladi? Siz bilan ham shunday holat bo‘ladimi?

Bu savolga o‘quvchi o‘zining hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab javob berishi nazarda tutilgan.

5. Siz she’rga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?

O‘quvchilarning dunyoqarashi, fikrlash olami turli xil bo‘ladi. Bu jihatdan ular she’rdan har xil zavq tuyadilar. Shundan kelib chiqib, she’r matniga sarlavha tanlab aytishlari lozim. Masalan, bolaning sifatlaridan kelib chiqib “Xayolparast bolakay” deyishlari mumkin.

Bu savollar orqali o‘quvchilar erkin fikrlarini og‘zaki ifodalashi, she’r matniga munosabat bildira olishi, so‘zlarni o‘zaro bog‘lab mazmun chiqara olishi hamda matn mazmunida qo‘llangan o‘xshatishlarni tushunib, aytib berishi nazarda tutilgan.

Yozma mashq. Fonetika. Imlo. Sintaksis

10. She’r matnida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni qo‘sh undoshli va qator undoshli so‘zlarga bo‘lib, yozing.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. She’r matnida *hamma, sayyora, oppoq, ort, qars-qurs, g‘irt* so‘zlari ajratib ko‘rsatilgan. O‘quvchilar ushbu so‘zlarni berilgan jadvalga yozishlari lozim. Mashqni bajarishdan oldin qo‘sh undosh va qator undosh haqida ma’lumot beriladi: “Bir xil undoshlar yonma-yon kelsa, qo‘sh undosh, har xil undoshlar yonma-yon kelsa, qator undoshlar deymiz”.

Bu topshiriq o‘quvchining talaffuz hamda yozma savodxonlikda, ya’ni so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib ko‘chirishda xatoga yo‘l qo‘ymasligi uchun muhim sanaladi.

11. Ajratilgan so‘zlarga so‘roq bering va gaplarni ko‘chirib yozing.

Darslikda she’rdan olingan parcha berilgan hamda ushbu parchadan ayrim so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan. O‘quvchilar ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq berib, gapni qayta o‘qiydilar. Bu jarayonda o‘qituvchi gapni doskaga yozib, o‘quvchilar bilan birgalikda so‘roq berib, gapning harakati va harakatni amalga oshiruvchi bo‘lakni tushuntirib berishi maqsadga muvofiq.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, hikoya yoki she’r yozganmisiz? U qanday yoziladi?

Asosiy qism

Yozma nutq

12. Rasmlar asosida fantastik hikoya yozing. Ko‘rsatmalardan foydalanishingiz mumkin.

Darslikda o‘quvchilarning hikoya yozishdagi tasavvurlarini kengaytirish uchun bir nechta rasmlar berilgan. Bu rasmlardagi tasvirlar guruh bilan birgalikda muhokama qilinadi. Muhokama jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning diqqat-e’tiborini oshirish, rasmdagi tasvirlarni kengroq tasavvur qildirish uchun savol bilan murojaat qilishi maqsadga muvofiq. Xususan:

1. *Rasmdagi bolalar qayerda? Nega ular bunday kiyinib olishgan?*
2. *Bolalar bu yerga qanday kelishdi?*
3. *Ular qurgan uyga e’tibor bering, nega bu uyning usti yopilgan?*
4. *Bolalar issiqxona ham qurdilarmi? Qanday qilib?*
5. *Ayting-chi, Marsda yashash mumkin deb o‘ylaysizmi? Nima uchun?*

6. *Agar Marsga borib qolganingizda, nimalar qilgan bo‘lardingiz?*

Ushbu savollar orqali o‘quvchilar rasmlarda aks ettirilgan tasvirlar mohiyatini ochishiga yo‘naltiriladi.

O‘quvchilarning javoblari tinglangach, ushbu rasmlar asosida fantastik hikoya yozishlari aytiladi. Bundan oldin o‘quvchilarga fantastik hikoya haqida ma’lumot beriladi: “*Fantastik asar aql ishonmaydigan, xayoliy, notabiiy voqealar haqida hikoya qiladi. Masalan, “Sariq devni minib” asarida Hoshimjonning sehrli qalpoqcha topib olishi fantastik voqeadir. Yana O‘rgimchak odam, Temir odam kabi fantastik qahramonlar ham bor”.*

O‘quvchilar fantastik asar haqida ma’lumotga ega bo‘lgach, ularga hikoya yozish uchun quyidagi ko‘rsatmalar beriladi:

- *hikoya boshlanmasi;*
- *joy va qahramonlar tasviri;*
- *voqea;*
- *xulosa;*

Bunda o‘quvchilar erkin fikrlab, qahramonlarni, voqealarni o‘zlari to‘qib yozishlari lozim.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, har biriga yozganlari o‘qitiladi. Gap tuzishdagi xato va kamchiliklar izohlab beriladi. Eng yaxshi yozilgan matn egasi rag‘batlantiriladi.

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

(6+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda zamonaviy texnologiyalar, ularning yutuqlari borasidagi tasavvurlarni hosil qilish, mavjudlarini kengaytirish. O‘zlashgan so‘zlarning talaffuzi va imlosi ustida ishlash. Harakatni ifodalovchi so‘zlarning xususiyatlari bilan tanishtirish. Narsa-buyumlarning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash, savollarga javob berish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirishib olish uchun ular bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Unda o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

- *Siz hayotingiz davomida qanday texnologiyalardan foydalangansiz?*
- *Zamonaviy deganda nimani tushunasiz?*
- *Zamonaviy texnologiya qanday bo‘lishi kerak?*

Savollar umumiy tarzda beriladi va istagan o‘quvchi javob berishi mumkin.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasm asosida savol-javob

Darslikda 6 ta rasm berilgan. Bunda o‘qituvchi rasmda tasvirlangan narsalar haqida ozroq tushuntirish berib o‘tgani ma’qul. O‘quvchilar ularning nomini yozishi kerak. Shundan so‘ng ulardan nima maqsadda foydalanish haqida suhbat qurish mumkin.

	Velosiped	Pedallari odam kuchi bilan harakatga keltiriladigan transport vositasi. Yer ustida harakatlanishga mo‘ljallangan. U g‘ildirak, rama, rul, pedal, zanjir va ikki charxdan iborat bo‘ladi. Qo‘l yoki oyoq tormozi bilan to‘xtatiladi.
	Aqlli soat	Vaqtni ko‘rsatishdan tashqari ko‘plab funksiyalarga ega qurilma. Telefonlarga ulab qo‘yilsa, bemalol suhbatlashish, SMS xabarlarni o‘qish imkoniyatini taqdim qiladi. Internetga kirish imkoniga ham ega. Bundan tashqari odamning yurak urishini tekshirib, qon bosimini ham o‘lchab bera oladi. Aqlli soatlar balandlik darajasi hamda havo haroratini ham ko‘rsatish xususiyatiga ega. Ular yordamida musiqa tinglash ham mumkin.

	Avtomobil	Dvigatel yordamida (insonning ortiqcha kuchisiz) harakatga keltiriladigan transport vositasi. U gaz yoki benzin yonilg‘isi bilan harakatlanadi. Avtomobillarda manzilga tez va xavfsiz yetib borish mumkin, birdaniga bir necha kishini sig‘dira oladi. Hozirgi kunda avtomobillarning asosiy kamchiligi ulardan chiqadigan zararli gazlardir.
	Aqlli chamadon	Narsalarni, buyumlarni solib olib yurish mumkin bo‘lgan chamadon. Bu chamadonning oddiy chamadonlardan asosiy farqi o‘zi harakatlanishida. Quvvatlantirib, qo‘lingizdagi aqlli soat yoki telefonga ulab qo‘ysangiz o‘zi sizning ortingizdan yurib boraveradi. Ya’ni uni ko‘tarib yoki yetaklab yurish shart emas. Bu qurilmaning asosiy kamchiligi – zinadan chiqa olmasligi.
	Kompyuter	Oldindan tayyorlangan dastur asosida ishlaydigan qurilma. Dastlab hisoblash ishlarini tez va samarali bajarish maqsadida ishlab chiqilgan. Hozir ushbu qurilma orqali turli fayllarni – matnli, rasmli, grafikali, video, audio – tayyorlash, saqlash va tarqatish mumkin. Qo‘limizdagi kitob ham aynan shunday kompyuterlarda yozilgan va chizilgan. Shu kompyuterlarga ulangan dastgohlarda chop etilgan.
	Elektromobil	Avtomobil bilan bir xil funksiyalarga ega, lekin u gaz yoki benzin bilan emas, elektr toki bilan harakatlanadi. Avtomobillarga nisbatan yengil va shovqinsiz. Bundan tashqari, havoga zaharli gazlarni chiqarmaydi. Elektr toki arzonligi sabab avtomobillardan ko‘ra kamroq xarajat talab etadi.

Yuqoridagi gaplar o‘quvchilarga aynan aytilishi shart emas, bu ma’lumotlar o‘qituvchiga yordam sifatida berilmoqda. Turli sinflardagi o‘quvchilar darajasining har xil ekani aniq bir gapni tuzib berishga to‘sqinlik qiladi. O‘qituvchi mana shu ma’lumotlar asosida o‘quvchilarning fikrlarini kerakli o‘zanga burib turishi mumkin.

O‘quvchilar bilan rasmda tasvirlangan vositalar haqida suhbat qurish davomida quyidagi savollarni ham muhokama qilishi lozim:

1. Bularning qaysi birini zamonaviy deyish mumkin? Nega?

2. Insonlar nima uchun turli yangi ixtirolarni o‘ylab topadilar?

3. Siz yana qanday zamonaviy texnologiyalarni bilasiz? Ularni qayerlarda ishlatish mumkin?

Og‘zaki/yozma nutq

1. Darslikda *texnologiya, virtual, robot, sensor, radio* so‘zlari berilgan, o‘quvchilar ular haqidagi tasavvurlarini aytishlarishlari va ularni o‘qituvchi yordamida to‘g‘ri talaffuz qilishi kerak bo‘ladi. O‘qituvchi namuna uchun bir necha marta o‘qib berishi tavsiya etiladi. O‘quvchilar bu so‘zlar talaffuz qilingani kabi yozilmasligini tushunib yetishi lozim. Shundan so‘ng bu so‘zlarni daftarga ko‘chirib yozdirish kerak. Shu so‘zlarni bir necha martadan yozishsa, yanada yaxshi bo‘ladi.

Jamoaviy ish

Darslikda guruh bo‘lib xattaxtada bajarish uchun topshiriq berilgan. Unga ko‘ra o‘quvchilar avtomobil hamda elektromobilning o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rib chiqishlari kerak bo‘ladi. Berilgan jadval xattaxtaga chiziladi. O‘quvchilar 3 guruhga bo‘linib olishadi. Birinchi guruh faqat oddiy avtomobilga tegishli fikrlarni yozadi, ikkinchi guruh faqat elektromobilga tegishli fikrlarni yozadi, uchinchi guruh har ikkalasiga ham tegishli fikrlarni yozadi. Bunda berilgan birikmalardan foydalanish mumkin.

Javob:

Oddiy avtomobil	Umumiylik	Elektromobil
benzinda yuradi	g‘ildiragi bor	havoga zaharli gaz chiqarmaydi
gazda yuradi	haydovchisiz yura olmaydi	elektr tokida yuradi
havoni zaharli gaz bilan ifloslaydi	O‘zbekistonda sotib olish mumkin	“yonilg‘isi”ni topish oson
		O‘zbekistonda ishlab chiqarilmaydi

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Robotlar haqida eshitganmisiz? Qayerdan eshitgansiz?*

• *Siz bilgan robotlar nimalarga qodir?*

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“Egiluvchan robot” audiosi asosida

O‘qituvchi egiluvchan robot haqidagi audiomatnni qo‘yib eshittiradi. O‘quvchilar uchun qiyin jumlalar borligi sababli audioni ikki marta eshittirish maqsadga muvofiq. Shundan so‘ng darslikda berilgan savollar asosida muhokama o‘tkazish mumkin.

Javoblar:

1. Qutqaruvchilar odatda qanday muammoga duch keladilar?

Binolar qulab tushganda uning ostida qolgan odamlarning aynan qayerda ekanini aniqlash qiyin bo‘ladi.

2. Itlar qanday qilib qutqaruvchilarga yordam beradi?

Itlarning hid bilish qobiliyati juda kuchli, ular hid orqali insonlarni qayerda ekanini bilib, bu haqda qutqaruvchilarga belgi beradi.

3. Nima uchun robot egiluvchan deb nom olgan?

Chunki robot istalgancha egilishi va uzoq masofaga cho‘zilishi mumkin.

4. Egiluvchan robotning qanday xususiyatlari bor?

Istalgancha egila oladi, cho‘zila oladi, joylardan ham o‘ta oladi, boshidagi kamera orqali uning yo‘lini kuzatib borish ham mumkin.

5. Egiluvchan robot gapira oladimi? Odamlar bilan qanday muloqot qiladi?

Yo‘q, gapira olmaydi, lekin radiosignal yubora oladi, odamlar bilan aynan radiosignal orqali muloqot qiladi.

6. Egiluvchan robotning juda ham kichigi ishlab chiqarilsa, tibbiyotda qanday qo‘llash mumkin deb o‘ylaysiz?

Odamning qontomiri yoki biror a’zosiga kirib, u yerdagi muammoni aniqlashga yordam berishi mumkin. Ushbu savolning javobi turlicha bo‘lishi mumkin, bu o‘quvchilarning fantaziyasiga bog‘liq. Matnda bu savolga aniq javob yo‘q.

Lingvistik bilim

Darslikda harakatni ifodalovchi fe’llar haqida qoida mavjud. Bu qoidani o‘quvchilar yodlashi emas, o‘rganishi kerak. O‘quvchilar harakatni anglatadigan so‘zlar qanday bo‘lishi haqida tasavvurlarini boyitishi lozim. O‘qituvchi qoida matnida berilgan misoldan tashqari yana bir necha misol keltirishi va o‘quvchilardan ham misol aytishni so‘rashi mumkin.

Leksikologiya

Darslikda 6 ta so‘z berilgan. Shu so‘zlardan qaysi biri harakatni ifodalayotgani haqida muhokama olib borish lozim. Avval o‘quvchilar lug‘atdan berilgan so‘zlarning izohini topishi kerak, shundan keyin ular orasidan harakatni ifodalayotganlarini aniqlashi mumkin.

Javoblar: *portlash, kovlash, egilish.*

O‘quvchilarning ko‘pchiligi *adashish* so‘zini ham harakat ifodalaydi deb o‘ylashi mumkin, chunki adashib qolgan odam aylanib, sarson bo‘lib yuradi. Shunday vaziyatda o‘qituvchi adashish bu harakatning nomi emas, holatning nomi ekanini, adashish bu biror holatning natijasi ekanini tushuntirishi lozim bo‘ladi.

Yozma nutq

2. Darslikda berilgan matnda bo‘sh o‘rinlar qoldirilgan, o‘quvchilar yuqorida berilgan 6 ta so‘zdan mosini qo‘yib matnni ko‘chirishi kerak bo‘ladi. Asl matn:

Qutqaruvchilar qayerni kovlash kerakligini itlar yordamida aniqlaydilar. Bu usul har doim ham samara bermaydi. Chunki it ham bino qoldiqlari ustida turib ishlaydi. Egiluvchan robot esa bino qoldiqlari tagiga kirishi mumkin. U istalgancha egilish qobiliyatiga ega bo‘lgani uchun itdan ko‘ra samarali. Egiluvchan robot ishlatilganda qutqaruvchilar kovlashi ham shart emas, bu ishni robotning o‘zi bajaradi.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Virtual so‘zining ma’nosini bilasizmi?*

• *Qaysi multfilm yoki ertaklarda boshqa olamga tushib qoladigan qahramonlar bor?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish. “Virtual voqelik” matni asosida

O‘qituvchi dastlab matnni o‘qib beradi. Qo‘shimcha tarzda kiritilgan birinchi ma’lumot birinchi xatboshidan so‘ng, ikkinchi ma’lumot esa ikkinchi xatboshidan so‘ng o‘qiladi. Shundan keyin o‘quvchilarga ichlarida o‘qib olish uchun vaqt ajratiladi. Vaqt o‘tgacha, bir necha o‘quvchiga matn o‘qitiladi. Shundan keyingina matnosti savollariga o‘tish mumkin. Javoblar:

1. Hali paydo bo‘lmagan narsa haqida hikoya yozgan odam kim?

Stenli Vaynham.

2. Voqeaning ichiga kirib ko‘rish qanday bo‘ladi?

O‘zingizni o‘sha voqeaning ishtirokchisiday, o‘sha voqea sodir bo‘layotgan joyda turganday his qilish.

3. Nima uchun virtual voqelikda hammasi haqiqiydek tuyuladi?

Haqiqiy hayotda qanday bo‘lsa, shunday ko‘ringani uchun. Narsalarni ushlab ko‘rish, ularni surish mumkin bo‘lgani uchun miya bu voqealarni rostdan sodir bo‘lyapti deb qabul qiladi.

4. Olimlarning xavotiriga nima sabab bo‘lmoqda? Ular nimadan qo‘rqishyapti?

Olimlarni odamlarning virtual voqelikka haddan tashqari berilib ketishi xavotirga solayotgan bo‘lsa, virtual voqealarga o‘rganib qolgan odam haqiqiy hayotdan uzilib qolishi, xayolidagi hayotda yashashni ma’qul ko‘rib qolishi mumkinligi qo‘rqitmoqda.

5. Agar bu texnologiya uchuvchilar uchun foydali bo‘lsa, kosmonavtlar uchun ham foydali bo‘lishi mumkinmi? Qanday qilib?

Ha, foydali bo‘lishi mumkin, ular fazodagi turli vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligini mashq qilishlari mumkin.

6. Virtual voqelikka o‘rganib qolmaslik uchun nima qilish kerak deb o‘ylaysiz?

Barcha narsada me’yorni saqlagan ma’qul. Bundan tashqari virtual voqelikning haqiqiy hayot emasligini unutmaslik kerak.

Leksikologiya

Darslikda bir necha birikmalar berilgan. O‘quvchilar bilan ana shu birikmalarning qanday ma’no anglatayotgani haqida suhbat uyushtirish lozim. O‘quvchilarning fikrlarini tinglash va so‘ngida umumlashtirib, yakuniy xulosani aytish muhim. Javoblar:

orzusi amalga oshdi – anchadan beri o‘ylab yurgan, orzu qiladigan ishi sodir bo‘ldi. Biror narsaning amalga oshishi degani o‘sha narsaning sodir bo‘lishi bilan bir xil.

haqiqiy hayotdan uzilib qoladi – atrofdagi voqealarga befarq bo‘lib qoladi, u o‘z hayoti bilan qiziqmay qo‘yadi, atrofdagi do‘stlarini ham unutadi. Biror narsadan uzilib qolish degani o‘sha narsa bilan aloqani yo‘qotish degani bilan bir xil.

o‘zimizni poyezd tomida ko‘rishimiz mumkin – o‘zini biror joyda ko‘rish degani ana shu joyda turish degani bilan bir xil.

miya haqiqatan sodir bo‘lyapti deb qabul qiladi – miya rostdan mana shu ishlar bo‘lyapti deb tushunadi, o‘ylaydi. Biror narsani bo‘lyapti deb qabul qilish shu ish bo‘layotganiga ishonish degani bilan bir xil.

pastga sho‘ng‘ish – katta tezlik bilan pastga qarab otilish, pastga qarab katta tezlikda harakatlanish.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Harakatni ifodalovchi so‘zlar deb qanday so‘zlarga aytilar edi?*

• *Harakatni ifodalaydigan so‘zlarga misol aying.*

Asosiy qism

Leksikologiya

O‘qituvchi o‘quvchilardan “Virtual voqelik” matnini ochishni va harakatni ifodalagan so‘zlardan misol keltirishni so‘raydi. Bunda o‘quvchilar hamma so‘zni topishi shart emas, asosiy masala, ular harakatni ifodalovchi so‘zlarni to‘g‘ri tushunyotgani yoki yo‘qligida. “Virtual voqelik” matnidagi harakatni ifodalovchi so‘zlarga misollar:

kiyish, kirish, ishlash, surish, ushlash, o‘tirish, burilish, egilish, sho‘ng‘ish, baqirish, boshqarish, uchish.

Yozma nutq

3. Darslikda 6 ta rasm berilgan. O‘quvchilar ana shu rasmda tasvirlangan voqeaga mos so‘zlarni topib, yozishi kerak bo‘ladi.

Javoblar: *1 – egilish; 2 – portlash; 3 – kovlash; 4 – surish; 5 – ushlash; 6 – yugurish.*

4. O‘quvchilar berilgan so‘zlarni tartibga solib, gaplarni ko‘chirishi kerak bo‘ladi. Ushbu topshiriqdan o‘quvchilarda gapda so‘zlarning tartibini belgilash ko‘nikmasini rivojlantirish va sinash maqsad qilingan. **Javoblar:**

1. Virtual voqelik o‘yinlarini me’yordan ortiq o‘ynash yaxshi emas.

2. “Pigmalion ko‘zoynaklari” hikoyasini Stenli Vaynham yozgan.

3. Virtual voqelikda istalgan joyga borish mumkin.

4. Virtual voqelik texnologiyalari orqali samolyotda uchish mumkin.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Siz ham biror texnologiya yaratish haqida o‘ylab ko‘rganmisiz?*

• *Nima uchun zamonaviy texnologiyalarni yaratish kerak deb o‘ylaysiz?*

Asosiy qism

Jamoaviy ish

Ushbu topshiriq sinfda bajariladi. O‘quvchilar bir necha guruhlarga bo‘linadi va o‘zlari yaratmoqchi bo‘lgan texnologiya g‘oyasini ishlab chiqadi. Shundan so‘ng boshqa guruh a’zolariga bu texnologiya haqida so‘zlab berishlari kerak bo‘ladi. Texnologiya g‘oyasini yaratish va taqdimot qilishda quyidagi savollar qo‘l kelishi mumkin:

1. Texnologiyamiz nima vazifani bajaradi?

2. Texnologiyamizdan kimlar foydalanadi?

3. Texnologiyamiz nimasi bilan zamonaviy bo‘ladi?

4. Texnologiyamizning zararli tomonlari ham bo‘lishi mumkinmi?

5. Texnologiyamizni qanday nomlaymiz?

Ushbu savollarga javob berishda ketma-ketlikni saqlash muhim, mana shu orqali o‘quvchilar biror nima haqida gapirganda matn tartibi qanday bo‘lishi kerakligini o‘zlashtirib boradi.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savolni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Aytganimizday yozilmaydigan so‘zlarga misol ayting.*

Asosiy qism

Lingvistik bilim

O‘qituvchi o‘zbek tilida qanday aytilsa, shunday yozilmaydigan so‘zlar ham borligi, ularni faqatgina eslab qolish mumkinligini o‘quvchilarga tushuntirishi lozim. Shu paytgacha o‘rganilgan ba’zi so‘zlarni yozib misol keltirish mumkin: mikroskop, televizor.

Yozma mashq

5. Jami 18 ta so‘z o‘quvchilar e’tiboriga havola qilingan. Shulardan 6 tasi to‘g‘ri yozilgan. O‘quvchilar ana shu so‘zni aniqlab, daftarlariga ko‘chirib yozishi kerak bo‘ladi. Topshiriqni bajarish uchun ma’lum vaqt ajratish va bajarib bo‘lganlardan qaysi ustundagi so‘zni tanlaganini so‘rash mumkin.

Yozma nutq

6. Darslikda so‘rovnoma savollari berilgan. O‘quvchilar mana shu savollarga yozma javob berishi kerak bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar bitta savolga bitta yoki ikkita gap yozishi yetarli. Undan ko‘pini talab qilish tavsiya etilmaydi. Bu topshiriq o‘quvchilar o‘tgan 6 soat davomida o‘rgangan bilimlarini takrorlab olishiga yordam beradi. Bajarib bo‘lgan o‘quvchilarning bir nechtasidan javoblarni o‘qishni so‘rash yoki hamma bajarib bo‘lgach, bittadan savolga javobini o‘qishini talab qilish mumkin.

MUSTAHKAMLASH

DARS JARAYONI

Kirish

Harakatni ifodalovchi so‘zlar haqidagi bilimlarimizni takrorlaymiz va mustahkamlaymiz.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan qiziqarli o‘yinni boshlaydi. O‘yinda beriladigan savollar aniq ko‘rsatilgan. O‘qituvchi shundan foydalanishi

yoki o‘zi o‘zgartirishi mumkin. O‘quvchilar tilidan yozilgan qism o‘quvchilarga aytib qo‘yilmaydi, ularning o‘zi shu javobga kelishi kerak bo‘ladi.

O‘qituvchi (birinchi qo‘lini ko‘taradi, keyin ularni silkitadi va so‘raydi): Hozir nima qilyapman?

O‘quvchilar: Qo‘lingizi silkityapsiz.

O‘qituvchi (turgan joyida yugura boshlaydi): Hozir men nima qilyapman?

O‘quvchilar: Yuguryapsiz.

O‘qituvchi (O‘qituvchi gullarga suv quya boshlaydi): Endi nima qilyapman?

O‘quvchilar: Gullarga suv quyyapsiz.

O‘qituvchi: Gullarga suv quymasa nima bo‘ladi?

O‘quvchilar: Barglari qurib to‘kiladi.

O‘qituvchi: Barakalla! Endi sizlarga bir qoida aytib, savol beraman, sizlar shu savolga javob berasiz.

Kishilar, hayvonlar, narsalarning qimirlashi, harakatga kelishi harakatni yuzaga keltiradi. Ular harakatni ifodalovchi so‘zlar deyiladi.

O‘qituvchi: Hozir sizlar aytgan so‘zlar qanday so‘zlar ekan?

O‘quvchilar: Harakatni ifodalovchi so‘zlar.

O‘qituvchi: Kim menga harakatni ifodalovchi boshqa so‘zlarni ayta oladi?

Asosiy qism

Yozma nutq

Harakatni ifodalovchi so‘zlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

Hamma o‘zi aytgan so‘zni qatnashtirib gap tuzadi.

Hikoya to‘qish.

“Karimning tushi” nomli hikoya to‘qing.

Quyidagi hikoyani davom ettirishingiz kerak bo‘ladi. Bunda har bir o‘quvchi hikoyaga bitta yoki ikkita gap qo‘shadi. O‘sha gapda hech bo‘lmaganda bitta harakatni ifodalaydigan so‘z bo‘lishi kerak.

KARIMNING TUSHI

Karim bugun kun bo‘yi futbol o‘ynadi. Ko‘p yugurganidan charchab qoldi. Uyga kirib, ovqatini yeb bo‘ldi-yu, uxlab qoldi. Qattiq charchagan odam albatta tush ko‘radi. Karim tushida qorbobo ni ko‘rdi.

Qorbobo Karimning derazasidan kirib keldi-da, unga chiroyli mashinacha sovg‘a qoldi. Karim xursandligidan karavotida turib sakradi.

Sakrayotganda derazadan Qorbobo ning bug‘ular qo‘shilgan aravasini ko‘rib qoldi. Yugurib deraza oldiga bordi.

Qorbobo undan: “Aravaga minishni xohlaysanmi?” deb so‘radi. Karim: “Xohlayman, xohlayman”, dedi. “Ketdik”, dedi qorbobo. Karim issiq kiyimlarini kiydi. Keyin ular aravaga chiqishdi.

O‘quvchilar bilan birgalikda Karimning tushi nomli hikoya to‘qiladi. Unda o‘quvchilar hikoyani davom ettirishlari kerak bo‘ladi. Darslikda berilgan qismni o‘qituvchi o‘qib beradi, o‘quvchilar har biri bitta-ikkitadan gap qo‘shib hikoyani davom ettiradi. O‘quvchi qo‘shgan gaplarda hech bo‘lmaganda bittadan harakat fe’li ishtirok etishi lozim.

Yozma nutq

Hikoyada ishlatilgan harakatni ifodalovchi so‘zlardan esingizda qolgan 6 tasini yozing.

O‘quvchilar to‘qilgan hikoyada qatnashgan harakat fe’llaridan esida qolgan 6 tasini yozib qo‘yadilar.

TELESKOP – OSMONGA QO‘YILGAN NARVON

(6 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda teleskop, rasadxona, kashfiyotlarga oid til birliklarini qo‘llash, berilgan matndagi so‘z, ibora va birikmalarning mohiyatini anglash, tashkilot, gazeta, jurnal, asar nomlarini aniqlash, harakatni bildiruvchi so‘zlarni ajratish, ularning ma’nolarini o‘rganish, yaqin va qarama-qarshi ma’noli fe’llarni ajrata olish, insonning portreti (alloma yoki kashfiyotchi ajdodlarimiz) asosida ularning tashqi ko‘rinishini tasvirlab beruvchi og‘zaki/yozma matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar bo‘lim hamda yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirib olish uchun o‘quvchilar bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida quyidagi savollar bilan ularga murojaat qilinadi:

1.*Teleskop haqida nimalarni bilasiz? Bu qurilma bilan nimalarni kuzatish mumkin?*

2. Agar sizda teleskop bo‘lsa, qaysi osmon jismlarini kuzatar edingiz?

O‘quvchilarning javobi tinglangach, darslikdagi topshiriqni bajarishga kirishiladi.

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“Teleskop” audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.

Audiomatn eshittirilgach, darslikning 131-sahifasidagi savollar beriladi.

Bu savollar orqali o‘quvchilarning eshitib tushunish ko‘nikmasi tekshiriladi. Savollarning javobi audiomatnda berilgan. O‘quvchilar savolni o‘qib, eshitgan audiomatnlarini mulohaza qilib, javob berishi lozim.

Og‘zaki/yozma mashq. Talaffuz va imlo. Morfologiya. Sintaksis

1. Berilgan so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling. Ularning izohini lug‘atdan topib, daftaringizga ko‘chirib yozing.

Darslikda audiomatn tarkibida uchragan so‘zlardan namuna berilgan. O‘quvchilar berilgan so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilib berishi lozim. Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchiga so‘zlarni o‘qitadi. O‘quvchilar so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilmaguncha qayta o‘qiydi. So‘ng bu so‘zlarning ma’nosini darslikning oxirida berilgan lug‘atdan topib, yozishlari aytiladi.

Yozma nutq

2. Galileo Galiley haqida berilgan ma’lumotlarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga harakatni bildiruvchi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Darslikda audiomatndan olingan gaplar berilgan. Ushbu gaplardan ayrim so‘zlar tushirib qoldirilgan bo‘lib, qo‘yish uchun 3 xil variantdagi so‘z berilgan. O‘quvchilar ushbu so‘zlardan harakatni bildiruvchilarni topib, kerakli o‘ringa qo‘yishlari lozim.

Bunda asosiy e’tibor harakatning ma’nosini tushunish hamda gaplarning mazmuniga mos so‘zlarlarni topishlariga qaratiladi.

Javob:

1. *chiqadi*
2. *o‘rnatadi*
3. *kuzatadi*
4. *ko‘radi*

3. Berilgan harakatni bildiruvchi so‘zlardan foydalanib gaplar tuzing.

Darslikda harakatni bildiruvchi so‘zlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu so‘zlarni o‘qib, ma’nosini guruhda muhokama qilishadi. So‘ng har bir o‘quvchi mustaqil ravishda so‘zlar ishtirokida gap tuzib, yozishi aytiladi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, rasmni ham tasavvur qilish mumkinmi? U qanday bo‘ladi?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Har bir rasmga diqqat bilan qarang.

Darslikda 3 xil rasm berilgan. Rasmlarda

turli xil vaziyatlar tasvirlangan. Har bir vaziyatning sarlavhasi ham berilgan. O‘quvchilar ushbu rasmlarni og‘zaki tarzda tasvirlab berishlari lozim. Bunda quyidagilarga e’tibor qaratishlari aytiladi:

• Rasmdagi odamlarning nima bilan mashg‘ul ekanini ayting.

• Rasmdagi narsalar nomini ayting.

• Odamlarning ko‘rinishiga ta’rif bering.

Har bir o‘quvchining og‘zaki nutqi tekshiriladi. Xato va kamchiliklari aniqlanib, nutqini yakunlagach, aytiladi.

Muhokama

Tashqi ko‘rinishga oid ushbu jumlalar kimga tegishli ekanini toping.

Bunda insonning tashqi ko‘rinishini ifodalalovchi bir nechta rasm berilgan bo‘lib, o‘quvchilar ushbu so‘zlarni birma-bir o‘qib, rasmdan shu tashqi ko‘rinish ifodasi aks etgan kishilarni aniqlab aytishlari lozim.

Bu topshiriq orqali o‘quvchining lug‘at boyligini oshirish hamda so‘zni ma’nosiga ko‘ra rasm bilan moslashtira olishiga e’tibor beriladi.

3. Tashqi ko‘rinishga doir belgilardan foydalanib tarixiy shaxslar haqida gaplar tuzing.

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar yuqorida berilgan rasm hamda tashqi ko‘rinishga oid so‘zlar ma’nosini bog‘lay olishlari lozim. Bunda rasmi berilgan har bir tarixiy shaxsga namunadagi kabi gap tuzishlari nazarda tutilgan.

Topshiriqni bajarib bo‘lishgandan so‘ng har bir o‘quvchiga yozganlari o‘qitiladi. Xato va kamchiliklari tuzatib boriladi.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, usturlob nima? Uni qanday tasavvur qilasiz ?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

O‘quvchilar darslikda berilgan **“Ustoz va shogird uchrashuvi”** matnini o‘qishlari lozim. Bunda o‘quvchilar bir yoki ikki gapdan o‘qigan holda matnni o‘qib chiqishadi. Bir o‘quvchi o‘qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi talab qilinadi.

Matn 2–3 marta qayta o‘qib bo‘lingach, savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollar javobini topishda o‘quvchilar matn mazmuniga asoslanadi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar matndan savolda nazarda tutilgan o‘rinni topib munosabat bildira olishi lozim. Bunda o‘quvchining o‘qib tushunish malakasi, matndagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lab ma’no-mazmun chiqara olishi, matn mazmunidan yaxlit xulosa chiqarib, uni hayotiy kuzatishlari bilan bog‘lab, erkin fikrlab javob aytishiga asosiy e’tibor qaratiladi.

Yozma mashq. Leksikologiya

5. Berilgan so‘zlarni ma’nosi bilan moslab, daftaringizga ko‘chiring.

Darslikda matn tarkibida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar bir ustunda va ularning izohlari boshqa ustunda keltirilgan. O‘quvchilar so‘zlar va ularning izohlarini moslashtirishlari lozim. Bu topshiriq mashq daftarida bajariladi.

Javob:

***ko‘rimsiz** – yaxshi ko‘rinishga ega bo‘lmagan;*

***usturlob** – osmon jismlarini kuzatadigan asbob;*

***mashg‘ul** – shug‘ullanmoq, band bo‘lmoq;*

***asbob** – ish jarayonida ishlatiladigan qurol-yarog‘;*

***bo‘z** – paxta ipidan qo‘lda to‘qilgan mato.*

Bu topshiriqdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchi lug‘at boyligini oshirishdan iborat.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

*Ayting-chi, **“Ustoz va shogird uchrashuvi”** matnidan nimalarni tushundingiz?*

Asosiy qism

Og‘zaki nutq. Muhokama

“Ustoz va shogird uchrashuvi” matni asosidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Berilgan parchalarning qay biri Abu Nasrning astronom olim ekanini aniqlashda yordam beradi?

Bu topshiriqda matndan olingan uchta parcha berilgan. O‘quvchi umumiy matn mazmuniga tayangan holda hamda mana shu suhbat

parchalari orqali matnda yopiq ifodalangan ma'lumotni aniqlab aytish lozim.

Bunda o‘quvchi Abu Nasrning astronom ekanini aniqlovchi parchani aytib, qolgan ikkita parcha nima uchun xato ekanini izohlab berishi lozim.

Yozma nutq

2. Matndan bolaning yulduzlarni o‘rganishga juda ham qiziqishini bildiradigan o‘rinlarni topib yozing.

Bu topshiriq matn bilan ishlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar mustaqil ravishda matn tarkibidan ushbu o‘rinlarni topib yozishlari lozim.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning matnga munosabati hamda o‘z fikrini matn asosida isbotlab berishi asosiy o‘rin egallaydi.

Muhokama

3. Abu Nasrning qaysi gapidan bolani o‘ziga shogird qilib olmoqchi ekanini tushundingiz?

Bu juda ham qiziqarli topshiriq. Bunda dialogdan 3 ta parcha keltirilgan bo‘lib, o‘quvchilar mana shu suhbatdan anglashilgan ma'noni topib, “o‘rgataman” degan so‘z orqali Abu Nasrning bolani shogird qilib olish istagi borligini tushunishi mumkin.

Yozma mashq. Punktuatsiya

5. Matn tarkibidan quyidagi tinish belgilari qatnashgan gaplarni daftaringizga ko‘chirib yozing. Partadoshingiz bilan bu tinish belgilarining qo‘llanishi sababini muhokama qiling.

Darslikda undov va so‘roq belgisi berilgan bo‘lib, o‘quvchilar matn tarkibidan ushbu tinish belgilari qatnashgan gaplarni aniqlab, ko‘chirib yozishlari lozim. Yozib bo‘lganlaridan so‘ng har bir o‘quvchiga yozgan gaplari o‘qitiladi.

O‘quvchilar nima sababdan ushbu tinish belgisi qo‘yilganini partadoshlari bilan birga muhokama qilib, aytib berishlari lozim.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Mirzo Ulug‘bek haqida eshitganmisiz? U kim bo‘lgan, nimalarni o‘rgangan?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan “Astronom bobom” she'ri hamda muallifi tanishtiriladi. O‘quvchilarga she'rni mustaqil, ovoz chiqarmay o‘qishlari aytiladi.

She'rni o‘qib bo‘lishgach, o‘qituvchi bir marta baland ovozda o‘qib eshittiradi.

So‘ng darslikdagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollarning javobi she'r matnida aks etgan. O‘quvchilar savollarga she'r matni mazmunidan kelib chiqib javob berishlari lozim. Bunda asosiy maqsad – o‘quvchining o‘qib tushunish malakasini shakllantirish. O‘quvchilar she'r matniga munosabat bildira olishi, so‘zlarni o‘zaro bog‘lab mazmun chiqara olishi hamda matndagi o‘xshatishlarni tushunib, aytib bera olishi lozim.

Yozma mashq. Morfologiya. Leksikologiya

7. She'rdan harakatni bildirgan so‘zlarni topib, yozing.

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar she'r matni bilan ishlaydi. Unga ko‘ra, matn tarkibidan harakatni bildirgan so‘zlarni topib yozishlari lozim. Bunda ular har bir so‘zga so‘roq berish orqali hamda gapning umumiy mazmuni orqali aniqlab yozadilar.

Javob: *o‘rgandim, uchib o‘tishar, borib turishar, o‘tar, aytsam, ichgandilar, ochgandilar, aytay, tuzganlar, qurdilar kabi.*

8. She'rda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma'nosini lug‘atdan topib, bilib oling. Ushbu so‘zlar qatnashgan gaplar tuzing.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarda lug‘at bilan ishlash, so‘zning ma'nosini bilish hamda kontekstda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish maqsad qilingan.

Bunda o‘quvchilar she'r matni tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni aniqlab, ularning ma'nolari bilan darslikning oxiridagi lug‘atda tanishadilar hamda ushbu so‘zlarni qatnashtirib, namunadagi kabi gap tuzishlari lozim.

Yozma nutq

9. She'rdan olingan ushbu parchani o‘qing. *“Ishimni ettir davom”* deganda Ulug‘bek bobomiz nimaga ishora qilganlar deb o‘ylaysiz? Fikringizni qisqa matn ko‘rinishida yozing.

Bu topshiriqni har bir o‘quvchi mustaqil tarzda bajarishi lozim. Bunda she'r matni mazmunidan kelib chiqib hamda berilgan ushbu parchadagi jumla orqali mazmun chiqarib, matn ko‘rinishida yozib berishi lozim.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, har birlarining matni ko‘riladi hamda xato va kamchiliklari aniqlanib, tuzatiladi.

Goh ko‘kka qarab turib
Qolsam-chi xayol surib,
O‘tar Ulug‘bek bobom.
“Ishimni ettir davom”,
Deganday bo‘lar edi.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Og‘zaki nutq

“Ismini top” o‘yinini o‘ynaymiz.

Bunda bir o‘quvchi hamma taniydigan mashhur odam yoki sinfdoshining ismini aytmay, uning tashqi ko‘rinishini tasvirlab beradi. Qolgan o‘quvchilar tasvirlangan odamning kim ekanini aytishi kerak.

Bu navbat bilan har bir o‘quvchidan so‘raladi. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining insonning tashqi qiyofasini tasvirlashda ishlatayotgan so‘zlariga, ulardan to‘g‘ri foydalana olishiga qaratiladi.

Asosiy qism

Yozma nutq

9. Rasm asosida tasviriy matn tuzing.

Bu topshiriqni har bir o‘quvchi mustaqil ravishda yozishi lozim. Dastlab o‘quvchilar bilan berilgan rasm asosida suhbat o‘tkaziladi. So‘ng har bir o‘quvchiga ushbu rasmni tasvirlab yozishi aytiladi. Rasmni tasvirlashda quyidagi ma’lumotlar berilishiga e’tibor qaratishi aytib o‘tiladi:

- odamlarning tashqi ko‘rinishi;
- anjomlar va buyumlarning ko‘rinishi;
- odamlarning nima ish qilayotgani.

O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lgach, bir necha o‘quvchiga yozgani o‘qitiladi, xato va kamchiliklari to‘g‘rilanadi.

MIKROSKOP – ZARRABIN

(6 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilar ongida mikroskop, kashfiyotlar va mikroorganizmlarga oid til birliklarini faollashtirish, berilgan matn tarkibidan o‘zlashgan so‘zlarni aniqlash, ularning talaffuzi va imlosi ustida ishlash, o‘zlashgan so‘zlar lug‘atini tuzish, matn yuzasidan berilgan savolni tushunish va mantiqli javob berish, matn ustida ishlash, berilgan matnni qismlarga ajratish, ularga sarlavha tanlash, ushbu qismlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, bog‘liqlikni ta’minlash uchun qaysi birliklardan foydalanilganini ko‘rsatish, matn mazmuniga mos keluvchi reja tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar bo‘lim hamda yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirib olish uchun o‘quvchilar bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilinadi:

“Ayting-chi, mikroskop deganda nimani tushunasiz?”

O‘quvchilarning javobi tinglangach, mikroskop – oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan narsalarni tekshirish uchun ishlatiladigan, katta qilib ko‘rsatadigan asbob ekani tushuntiriladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmlarga qarang, berilgan ma’lumotlar bilan tanishing.

Darslikda mikroskop va mikroskopda kuzatish mumkin bo‘lgan kichik organizmlarning rasmi hamda ular haqida ma’lumot berilgan. O‘quvchilar dastlab ushbu rasm va ma’lumotlar bilan tanishib chiqadi. So‘ng o‘qituvchi rasmlarni doskada yoki proyektorda ko‘rsatgan holda ular haqidagi ma’lumotni o‘qib, mikroskop va unda kuzatish mumkin bo‘lgan organizmlar haqida qisqacha ma’lumot beradi.

O‘quvchilar tasavvurga ega bo‘lgach, rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollar o‘quvchining o‘ziga qaratilgan bo‘lib, uni ushbu mavzu doirasida tanishgan ma’lumotlari asosida xulosa chiqarib, mulohaza qilishga undaydi. Bu savollar orqali o‘quvchilarning rasmlar, ular haqida berilgan ma’lumotlarga tayanib hamda hayotiy kuzatishlari asosida o‘zlarining qarashlarini aytib berishi nazarda tutilgan.

O‘quvchilarning javobi tinglangach, o‘qituvchi umumiy xulosalab beradi hamda o‘quvchilarni ushbu qiziqarli ma’lumot bilan tanishtiradi.

Qiziqarli ma’lumot!

Daryo yoki ariq suvlarida ham turli bakteriyalar yashaydi. Shuning uchun bunday suvni ichish sog‘liq uchun zararli. Maxsus uskunalarda tozalangan ichimlik suvida esa bakteriyalar deyarli bo‘lmaydi.

Og‘zaki/yozma mashq. Talaffuz va imlo.

1. Berilgan so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling va yozing.

Darslikda ma’lumot tarkibida uchragan so‘zlardan namuna berilgan. O‘quvchilar ularni to‘g‘ri talaffuz qilib berishi lozim. Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchiga so‘zlarni o‘qitadi. O‘quvchilar so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilmaguncha qayta o‘qiydi. So‘ng bu so‘zlarni yozishlari aytiladi.

Bu topshiriqdan ko‘zlangan asosiy maqsad olinma so‘zlar imlosi va ularning talaffuzi bilan o‘quvchilarni tanishtirish.

Yozma nutq

2. Tasavvur qiling, sizda mikroskop bor. U orqali nimani kuzatgan bo‘lar edingiz? Nima uchun? Fikringizni qisqa matn ko‘rinishida yozing.

Bu topshiriq o‘quvchining ijodiy fikrlab yozishiga qaratilgan. Bunda u mantiqan o‘ylab, erkin tasavvur qilib ko‘rib, mikroskop orqali kuzatmoqchi bo‘lgan narsasining nomini, uni tekshirish orqali nimani aniqlamoqchi bo‘lganini yozishi lozim.

Har bir o‘quvchining mustaqil fikrlab, ijodiy yondashib yozishi maqsadga muvofiq.

Yozib bo‘lganlaridan so‘ng matn o‘qitiladi. Eng yaxshi yozilgan matn egasi rag‘batlantiriladi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, “afsonaviy” deganda nimani tushunasiz?

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“Mikroskopda aks etgan olam” audiomatnini tinglang va savollarga javob bering.

Audiomatn eshittirilgach, darslikdagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Savollarning javobi quyidagicha:

Mikroskopni kim, qachon ixtiro qilgan?	Ilk mikroskopni 1590-yili gollandiyalik ko‘zoynak ustasi Zaxariy Yansen ixtiro qilgan.
Nima deb o‘ylaysiz, mikroskopni nega aynan ko‘zoynak ustasi ixtiro qilgan?	Bu savol o‘quvchining tinglagan matni asosida erkin fikrlab, mulohaza yuritib javob berishiga qaratilgan.
Ayting-chi, mikroskop ixtiro qilinganidan keyin undan qaysi fan olimlari foydalanishdi?	Mikroskopdan kimyogar va biolog olimlar turli ilmiy izlanishlarda foydalana boshladi.
Elektron mikroskopning oddiy mikroskopdan farqi nimada edi?	Bu qurilma bilan mayda zarralarni million marta kattalashtirib ko‘rish imkoniyati bor edi.
Mikroskop yordamida nimalar kashf etildi? Bu kashfiyotlar bizga nima berdi? Fikrlaringizni asoslab bering.	Bu savolga o‘quvchilar matndagi ma’lumotlar asosida erkin fikrlab javob berishlari lozim.
“Zarrabin” so‘zi qaysi so‘zlarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan? So‘zning ma’nosini tushuntiring.	Bu so‘z “zarra” va “bin” so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. “Zarra” so‘zi juda kichik, mayda bo‘lakni anglatsa, “bin” fors tilida “ko‘rish” deganidir.

Yuqoridagi savollarning javoblari taxminiy bo‘lib, o‘quvchilar aynan shu so‘zlarni, shakllarni qo‘llab javob berishi shart emas, shu yo‘nalishda javob bersa yetarli. Agar o‘quvchi bu yo‘nalishni topa olmasa, namunaviy javoblar asosida o‘qituvchi yakuniy xulosani e’lon qiladi.

Yozma mashq. Leksikologiya

3. Berilgan so‘zlarni o‘qing. Ularning ma’nosini lug‘atdan topib, daftaringizga yozing.

Darslikda audiomatn tarkibida uchragan so‘zlardan namuna berilgan. O‘quvchilar berilgan so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilib berishi lozim. Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchiga so‘zlarni o‘qitadi. O‘quvchilar so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilguncha qayta o‘qiydi. So‘ng bu so‘zlarning ma’nosini darslikning oxirida berilgan lug‘atdan topib yozishlari aytiladi.

4. Mikroskop haqida berilgan to‘g‘ri ma’lumotlarni daftaringizga ko‘chirib yozing. Nima uchun to‘g‘ri ekanini ayting.

Darslikda matndagi ma’lumotlar asosida gaplar berilgan. Ushbu gaplarning ayrimlarida ma’lumotni yetkazishda xatolik uchraydi. O‘quvchilar ma’lumotlar orasidan to‘g‘ri deb hisoblaganlarini aniqlab, ko‘chirib yozishlari lozim.

Javob:

Mikroskopni ko‘zoynak ustasi kashf qilgan.
Mikroskop orqali oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan narsalarni ko‘rish mumkin.
Odamlar, hayvonlar va o‘simliklar tanasida hujayra mavjud.
Ota-bobolarimiz mikroskopni “zarrabin” deb atashgan.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, mitti bo‘lib qolganingizda nima qilar edingiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan “Buvamning oshqozonidagi mamlakat” matni o‘qiladi. O‘quvchilar ushbu matnni avval ichlarida o‘qib olishlariga vaqt beriladi. Keyin ular matnni navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Sinfdagi hamma o‘quvchi ovoz chiqarib o‘qishi lozim. O‘qituvchi tomonidan o‘qish jarayoni nazorat qilib boriladi.

O‘quvchilar o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi tomonidan bir marta ifodali qilib o‘qib beriladi. So‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Ayting-chi, qahramonga mitti bo‘lish nega yoqib qolgan bo‘lishi mumkin?

Bu savolning javobi matnda so‘zma-so‘z keltirilmagan. O‘quvchilar matn bilan to‘liq tanishib, asar qahramonining sarguzashtlari asosida xulosa chiqarib, fikrini erkin aytib berishi lozim.

2. Asar qahramoni aytayotgan “dunyodagi eng yupqa mato” nima edi?

O‘quvchilar matn tarkibidagi qahramon tilidan aytilgan gaplarni o‘zaro bog‘lab, ma’no chiqargan holda dunyodagi eng yupqa mato chivinning qanoti ekanini aytib bera olishi lozim.

3. Qahramon kiyim tikish uchun nimadan igna va ip sifatida foydalandi?

Bu savol ham o‘quvchining matn bilan ishlashini talab qiladi. O‘quvchilar matn tarkibidan ushbu o‘rinni topib, qahramonimiz chivinning tishi va tolalaridan igna-ip sifatida foydalanganini aytishi lozim.

4. Asardagi qaysi holatlar sizni hayratga soldi? Nega?

Bu savolga o‘quvchilar matndan olgan taassurotlari bilan javob berishlari nazarda tutilgan.

DIQQAT! Yuqoridagi savollarning javoblari faqat taxminiy bo‘lib, o‘quvchilar aynan shu so‘zlarni, shakllarni qo‘llab javob berishi shart emas, shu yo‘nalishda javob bersalar yetarli. Agar o‘quvchi bu yo‘nalishni topa olmasa, o‘qituvchi ko‘maklashib yuborishi lozim. Bundan tashqari, namunaviy javoblar asosida o‘qituvchi yakuniy xulosani ham e’lon qiladi.

Yozma mashq. Leksikologiya

5. Berilgan so‘zlarni izohi bilan moslashtirib, daftarga ko‘chiring. So‘zlarning izohini sinfda muhokama qiling.

Darslikda matn tarkibida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar bir ustunda va ularning izohlari boshqa ustunda keltirilgan. O‘quvchilar so‘zlar va ularning izohini moslashtirishlari lozim. Bu topshiriq mashq daftariga bajariladi.

Javob:

baxmal *– yuzasi qalin ipak tuklar bilan qoplangan yumshoq mato;*

astar *– kiyim yoki ko‘rpaning ichki qavati, ichki tomoniga tikilgan mato;*

qaviq *– to‘n, do‘ppi yoki ko‘rpaning ikki tomonga o‘tkazib tikilgan choki;*

hayrat *– biror narsaga kuchli hayron bo‘lish, lol qolish;*

to‘piq *– tovonning yuqorisida ikki yonga bo‘rtib chiqqan do‘mboq va qattiq suyaklar;*

binoyi *– tuppa-tuzuk, yaxshigina, sozgina.*

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Baxtiyor keyin ham shunday mittiligicha qolib ketdi deb o‘ylaysizmi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan “Buvamning oshqozonidagi mamlakat” matnining 2-qismi o‘qiladi. O‘quvchilar ushbu matnni avval ichlarida o‘qib olishlariga vaqt beriladi. Keyin ular matnni navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Sinfdagi hamma o‘quvchi ovoz chiqarib o‘qishi lozim. O‘qituvchi tomonidan o‘qish jarayoni nazorat qilib boriladi.

O‘quvchilar o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi tomonidan bir marta ifodali qilib o‘qib beriladi. So‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollarning barchasi matnni o‘qib tushunishga qaratilgan bo‘lib, bola matn mazmunidan ushbu o‘rinni topib, unga munosabat bildirishi, xulosa qilib, hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrini ifodalab berishi lozim.

Yozma nutq

6. Matnda ajratib ko‘rsatilgan qismlarning ma’nosini muhokama qiling. Ular ishtirokida bittadan gap tuzib, yozing.

Matn tarkibida ayrim so‘zlar ajratib berilgan. O‘quvchilar ushbu so‘zlar qatnashgan gaplarni to‘liq o‘qishlari lozim. So‘ng so‘zlarga so‘roq berib, gapdan ma’nosi aniqlab, guruhda muhokama qilinadi.

O‘quvchilarda bu so‘z haqida tushuncha paydo bo‘lgandan so‘ng ushbu so‘zlarni qatnashtirib, namunadagidek gap tuzishlari lozim.

Bu topshiriq orqali o‘quvchining lug‘at boyligini oshirish hamda so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra kontekstda qo‘llay olish ko‘nikmasini rivojlantirish maqsad qilib olingan.

Ajratib berilgan birikmalar: *boshidan o‘tkazmoq, ko‘ngli ko‘tarilmoq, joniga tegmoq, ko‘ngliga tegmoq, ko‘zlari yonmoq.*

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, Baxtiyor haqida qanday tasavvurga ega bo‘ldingiz? U qanday bola?

Asosiy qism

Yozma nutq. Morfologiya

7. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni o‘qing. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda ko‘chirib yozing. Ayting-chi, bu so‘zlar qanday vazifa bajarib kelyapti?

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchi matn bilan ishlaydi. Matn tarkibida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq beradi hamda uni o‘sha so‘zni aniqlab kelgan egasi bilan birgalikda namunada keltirilgan gap singari ko‘chiradi. Bunda asosiy e’tibor ajratib ko‘rsatilgan so‘zning aniqlab kelingan qismini topib, yozishiga va to‘g‘ri so‘roq berishiga qaratiladi.

Javob: *qatiqxo‘r bobom, qadrdon do‘stim, issiq non, yumshoq joyda, qadoq qo‘llari, qaynoq choy.*

Izoh: *bu so‘zlarning barchasi “qanday?” so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Ular o‘zidan keyin kelgan so‘zning ma’nosini aniqlab kelgan. Masalan, qanday bobom? – qatiqxo‘r bobom.*

8. Berilgan so‘zlarni mazmuniga ko‘ra moslashtirib, daftaringizga yozing.

Bu topshiriq mashq daftarida bajariladi. O‘quvchilar berilgan gaplarni ma’nosiga ko‘ra moslab yozishlari lozim. Bunda ikkinchi ustunda berilgan so‘zlarni o‘qib, savol berib, birinchi ustundan mos keladigan so‘zlarni topib, namunadagi singari yozishi nazarda tutilgan.

Javob: *mazali ovqat, ko‘rkam bino, yoqimli kuy, serg‘ayrat bola, pushti gul, yam-yashil dala.*

9. Ayting-chi, qahramonimiz mitti bo‘lib qolganidan keyin nimalar qildi? Ketma-ketlikda yozing.

Bu topshiriq o‘quvchilarga matn qismlarini anglashda yordam beradi. O‘quvchilar matndan ushbu o‘rinni topib, namunada berilgan tartibda ketma-ketlikda yozib chiqishlari lozim.

Bu topshiriq o‘quvchilarning matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish hamda ularga matn qismlarini aniqlashni o‘rgatishga qaratilgan.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, qanday mitti hayvonlar haqida bilasiz? Ular qanday bo‘ladi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikdagi “Amyoba” matni o‘qiladi. O‘quvchilar ushbu matnni avval ichlarida o‘qib olishlariga vaqt beriladi. Keyin navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Sinfdagi hamma ovoz chiqarib o‘qishi lozim. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning o‘qishlari nazorat qilib boriladi.

O‘quvchilar o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi tomonidan bir marta ifodali qilib o‘qib beriladi. So‘ng matn ostidagi topshiriqlar bajariladi.

Yozma nutq

10. Amyoba haqida nimalarni bilib oldingiz? Quyidagi savollarga javob yozing.

Bu topshiriqni har bir o‘quvchi mustaqil ravishda yozishi lozim. Bunda o‘quvchiga berilgan savollar orqali matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish maqsad qilib olingan. O‘quvchilar savollarga javob yozayotganda matndan foydalanishlari mumkin. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining zarur o‘rinni topishi va kerakli jumlalar bilan javob yozishiga qaratiladi.

Savollar:

1. Amyoba qayerda yashaydi?
2. Amyoba qanday ovqatlanadi?
3. Amyoba qanday ovqatlanadi?
4. Amyoba sovuq kunlarda qanday yashaydi?

O‘qituvchi tomonidan har bir o‘quvchining mustaqil bajarishi nazorat qilib boriladi. So‘ng har biriga yozganlari o‘qitilib, xato va kamchiliklari tuzatiladi.

11. E’tibor bering, “Amyoba” matni ranglar bilan to‘rt qismga ajratilgan. Har bir qismning mazmuniga mos reja tuzing.

Darslikda “Amyoba” matni to‘rt xil rangda berilgan. Bunda matnni qismlarga ajratib ko‘rsatish maqsad qilingan. O‘quvchilar ushbu matn qismlaridan berilgan qolip asosida matn uchun reja tuzishlari lozim. Bu jarayonda o‘quvchiga matn bo‘yicha qilgan tahlillari hamda savollarga javob yozgan o‘rinlari yordam berishi mumkin.

O‘quvchilar reja tuzib bo‘lgach, har bir o‘quvchiga tuzgan rejasi o‘qitiladi. Eng yaxshi rejalar doskada yozib qo‘yiladi hamda nima uchun boshqa rejalarga nisbatan yaxshi ekani o‘qituvchi tomonidan izohlab beriladi.

AQLLI YORDAMCHI

(6+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda aqlli texnikalar, ularni tasvirlash borasidagi tasavvurlarni kengaytirish. So‘zlarga old va orqa tomondan qo‘shiladigan qo‘shimchalar haqida ma’lumot yetkazish, so‘zlarga be-, no- va -li qo‘shimchalarini qo‘shish, sonlarni raqamlarda ifodalash, shaxsiy ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida yozish, eslatma ko‘rinishida ma’lumotlarni qayd etib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirishib olish uchun o‘quvchilar bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Unda ularga quyidagi savollar beriladi:

- *Qanday odamni aqlli deymiz?*
- *Texnologiyalar ham aqlli bo‘lishi mumkinmi?*

Savollar umumiy tarzda beriladi va istagan o‘quvchi javob berishi mumkin.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasm asosida savol-javob

Darslikda 5 ta rasm berilgan. O‘quvchilar birinchi navbatda rasmdagi narsalar nima ekanini rasm ostidagi so‘zlar asosida taxmin qilishi mumkin. O‘qituvchi javoblarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aytib turishi kifoya. Shundan so‘ng o‘qituvchi rasmda tasvirlangan narsalar haqida ozroq tushuntirish berib o‘tgani (bu narsalar nima, qachon ishlatiladi kabi) ma’qul. Mana shundan so‘ng ikkinchi savolga o‘tish mumkin.

Qaysi xususiyatiga ko‘ra ularni aqlli deyish mumkin? O‘quvchilar o‘z javobini aytishiga im-

kon berilishi lozim. Ya'ni o'qituvchi o'quvchiga sening fikring xato demasdan, o'quvchini oxirigacha tinglashi lozim. O'quvchilar o'z taxminlarini aytib bo'lgach, o'qituvchi yakuniy xulosalarni e'lon qilishi mumkin.

Rasm	Nomi	Qaysi xususiyati bilan aqlli
	Kir yuvish mashinasi	Kirlarni o'zi yuvadi, chayadi va quritadi. Inson shunchaki kirni mashinaga soladi, kerakli vaqtni belgilaydi va yuvish vositasini joylaydi (kir yuvish kukuni, gel va h.k.). Qolgan ishlarning barchasini kir yuvish mashinasining o'zi bajaradi.
	Shaxsiy kompyuter	Oldindan tayyorlangan dastur asosida ishlaydigan qurilma. Dastlab hisoblash ishlarini tez va samarali bajarish maqsadida ishlab chiqilgan. Hozir ushbu qurilma yordamida turli fayllarni – matnli, rasmli, grafikali, video, audio – tayyorlash, saqlash va tarqatish mumkin. Qo'limizdagi kitob ham aynan shunday kompyuterlarda yozilgan va chizilgan. Shu kompyuterlarga ulangan dastgohlarda chop etilgan.
	Noutbuk	Saxsiy kompyuterda bor bo'lgan barcha xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, uning qo'shimcha ustunliklari ham bor: – quvvattosh orqali ishlaydi, doim elektrga ulangan holda turishi shart emas; – ba'zilarining ekrani sensorli bo'ladi; – noutbukning klaviatura va sichqonchasi doim o'zi bilan birga, ular alohida ulanishni talab qilmaydi; – o'zining karnayi bo'lib, hech qanday qo'shimcha karnaylarsiz ham bemalol, ovozli video ko'rish, musiqa eshitish mumkin.
	Smartfon	Noutbuk va shaxsiy kompyuter bajaradigan deyarli barcha ishlarni bajarishi mumkin, lekin bu qurilmaning hajmi kichik. Bundan tashqari, ko'p vazifalarni bajarishda noutbuk va shaxsiy kompyuterlarga yeta olmaydi. Qo'ng'iroq qilish, videotasvirga olish, internetdan foydalanish, matnli ma'lumotlarni yuborish va qabul qilish kabi asosiy funksiyalaridan tashqari juda ko'p vazifalarni bajargani uchun aqlli nomini olgan. Masalan, uyg'otgichi, qadam sanagichi, kalkulyatori, musiqa eshitish dasturi, video ko'rsatuvchisi mavjud.
	Planshet	Uni noutbuk va smartfon oralig'idagi qurilma deyish mumkin. Noutbuk bilan bir xil funksiyalarni bajara oladi, hatto grafik tasvirlarni yaratish hamda elektron kitoblardan foydalanishda noutbukdan ham ustunroq turadi. Noutbukdan farqi shuki, ekrani faqat sensorli, klaviatura va sichqinchasi mavjud emas.

Yuqoridagi gaplar o'quvchilarga aynan aytilishi shart emas, bu ma'lumotlar o'qituvchiga yordam sifatida berilmoqda. Turli sinflardagi o'quvchilar darajasining har xil ekani aniq bir gapni tuzib berishga to'sqinlik qiladi. Har bir o'qituvchi mana shu ma'lumotlar asosida o'quvchilarning javoblarini tartibga solishi mumkin.

O'quvchilar bilan rasmda tasvirlangan vositalar haqida suhbat qurish davomida quyidagi

savollarni ham muhokama qilishi lozim:

1. Bu buyumlardan asosan nima maqsadda foydalanamiz?

2. Smartfon va planshet o‘rtasida qanday farq ko‘ryapsiz?

3. Oddiy kompyuter va noutbukning qanday farqlari bor?

Og‘zaki nutq

Jamoaviy ish asosida

1. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi hamda quyidagi savollar asosida maktab uchun aqlli buyum yaratishlari kerak bo‘ladi:

• *U nima vazifani bajaradi?*

• *Insonning qaysi ishini osonlashtiradi?*

• *Qaysi xususiyatiga ko‘ra aqlli deb atash mumkin?*

Bu topshiriqda o‘quvchilar faqatgina g‘oya yaratadilar, o‘sha buyumning o‘zini yasab berishlari shart emas. Asosiy topshiriq guruh a’zolari birgalikda yaratmoqchi bo‘lgan narsalari haqida boshqalarga so‘zlab berishidir. Nutq davomida ham yuqoridagi savollarga javob berilsa, nutq samarali bo‘ladi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Buyumlarga nisbatan aqlli sifatini qo‘llash to‘g‘rimi?*

• *Sizningcha, buyumlarning aqli qayerda bo‘ladi?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Kompyuterning aqli bormi?” matni asosida

O‘qituvchi dastlab matnni o‘qib beradi. Shundan keyin o‘quvchilarga ichlarida o‘qib olish uchun vaqt ajratiladi. Vaqt o‘tgach, bir necha o‘quvchiga matn o‘qitiladi. Shundan keyingina matnosti savollariga o‘tish mumkin. Javoblar:

Javoblar:

1. Biz kompyuterlarga nimalar orqali buyruq beramiz?

Klaviatura va sichqoncha orqali.

2. Nima deb o‘ylaysiz, bu qurilmaga nega “sichqoncha” deb nom qo‘yilgan?

Tashqi ko‘rinishi sabab, dastlab yaratilgan “sichqoncha”larning tashqi ko‘rinishi sichqonga o‘xshash bo‘lgan.

3. Muallif nima uchun kompyuterning aqli yo‘q deyapti?

Chunki kompyuter odam tomonidan yaratilgan dasturlar asosidagina ishlaydi, odamlar tomonidan o‘rgatilgan narsalarnigina bajara oladi.

4. Nima uchun 60 yil oldin bitta xonaga bitta kompyuter qo‘yish mumkin bo‘lgan xolos?

Chunki u paytda kompyuterlar juda katta bo‘lgan, bitta xonaga bittadan ortiq kompyuter sig‘magan, bir o‘zi xonani to‘ldirib qo‘ygan.

5. Saqlab qo‘yish buyrug‘i berilmagan ma’lumotlarni kompyuter nima qiladi?

Xotirasida olib qolmaydi, ya’ni o‘chirib yuboradi.

6. Sizningcha, kompyuterni aqlli deb atash mumkinmi?

Ushbu savol aniq javobga ega emas, o‘quvchilarning barcha javoblari to‘g‘ri hisoblanadi.

Yozma nutq

1. Darslikda 3 ta gap berilgan. Shu gaplar tarkibidagi uchta so‘zning (bexato, noqulay, beaql) ostiga chizilgan. O‘quvchilar birinchi navbatda shu uchta gapni ko‘chirib yozishi kerak bo‘ladi. Ostiga chizilgan so‘zlarni chizmasdan ko‘chiradilar. Shundan so‘ng *bexato, noqulay, beaql* so‘zlaridagi be- va no- qo‘shimchalarini olib tashlab gapni o‘qib ko‘rish kerak bo‘ladi. Bunda gap mazmunida qanday o‘zgarish bo‘lganini taxminan aytishlari lozim.

Lingvistik bilim

Darslikda be- va no- oldqo‘shimchalari haqidagi qoida berilgan. O‘quvchilar bu qoidani yodlashi emas, o‘rganishi kerak. O‘quvchilar qo‘shimcha nima ekani, be- va no- qo‘shimchalari qanday vazifa bajarishi haqida tasavvurlarini boyitishi lozim. O‘qituvchi qoida matnida berilgan misoldan tashqari yana bir necha misol keltirishi va o‘quvchilardan ham misol aytishni so‘rashi mumkin.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Aqlli buyumlar deganda xayolingizga nimalar keladi?*

• *Internet nima ekanini bilasizmi?*

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“Aqlli buyumlar” audiomatni asosida

O‘qituvchi egiluvchan robot haqidagi audiomatnni qo‘yib eshittiradi. Shundan so‘ng, o‘quvchilar bilan eslatmalar yozib borish haqidagi tartibni muhokama qiladi. Ana shundan keyin audiomatn asosida eslatma yozish mashqiga o‘tish mumkin.

Yozma nutq

2. O‘quvchilar bilan eslatma yozish qoidalari muhokama qilib olingach, “Aqlli buyumlar” audiomatni yana bir marta qo‘yib beriladi, faqat bunda o‘quvchilar matn asosida ikki-uchta eslatma yozishlari kerak bo‘ladi. Eslatmalar audioni tinglash davomida yozilishi shart. O‘quvchilardan risoladagi kabi eslatmalar kutilmaydi. Asosiy maqsad eslatmalar nima ekani, ularning foydali tomonlari haqidagi tasavvurga ega bo‘lish.

Og‘zaki nutq. Savol-javob

Audiomatn asosida tuzilgan savollarga javob berish lozim, bunda o‘quvchilar o‘zlari yozgan eslatmalarga qarab olishlari, ulardan foydalanishlari mumkin. Javoblar:

1. Aqlli buyumlar qaysi qurilma bilan aloqa qilmoqda?

Smartfon, mobil telefon.

2. Sovutkichning uyda qolmagan narsani do‘konga buyurtma berib yuborishi to‘g‘rimi? Nima uchun?

Javob “ha, to‘g‘ri” bo‘lsa: chunki insonlar adashib qolishi, esidan chiqarishi mumkin.

Javob “yo‘q, noto‘g‘ri” bo‘lsa: masalan, men biror mahsulotni qaytib sotib olmaslikka qaror qilgan bo‘lsam, avtomatik buyurtma men uchun zararga ishlaydi.

3. SMS yuboradigan suv idishining foydali jihati nimada?

Odam suv ichib turishi kerak, bir kunda yetarli miqdorda suv ichmaslik sog‘lik uchun zarar, bu qurilma uzoq vaqt suv ichilmaganini eslatib turar ekan.

4. Internetga ulangan soyabon qanday qulaylikka ega?

Uni biror joyda unutib qoldirsak, u bizga qayerda qolib ketgani haqida SMS xabar yubora oladi. Shunday qilib, uni darrov topib olish mumkin.

Yozma nutq

3. O‘quvchilar o‘zlari tanlagan biror buyumni aqlli buyumga aylantirish haqida o‘ylab ko‘rishlari kerak bo‘ladi. O‘ylab topgan usullari, g‘oyalari asosida bitta kichik matn yozadilar. Matnni darslikda berilgan ma’lumotlar asosida va shunday ketma-ketlikda yaratish samarali bo‘ladi. Bu topshiriqdan so‘ng bir necha o‘quvchining ishini umumiy muhokama qilish mumkin.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

- *Qo‘shimchalar deb nimalarga aytar edik?*
- *So‘zga be- va no- qo‘shimchasi qo‘shilsa, uning ma’nosi qanday o‘zgaradi?*

Asosiy qism

Leksikologiya

Darslikda so‘zlar va ularga mos izohlar berilgan. O‘quvchilar be- va no- qo‘chimchalari haqidagi bilimlari va o‘z tasavvurlari asosida ularni o‘zaro moslashtirishi kerak bo‘ladi. Javoblar:

foydali	foyda keltiradigan
befoyda	foyda keltirmaydigan
qulay	biror ishni bajarish uchun eng mos
noqulay	biror ishni bajarish uchun mos emas
aqlli	aqli bor
beaql	aqli yo‘q

Lingvistik bilim

Darslikda qo‘shimchalar hamda so‘z ortidan qo‘shiladigan -li qo‘shimchasi haqidagi qoida berilgan. O‘quvchilar bu qoidani yodlashi emas, o‘rganishi kerak. O‘quvchilar qo‘shimcha nima ekani, -li qo‘shimchasi qanday vazifa bajarishi haqida tasavvurlarini boyitishi lozim. O‘qituvchi qoida matnida berilgan misoldan tashqari yana bir necha misol keltirishi va o‘quvchilardan ham misol aytishni so‘rashi mumkin.

Yozma nutq

4. O‘quvchilar *foyda, qulay, odob, xato, tekis* so‘zlariga o‘zlari o‘rgangan old va ortqo‘shimchalarni qo‘shib yozishi lozim. Har bir so‘zga ham old-, ham ortqo‘shimchalarni qo‘shish kerak bo‘ladi. O‘quvchilardan so‘zlarning ma’nosida qanday o‘zgarish bo‘lganini tushuntirib berish so‘raladi. Bunda o‘quvchi o‘z tasavvurini nutqqa ko‘chira olsa bas, ulardan aniq va risoladagidek izoh talab qilinmaydi.

5. Darslikda 5 ta gap berilgan. Gaplarda ostiga chizilgan hamda old va ort tomonida bo‘sh joy qoldirilgan so‘zlar majud. O‘quvchilar gap mazmunidan kelib chiqib be-, no-, -li qo‘shimchalaridan birini qo‘yib, gaplarni ko‘chirib yozishi kerak bo‘ladi. Topshiriq bajarilgach, o‘qituvchi to‘g‘ri javoblarni e’lon qilib, kimda shunday bo‘lmasa, xatolarini tushuntirishi lozim. Bunda o‘quvchilar o‘zini o‘zi tekshiradi va xato bajargan qismini o‘qituvchiga aytadi.

DIQQAT! 5-gapda ajratilgan so‘zga hech qanday qo‘shimcha qo‘shilmaydi. O‘qituvchi bu gapni topshiriq oldidan aytmagani ma’qul. O‘quvchilar buni o‘zlari topishlari lozim. O‘quvchi “noqulay” desa, u holda gap mazmuniga mos kelmasligi aytiladi.

Javoblar:

1. Komil hamma topshiriqni bexato bajargani uchun o‘qituvchi 5 baho qo‘ydi.
2. Odobli bola hammaga yoqadi.
3. Yo‘l notekis bo‘lgani uchun Abbos qoqilib ketdi.
4. Abdulla hammaga foydali taklif aytgani uchun direktor uni maqtadi.
5. Salima mingan poyezdning o‘rindiqlari juda ham qulay edi, u maza qilib ketdi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

- *Biror joyda ro‘yxatdan o‘tishingizga to‘g‘ri kelganmi?*
- *Shaxsiy ma’lumotlar deganda nimalarni tushunasiz?*

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasm asosida muhokama

O‘quvchilarga Husnora ismli qizning onlayn tanlovda qatnashish uchun ro‘yxatdan o‘tgan paytda to‘ldirgan ma’lumotlari aks etgan rasm berilgan. Ular ana shu rasmga diqqat qilishlari, Husnora haqidagi ma’lumotlarni o‘z so‘zlari bilan aytib berishlari lozim. O‘qituvchi rasm asosida bir nechta savol berishi ham mumkin.

Yozma nutq

6. O‘quvchilar quyidagi jadvalni o‘z ma’lumotlarini kiritgan holda to‘ldiradilar:

Ism:	
Familiya:	
Tug‘ilgan sana:	
Maktab:	
Sinf:	
Tanlangan fan:	
Manzil:	

Bunda so‘ralayotgan ma’lumotni qanchalik tushunganlari tekshiriladi. O‘quvchilar bir-birlarining ishini tekshirib, baho qo‘yishi mumkin.

7. O‘quvchilar o‘zlari to‘ldirgan jadvalda sonlarni ishlatishga majbur bo‘lgan. Ushbu topshiriqda ular ana shu sonlarni harflar yordamida ifodalab berishi kerak bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarning sonlarni so‘z bilan ifodalash ko‘nikmasi rivojlantiriladi.

8. Bu topshiriqda ham o‘quvchilar o‘zlari haqida ma’lumot yozishi kerak. Oldingi topshiriqlardan farqli o‘laroq bu safargi ma’lumotlar jadvalli emas, oddiy matn shaklida yozilishi lozim. O‘quvchilar dastlab o‘zlari haqida qisqacha so‘zlab berishi, keyin shu gaplarini yozma ifodalashga o‘tishi maqsadga muvofiq.

O‘quvchilar o‘zlari tuzgan matnlardagi *nechta?, qancha?, nechanchi?* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlar ostiga chizib qo‘yishlari kerak bo‘ladi.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savolni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

- *Telefon ishlatganmisiz? Sizga telefonni kim olib bergan?*
- *Telefondan nima maqsadda foydalanish kerak deb o‘ylaysiz?*

Asosiy qism

Yozma nutq

9. Ushbu darsda o‘quvchilarga matn yozish o‘rgatiladi. Bunda o‘quvchilar biror ma’lumotga qo‘shilish yoki qo‘shilmasligini izhor qilishlari, sabablarini tushuntirishlari kerak bo‘ladi. Darslikda ana shunday matn yaratish bo‘yicha

qo‘llanma berilgan. Qo‘llanma ko‘pchilik o‘quvchilar telefon ishlatmasligi kerak degan gapga qo‘shilish yoki qo‘shilmaslikni bildirish haqida. O‘quvchilar ham ana shu namuna asosida o‘z matnlarini yaratishlari kerak bo‘ladi. Fikrga qo‘shilganlar birinchi ustundagi shakldan, fikrga qo‘shilmaganlar ikkinchi ustundagi matndan foydalanishi mumkin.

Bu vaziyatda o‘qituvchi namunani to‘liq tushuntirib berishi lozim. Namunada bajariladigan ishlar qalin, namuna gaplar qiya harflarda berilgan.

Bu topshiriq avvalgi matn yaratish topshiriqlaridan farq qiladi. Bunda o‘quvchilar yozgan matn namunadagi ketma-ketlikka mos tushishi shart. Ularga aynan namunadagi gaplarni ko‘chirib qo‘yish mumkin emasligini tushuntirish lozim.

MUSTAHKAMLASH

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savolni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

- *So‘zlarning oldiga va ortiga qo‘shiladigan qo‘shimchalar haqida nimalarni bilamiz?*
- *Shu paytgacha qanday yordamchilarimiz haqida gaplashdik?*

Asosiy qism

Yozma nutq

1. Gaplardagi ostiga chizilgan so‘zlarga kerakli qo‘shimchani qo‘shib yozing.

1. Nodir konsertni yaxshi ko‘ra olmadi, chunki u o‘tirgan joy ancha qulay ekan.
2. “Kitob o‘qish hech qachon foyda bo‘lmagan”, – dedi Karim bobo nabirasiga qarab.
3. Jo‘ravoy odob bola. Mahalladagi hamma undan bezor.
4. Komila bitta savolga xato javob bera oldi xolos, qolganini bilmadi.
5. Yo‘l chetidagi daraxtlar juda tekis o‘sgan ekan, biri baland, biri past.

Gaplarda ostiga chizilgan, old va ort tomondan bo‘sh joy qoldirilgan so‘zlar majud. O‘quvchilar gap mazmunidan kelib chiqib be-, no-, -li, -siz qo‘shimchalaridan birini qo‘yib, gaplarni ko‘chirib yozishi kerak bo‘ladi. Topshiriq bajarilgach, o‘qituvchi to‘g‘ri javoblarni e’lon qilib, kimda shunday bo‘lmasa, xatolarini tushuntirishi lozim. Bunda o‘quvchilar o‘zini o‘zi tekshiradi va xato bajargan qismini o‘qituvchiga aytadi.

Javoblar: *noqulay, befoyda/foydasiz, beodob/odobsiz, bexato/xatosiz, notekis.*

2. Quyidagi uskunalar bizga nimalarda yordam bera olishini yozing. O‘z fikringizni ikki-uch gapda ifodalang.

Berilgan 5 uskunaning bizga qanday yordam bera olishi haqida gap tuzish kerak bo‘ladi. Eng birinchi navbatda o‘quvchilardan bularning nomini aytish so‘raladi. Hammasining nomi aniq bo‘lgach, yozishga kirishish mumkin. Yozib bo‘lgach, hamma bittadan gap o‘qiydi, sinfdagi qolgan o‘quvchilar uning bu gapi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aytadi.

Muhokama

Leksikologiya

Quyidagi so‘zlarni ikki ustunga ajratib yozing.

aqlli	virtual	noutbuk
robot	ko‘zoynak	klaviatura
kir	smartfon	tekis
sichqoncha	xotira	elektromobil

O‘zbekcha so‘zlar	Chet tilidan kirib kelgan so‘zlar

Ushbu topshiriq xattaxtada bajarilgani ma’qul. O‘qituvchi xattaxtada ikki ustun chizadi va o‘quvchilarning javobiga qarab so‘zlarni shu ustunlarga taqsimlab chiqadi. O‘quvchilarga dastlab o‘z fikrini aytishga imkon beriladi. Xattaxtaga yozishdan oldin o‘qituvchi to‘g‘ri javobni aytadi. Javoblar:

O‘zbekcha so‘zlar	Chet tilidan kirib kelgan so‘zlar
aqlli	virtual
kir	noutbuk
tekis	smartfon
ko‘zoynak	robot
sichqoncha	klaviatura
xotira	elektromobil

SO‘ZDAN SO‘ZNING FARQI BOR

(8+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarda talaffuzi yaqin so‘zlar hamda so‘zlarning etimologiyasi haqida tasavvurlarni kengaytirish. Talaffuzi o‘xshash so‘zlarni kontekstga moslab ishlatish, shaxsiy xat turlaridan biri bo‘lgan rahmat xati yozish, xatda punktuatsion belgilarni to‘g‘ri qo‘llash, matn asosida qoida yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirishib olish uchun o‘quvchilar bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Unda o‘quvchilarga quyidagi savol beriladi:

• *Bir-biriga o‘xshab talaffuz qilinadigan so‘zlarni bilasizmi?*

Savol umumiy tarzda beriladi va istagan o‘quvchi javob berishi mumkin.

Asosiy qism

Og‘zaki/yozma nutq. Talaffuz va imlo

1. Darslikning 36-betida 6 ta rasm berilgan. O‘quvchilar shu rasmda tasvirlangan narsalarni avval ovoz chiqarib talaffuz qilishi, keyin esa ularni yozishi kerak bo‘ladi.

Birinchi ustun: shox, shoh.

Ikkinchi ustun: kartochka, kartoshka.

Uchinchi ustun: tort, to‘rt.

Lingvistik bilim

1-topshiriq bajarilgach, o‘quvchilarga paronim so‘zlar haqida dastlabki ma’lumotlar beriladi. O‘quvchilar bu qoidani yodlashi emas, o‘rganishi kerak. Ular qo‘shimcha nima ekanligi, beva no- qo‘shimchalari qanday vazifa bajarishi haqida tasavvurlarini boyitishi lozim. O‘qituvchi qoida matnida berilgan misoldan tashqari yana bir necha misol keltirishi va o‘quvchilardan ham misol aytishni so‘rashi mumkin.

Yozma nutq

2. Darslikda o‘quvchilarga xato yozadigan muxbir tomonidan yozilgan gaplar berilgan. O‘quvchilar ana shu gaplardagi xato yozilgan so‘zlarni aniqlashi va to‘g‘risiga almashtirib ko‘chirishi lozim bo‘ladi.

21-**asr** texnika va texnologiyalar rivojlangan davr bo‘lmoqda. O‘tgan 22 yil vaqt ichida insoniyat aqlga sig‘dirish qiyin bo‘lgan ixtirolarni amalga oshirdi.

Kavkaz xalqlarida sharbatni ho‘kizning **shox**ini eslatuvchi idishga quyib ichish odati bor.

Qadimda podshohlarning farzandlariga **dars** beruvchi muallimlar saroyda yashashgan. Muallimlarning hurmati juda baland.

Ovqat pishirish uchun **yog‘**ni qozonga quyib, yaxshilab qizitib olish kerak bo‘ladi.

Karim qo‘y-qo‘zilarga jo‘xori poyalarini **jodi** bilan maydalab beradi. Shunday qilinmasa, ular yeyishga juda qiynalib qolishi mumkin.

Endi odamlarning ish haqlari qog‘oz pullar bilan emas, plastik **kartochka**larda beriladigan bo‘ldi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *So‘zda bitta harf o‘zgarsa, nimalar sodir bo‘ladi deb o‘ylaysiz?*

• *Bitta harf bilan farq qiladigan so‘zlarga misol ayting.*

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Bo‘ling harfga hurmatda” she’ri asosida

O‘qituvchi dastlab she’rni ifodali va ravon o‘qib beradi. Shundan keyin o‘quvchilarga ichlarida o‘qib olishlari uchun vaqt beriladi. Vaqt o‘tgach, ular navbati bilan she’rni ovoz chiqarib o‘qib berishi kerak bo‘ladi. Shundan so‘nggina she’r matni asosidagi savol-javoblarga o‘tish mumkin.

Yozma mashq

3. O‘quvchilar *kir, sho‘r, kuz, tor, zor* so‘zlaridagi bitta harf/tovushni o‘zgaritirib yangi so‘z yasashlari kerak bo‘ladi. Bunda har bir so‘zdan kamida yana ikkita so‘z yasash mumkinligi nazardan chetda qoldirilmasligi lozim. Taxminiy javoblar: *kir – kar, ko‘r; sho‘r – zo‘r, to‘r; kuz – yuz, muz; tor – bor, qor; zor – xor, nor.*

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

- *Xiyonat qilish deganda nimani tushunasiz?*
- *Do‘st qanday bo‘ladi?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Qirq qurbaqa” ertagi asosida

Darslikda “Qirq qurbaqa” matni berilgan. Bu matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar mavjud. O‘quvchilar ular ichidan matn mavzusiga mos keladiganini topib, matnni o‘qishi kerak bo‘ladi. Javoblar: *bor, o‘tib, ostida, balo, bor, ko‘p, ham.*

Yozma nutq

4. O‘quvchilar ertakdagi voqealarni qisqa gaplarda ifodalab berishlari kerak. Masalan, *“Qurbaqalar birinchi majlisda o‘zlariga boshliq tayinlashdi”.* Darslikda o‘quvchilarga yordam bo‘lishi uchun 5 ta gap berilgan. O‘quvchilar ana shu 5 ta gapni davom ettirishlari yetarli. Ushbu topshiriqni avval og‘zaki, keyin yozma bajarish maqsadga muvofiq.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

- *So‘zning shirini va achchig‘i bo‘lishi mumkinmi?*
- *Shirin so‘z va achchiq so‘zning qanday farqlari bor?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Shirin so‘z – jon ozig‘i” matni asosida

Darslikda “Shirin so‘z – jon ozig‘i” rivoyati berilgan. O‘quvchilar rivoyatni ichlarida o‘qishlari aytiladi. Ma’lum vaqtdan so‘ng matnosti savollari asosida muhokama o‘tkaziladi.

Ushbu matn orqali o‘quvchilar xulosa chiqarishlari, o‘z xulosalarini og‘zaki bayon qilishlari kerak bo‘ladi.

Yozma nutq

5. O‘quvchilar “Shirin so‘z – jon ozig‘i” rivoyati asosidagi xulosalarini og‘zaki bayon qilgan edi. Endi o‘sha xulosalarni yozma tarzda bayon qilishlari kerak bo‘ladi.

O‘qib tushunish

Maqollar asosida

Darslikda 6 ta maqol berilgan. Ushbu maqollarning umumiy mavzusi so‘z hisoblanadi. O‘quvchilar mana shu maqollarning ma’nosi borasida munozara qilishlari lozim, munozarani maqollar ostida berilgan savollar bilan kerakli o‘zanga burib turish mumkin.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

- *Biror so‘zning paydo bo‘lish tarixi haqida eshitganmisiz?*
- *So‘zlar qanday paydo bo‘ladi deb o‘ylaysiz?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Adash dedim, adashdim” matni asosida

O‘qituvchi matnni bir marta o‘qib beradi. Shundan so‘ng o‘quvchilarda qanday savollar borligini so‘raydi. Savollarga javob bergach, o‘quvchilar navbati bilan matnni o‘qiydi. Matn o‘qib bo‘lingach, savollar asosidagi muhokamaga o‘tish mumkin.

1. “Birov bilsa, birov bilmaydi”, deganda nima nazarda tutilmoqda?

Kimdir bilishi mumkin, kimdir bilmasligi mumkin, ya’ni hamma ham buni bilmaydi degan ma’noda.

2. “Qir” so‘zi bilan bog‘liq yana qanday ma’noni bilasiz?

“Qir” degan boshqa so‘z ham bor, u biror narsani qirib, tozalash ma’nosini beradi.

3. Turp so‘zi ilgari qanday bo‘lgan?

Turb.

4. O‘tli yer qanday bo‘ladi? -li qo‘shimchasi so‘zga qanday ma’no yuklashi haqidagi qoidani eslang.

O‘t o‘sgan, o‘ti bor yer o‘tli yer bo‘ladi.

Yozma nutq

6. Darslikda *sinfdosh, partadosh* va *yo‘ldosh* so‘zlari berilgan. O‘quvchilar mana shu so‘zlarni namunadagi kabi izohlashi kerak bo‘ladi. Namuna: otdosh – oti, ismi bir xil odamlar.

Javoblar: *sinfdosh – bir sinfda o‘qiydigan, odam; partadosh – maktab payti bir partada o‘tiradigan odamlar; yo‘ldosh – biror manzilga birgalikda ketayotgan odam.* Ushbu topshiriq o‘quvchilarning -dosh qo‘shimchasi borasidagi bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

7. Quyidagi so‘zlardan qaysilariga -loq qo‘shimchasini, qaysilariga -zor qo‘shimchasini qo‘shish mumkin? Yozing.

Ushbu topshiriqda o‘quvchilarning -loq hamda -zor qo‘shimchalari borasidagi bilimlari mustahkamlanadi.

Javoblar:

qumloq, o‘rikzor, toshloq, olmazor, bedazor, paxtazor, gulzor, o‘tloq.

8. O‘quvchilar shu paytgacha juda ko‘p qoidalar bilan tanishdilar, ularni tahlil qildilar. Endi o‘zlari ham qoida yaratib ko‘radilar. Bu topshiriq “Adash dedim, adashdim” matni asosida bajariladi. O‘quvchilar matnning -loq qo‘shimchasi qo‘shilgan so‘zlar qismini qayta o‘qiydilar hamda o‘zlari shu qo‘shimcha haqida qoida yaratishga harakat qilishadi. O‘qituvchi quyidagi savollar orqali ularni yo‘naltirib turishi mumkin:

1. *-loq qo‘shimachasi qanday qo‘shimcha? So‘zga qaysi tomondan qo‘shiladi?*

2. *-loq qo‘shimchasi so‘zga qo‘shilganda uning ma’nosi qanday o‘zgaradi?*

3. *Qoidaga mos biror misol ayting.*

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savolni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Siz uyqudan turganda ota-onangizga nima deysiz?*

• *Sizga birortasi yaxshilik qilsa, nima deyish kerakligini bilasizmi?*

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“Nima degan ma’qul?” audiomatni asosida

O‘quvchilarga audiomatn qo‘yib eshittiriladi. Matnda qoidalar berilgani bois uni ikki marta eshittirish mumkin. Shundan so‘ng o‘quvchilar darslikda berilgan rasmlardagi holatlarda nimalar deyish ma’qul ekanligi haqida muhokamaga kirishadi. Audiomatn asosida javob berishadi. Bunda o‘quvchilar audiomatndagi gapni aynan takrorlab berishlari shart emas, mazmunni ifodalay olsalar yetarli.

O‘qituvchi yaxshi gapirish, shirin gapirish kishiga doim foyda keltirishi haqida aytadi. O‘rgangan ma’lumotlarini, albatta, uyga borib sinab ko‘rish kerakligini maslahat beradi. Masalan, ular ovqat yeyishdan oldin hammaga yoqimli ishtaha tilashi, ovqatlanib bo‘lgach esa, shukr aytib, ovqat pishirgan odamga rahmat deyishi mumkin.

O‘quvchilar shunday qilganlarida uydagilarning qanday munosabat bildirgani haqida keyingi darsda so‘zlab berishlari mumkin.

Leksikologiya

O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linishlari kerak bo‘ladi. Ikki guruh bir-biriga turli vaziyatlarni aytadi, shu vaziyatlarda nima deyish ma’qul ekanini so‘raydi. Narigi guruh javob beradi. Savol berish navbat asosida bo‘ladi.

7-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savolni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Insonlar nima uchun bir-birlariga xat yozishadi?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchiga yozilgan xat asosida

Ushbu darsga oldindan tayyorgarlik ko‘rish lozim. Ya’ni shu soat o‘tkazilishidan bir kun oldin o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga xat yozib berishi kerak bo‘ladi. Unda turli mavzular qamrab olinishi zarur, kimgadir nasihat qilingan bo‘lsa, kimgadir motivatsiya berish lozim. O‘quvchilar ana shu

xatni uylariga olib ketib o‘qishi kerak bo‘ladi. Mana shu dars yetib kelganda esa darslikdagi savollarga javob berishlari kerak bo‘ladi.

O‘qituvchi qat’iyan bu topshiriqni bajarishi lozim. Hamma o‘quvchilar albatta xat olishi kerak. Bu keyingi topshiriqlarni bajarishda qo‘shimcha kuch bo‘ladi.

Yozma nutq


Rahmat xati yozishni o‘rganamiz. O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi hamda ularning fikrini so‘raydi:

1. Rahmat xati nima uchun yoziladi deb o‘ylaysiz?

2. Kimlarga rahmat xati yozish mumkin?

Darslikda o‘quvchilar e’tiboriga Nozima ismli qizning ustoziga yozgan rahmat xati havola qilingan. O‘qituvchi ana shu xatni o‘qib berishi hamda uning qismlari haqida o‘quvchilarga kengroq tushuncha berishi lozim. Har bir qismda nimalar aks etishi mumkinligi haqida batafsil so‘zlab berishi kerak bo‘ladi. O‘quvchilarga savollar berish ham mumkin. O‘quvchilar ham o‘z navbatida xat shakli borasidagi savollari bilan murojaat qilishlari mumkin. Ushbu dars soati o‘quvchilar keyingi soatda yoziladigan rahmat xatiga tayyorgarlik ko‘rish vazifasini o‘taydi, shuning uchun o‘quvchilarga ushbu xat turi haqida ko‘proq ma’lumot yetkazish zarur.

Rahmat xatlari odatda biror kishining qilgan yaxshiligi uchun rahmat aytish maqsadida yoziladi. Xat yozish odati o‘zbek madaniyatida ancha kamayib ketgan bo‘lib, ko‘pchilik xatning tarkibiy qismlari haqida ma’lumotga ega emas. Egasining o‘z qo‘li bilan yozilgan xat uni o‘qiyotgan odamga yoqimli bo‘ladi. Xat yozgan odamga nisbatan mehri ortadi, bu o‘zaro munosabatlar yaxshilanishiga olib keladi. Rahmat xatlarini bola ota-onasiga, o‘qituvchisiga, do‘stiga yozishi mumkin.



8-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

- *Rahmat xati yozishga tayyormisiz?*
- *Sizdan rahmat xati olishga eng loyiq odam kim deb o‘ylaysizlar?*

Asosiy qism

Yozma nutq

9. Ushbu dars davomida o‘quvchilar o‘z ota-onasiga yoki ulardan biriga rahmat xati yozishi

kerak bo‘ladi. Birinchi navbatda rahmat xatining shakli yana bir esga olinadi. Shundan so‘ng hamma xat yozishga kirishadi. O‘qituvchi ba’zi xatlarni o‘qib, kamchiliklarini aytishi mumkin. O‘quvchilarga o‘z xatlarini turli rasmlar, chizmalar, bezaklar bilan bezash mumkinligi tushuntiriladi.

O‘quvchilar darsda yozgan xatlarini o‘zi bilan olib ketadi. Uyga olib borib, xat kimga yozilgan bo‘lsa, o‘sha odamga berishlari kerak bo‘ladi. O‘qituvchi ota-onalardan xatdan olgan taassurotlarini turli usullarda (maktabga kelib, qo‘ng‘iroq qilib, ijtimoiy tarmoqlar, telegram, elektron pochta orqali) o‘qituvchiga yetkazishlarini so‘rashi mumkin, Bu topshiriq maktab hamda ota-ona munosabatlarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

MUSTAHKAMLASH

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savolni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

- *Talaffuzi o‘xshash, lekin har xil ma’no anglatadigan so‘zlardan bilasizmi?*

Asosiy qism

Og‘zaki/yozma nutq

1. Rasmda nimalar tasvirlangan? Ulardan qaysi birlarining talaffuzi o‘xshash? Shunday so‘zlarni daftaringizga yonma-yon yozing.

Dastlab o‘quvchilar rasmdagi narsalarning nomini aytishi kerak bo‘ladi.








Shundan keyin qaysi so‘zlarning talaffuzi o‘xshash ekanini topib, ularni yonma-yon yozishlari kerak. Javoblar: *bak – barg; dars – darz; kartoshka – kartochka.*

Og‘zaki nutq

2. Quyidagi gaplar qanday vaziyatda ishlatiladi? Suhbat uyushtiring.

Omadingizni bersin!
Yaxshi kunlarga kiying!
Xush kelibsiz!
Yo‘lingiz bexatar bo‘lsin!
Ovqatingiz shirin bo‘libdi, rahmat!
Tezroq sog‘ayib keting!
Assalomu alaykum!
Va alaykum assalom!

Darslikda berilgan gaplarni qaysi vaziyatlarda ishlatish mumkinligi to‘g‘risida suhbat uyushtiriladi. Hamma o‘z variantini aytishi mumkin. Gaplar “So‘zdan so‘zning farqi” bor mavzusidagi audiomatndan olingan.

Yozma mashq

3. Quyidagi so‘zlarni ikki ustunga ajratib yozing. Bitta so‘z ortiqcha.

shaftoli gul qum olma jo‘xori o‘t

bug‘doy maktab banan suv tosh

-loq qo‘shimchasini qo‘shsa bo‘ladi	-zor qo‘shimchasini qo‘shsa bo‘ladi

O‘quvchilar qaysi so‘zga -loq, qaysi so‘zga -zor qo‘shish mumkinligidan kelib chiqib so‘zlarni ikkiga ajratib chiqishlari kerak bo‘ladi. So‘zlar orasida bittasiga har ikkala qo‘shimchani ham qo‘shib bo‘lmaydi, o‘quvchilar shunga e’tibor qilishlari lozim. Javoblar:

-loq qo‘shimchasini qo‘shsa bo‘ladi	-zor qo‘shimchasini qo‘shsa bo‘ladi
qum	shaftoli
o‘t	gul
suv	olma
tosh	jo‘xori
	bug‘doy
	banan

ISM QANDAY QO‘YILADI?

(8+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: ism qo‘yish jarayoni, ismlarning ma’nosi, ism tanlash bilan bog‘liq tasavvurlarni kengaytirish, ushbu jarayonda faol qo‘llanadigan til birliklaridan foydalanishga o‘rgatish, berilgan mashq va topshiriqlar yordamida og‘zaki, yozma, o‘qib va tinglab tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. O‘quvchilarga “Ism qanday qo‘yiladi?” deb murojaat qilinadi. O‘quvchilar bilan shu mavzuda og‘zaki suhbat olib boriladi. Ayrim o‘quvchilar o‘zlarining ismini kim qo‘ygani, u qanday ma’noni anglatishi haqida gapirib berishi mumkin.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

O‘quvchilarning e’tibori darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi. O‘quvchilar rasmlarni diqqat bilan kuzatadilar. O‘qituvchi rasmlarni kuzatish davomida hozir berilishi kutilayotgan savollarning umumiy mazmuni haqida gapiradi. Bunda o‘quvchilar ushbu savollarga javob berish uchun rasmdagi shaxslar haqida qanday ma’lumotlarni yodga olish kerakligini tushunib oladilar hamda suhbatga tayyorlanadilar.

1. 1-rasmda kim tasvirlangan? Ushbu tarixiy shaxs haqida nimalarni bilasiz?

O‘quvchilar rasmda tasvirlangan shaxs kimligini aniqlaydilar. Bir nechta o‘quvchi ushbu shaxs haqida o‘z bilganlarini gapirib beradi.

2. 2-rasmdagi tarixiy shaxs kim va u nima bilan shug‘ullangan?

Ikkinchi rasmdagi shaxsning nomi aytiladi, ushbu nomni qayerlarda eshitganliklari haqida ham qo‘shimcha savol berish mumkin. Rasmda berilgan shaxsning qanday ishlar bilan shug‘ullanganligi haqida so‘raladi.

3. 3-rasm bilan bog‘liq qanday ma’lumotlarni bilasiz?

Rasmda berilgan shaxsning nomi aytiladi, u haqidagi ma’lumotlar yodga olinadi.

4. 4-rasmda kim tasvirlangan? Bilgan ma’lumotlaringizni ayting.

Rasmda berilgan shaxs nomi aytiladi, o‘quvchilar u haqida bilganlarini gapirib beradilar.

5. Ayting-chi, rasmda tasvirlangan bobolarimizning ham ism, ham taxalluslari bo‘lganmi? Qanday?

O‘qituvchi ushbu savolga javobni so‘rashdan oldin taxallus nima ekanini tushuntiradi. Rasmdagi shaxslardan biri misolida ism va taxallusga misol keltirishi mumkin. Taxallus nima uchun kerakligi, u qanday tanlanishi haqida qisqacha ma’lumot beradi.

6. O‘ylab ko‘ring-chi, siz o‘zingizga qanday taxallus tanlagan bo‘lar edingiz? Nima uchun?

Taxallus haqidagi dastlabki tushunchalar bilan tanishgan o‘quvchilar o‘zlari uchun qanday taxallus qo‘yishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘radilar. O‘quvchilar o‘zlariga taxallus tanlashda qiynalmasliklari uchun o‘qituvchi taxallusning hozirgi kundagi ko‘rinishlariga ham misollar keltirishi, bundan tashqari, ular nimaga asoslanib tanlanganini misollar asosida tushuntirib berishi kerak. Shunda o‘quvchilar ham o‘zlariga taxallus tanlab, u nimaga asoslanganini tushuntirib berishga harakat qiladilar.

Yozma nutq. Imlo

1. Tarixiy shaxslarning ism hamda taxalluslarini yozing. Imlo qoidalariga rioya qiling.

Bu topshiriqni bajarish jarayonida o‘qituvchi kimlarning taxallusi (shoir, yozuvchi, rassom, olim) mavjudligini eslatadi, agar o‘quvchilar tarixiy shaxslarning taxalluslarini yozishga qiynalsalar, ularning ayrimlarining rasmlarini namoyish etish orqali ularga yordam berish mumkin.

2. Berilgan ma’lumotlarni o‘qing. Tarixiy shaxslarga tegishli ma’lumotlarni aniqlab, yozing. Bosh harflar imlosiga e’tiborli bo‘ling.

O‘quvchilardan darslikda berilgan ma’lumotlarni yuqorida berilgan rasmlar bilan o‘zaro bog‘lash talab etiladi. Ular ma’lumotlarni tarixiy shaxslar bilan bog‘laganidan so‘ng daftarlariga yozib oladilar. Ma’lumotlarni yozish jarayonida atoqli otlar qanday yozilishi haqidagi qoida eslatiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur. U adib, shoir, olim bo‘lishi bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir.

Alisher Navoiy. U o‘zbek adabiyotining eng yorqin namoyandasi, so‘z mulkining sultonidir.

Amir Temur. Uning uzugiga “Kuch adolatda” so‘zlari o‘yib yozilgan va davlat muhrida ham aks etgan edi.

Mirzo Ulug‘bek. U misli ko‘rilmagan aniqlik bilan quyosh yilining uzunligi 365 kun, 6 soat, 10 minut, 8 sekund ekanini hisoblay oldi, bunda xatolik bir daqiqadan kam vaqtni tashkil etdi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi o‘tilgan darsdagi ma’lumotlarni yodga oladi.

Taxallus nima?

Mashhur insonlarning taxalluslarini bilasizmi?

Ushbu savollar yordamida o‘tilgan mavzular mustahkamlanadi.

Shundan so‘ng o‘quvchilarga **“Ism nima?”** deya murojaat qilinadi. O‘quvchilarning fikr-mulohazalari tinglanadi. Ular berayotgan javobga munosabat bildirilmaydi.

Asosiy qism

Tinglab tushunish

O‘quvchilar audiomatnni tinglash jarayoniga tayyorlanadi. Muhim deb hisoblangan o‘rinlarni qayd etib borish so‘raladi.

1. Ayting-chi, ism qo‘yishda nimaga e’tibor berish kerak?

O‘quvchilar berilgan savolga javob berishda turli fikrlarni aytishi mumkin. O‘qituvchi berilayotgan javoblarning audiomatndagi ma’lumotlarga asoslanganiga, ular bilan bog‘liqligiga e’tibor qaratadi.

2. Odatda chaqaloqqa ismni kim qo‘yadi? Sizning ismingizni kim qo‘ygan?

Ushbu savolga javob berishda avval matnda berilgan ma’lumotlarga asoslaniladi, shundan so‘ng o‘quvchilar ham o‘z ismlarini kim qo‘yganligi haqida gapirib berishlari kerak. Ayrim o‘quvchilarda ism tanlash jarayoni matnda berilgan ma’lumotlarga mos kelmasligi mumkin, bunday holatda ushbu jarayon haqida qo‘shimcha savollar bilan murojaat qilinadi, ya’ni ayrim bolalarning ismlari biror voqea-hodisa bilan bog‘liq bo‘lsa, mana shu voqea-hodisalar haqida gapirib berish so‘raladi.

3. Ismga qarab nimalarni aniqlash mumkin?

O‘quvchilar har bir ismning o‘ziga yarasha ma’nosi borligini tushunib olishlari kerak. Ism tanlashda nimalarni e’tiborga olish kerakligi haqida ma’lumot bera olishlari muhim hisoblanadi.

4. Bolaga ism qo‘yish marosimi haqida gapiring.

O‘quvchilardan avval matnda berilgan ma’lumotlar asosida javob berish so‘raladi. Matnda berilgan ma’lumotlar asosidagi javoblar tinglab bo‘lingach, o‘quvchilar ushbu jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy taassurotlarini gapirib berishlariga ruxsat beriladi.

5. Tug‘ilganlik guvohnomasida nimalar yoziladi?

Tug‘ilganlik guvohnomasi, uning nima uchun kerakligi haqidagi ma’lumotlar aytiladi. Shundan so‘ng ushbu guvohnomada qanday ma’lumotlar aks etganligi haqida so‘raladi.

6. Ismingizning ma’nosini bilasizmi? Aytib bering.

Har bir o‘quvchi o‘z ismining ma’nosi haqida o‘ylab ko‘radi, bu haqida gapirib beradi. O‘qituvchi ushbu jarayonda ularga so‘z tanlashda yordam beradi. Qanday birliklardan foydalanish kerakligini tavsiya qiladi.

Yozma nutq. Leksikologiya. Morfologiya

3. Matndan olingan ushbu so‘zlarning ma’nodoshlarini topib, yozing.

Matn tarkibida qo‘llangan so‘zlarning ma’nodoshlarini topib, yozish so‘ralgan. O‘qituvchi mashqni bajarishga kirishishdan oldin o‘quvchilar yordamida ma’nodosh so‘z haqidagi bilimlarni yodga oladi. Namuna asosida topshiriqni bajarish jarayonini tushuntiradi.

Keksa – qari, nuroniy.

Orzu – istak, niyat, xohish.

Davlat – boylik, xazina.

Odam – inson, shaxs, kishi.

Bola – farzand.

2. Berilgan gaplarni kerakli so‘zlar bilan to‘ldiring. Ushbu so‘zlarning so‘roqlarini aniqlang.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida berilgan bo‘lib, o‘qituvchi gaplarni tinglangan audiomatndagi ma’lumotlar asosida to‘ldirish kerakligini aytishi lozim.

1. Odatda chaqaloqqa ismni keksalar qo‘yadi.

2. Ota-onalar farzandlari kelajakda ilmli bo‘lishini orzu qilayotgan bo‘lsa, unga Olim, Olima deb ism qo‘yishlari mumkin.

3. Xalqimizda bolaga ism qo‘yish uchun oilalarda kichik marosim o‘tkaziladi.

4. Tug‘ilganlik guvohnomasi olingach, bola rasman O‘zbekiston Respublikasi fuqarosiga aylanadi.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi o‘tilayotgan darslar qaysi nutqiy mavzu doirasida ekanini eslatib o‘tadi. O‘z ismlarining ma’nosini oldingi darsda aytib bera olmagan ayrim o‘quvchilardan ismlarining ma’nosini aytib berishni so‘rashi mumkin.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan matnga e’tibor qaratiladi. Matnni to‘liq o‘qib chiqish uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Shundan so‘ng ayrim o‘quvchilar ishtirokida matn qayta o‘qitiladi. Matnni o‘qish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar talaffuzida uchragan kamchiliklarni o‘ziga qayd etib boradi. Matn o‘qib bo‘lingach, ushbu kamchiliklar ustida ishlanadi.

1. Ism qo‘yish marosimi qayerda o‘tkazilyapti va unda kimlar ishtirok etyapti?

Ushbu savol o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini sinovdan o‘tkazishga qaratilgan. O‘quvchilar matn boshida berilgan ma’lumotlarga e’tiborni qaratgan holda ushbu savolga javob berishlari mumkin.

2. Bolani nima uchun Zahiriddin Muhammad Bobur deb atashdi?

O‘quvchilar avval bolaga nima uchun Zahiriddin Muhammad ismi tanlanganini aytishadi, Bobur ismi qo‘shimcha qilinganligining sababini izohlaydilar. O‘qituvchi qo‘shimcha ma’lumot sifatida Zahiriddin va Muhammad ismlari qanday ma’noni anglatishi, kimlarga shunday ismlar qo‘yilganligi haqidagi ma’lumotlarni aytib o‘tishi mumkin.

3. Bola uchun qilingan duolarni qayta o‘qing. Mazmunini izohlang.

O‘quvchilar matnda berilgan duolarni qayta o‘qib chiqadilar. Shundan so‘ng ushbu tilaklarni izohlashga urinadilar. O‘quvchilar o‘zlari eshitgan duolar haqida qisqacha gapirib berishlari ham mumkin.

4. Matnga qanday sarlavha qo‘yish mumkin deb o‘ylaysiz? Matnda qanday qavm-qarindoshlik so‘zlarini uchratdingiz?

O‘quvchilar berilgan matn uchun sarlavha tanlaydi. O‘qituvchi sarlavha tanlashda nimalarga e’tibor berish zarurligini eslatadi. Sarlavhalar qanday tanlanishi kerakligi bo‘yicha kichik tavsiyalar beradi.

Yozma mashq. Leksikologiya

1. Berilgan so‘zlarni izohi bilan moslab ko‘chiring.

Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilar matn tarkibida uchragan ayrim so‘zlarning izohini aniqlashga harakat qiladilar. Ushbu so‘zlarning izohini aniqlashga qiynalayotgan o‘quvchilarga so‘zlar ma’nosini aniqlashda ularning matnda kelgan o‘rinlari yordam berishi mumkinligi eslatiladi.

Xosxona – insonning o‘zigina foydalanadigan uy.

Nuridiyda – ko‘z nuri, sevikli farzand.

Guvranmoq – noaniq ovoz chiqarish, g‘o‘ldirash.

Shariat peshvolari – shariat qonun-qoidalarini mukammal biladigan kishilar.

Kanizak – saroydagi xizmatchi ayol.

6. Quyidagi so‘z va jumlalarni daftaringizga namunadagidek yozing.

O‘quvchilar ushbu topshiriqni bajarish orqali so‘z va qo‘shimchalarning tarixiy shakllari qanday ifodalanishi, uning bugungi kundagi muqobili haqidagi ma’lumotlar bilan tanishadilar.

Ayting-chi, matnda uchragan ismlar bugungi kundagi ismlardan farq qiladimi? Javobingizni izohlang.

Ushbu savolga javob berish asnosida o‘quvchilar zamonaviy ismlar, ularning ma’nolari haqida, tarixiy ismlarning ma’nolari, shohlar, ulug‘ insonlarning farzandlariga ism tanlashda nimalarga e’tibor berilishi (mirzo, xoja, xon, xonim) haqida suhbat olib boradilar.

Tug‘ilibdur – tug‘ilibdi.

Ismi ne bo‘ldi? – Ismi nima bo‘ldi?

Bo‘lg‘usidir – bo‘ladi.

Ismlar, ularni tanlash, bugungi kunda urf bo‘lgan ismlar haqida suhbat olib boriladi. Ism tanlashda nimalarga e’tiborli bo‘lish kerakligi so‘raladi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi ushbu darsda Alpomish haqidagi ertak bilan tanishishni aytadi. O‘quvchilardan

Alpomish nomini qayerlarda uchratganlarini, u haqida nimalarni bilishlarini so‘raydi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

O‘qituvchi o‘quvchilarni o‘qish jarayoniga hozirlaydi. Matn bir necha marta o‘qitiladi. Talaffuzi va yozilishida tavofut bo‘lgan so‘zlarni talaffuz qilish bo‘yicha ayrim ko‘rsatmalar beriladi.

1. Boybo‘ri va Boysarining xonadonidagi xursandchilikning sababi nima?

Savolga javob berish uchun o‘quvchilar matnda ushbu tushuncha bilan bog‘liq bo‘lgan jumlani aniqlaydi. Matnda berilgan ma’lumot asosida savolga javob beradilar.

2. Ayting-chi, bolalarni necha yoshdan o‘qishga berishibdi? Sizningcha, bu erta emasmi?

O‘quvchilar matnda ochiq holatda berilgan ma’lumotni aytishadi. Shundan so‘ng ushbu holatga nisbatan shaxsiy munosabatlarini ifodalaydi. Aytilayotgan fikrlar izohlanishi lozim. O‘qituvchi tarixda juda erta madrasaga borib, ilm o‘rgangan mashhur insonlar (Navoiy, Buxoriy) haqidagi qo‘shimcha ma’lumotlarni eslatish orqali bolalarda ilm olishga bo‘lgan qiziqishni rivojlantiradi.

3. Hakimbekni qanday ustozga berishibdi? Nima uchun?

O‘quvchilar matnda uchratgan ma’lumotlarini aytib beradilar. Berilgan ma’lumotni izohlash uchun matndagi ma’lumotlardan foydalana olishlariga e’tibor qaratiladi.

4. Hakimbekning ovozasi yoyilishiga nima sabab bo‘ldi?

Savolga javob berishdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilardan “ovozasi yoyilish” iborasining ma’nosini izohlashni so‘raydi. Shundan so‘ng o‘quvchilardan Hakimbekning ovozasi qanday qilib olamga yoyilganini, ya’ni voqea-hodisalarning ro‘y berish sabablarini aytib berish so‘raladi.

5. Nima uchun Hakimbekni Alpomish deb atashdi?

O‘quvchilar Alpomish ismining tanlanishi bilan bog‘liq izohlarni beradilar. Hakimbekning nechta ismi borligi, qaysi ism uning haqiqiy ismi ekanligi, qaysi biri unga xalq tomonidan qo‘yilganligini so‘raydi.

6. Siz qanday qahramonlik ko‘rsatishni xohlardingiz?

Xalq orasida yaxshi nom chiqarish haqida suhbat quriladi. O‘quvchilarda qahramonlik qilish, shu orqali o‘z nomlarini butun olamga yoyishga ishtiyoq uyg‘otish uchun qo‘shimcha savollar beriladi, mashhur shaxslar misolida suhbat olib boriladi.

Yozma mashq. Imlo. Leksikologiya

7. Matndan joy nomlari va kishilarning ismlarini topib, yozing.

O‘quvchilar joy nomlarini va kishilarning ismlarini aniqlab yozadilar. O‘qituvchi bunday nomlar atoqli ot ekanini, ularning imlosi bilan bog‘liq qoidalarni eslatadi.

8. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohini moslashtirib yozing.

Ushbu topshiriq matn tarkibida uchraydigan izoh talab qilinadigan so‘zlarning ma’nolarini aniqlashtirib olishga qaratilgan. O‘quvchilar so‘zlarga berilgan izohlarni matn mazmuni bilan bog‘lagan holda aniqlashga harakat qiladilar, ularni izohlari bilan birgalikda daftarlariga yozib oladilar.

Yashin – chaqmoq.
Yoy – urush va ov quroli.
Mergan – bexato otuvchi odam.
Sipohlik – askarlik.
Botmon – og‘irlik o‘lchovi.
Alp – jasur, qahramon jangchi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘tilgan darsda o‘rganilgan matn haqida qisqa suhbat olib boriladi.

Ayrim o‘quvchilar ushbu matnni qayta so‘zlab beradilar. Qayta so‘zlash jarayonida imkon qadar matndagi o‘tilgan darsda izohlangan so‘zlardan ham foydalanishga e’tibor qaratadi. Kalit so‘z sifatida ayrim so‘zlarni xattaxtaga yozib qo‘yish mumkin.

Asosiy qism

Yozma mashq. Leksikologiya. Morfologiya

1. Quyidagi so‘zlarni namunadagidek tahlil qiling.

So‘zlar	So‘rog‘i	Ma’nodoshi	Zid ma’nosi
mashhur	qanday?	taniqli	tanilmagan
baland	qanday?	tepa	past
savodli	qanday?	ziyoli	omi, savodsiz
donish-mand	qanday?	dono	nodon

Berilgan so‘zlarga so‘roq berish, uning ma’nodoshi va qarama-qarshi ma’nosini aniqlash bilan bog‘liq grammatik bilimlar rivojlantiriladi. Agar sinfda ushbu topshiriqni bajarishga qiziqish uyg‘onsa, boshqa so‘zlar misolida og‘zaki ravishda ushbu topshiriqni davom ettirish ham mumkin.

10. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning so‘roqlarini aniqlang.

Namuna: *olamgir (qanday?) podshoh.*

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga so‘zlarga so‘roq berish uchun u birikib kelgan so‘z ham muhim ahamiyatga ega ekanini tushuntiradi. Shu orqali so‘zga so‘roq berish so‘raladi.

***Onani** (kimni?) qutlamoq.*
***Pahlavon** (qanday?) go‘dak.*
***Go‘dakning** (kimning?) jilmayishi.*
***Bahodir** (qanday?) og‘lon.*
***Ulug‘larning** (kimlarning?) ismi.*
***Baxtiyor** (qanday?) ona.*

11. Matndan “mashhur” so‘zi bilan ma’nodosh bo‘la oladigan iborani aniqlab, yozing.

O‘qituvchi ushbu so‘zning ma’nodoshini aniqlash uchun matnga qayta murojaat qilish kerakligini aytadi. O‘quvchilar matndagi “ovozasi olamga yoyilibdi” iborasi “mashhur” so‘zi bilan ma’nodosh bo‘la olishini aytishadi. Shu o‘rinda o‘qituvchi iboralarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning ahamiyati haqida ma’lumot berishi lozim.

Mashhur bo‘libdi – ovozasi olamga yoyilibdi.

Yozma nutq

12. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ma’nosi yaqin bo‘lgan so‘zlar bilan almashtiring va gaplarni ko‘chiring.

O‘quvchilar gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e’tibor qaratadilar, shundan so‘ng o‘qituvchi ushbu so‘zlarning yuqorida berilgan izohlarini yodga solishi lozim. O‘quvchilar ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni boshqa so‘zlar bilan almashtiradi, ulardan qaysi birini qo‘llash ma’qulligi haqida o‘ylab ko‘rish so‘raladi. O‘quvchilar o‘z javoblarini og‘zaki tushuntiradilar.

*1. Boybo‘ri o‘g‘liga shohlik, **sipohlik (askarlik, harbiylik)** ilmini o‘rgatmoqchi bo‘libdi.*

*2. Dunyoda bir kam to‘qson **alp (pahlavon, bahodir)** o‘tgan edi.*

*3. Yoyning o‘qi **yashin (chaqmoq)**dek bo‘lib ketibdi.*

*4. Hakimbekning yoyni ko‘targani haqidagi **ovoza olamga yoyilibdi (mashhur bo‘libdi)**.*

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, sizga eng yoqqan ism qaysi?

O‘qituvchi ushbu savol asosida suhbat tashkillashtiradi. Suhbat davomida o‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan ism haqida gapiradilar, tanlovlarining sababini tushuntirishga urinadilar. Shu o‘rinda ismning inson hayotidagi ahamiyati haqida ham suhbat olib borish mumkin.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

O‘quvchilar **“Qanday ism chiroyli?”** she’rini o‘qishga tayyorlanadilar. She’r bir necha marta o‘quvchilar tomonidan, zarurat sezilsa, o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi.

1. Sizningcha, she’rning 1-bandidagi “uyning tomi” bilan “bolaning nomi” o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

O‘qituvchi avval o‘quvchilarning fikrini tinglaydi. Ushbu so‘z qofiyadosh bo‘lgani uchun tanlanganini tushuntiradi. Bundan tashqari uy tomsiz bo‘lmaganidek, inson ham ismsiz bo‘lmasligini bog‘lab ketishi kerak.

2. Ayting-chi, ismda qanday dog‘ bo‘lishi mumkin?

O‘quvchilar she’rda berilgan “dog‘” so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llanganini, ismga qanday “dog‘” tushishi haqida suhbat olib boradilar. “Nomiga dog‘ tushirmoq” singari iboralar shu o‘rinda izohlanishi kerak.

3. Ism qachon chiroyli bo‘lar ekan?

Har bir insonga berilgan nom chiroyli ekanini, faqat ism chiroyli bo‘lishining o‘zi yetarlimasligi, yaxshi xulq va odob har bir insonning ziynati bo‘lishi kerakligi tushuntiriladi.

4. She’rni yod oling.

O‘quvchilarga she’rni yod olish uyga vazifa sifatida berilishi mumkin.

Yozma nutq. Sintaksis. So‘z yasalishi

13. She’rdagi ismlarni ko‘chirib oling. O‘zingizga yoqqan ismlar ishtirokida gap tuzib yozing.

She’r matnida berilgan ismlar ko‘chirib olinadi, atoqli otlarning imlosi o‘quvchilar yodiga solinadi. Gap tuzish jarayonida ham ushbu qoidalar eslatib turiladi.

14. *-li, -dor va -siz* qo‘shimchalari ishtirokida namunadagi kabi birikmalarni yozing. Har ikki so‘zga so‘roq bering.

*Namuna: ma’no**li** (qanday?) ism (nima?).*

O‘quvchilar namunadagidek berilgan so‘zlarga qo‘shimchalarni qo‘shishadi, so‘ng ularning so‘rog‘ini aniqlaydilar. Topshiriqni bajarish orqali so‘zlar qaysi qo‘shimchalar bilan qo‘shilib, yangi ma’nodagi so‘zni hosil qilishi mumkinligi, har bir so‘zning ma’lum qo‘shimchalarni qabul qilishi, qo‘shimcha qo‘shilgandan so‘ng yangi so‘z hosil bo‘lishi, so‘rog‘i ham o‘zgarishi haqida nazariy ma’lumot eslatiladi.

O‘qituvchi keyingi darsda tug‘ilganlik guvohnomasi haqida suhbat bo‘lib o‘tishi haqida o‘quvchilarni ogohlantiradi, har bir o‘quvchi tug‘ilganlik guvohnomasi bilan tanishib kelishi so‘raladi.

7-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘tilgan mavzular bo‘yicha qisqacha suhbat olib boriladi. O‘quvchilar o‘tilgan darslarda qanday ma’lumotlarga ega bo‘lganlari haqida gapirib beradilar.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

O‘quvchilarga tug‘ilganlik haqidagi guvohnomaning nusxasi ko‘rsatiladi. Uni yaxshilab kuzatish so‘raladi. Unda berilgan ma’lumotlar bilan tanishtiriladi. Ushbu guvohnomaning vazifasi, ahamiyati haqida suhbat olib boriladi.

Quyidagi tug‘ilganlik guvohnomasi namunasi bilan tanishing. “X” belgisi o‘rniga ma’lumotlaringizni qo‘yib ayting.

O‘quvchilar kerakli o‘rinlarni to‘ldirib, o‘z tug‘ilganlik guvohnomalarini yaratadilar. Ushbu topshiriqni bir nechta o‘quvchi bajaradi. Topshiriq bajarilayotganda o‘quvchilarning nutqi, talaffuzi kuzatiladi.

Yozma nutq

15. Tug‘ilganlik haqidagi guvohnomangiz asosida o‘zingizga tegishli ma’lumotlarni yozing.

O‘quvchilar yuqorida berilgan namuna asosida o‘z ma’lumotlarini yozadilar. Bunda berilgan namunadan foydalanish, ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lay olish, bosh harflar imlosiga rioya qilish talab etiladi. Bundan tashqari, o‘quvchilar har bir bandda so‘ralgan ma’lumotni to‘liq yozishga e’tibor qaratishi kerakligi tushuntiriladi, ularning ishlari nazorat qilib boriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zida saqlanadigan guvohnoma nusxalarini taqdim etishi, shu orqali topshiriqni to‘liq va aniq bajarishga yordam berishi tavsiya etiladi.

O‘qituvchi keyingi darsda har bir o‘quvchiga o‘z oila a’zolari ismlarining ma’nosini lug‘at yordamida aniqlab kelish topshirig‘ini beradi.

8-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Har bir o‘quvchi she’rni ifodali tarzda yoddan aytib berishga tayyorlanishi eslatiladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

“Kimning ismi chiroyli?” she’rini yoddan aytib bering.

O‘quvchilar she’rni imkon qadar ifodali tarzda aytib beradilar. O‘qituvchi ularning nutqini kuzatadi, aniqlangan kamchiliklarni har bir o‘quvchi she’rni yodlab berganidan so‘ng tushuntirishi lozim.

Yozma nutq

O‘zingiz hamda oila a’zolaringizning ismlari ma’nosini lug‘atdan foydalanib aniqlang. Matn ko‘rinishida yozing.

O‘qituvchi o‘quvchilarga oila a’zolari ismlarining ma’nosini matn ko‘rinishida yozish kerakligini tushuntiradi, ya’ni matndagi gaplar o‘zaro bog‘lanishi kerakligini aytadi, bir nechta boshlanmalar, namunalarni tavsiya etadi.

Dars so‘ngida ayrim o‘quvchilar o‘zlari tuzgan matnni o‘qib berishlari mumkin.

MUSTAHKAMLASH

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi bugungi darsning mustahkamlash darsi ekanini aytadi.

Asosiy qism

Ayting-chi, ismlar bilan bog‘liq qaysi matn sizga ko‘proq yoqdi? Qaysi jihatlari bilan?

O‘qituvchi nutqiy mavzu yuzasidan berilgan matnlarni o‘quvchilarning yodiga soladi. Ushbu matnlar yuzasidan suhbat olib boradi. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini izohlashga harakat qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilar mavzu doirasida qo‘llayotgan til birliklariga e’tibor qaratadi, ularga so‘z tanlashda yordam beradi. O‘qituvchi diqqatini o‘quvchilar nutqining izchil, ravon, ifodali ekaniga qaratadi, kamchiliklar ustida ishlanadi.

Yozma mashq

1. O‘qigan matnlaringizda uchragan ismlarni quyidagi tartibda yozib chiqing. Ismlarni nima uchun bunday tasniflaganingizni ayting.

Erkaklarga atab qo‘yilgan ismlar: Umarshayx Mirzo.
Ayollarga atab qo‘yilgan ismlar: Qutlug‘ Nigorxonim.

O‘quvchilar berilgan barcha matnlar ichidagi ismlarni guruhlarga ajratib, ularni daftarlariga imlo qoidalariga rioya qilgan holda ko‘chiradilar.

Yozma nutq

2. O‘qigan matnlaringizdan biri asosida kichik matn tuzib, yozing.

O‘quvchilarga matn tuzish uchun ba’zi tavsiyalar va ko‘rsatmalar beriladi, ular o‘z g‘oyalari asosida fikrlarini izchil, ketma-ketlik bilan, imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozib beradilar.

Matnda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til birliklarining imlosi xattaxta yoki elektron doska orqali namoyish etilishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilardan qaysi so‘zni yozishda ikkilanayotganlari haqida tez-tez so‘rab turiladi.

Berilgan topshiriqni bajarishda muammoga duch kelayotgan o‘quvchilarga alohida shaklda kerakli amaliy tavsiyalar berib boriladi.

O‘quvchilar ijodiy ishlarining taqdimoti bo‘lib o‘tadi, ularga munosabat bildiriladi va baholanadi.

NUTQIMIZ BEZAGI

(7+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilar ongida maqollar va iboralar haqida tasavvur hosil qilish, ularning talaffuzi va imlosi, mazmuniy guruhlanishiga oid tushunchalarni faollashtirish, maqollardan o‘rinli foydalanish, berilgan vaziyatga mos keluvchi maqollarni tanlay olish, iboralarning sinonim va antonimlarini topa olish, iboraning gapdagi vazifasini aniqlash, ularni tahlil qilish, tez aytishlar orqali talaffuzni yaxshilash, tez aytishlardagi ohangdoshlikning sababini ko‘rsata olish, berilgan rasmlar asosida ibora va maqollardan foydalanib hikoya matni tuzish ko‘nikmasini shakllantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar bo‘lim hamda yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirib olish uchun o‘quvchilar bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida quyidagi savol bilan o‘quvchilarga murojaat qilinadi:

Ayting-chi, oila a’zolaringiz va sinfdoshlaringiz bilan suhbatingiz bir xil bo‘ladimi?

O‘quvchilarning javobi tinglangach, darslikda berilgan topshiriqlar bajariladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmlarda berilgan vaziyatlarga e’tibor bering. Qahramonlar o‘rnidan gapiring.

Darslikda to‘rt xil vaziyat berilgan bo‘lib, har bir vaziyat uchun sarlavha ko‘rsatilgan. Dastlab o‘quvchilar rasm bilan tanishib chiqadilar. So‘ng o‘qituvchi berilgan vaziyatlarni doskada yoki proyektorda ko‘rsatgan holda birma-bir sarlavhasini o‘qib, har bir o‘quvchidan ushbu vaziyatlarda qanday nutq so‘zlashi kerakligi so‘raladi.

O‘quvchilarning javobi tinglangach, vaziyatlar ostidagi savollar bilan suhbat uyushtiriladi.

1. Ayting-chi, rasmlarda berilgan vaziyatlar nimasi bilan o‘zaro farq qiladi?

Bu savolga o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida javob berishi lozim. Bunda ular rasmdagi holatlarga tushib, so‘zlashib ko‘rganlarida bir xil emas, turlicha so‘z qo‘llayotganlari aniq bo‘ladi.

2. Nima deb o‘ylaysiz, odam turli vaziyatlarda turlicha gapirishi kerakmi? Nima uchun?

Bu savolga o‘quvchilar bilan vaziyatlar yuzasidan bo‘lgan suhbatlar yordam beradi. Ular bu suhbat jarayonlarini kuzatgan holda vaziyatlarda turli xil nutq yaratish mumkinligini farqlab aytib bera olish lozim. *Masalan, onamizning tug‘ilgan kunlariga aytgan tabrigimizni yodga olaylik, unda aytilgan “Onajon, sizni yaxshi ko‘raman!” kabi tilaklarni Mustaqillik kunida ayta olmaymiz.*

3. Yana qanday vaziyatlarni bilasiz? Bunday holatda odam qanday gapirishi kerak? Qanday so‘zlarni ishlatishi kerak?

Bu savolga o‘quvchi yuqorida olgan bilimlari asosida erkin fikrlab, mantiqan o‘ylab javob berishi lozim. Bunda o‘quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida sinfdoshlari bilan, jamoat transportidagi o‘zlari guvoh bo‘lgan suhbat jarayonlaridan misol keltirishlari mumkin.

Yozma nutq

1. Har bir rasm uchun mos keladigan beshtadan so‘z yozing.

Bu topshiriqni o‘quvchilar rasm asosida bajaradilar. Unga ko‘ra, turli vaziyatlar berilgan rasmlar uchun mos so‘zlarni topib, namunada keltirilgan kabi yozishlari lozim.

Namuna: *4-rasm: hurmatli, sinf, kerak, zarur, …*

2. Rasmlardagi vaziyatlarga mos ikki-uchtadan gap tuzib, yozing.

Bu yuqoridagi topshiriqning mantiqiy davomi bo‘lib, bunda o‘quvchilar vaziyatlarga oid yozgan so‘zlaridan foydalanib namunadagi gaplar singari har bir holatga nisbatan gap tuzib, yozishlari lozim.

Bu topshiriq o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, gaplardan o‘rinli foydalana olish va uni og‘zaki nutqda ifodali so‘zlab berish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, so‘zlashish odobi deganda nimani tushunasiz?

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“So‘zlashish odobi” audiomatnini tinglang va savollarga javob bering.

Audiomatn eshittirilgach, darslikdagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollar o‘quvchining o‘ziga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar tinglagan matnlari asosida mulohaza yuritib, javob berishlari lozim. Bunda o‘quvchilar o‘zlariga berilgan savolni yoritishda tinglagan matnlaridan misol keltirib javob berishlari maqsadga muvofiq.

Bu savol-javobdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarga so‘zlashish odobi haqida ma’lumot berish, o‘quvchilarning tinglab tushunish, matnga munosabat bildira olish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Yozma nutq

3. Audiomatnni qayta tinglang. Siz eng muhim deb bilgan uchta qoidani tushunganingiz asosida yozing.

Bunda o‘quvchi tinglagan matnini xulosalay olishi, o‘zi uchun kerakli deb bilgan jumlani qayta yozib berishi, ya’ni tinglagan matni asosida matn yaratib berishi lozim. Uchta qoidani o‘z tushunchasi bilan ifodalab berganidan so‘ng har bir o‘quvchiga yozgan qoidalari o‘qitiladi.

Og‘zaki nutq

Maqollarni o‘qing, mazmunini muhokama qiling.

Darslikda maqollar berilgan. O‘qituvchi ushbu maqollarni doskaga yozib qo‘yadi hamda har bir o‘quvchidan bittadan maqolning ma’nosini izhlab berishini so‘raydi.

Bu jarayonda o‘quvchining maqol mazmunini tushunishi hamda og‘zaki nutqida ifodalab berishi, maqollardagi so‘zlarning o‘rni hamda o‘xshatishlarni tushunishga diqqat qaratiladi.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, tijorat nima? U bilan kim shug‘ullanadi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan “Foydali tijorat” matni o‘qiladi. O‘quvchilar ushbu matnni avval ichlarida o‘qib olishlariga vaqt beriladi. Keyin ular matnni navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Sinfdagi hamma o‘quvchi ovoz chiqarib o‘qishi lozim. O‘qituvchi tomonidan o‘qish jarayoni nazorat qilib boriladi.

O‘quvchilar o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi tomonidan bir marta ifodali qilib o‘qib beriladi. So‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Nima deb o‘ylaysiz, savdogar ikkinchi marta Bahlulga duch kelganda nega yomon muomala qildi?

O‘quvchilar bu savolga javob berishda Bahlul hamda savdogarning suhbatidan foydalanadilar. Bu savolning javobi Bahlulning savdogarga qilgan muomalasi hamda so‘zlari orqali anglashiladi.

2. Boylik odamning xulqiga yomon ta’sir qilishi mumkinmi? Buning oldini olish uchun nima qilish kerak deb o‘ylaysiz?

Bu savolga o‘quvchilar o‘qigan matnlari hamda hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab, mulohaza yuritib javob berishlari lozim.

3. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

Bu ham o‘quvchilarning erkin fikrlab, ijodiy yondashuviga qaratilgan savol bo‘lib, ular matndan olgan xulosalarini og‘zaki tarzda ifodalab berishi lozim.

Yozma nutq. Leksikologiya. Sintaksis

4. Berilgan dialogni o‘qing. Bola yo‘lovchiga qanday murojaat qildi? Ayting-chi, siz so‘zlashganingizda qanday murojaat qilasiz? Ularni yozing.

Ushbu dialogni o‘quvchilar partadoshlari bilan birgalikda rolga kirib o‘qiydilar. So‘ng o‘qigan dialoglarida qo‘llangan murojaat birliklarini ***kechirasiz, rahmat, amaki*** kabi topib, o‘zining hayoti davomida qo‘llaydigan, o‘ziga tanish bo‘lgan murojaat birliklarini topib yozishi lozim.

Muhokama

Iboralarni izohlari bilan moslashtirib o‘qing. Ularning mazmunini sinfda muhokama qiling.

Darslikda iboralar va ularning izohlari keltirilgan. O‘quvchilar ushbu iboralarni ma’nosi bilan moslashtirishlari lozim. Bu topshiriq mashq daftarida bajariladi.

Javob:

boshi osmonga yetmoq *– juda ham xursand bo‘lish;*

chuchvarani xom sanamoq *– xom xayol qilish, noto‘g‘ri o‘ylash yoki hisob olish;*

besh barmog‘ini og‘ziga tiqmoq *– ochko‘zlik qilish;*

dog‘da qolmoq *– biror vaziyatda yutqazib, alamzada bo‘lib qolish;*

qo‘li ochiq – *hech narsani ayamaydigan, saxiy;*

tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq *– umidi puchga chiqish.*

Muhokama

Ayting-chi, berilgan iboralarning “Foydali tijorat” matni bilan qanday bog‘liqligi bor? Fikrlaringizni asoslang.

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar matn bilan qayta ishlashlari lozim. Bunda ular berilgan iboralardan qay biri matn uchun mosligini aniqlab, yozib, ushbu o‘rinni topib, izohlab berishi lozim.

O‘quvchilarning javoblari tinglangach, o‘qituvchi ibora haqida ma’lumot beradi*: “Ibora xuddi so‘z kabi bitta ma’noni bildiradi. Biroq ibora doim ko‘chma ma’noda bo‘lishi va bir necha so‘zli ekani bilan farqlanadi. So‘z va ibora bir xil ma’noni anglatishi mumkin, biroq iboraning ma’nosi kuchliroq bo‘ladi. Masalan, “Boshi osmonga yetdi” iborasi shunchaki “xursand bo‘lish”ni emas, “juda ham xursand bo‘ldi” degan ma’noni anglatadi”.*

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, tilni tiymoq deganda nimani tushunasiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan “Tilini tiymagan bola” matni o‘qiladi. O‘quvchilar ushbu matnni avval ichlarida o‘qib olishlariga vaqt beriladi. Keyin ular matnni navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Sinfdagi hamma o‘quvchi ovoz chiqarib o‘qishi lozim. O‘qituvchi tomonidan jarayoni o‘qish nazorat qilib boriladi.

O‘quvchilar o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi tomonidan bir marta ifodali qilib o‘qib beriladi. So‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollarning barchasi matnni o‘qib tushunishga qaratilgan bo‘lib, bola matn mazmunidan ushbu o‘rinni topib, unga munosabat bildirishi, xulosa qilib, hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrini ifodalab berishi lozim.

Muhokama

Iboralarni izohlari bilan o‘qing. Ularning mazmunini sinfda muhokama qiling.

Darslikda bir qancha ibora va uning mazmuni keltirilgan bo‘lib, guruh bilan birga muhokama qilinadi. Bu jarayonda o‘qituvchi dastlab o‘quvchilarga ibora va uning mazmuni bilan mustaqil

tanishishlarini aytadi. Bolalar tanishib bo‘lishgach, o‘qituvchi ularga bitta iborani aytadi hamda bolalardan uning ma’nosini, qanday holatlarda ishlatilishini so‘raydi.

O‘quvchilarning javoblari o‘qituvchi tomonidan to‘ldirib boriladi.

Muhokama

Ayting-chi, berilgan iboralarning “Tilini tiymagan bola” matni bilan qanday bog‘liqligi bor? Fikrlaringizni asoslang.

Bunda o‘quvchilar berilgan iboralarning ma’nosini tushungan holda uni matn bilan taqqoslaydi, ya’ni matndan berilgan ibora mazmuniga mos keladigan o‘rinlarni topib, aytib berishi lozim. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining matn bilan qayta ishlashi hamda fikrini asoslab berishiga qaratiladi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, Ramz qanday bola? Uning o‘rnida bo‘lganingizda, nima qilardingiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Berilgan gaplarni o‘qing. Ramz haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlab, ayting.

Darslikda matndagi ma’lumotlar asosida gaplar berilgan. Ushbu gaplarning ayrimlarida ma’lumotni yetkazishda xatolik uchraydi. O‘quvchilar ushbu ma’lumotlar orasidan to‘g‘ri deb hisoblaganlarini aniqlab, aytib berishlari lozim.

Javob:

- *U aks sado nima ekanini bilmasdi.*
- *Uning aks sadodan qattiq jahli chiqdi.*
- *Ramz “bola”ni tutib olsa, kaltaklar edi.*
- *Otasi Ramzning gaplaridan nima bo‘lganligini tushundi.*

Yozma mashq. Imlo. Leksikologiya

5. “Tilini tiymagan bola” matnidan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni topib, o‘qing. Nega bu so‘zlar chiziqcha bilan yozilgan? Yana shunday so‘zlarga misol topib, yozing.

Bu topshiriqni bajarishda matn bilan qayta ishlanadi. O‘quvchilar matn tarkibidan ajratib yozilgan so‘zlarni aniqlab, ularning ma’nosini izohlagan holda nima uchun chiziqcha bilan yozilganini aytib berishi lozim. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchini juft so‘zlar imlosi bilan tanishtirishga qaratiladi. O‘quvchilarning javobi tinglangach, o‘qituvchi tomonidan juft so‘zlarning imlosi va qo‘llanish holati haqida ma’lumot beriladi.

O‘quvchilar juft so‘z haqida tushuncha hosil qilgach, ushbu so‘zlarga misol topib yozishlari aytiladi.

6. Berilgan so‘zlarga mos keluvchi gaplarni topib, daftaringizga ko‘chiring.

Darslikda matn tarkibidan olingan gaplar hamda shu gapning ma’nosiga mos boshqa bir gap berilgan. O‘quvchilar dastlab berilgan so‘zlarni o‘qiydi hamda ikkinchi ustunda so‘zlarga mos keluvchi iboralarni gap tarkibidan aniqlab, yozadi.

Bu topshiriq orqali so‘zlarni kontekstdagi ma’nosiga qarab aniqlash malakasi shakllantiriladi.

Masxara qilmoq – *Bolalar uning ustidan kulishdi.*

O‘shqirmoq – *U do‘q-po‘pisa qildi.*

Mug‘ombir – *U juda ayyor odam.*

G‘azablanmoq – *U jahl bilan ko‘chaga chiqib ketdi.*

Yozma nutq.

7. Ramzni qanday bola deb o‘ylaysiz? Nima uchun? Matndan Ramzga xos xususiyatlar aks etgan gaplarni topib, yozing.

Darslikda Ramzga xos bo‘lgan sifatlar berilgan. O‘quvchilar ushbu sifatlardan Ramzga xoslarini uni ochib beruvchi ma’lumotni matndan topgan holda namunada keltirilgan gap shaklida yozishi lozim.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilar matn bilan qayta ishlaydi. O‘z fikrini matndagi ma’lumotlar asosida isbotlab beradi.

Muhokama

Berilgan so‘z va iboralar o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor? Ular bir xil ma’no anglatyaptimi? Fikringizni izohlang.

Darslikda iboralarning sxemasi berilgan. O‘quvchilarga sxema bilan tanishib chiqishlari aytiladi. So‘ng ularning har biridan sxemada nima aks etgani so‘raladi. O‘quvchilarning erkin javoblari tinglangach, o‘qituvchi tomonidan ushbu sxema tushuntirib beriladi: *“Ko‘rib turganingizdek, “xursand bo‘lmoq” so‘zining ma’nosini bir nechta ibora bilan ifodalash mumkin, ya’ni “og‘zi qulog‘ida”, “boshi osmonga yetdi” kabi iboralarni “xursand” so‘zining o‘rnida qo‘llash mumkin. Masalan, “U juda xursand bo‘ldi” – “Uning boshi osmonga yetdi”. Bu gaplarning mazmuni bir xil. Bular sinonim iboralardir.*

Xursand so‘zining ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda *xafa* so‘zi ishlatiladi. Shu bilan birga,

xafa so‘zining o‘rnida qo‘llash mumkin bo‘lgan iboralar *xursand* so‘zining o‘rnida qo‘llash mumkin bo‘lgan iboralarga qarama-qarshi. Bu iboralar antonim iboralardir.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, gapirganda qanday so‘zlardan ko‘p foydalanasiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan “Nutq haqida” she’ri hamda muallifi tanishtiriladi. O‘quvchilarga she’rni mustaqil ovoz chiqarmay o‘qishlari aytiladi.

She’rni o‘qib bo‘lishgach, o‘qituvchi bir marta baland ovozda o‘qib eshittiradi.

So‘ng darslikdagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollarning barchasi o‘quvchining o‘ziga qaratilgan bo‘lib, savollarga she’r matni mazmunidan kelib chiqqan holda javob berishlari lozim. Bunda asosiy maqsad o‘quvchining o‘qib tushunish malakasini shakllantirishdir. O‘quvchilar she’r matniga munosabat bildira olishi, so‘zlarni o‘zaro bog‘lab mazmun chiqara olishi hamda matn mazmunida qo‘llangan o‘xshatishlarni tushunib, hayotiy kuzatishlariga bog‘lab erkin fikr bildira olishi lozim.

Muhokama

She’rdan olingan quyidagi bandni sharhlab bering.

Bu topshiriq og‘zaki bajariladi. O‘quvchilarga she’r matnidan olingan quyidagi parcha o‘qib beriladi hamda har bir o‘quvchidan ushbu bandni sharhlab berishlari so‘raladi. Bunda sharhlash erkin fikrlarga asoslanadi. O‘quvchining har bir aytgan so‘zi tinglanadi hamda og‘zaki nutqi kuzatiladi.

Yozma nutq

9. Shoir nutq so‘zlashga oid qanday tavsiyalar berdi? Ularni topib, daftaringizga ko‘chiring.

O‘quvchilar bu topshiriqni bajarishda she’r matni bilan qayta ishlaydilar. Bunda she’r matnida shoir nutq so‘zlashga oid bir qancha tavsiyalar aytib o‘tgan.

O‘quvchilar shoir aytgan tavsiyalarni she’r matnini mulohaza qilgan holda topib, daftarlariga yozishlari lozim.

Javob: *aniq gapirish, mazmunli gapirish, nutqini nazorat qilish, savolga to‘g‘ri javob berish.*

7-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tasavvur qiling, tadbirkor bo‘lib qolsangiz, qanday ishlarni amalga oshirasiz?

Asosiy qism

Yozma nutq. Leksikologiya

9. Berilgan gaplarni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar o‘rniga mos keluvchi iboralarni qo‘yib, ko‘chiring.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi, iboralarning qo‘llanishini o‘rganganlik darajasi tekshiriladi. Unga ko‘ra, matndan olingan ikkita gap berilgan. O‘quvchilar berilgan ikkita gapni o‘qiydilar. Gap tarkibida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq berib, ushbu so‘zlarning qanday ma’noda kelganini aniqlaydilar hamda gaplar ostida berilgan iboralarning mosini qo‘yadilar. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning so‘z ma’nosiga mos iboralarni topishlari hamda uni gap tarkibida to‘g‘ri qo‘llab yozishlariga qaratiladi.

Javob:

1. Oyog‘ini qo‘liga olib dalaga ketdi.

2. Ramzning tepa sochi tikka bo‘ldi.

O‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lishgach, har birlarining yozgan gaplari o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinib, yozma savodxonligi hamda bog‘lanishli gap tuzishi tekshiriladi.

10. Berilgan iboralar bilan tanishib chiqing. Ularning ayrimlaridan foydalanib hikoya yozing.

Bu topshiriqni bajarishda dastlab guruh bo‘lib birgalikda ishlanadi. Unga ko‘ra, iboralar doskada yoziladi hamda har bir iboraning ma’nosiga alohida to‘xtab o‘tiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi har bir o‘quvchidan navbatma-navbat bir iboraning ma’nosini hamda shu iboraga mos og‘zaki matn tuzishini so‘raydi. O‘quvchilar iboralarni va ularga berilgan izohlarni o‘qib, ibora mazmuniga mos qisqa matn aytib berishi lozim. Bunda ular faol bo‘lib, sinfdoshlarining hikoyalariga munosabat bildirib boradilar.

Og‘zaki suhbat tugagandan so‘ng o‘quvchilarga o‘zlariga yoqqan bitta iborani tanlab, hikoya yozishlari aytiladi. O‘qituvchi tomonidan

o‘quvchilarning mustaqil bajarishlari nazorat qilinadi.

Bajarib bo‘lganlaridan so‘ng har bir o‘quvchiga yozgan hikoyalari o‘qitiladi. Eng yaxshi hikoya egasi rag‘batlantiriladi.

MUSTAHKAMLASH

Nutqiy mavzu yakunlangach, mustahkamlash darsi bo‘lib o‘tadi. Unda berilgan topshiriqlar o‘quvchining fan yuzasidan tutgan daftariga bajariladi. Topshiriqlar o‘tilgan nutqiy mavzu doirasida berilgan. O‘quvchilar ularni og‘zaki va yozma shaklda bajarishlari lozim.

Og‘zaki/yozma nutq

Ayting-chi, yaxshi suhbatdosh bo‘lish uchun qanday so‘zlashish qoidalariga rioya qilish kerak? Nima uchun?

1. Xafa bo‘lgan o‘rtog‘ingizni xursand qilish uchun unga nimalar deysiz? Qanday so‘zlardan foydalanasiz? Ularni yozing.

Namuna: *Senga kulib turish yarashadi, ...*

2. Topishmoqlarning javobini topib, yozing. Ularning javobini topishda sizga nima yordam berdi? Ayting.

1. Olmasang yarim nafas,
   Yo‘ldan o‘tgani qo‘ymas.
2. Xuddi o‘xshar mirza terakka,
   Yo‘lda doim turar tikka.
3. Tim qora kichkina xol,
   To‘xtatar yo‘lda darhol.
4. Shakli o‘xshar o‘roqqa,
   Doim tutar so‘roqqa.

Javob: 1. Vergul. 2. Undov. 3. Nuqta. 4. So‘roq.

SAN’AT VA MADANIYAT

(6 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarning san’at sohalari haqidagi tasavvurlarni boyitish. Yangilik matni yaratish ko‘nikmasini shakllantirish. Bayon hamda qayta bayon qilish, so‘z birikmalarining ma’nosini aniqlash, lug‘atdan foydalanish, matnda ochiq aytilmagan (implitsit) ma’lumotni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirishib olish uchun o‘quvchilar bilan og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Unda o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

• *San’atkor deganda kimlar xayolingizga keladi?*

• *San’atga aloqador kasblardan qaysilarini bilasiz?*

Savol umumiy tarzda beriladi va istagan o‘quvchi javob berishi mumkin.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasm asosida suhbat

Darslikda 6 ta rasm berilgan. Rasmlar ostida savollar ham mavjud. Suhbat ayni o‘sha savollar asosida tashkil etiladi. O‘quvchilarga biror rasm ko‘rsatilib, ana shu 4 savol bilan murojaat qilinadi:

1. Rasmda kimni ko‘ryapsiz?

2. U nima bilan shug‘ullanadi?

3. Rasmdagi faoliyatni olib boradiganlardan kimlarni taniysiz?

4. Qachon ularga ehtiyojimiz tushadi?


Mana shu holat har bir rasm bilan amalga oshiriladi.

	1. Qo‘shiqchi, ashulachi. 2. Qo‘shiq aytadi, konsert beradi, kliplarini e’lon qiladi. 3. Ozodbek Nazarbekov, Alisher Fayz, VIA Marokand, Ziyoda, Hamdam Sobirov, Ozoda Nursaidova, Shohruxxon, Billi Aylish, Riyanna, Adel va h.k. 4. Tug‘ilgan kun, to‘y, bazm, konsert, bayramlarda.
	1. Raqqosa, o‘yinchi. 2. Raqs tushadi. 3. Mukarrama Tug‘unboyeva, Rushana Sultonova, Muhabbat Qurbonova, Iroda Ismoilova, Parizoda, Shodiyora Omonova va h.k. 4. Tug‘ilgan kun, to‘y, bazm, konsert, bayramlarda.
	1. Rassom. 2. Rasm chizadi. 3. Chingiz Ahmarov, O‘rol Tansiqboyev, Akmal Nur, Dilorom Mamedova, Alisher Aliqulov, Yevgeniya Duvakina, Leonardo Da Vinchi, Rembrandt, (Darslikning oxirgi sahifalarida darslikdagi rasmlarni chizgan rassom ismi ham berilgan). 4. Tug‘ilgan kun, multfilm ishlashda, kino ishlashda, teatr sahnalashtirishda, uy qurishda, uy bezashda, darsliklar chiqarishda va h.k.
	1. Aktyor. 2. Teatrda, kinoda rol ijro etadi. 3. Erkin Komilov, Saida Rametova, Yulduz Rajabova, Adiz Rajabov, Bobur Yo‘ldoshev, Alisher Uzoqov, Dilnoza Kubayeva, Leonardo Di Kaprio, Roven Atkinson, Shohruhxon. 4. Hordiq chiqarish maqsadida kino ko‘ramiz yoki teatrga boramiz, aktyorlarsiz bunday joylar mavjud bo‘lmas edi.
	1. Fotograf. 2. Fotoapparat orqali rasm oladi. 3. Husniddin Ato, Madina Nurman, Vladimir Juravlyov, Ernest Kurtveliyev. 4. Tug‘ilgan kun, to‘y, bazm, konsert, bayram, tadbirlarda.
	1. Dorboz. 2. Dor ustida turli tomoshalar ko‘rsatadi. 3. Yunusali G‘oziyev, Noibjon Hakimov, Shokirjon Toshkanboyev, Tursun Ali, Anvar Mo‘ydinov. 4. Turli sayil, bayram, to‘y, tadbirlarda.

Yozma nutq

1. Darslikda rassom hamda fotografga tegishli bo‘lgan 6 ta rasm berilgan. Topshiriqning birinchi qismida o‘quvchilar aynan rassom va fotografning farqi haqida bahslashishi kerak bo‘ladi. Shundan so‘ng 6 ta rasmdan qaysi biri rassomning, qaysi biri fotografning ishi ekanini aniqlab, yozishlari kerak bo‘ladi.

Javoblar:

Rassomning ishi	Fotografning ishi
 	 

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Iste’dodli odam deganda kimlarni tasavvur qilasiz?*

• *Iste’dodli odamlarning boshqalardan qanday farqi bo‘ladi?*

Asosiy qism

Tinglab tushunish. “Matmusaning qo‘shig‘i” audiosi asosida

O‘quvchilarga “Matmusaning qo‘shig‘i” audiosi bir marta qo‘yib beriladi. Shundan so‘ng o‘quvchilarga darslikda audio yuzasidan berilgan savollar bilan tanishib olish aytiladi. O‘quvchilar savollar bilan tanishib olgach, audio yana bir marta qo‘yib beriladi. Shu bilan savollar asosidagi muhokamaga o‘tiladi. Javoblar:

1. Matmusa nima sababdan qo‘shiq aytishni boshladi?

Ishsiz, bekor bo‘lib qolganidan zerikib, qo‘shiq aytishni boshladi. Shoir bu orqali qo‘shiqchi juda ko‘payib ketganini ham kulgiga olgan.

2. “Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak” deganda nima nazarda tutilmoqda?

Bir narsa bilangina yashab bo‘lmaydi, inson yashashi, baxtli bo‘lishi uchun ko‘p narsa kerak degan ma’noda ishlatiladi. Matmusaga ham zerikib yotishning o‘zi yetarli emas, o‘zini ovutish uchun bir ermak topishi kerak.

3. Nima uchun Matmusa kelgan joydan odamlar qochadigan bo‘lishdi?

Matmusaning ovozi juda yoqimsiz, qo‘shiqni juda yomon aytgani uchun. Chunki uning qo‘shiq aytishga iste’dodi yo‘q edi.

4. Matmusani to‘ra qilishdan maqsad nima edi?

Uning hokimlik ishlari bilan ovora bo‘lib, qo‘shiq aytishga vaqti qolmasligini o‘ylashgan edi. Bundan tashqari, rahbar odam qo‘shiq aytmaydi deb o‘ylashgandi.

5. “Rahmat, judayam maza qildik” degan odam aslida nima demoqchi?

“Qo‘shiq aytmaganing yaxshi edi, jonimga tegib ketdi”, demoqchi edi.

Tinglab tushunish. “Matmusaning dutori” audiosi asosida

O‘quvchilarga “Matmusaning dutori” audiosi bir marta qo‘yib beriladi. O‘quvchilarga tushunmagan joylarini so‘rash imkoni beriladi. Shundan so‘ng keyingi topshiriqni bajarishga o‘tish mumkin.

Yozma nutq

2. Darslikda 6 ta gap berilgan. Shu gaplardan ba’zilari “Matmusaning dutori” audiosiga mos keladi. O‘quvchilarga gaplar bilan tanishib olish uchun vaqt beriladi. Vaqt o‘tgach, audio qo‘yib beriladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar berilgan gaplar ichidan audioga mos keladiganlarini aniqlab, daftarlariga yozishlari kerak bo‘ladi. Javoblar:

Matmusa – maqtanchoq odam.

Xotinning bobosi dutor chala olar edi.

O‘quvchilardan qolgan gaplar nima uchun noto‘g‘ri ekanini aytib berishlari so‘raladi.

Matmusa dutor chalishni bilar edi. Yo‘q, bilmasdi, chunki u bir xil notani bosib, bir xil ting‘illatib turgani xotinining gaplaridan ma’lum.

Matmusa bozorga dutor sotib olgani borgan edi. Yo‘q, bozorga mol sotgani borgan edi, aynan dutor olish uning rejasida bo‘lmagan. Shunchaki yoqib qolib, sotib olgan.

Matmusa – iste’dodli odam. Yo‘q, Matmusani iste’dodli deb bo‘lmaydi, chunki uning chalgani musiqa emas, bundan tashqari, dutor chalishni bilmasligi ham haqiqat.

Matmusaning xotini dutor chalishni bilardi. Yo‘q, xotini dutor chalishni bilmas edi, bu haqda she’rda biror nima aytilmagan, lekin o‘zi dutor chalishni bilganida bobosining dutor chalishini misol qilib keltirmas, o‘zi chalib ko‘rsatib bergan bo‘lar edi.

Muhokama

O‘quvchilar bilan shoirning ikki she’ri (“Matmusaning qo‘shig‘i” hamda “Matmusaning dutori”) nima maqsadda yozilgani, bu bilan ijodkor nima demoqchi bo‘lgani haqida muhokama uyushtirish kerak bo‘ladi. Bunda o‘quvchilarning javoblari to‘g‘ri yoki noto‘g‘riga ajratilmaydi, bu erkin fikr bildirish vaqti hisoblanadi.

Shoir iste’dodi bo‘lmasa ham, o‘zini iste’dodli sanab san’at sohasiga qadam qo‘yganlar ustidan kulish maqsadida mana shu she’rlarni yozgan. Birinchi she’rda qo‘shiq aytishga umuman qobiliyati bo‘lmagan odamning qo‘shiq aytaverishi, hech kimga yoqmasa ham, bezbetlik qilib hammaga eshittirishi, to‘ra bo‘lib olgach esa, hamma qo‘shiqchilarni, hatto xo‘rozlarni ham taqiqlaganini kulgi ostiga olinadi. Ikkinchi she’rda ham qobiliyati yo‘q odamning o‘zini qobiliyatlidek tutishi, o‘zini doim haq sanashi kulgili tarzda yetkazib berilgan. Jamiyatdagi maqtanchoqlik, o‘zini iste’dodli sanash, qo‘lidan kelmagan ishni qilaverish illatlari qoralangan.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Qarg‘ani ko‘rganmisiz? Uning ovozini eshitganmisiz? U qanday ovoz chiqaradi?*

• *Nega ayrim odamlar qo‘shiq ayta oladi-yu, ayrimlar ayta olmaydi deb o‘ylaysiz?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish. “Qarg‘avoy” ertagi asosida

Darslikda “Qarg‘avoy” ertagi matni berilgan. Dastlab o‘qituvchi ertakni bir marta o‘qib beradi, undan keyin o‘quvchilarga ichlarida bir marta takrorlab olishi uchun vaqt beriladi. Vaqt tugagach, o‘quvchilar navbati bilan ertak matnini ovoz chiqarib o‘qiydi. O‘qib bo‘lingach, ertak matni ostida berilgan savollar asosidagi muhokamaga o‘tish mumkin. Javoblar:

1. Sizningcha ham, bulbul qarg‘aga kuylashni o‘rgatishni istamadimi? Nega?

Ushbu savolga o‘quvchilar o‘z fikrini bayon qiladi, bu savolda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob yo‘q. Asosiy talab o‘quvchi o‘zi aytgan versiyasini isbotlab bera olishi.

2. Bulbulning fikricha, Qarg‘avoyda nima yo‘q edi?

Yoqimli va mayin ovozi, shuningdek, kuylashga qobiliyati yo‘q.

3. Qarg‘a nima uchun musichaning gaplaridan sevindi?

Chunki musicha Qarg‘avoyga kuylashga qobiliyati bo‘lmagani bilan unda boshqa qushlarga berilmagan jihatlar borligini aytdi, ya’ni kimdadir bu qobiliyat bo‘lsa, kimdadir boshqasi bo‘lishini tushuntirdi.

4. Matmusa hamda Qarg‘avoy o‘rtasida o‘xshashlik bormi? Qanday?

Ushbu savolga o‘quvchilar o‘z fikrini bayon qiladi, bu savolda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob yo‘q. Asosiy talab – o‘quvchi o‘zi aytgan versiyasini isbotlab bera olishi.

5. Qarg‘avoy hamda Matmusaning farqli tomonlarini aytib bering.

Ushbu savolga o‘quvchilar o‘z fikrini bayon qiladi, bu savolda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob yo‘q. Asosiy talab – o‘quvchi o‘zi aytgan versiyasini isbotlab bera olishi.

Asosiy farq Qarg‘avoy o‘z xatosini anglab o‘zini to‘g‘ri yo‘lga sola oldi, Matmusa esa o‘z xatosini anglamadi, qobiliyatsiz ekanini tan olmadi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *“Qarg‘avoy” ertagidagi esingizda qolgan voqea qaysi?*

• *“Qarg‘avoy” ertagi qaysi tomonlari bilan sizga yoqdi?*

Asosiy qism

Yozma nutq

3. O‘quvchilar ushbu soat avvalida o‘tgan soatda o‘qib muhokama qilingan “Qarg‘avoy” ertagi qahramoni Qarg‘avoyning boshqa qushlardan ustun jihatlarini yozishlari kerak bo‘ladi. Bunda gap holida ham, alohida-alohida birikma holida ham yozish mumkin.

Gap holida yozganda mana bunday ko‘rinishda bo‘lishi maqsadga muvofiq:

Qarg‘avoyning qanotlari baquvvat, ular bilan olis-olis masofalarga uchish mumkin, tumshug‘i juda ham o‘tkir va kuchli, yong‘oqlarni ham chaqib tashlay oladi, hamma qushlardan ko‘ra uzoq umr ko‘radi.

Alohida-alohida holda mana bunday ko‘rinishda bo‘lgani maqsadga muvofiq:

Qarg‘avoyning boshqa qushlardan ustun jihatlari:

– qanotlari baquvvat;

– tumshug‘i o‘tkir va kuchli;

– uzoq umr ko‘radi.

4. Darslikda 5 ta birikma berilgan. O‘quvchilar ana shu birikmalarning ma’nosini taxmin qilib yozishi kerak bo‘ladi. Shundan so‘ng hamma o‘z taxminini aytadi. Keyin lug‘atdan shu birikmalarning ma’nosini topadi va uni ham yozib oladi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Gazeta o‘qiganmisiz?*

• *Yangiliklarni odatda qayerdan o‘qiysiz yoki kimdan eshitasiz?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish. “Dorbozlik san’ati YUNESKO ro‘yxatida” matni asosida

Dastlab o‘quvchilarga matnni ichida o‘qib olishi uchun vaqt beriladi. Berilgan vaqt tugagach, ovoz chiqarib avval o‘qituvchi, keyin o‘quvchilar o‘qiydi. Shundan keyin o‘quvchilarga yangilik matni haqida ma’lumot berish boshlanadi.

1. Mavzu tanlash

Ushbu bosqichda muallif insonlarga yetkazish uchun mavzu tanlaydi. Yangiliklar matni mavzusi uchun asosiy talablardan biri bu qiziqarli bo‘lishi. Ya’ni muallif tanlagan mavzu boshqalar uchun qiziq bo‘lishi lozim. Qiziqarli mavzu yoki voqea topish oson emas. Buning uchun siz ko‘p izlanishingiz kerak bo‘ladi, lekin lupa yoki xarita bilan emas, ko‘z va quloqlar bilan izlanasiz. Quyida allaqachon sodir bo‘lib o‘tgan voqealar haqida ma’lumot to‘plash uchun ba’zi tavsiyalar berilgan:

• maktabdagi boshqa sinf sardorlari, turli to‘garak rahbarlari, o‘qituvchilar bilan yaqinda sodir bo‘lgan voqealar haqida suhbatlashing;

• mahallangizdagi rais, hokim yordamchilari kabi insonlardan ular yaqinda qabul qilgan qarorlar haqida so‘rang;

• ota-onangizdan ishxonalarida sodir bo‘lgan qiziq voqealar haqida so‘rang;

• aka-opangizdan o‘qishidagi qiziqarli voqealar haqida so‘rang;

• barcha voqealarni qisqa jumlada ifodalab, ularning ro‘yxatini tuzing.

2. Buni kim o‘qiydi?

Mana qo‘limizda mavzular ham bor. Endigi navbat – buni kim o‘qishini aniqlab olish. Sizning maqolangizni odatda maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilari o‘qiydi. Shundan xulosa qilib, mavzularingiz orasidan ular uchun qiziq bo‘ladiganini tanlashingiz kerak.

3. Maqolani yozish.

Mana, mavzu hamda o‘quvchilarni aniqlab oldik, endi maqolani yozsa ham bo‘ladi.

a) maqolaga sarlavha tanlash

Sarlavha odamlarni o‘ziga jalb qila olishi kerak, unda maqoladagi asosiy g‘oya aks etib tursa yana ham yaxshi. Sarlavhalarni savol tarzida qo‘ysangiz ham bo‘ladi. Masalan, darslikdagi matnning sarlavhasini ***“Dorbozlik san’ati YUNESKO ro‘yxatiga kirdimi?”*** deb qo‘ysa ham bo‘lar edi.

b) maqolaning kirish qismini yozish

Kirish qismida nima haqida yozmoqchi bo‘lsangiz, shu haqida qisqacha ma’lumot berib ketasiz, o‘qiyotgan odam yaxshiroq tasavvur hosil qilishi uchun bu qism kerak bo‘ladi. Darslikdagi maqolada quyidagi qism kirish qismi hisoblanadi:

> O‘zbek milliy xalq o‘yinlari azaldan ajdodlarimiz madaniy hayotining ajralmas qismi sifatida e’zozlanib kelinadi. Masalan, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan dorbozlik san’ati ana shunday tarbiyaviy ahamiyatga ega.

d) tafsilotlarni keltirish

Bu qismda siz voqeaning tafsilotlarini yoritishga harakat qiling. Ya’ni voqeaning sodir bo‘lishiga oid sabablarni keltirishingiz mumkin. Bundan tashqari, bu qismda o‘quvchilaringiz maqolaning asosiy maqsadini ham tushunib olishlari kerak bo‘ladi. Darslikda berilgan maqolaning tafsilot qismi quyidagicha:

> Bundan taxminan ikki yarim ming yillar muqaddam Sharqda vujudga kelgan dorbozlik bugungi kunda sirk san’atining ajralmas qismiga aylangan. Dorbozlik o‘yinlari avval ochiq maydonlarda, 13-asrdan boshlab esa maxsus sirk arenalarida ham namoyish etiladigan bo‘ldi. O‘zbekistonda dor o‘yini qadim tarixga ega. Ba’zi manbalar Amir Temur saroyida ham ajoyib tarzda bunday namoyishlar ko‘rsatilganini tasdiqlaydi. Dorbozlik O‘zbekistonning barcha yirik shaharlarida, ayniqsa, Quva va Asakada taraqqiy topgan.

e) asosiy g‘oyani ochiq aytish

Ushbu qismda siz sarlavhada tilga olingan g‘oyani yozasiz. O‘quvchida paydo bo‘lgan savollarga javob berishga harakat qilasiz. Darslikdagi maqolada bu quyidagicha aks etgan:

> Bugun ana shu dorbozlik san’ati YUNESKOning nomoddiy meroslar ro‘yxatiga kiritilmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan bu san’atning yanada ommalashishida qo‘l keladi. Bu ro‘yxatga kiritilgan san’at turlari yo‘qolib ketishdan saqlanadi.

Mana shu tushuntirishlar amalga oshirilgach, o‘quvchilar bilan ozroq takrorlab olish kerak bo‘ladi. Ya’ni maqola yozish bosqichlari haqida yana bir marta eslatish va o‘zlari uchun kerakli bo‘lgan narsalarini yozib olishlarini so‘rash ham

mumkin. Yana bir yaxshi usul o‘quvchilarga metodik qo‘llanmaning mana shu qismini chop etib berish yoki ota-onasiga rasm shaklida yuborishdir.

Tushuntirish berilgach, o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida biror yangilik asosida maqola yozib kelish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar maqola yozish bosqichlariga imkon qadar amal qilishlari so‘raladi. Ota-onalarga ham bu topshiriq haqida tushuncha berish lozim, ba’zi ota-onalar o‘qituvchisi farzandimdan gazeta darajasidagi maqola so‘rayapti deb o‘ylamasligi lozim, bunday topshiriq o‘quvchiga birinchi marta berilmoqda, shuning uchun o‘quvchidan kuchli maqola talab qilinmaydi. Ota-onalarga yana bir narsa tushuntirilishi kerak: o‘quvchilar mavzuni mustaqil tanlasin, ota-ona tanlab berib, “mana shuni yoz” demasin.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savolni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *Maqola yozishda kimlar yordam berdi?*

• *Mavzu qidirishda kimlar bilan suhbatlashdingiz?*

Asosiy qism

Yozma nutq

5. Maqola yozish. O‘qituvchi yuqoridagi talablar asosida o‘z maqolasini yozib kelgan bo‘lishi lozim. O‘quvchilar yozishga kirishishlaridan oldin o‘z maqolasini o‘qib berishi kerak bo‘ladi. Maqola bolalarbop, tushunarli mavzuda, qiziqarli voqea asosida yozilgan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Shundan so‘ng o‘quvchilar o‘z maqolasini yozishga kirishishlari mumkin bo‘ladi. Ularga istagan savollarini so‘rash mumkinligi eslatiladi. Bir soat dars davomida yozib ulgurmaganlar darsdan so‘ng qolib, tugatib qo‘yishlari mumkinligi aytiladi.

DIQQAT! Ushbu soat 5-soat o‘tilgan kunga to‘g‘ri kelib qolganda keyingi mavzu soatlari bilan almashtiriladi. O‘quvchiga ma’lumot yig‘ib olishi uchun vaqt berilishi lozim.

SAYYOHLARI KO‘P DIYOR

(6+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilar ongida tarixiy shaharlar va mashhur obidalarga oid til birliklarini qo‘llash, mavzu yuzasidan og‘zaki suhbat uyushtirish, bunda o‘z fikrini dalillashga, maqsadga muvofiq so‘z va birikmalardan foydalanishni o‘rgatish, matn tarkibidagi so‘zlarga so‘roq berish orqali shaxs, narsa va joy nomini bildiruvchi so‘zlarni aniqlash hamda shaxs, narsa va joy nomlarining yasalishi, ularni yasovchi qo‘shimchalar va imlosi bilan tanishtirish, matn tarkibida berilgan so‘z, ibora va birikmalarning ma’nosini izohlash, ilmiy-ommabop uslubda ta’riflangan shaharlar haqidagi matnlarni tushunish, ularda qo‘llangan til birliklaridagi farqlarni aniqlash hamda mavzu doirasida matn yaratish malakalarini shakllantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, tarixiy shaharlar deganda nimani tushunasiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Yurtimizdagi tarixiy binolar bilan tanishing.

Darslikda yurtimizdagi mashhur tarixiy binolardan to‘rttasining rasmi hamda u haqida ma’lumot berilgan. O‘quvchilar dastlab ushbu rasm va ma’lumotlar bilan tanishib chiqadi. So‘ng o‘qituvchi rasmlarni doskada yoki proyektorda ko‘rsat-

gan holda ular haqidagi ma'lumotni o'qib, tarixiy obidalar haqida qisqacha ma'lumot beradi.

O'quvchilar tarixiy binolar haqida tasavvurga ega bo'lgach, rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Nima deb o'ylaysiz, nega odamlar bunday binolarni yaqindan ko'rgisi, o'rgangisi keladi?

Bu savol o'quvchilarning mustaqil fikrlab javob berishiga qaratilgan bo'lib, ular tarixiy binolar oldin yashab o'tgan bobolarimizdan meros ekani, unda o'tmishdan xabar beruvchi ma'lumotlar bo'lishi, ularni asrab-avaylash lozimligi haqida javoblar berishi mumkin.

2. Siz bu binolarning qay birini ko'rishni istaysiz? Nima uchun?

O'quvchilar bu savolga tarixiy binolarning rasmi va u haqida berilgan ma'lumotlar asosida qaysi binolarni ko'rishga borishni xohlashi va buning sababini aytib berishi lozim.

3. Xorijdan kelgan sayyohlar yurtimizdagi qadimiy obidalarni ko'rishni istaydi. Siz ularga yana qaysi joylar va binolarni ko'rishni taklif qilgan bo'lar edingiz?

Bu savol o'quvchining hayotiy kuzatishlari va dars davomida egallagan bilimlari asosida erkin fikrlab, ijodiy yondashib javob berishlarini talab qiladi. O'quvchilar o'zlarining hududlarini ham izohlab berishlari mumkin, bunda asosiy e'tibor o'quvchining fikrini asoslashi hamda og'zaki nutqda ifodalashiga qaratiladi.

4. Nima deb o'ylaysiz, yurtimizga xorijdan ko'proq sayyohlar kelishi uchun nimalar qilish kerak?

Bu savol o'quvchining mantiqan yondashib, erkin fikrlashiga yo'naltirilgan. O'quvchilar bu savolga o'z qarashlari orqali javob berishlari mumkin.

Muhokama

Berilgan so'zlarni ovoz chiqarib o'qing. Partadoshingiz esa talaffuzda qaysi so'zlar tushib qolganini aytsin.

Darslikda yozilishi va talaffuzi farqlanuvchi so'zlarga misollar berilgan. O'quvchilar bu topshiriqni partadoshlari bilan birga bajaradilar. O'qituvchi bir o'quvchidan so'zni talaffuz qilib berishini so'raydi. Partadoshidan esa uning nutqini kuzatishini, talaffuzda qaysi so'zlar tushib qolganini aytib berishini so'raydi. Shu tariqa topshiriq navbat bilan bajariladi.

Bu topshiriqni bajarishdan asosiy maqsad o'quvchilarga ayrim so'zlar oxirida kelgan *d, t* tovushlari ba'zan aytilmasa ham, yozilishi haqida ma'lumot berishdan iborat.

Yozma nutq

1. To'g'ri yozilgan so'zlarni aniqlab, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Darslikda bir so'zning ikki xil varianti berilgan. O'quvchilar ushbu so'zlarni talaffuz qilib, to'g'ri yozilgan so'zni topishlari lozim. So'ng ushbu so'zlar ishtirokida namunadagi kabi misol yozishlari talab qilinadi.

Bunda asosiy e'tibor so'zlarning imlosi hamda mazmunga bog'lanishli nutq tuzishga qaratiladi.

Javob: *payvand, juft, xursand.*

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, afsonaviy deganda nimani tushunasiz?

Asosiy qism

Tinglab tushunish

"Afsonaviy Xivaga sayohat" audiomatnini tinglang va savollarga javob bering.

Audiomatn eshittirilgach, darslikning 73-sahifasidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Qahramon nima uchun Xivada ertak-kinofilm suratga olsa bo'ladi deyapti?

Bu savolning javobi audiomatnda ochiq ifodalangan. Bunda o'quvchilar tinglagan matnlari asosida Xiva shahrining qadimiy ekanligi hamda tarixiy obidalari ko'pligini aytib berishi lozim.

2. Xorazm timsoli deya qaysi obidaga ta'rif berilgan?

Bu ham matnda ochiq ifodalangan Kaltaminor yodgorligidir.

3. Kaltaminorning qurilishiga doir afsona rost bo'lishi mumkinmi? Javobingizni asoslang.

Bu – o'quvchining matnda berilgan ma'lumotni tushunib, munosabat bildira olishiga qaratilgan savol. O'quvchi tinglagan matnida keltirilgan rivoyatni yodga olib, u haqida mulohaza yuritib, javob berishi lozim.

4. Sayyohlar qayerdan kelishgan ekan? Ular qaysi kasb egalari?

Bu savolning javobini topishda o'quvchi sayyohlar so'zi bilan kimga ishora qilinayotganini aniqlashi hamda ushbu o'rinni yodga olib javob berishi lozim. Javob: Nati va Laura – ispaniyalik sayyohlar. Nati – o'qituvchi, Laura esa iqtisodchi.

5. Nima deb o‘ylaysiz, sayyohlar nima uchun turli buyumlar sotib olishadi?

Bu savolga o‘quvchi audiomatn orqali hamda mantiqan fikrlab, sayyohlar borgan joylaridan o‘zlariga esdalik uchun turli buyumlar sotib olishini aytib bera olishi lozim.

6. Ayting-chi, xorijdan keladigan sayyohlar soni ortsa, yurtimizga qanday foyda bo‘ladi? Javobingizni asoslang.

Bu savol o‘quvchining o‘ziga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar erkin fikrlab, mantiqan o‘ylab javob berishlari nazarda tutilgan.

Yozma nutq

2. Qahramonimiz bizni qaysi tarixiy obidalar bilan tanishtirdi? Ularni aniqlab, daftaringizga yozing.

Darslikda oltita tarixiy obidaning rasmi va nomi berilgan. O‘quvchilar tinglagan matnlarida qaysi obidalarning nomi tilga olinganini aniqlab, yozishi lozim. O‘quvchilar tinglash jarayonida obidalarning nomini eshitmay qolgan bo‘lsa ham, berilgan ta’rifi orqali rasmidan topib yozishi mumkin.

Javob: *Ichan qal’a, Kaltaminor, Toshhovli.*

3. Gaplarni o‘qing. Noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni toping. To‘g‘ri yozilgan gaplarni daftaringizga ko‘chiring.

Bu topshiriq o‘quvchining imloviy savodxonligini tekshirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar berilgan gaplarning qaysi birida xatoga yo‘l qo‘yilganini topishi hamda to‘g‘ri yozilgan gapni daftariga ko‘chirib yozishi lozim.

Javob:

- *Ichan qal’a majmuasi **X**ivaning bosh yodgorligi hisoblanadi.*
- *Tosh hovlidan chiqib, hunarman**d**lar majmuasiga yo‘l oldik.*
- *Shundan so‘ng “Alibobo va qirq qaroqchi” nomli o‘yincho**q**lar do‘koniga kirdik.*
- *Ular Ichan qal’a yaqinidagi besh yulduzli mehmon**x**onada turishganini aytishdi.*

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, siz ham sayohatga chiqqanmisiz? U qanday bo‘lgan?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikdagi “Ibn Battuta sayohatlari” matni o‘qiladi. O‘quvchilar ushbu matnni avval ichlarida o‘qib olishlariga vaqt beriladi. Keyin ular matnni navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Sinfdagi hamma ovoz chiqarib o‘qishi lozim. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning o‘qishlari nazorat qilib boriladi.

O‘quvchilar o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi tomonidan bir marta ifodali qilib o‘qib beriladi. So‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollar o‘quvchining matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar matn tarkibidan kerakli o‘rinlarni aniqlab, mulohaza bildirib javob berishlari lozim.

Asosiy e’tibor 4-savolga qaratilgan bo‘lib, bu savol o‘quvchining mantiqiy fikrlab, ijodiy yondashishiga yo‘l ochadi. O‘quvchilar matndan olgan ma’lumotlari hamda hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrlab o‘z qarashlarini aytib berishi lozim.

Bu jarayonda o‘quvchining matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasi hamda og‘zaki nutqi tekshiriladi.

Yozma mashq

4. Matndan joy nomlari va joylarga atab qo‘yilgan nomlarni aniqlab, ikki ustunga ajratib yozing.

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar matn bilan ishlaydilar. Matn tarkibidan *qayer* so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarni aniqlab, ularni ikki ustunga bo‘lib yozadilar. Bunda ikki jihatga: joy nomlaridan joylarga atab qo‘yilgan nomlarni farqlash hamda ularning bosh harf bilan yozilishiga e’tibor qaratish lozim.

Javob:

Joylarga atab qo‘yilgan nomlar	Joy nomlari
Termiz, Arabiston, Misr, Eron, Kichik Osiyo, Qrim, Movarounnahr, Afg‘oniston, Hindiston, Indoneziya, Xitoy, Xorazm, Buxoro, Samarqand.	Qishloq, sahro, tog‘ so‘qmoqlari, shahar, dengiz yo‘llari, daryo qirg‘og‘i, masjid, madrasa, bozorlar

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, Ibn Battuta kim? U haqida nimalarni bilib oldingiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq. Muhokama

Berilgan birliklarni so‘roqlari bilan birga o‘qing. Ayting-chi, nega har xil so‘roqlar berilyapti? Ushbu gap orqali qanday ma’lumotni bilib oldingiz?

Bu mashq og‘zaki tarzda bajariladi. O‘qituvchi berilgan jadvalni o‘quvchilarga ko‘rsatgan holda ularning javoblarini tinglaydi. So‘ng tushuntirib beradi: *“Jadvalning birinchi qatorida gap berilgan, ikkinchi qatorida ushbu gapning so‘zlari alohida ustunlarga ajratib yozilgan va ularning har biriga alohida so‘roq berilgan. So‘roqlar bilan birga so‘zlarni o‘qiganimizda ma’lumotning bajaruvchisi, bajarilgan vaqti, bajarilgan joyi hamda harakatini aniqlab olishimiz mumkin”.*

Ibn Battuta 18 kunda Buxoroga yetib keldi.			
Ibn Battuta	18 kunda	Buxoroga	yetib keldi.
kim?	*necha kunda?*	*qayerga?*	*nima qildi?*

Yozma mashq. Sintaksis

5. Berilgan gaplarni o‘qing. Gapning har bir qismiga so‘roq berib, ularni yozing.

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarga gap tarkibida kelgan har bir so‘zning gapning hosil bo‘lishi hamda mazmuniga aloqadorligini tushuntiriladi. O‘quvchi jadvalning birinchi qatorida yaxlit berilgan gapni, ikkinchi qatorida gapning alohida so‘z ko‘rinishida berilishini o‘qiydi hamda har bir so‘zga so‘roq berib, ushbu so‘roq so‘zlarni jadvalga yozadi.

O‘quvchilar bu topshiriqni bajarib bo‘lganlaridan so‘ng daftarlari tekshiriladi. Tekshirish davomida topshiriqni to‘g‘ri bajarganligiga hamda imloviy savodxonligiga alohida urg‘u beriladi. Shu bilan birga o‘qituvchi tomonidan quyidagi ma’lumot tushuntirib beriladi: *“Ko‘rdingizmi, har bir so‘roq berilayotgan so‘z gapda ma’lum vazifani bajaryapti. So‘roq berish orqali gap kim haqida ekani, uning qanday harakatni bajarayotganligi, qachon va qayerda bo‘lgani anglashilyapti”.*

Javob:

Ibn Battuta ko‘p davlatlarga sayohat qilgan.			
Ibn Battuta	ko‘p	davlatlarga	sayohat qilgan.
kim?	*qancha?*	*qayerga?*	*nima qilgan?*

U 120 ming kilometr masofani bosib o‘tgan.			
U	120 ming kilometr	masofani	bosib o‘tgan.
kim?	*qancha?*	*nimani?*	*nima qilgan?*

Sayyoh Samarqanddan Termizga kelgan.			
Sayyoh	Samar-qanddan	Termizga	kelgan.
kim?	*qayerdan?*	*qayerga?*	*nima qilgan?*

6. Matn qismlariga mos sarlavhani aniqlab, daftaringizga ko‘chiring.

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar matn bilan ishlaydilar. Bunda dastlab sarlavhani o‘qiydilar, keyin shunga mos bo‘lgan qismni matn tarkibidan topib, o‘sha qismning bosh harfini sarlavha boshiga qo‘yib, ko‘chirishlari lozim.

Javob:

A – Yurtimiz tarixini o‘rganishdagi manba;
D – Dunyoga tanilgan sayyoh;
G – Mohir ustalar shahri;
E – Dunyoga dong‘i ketgan qovun;
F – Eng mashhur o‘lkaga sayohat;
B – Ibn Battuta safar qilgan mamlakatlar;
H – Anhorlarga boy shahar.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, yurtimizdagi qanday obidalarni bilasiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish. She’rni o‘qish

Darslikda berilgan “Mening O‘zbekistonim!” she’ri hamda muallifi tanishtiriladi. O‘quvchilarga she’rni mustaqil ovoz chiqarmay o‘qishlari aytiladi.

She’rni o‘qib bo‘lishgach, o‘qituvchi bir marta baland ovozda o‘qib eshittiradi. So‘ng darslikdagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollarning javobi she’r matnida aks etgan. O‘quvchilar savollarga she’r mazmunidan kelib chiqib javob berishlari lozim. Bunda asosiy maqsad – o‘quvchining o‘qib tushunish malakasini shakllantirish. O‘quvchilar she’r matniga munosabat bildira olishi, so‘zlarni o‘zaro

bog‘lab, mazmun chiqara olishi hamda matnda qo‘llangan o‘xshatishlarni tushunib, aytib bera olishi lozim.

Muhokama

Matnda *gul makonim* birikmasi qanday ma’noda kelgan? Shoir bu orqali nima demoqchi? Fikringizni izohlang.

Bunda o‘quvchi she’r matni tarkibidan olingan *gul makonim* birikmasini tushunib, matnda qanday ma’noda kelayotganini, yurtimizning chiroyli manzarasi, tashqi qiyofasi gulga qiyoslanganini o‘quvchi aytib bera olishi lozim.

Rasmlarga qarang. Ular o‘rtasida bog‘liqlik bormi? Nega ular har xil atalyapti? Fikringizni izohlang.

Bunda she’r matni tarkibida kelgan *gul* so‘ziga turli xil qo‘shimchalarni qo‘shish orqali turli ma’nodagi so‘zlarni hosil qilish mumkinligini tushuntirish maqsad qilingan. Sxema ko‘rinishida berilgan rasm o‘qituvchi tomonidan doska yoki proyektorda ko‘rsatilib, quyidagicha izohlab beriladi*: “Ko‘rib turganingizdek, sizga havola etilgan sxemada gul va gul so‘zidan hosil bo‘lgan so‘zlar rasmlar bilan ifodalab berilgan. Demak, gul – xushbo‘y ifor taratuvchi, chiroyli ko‘rinishga ega bo‘lgan o‘simlik, gulzor bu – gul ekishga mo‘ljallangan joy, guldon – gul solinadigan idish, gulchi – gulni parvarish qiladigan kishi kabi har xil ma’nolarni anglatadi, ammo hamma so‘z gul bilan bog‘liq. Ularga so‘roq berish orqali ham har xil tushuncha anglatishini bilib olishimiz mumkin.*

Yozma mashq. Morfologiya. Leksikologiya

7. Matnda nimaning nomlari aytilgan? Ularni quyidagi guruhlarga bo‘lib yozing.

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar she’r matni bilan qayta ishlaydilar. Unga ko‘ra, she’r matni tarkibidan quyidagi jadvalga mos keluvchi so‘zlarni aniqlab, yozib chiqishlari lozim.

Javob:

Joy nomlari	Tarixiy obida nomlari	Musiqa nomlari
Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Xiva, Kesh, Shosh...	Ichan qal’a, Shohi Zinda, Chor Bakir, Ko‘kaldosh, Labi Hovuz, Sherdor, Registon, Hastimom...	Tanovar, Lazgi, Dilxiroj...

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, O‘zbekiston xaritasini bilasizmi? U qanday bo‘ladi?

Asosiy qism

Yozma nutq

8. Sayyohlik xaritasiga qarab O‘zbekistondagi qadimiy obidalar haqida matn tuzing.

Darslikda yurtimizdagi mashhur obidalarning xaritasi berilgan. O‘quvchilarga xarita haqida ma’lumot beriladi: *“Sizga havola etilayotgan ushbu xaritada yurtimizdagi viloyatlar joylashuvi hamda tarixiy obidalar qaysi viloyat hududida ekani aks etgan. Ko‘rib turganingizdek, har bir viloyatning hududi har xil rang bilan ajratib berilgan. Siz mashhur obidalarning yo‘nalishi bo‘yicha qaysi viloyatda joylashganini ifodalab gaplar tuzing hamda gaplarni mazmunan bog‘lab matn ko‘rinishida yozing”.*

O‘quvchilar xarita bilan tanishib bo‘lgach, ularga loyiha tayyorlash uchun quyidagi ko‘rsatmalar beriladi:

• tuzgan matningiz bolalar ensiklopediyasidagi matnlarga o‘xshash bo‘lsin;

• binoning nomi, qaysi shaharda joylashgani haqida ma’lumot bering;

• agar bilsangiz, bino haqida qisqacha ma’lumot ham yozing.

Bunda o‘quvchilar erkin fikrlab, ijodiy yondashib yozishlari lozim. O‘quvchilar namuna sifatida berilgan matn boshlanmasidan foydalanishlari mumkin.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, har biriga yozganlari o‘qitiladi. Gap tuzishdagi xato va kamchiliklar izohlab beriladi. Eng yaxshi yozilgan matn egasi rag‘batlantiriladi.

MUSTAHKAMLASH

Nutqiy mavzu yakunlangach, mustahkamlash darsi bo‘lib o‘tadi. Unda berilgan topshiriqlar o‘quvchining fan yuzasidan tutgan daftariga bajariladi. Topshiriqlar o‘tilgan nutqiy mavzu doirasida berilgan. O‘quvchilar og‘zaki va yozma holatda topshirishlari lozim.

Og‘zaki/yozma nutq

Ayting-chi, qaysi tarixiy obidalar bilan tanishdingiz? Ular haqida qisqacha ma’lumot bering.

1. O‘qigan matnlaringizda uchragan joy nomlarini yozing. Ularning yozilishiga e’tibor bering.

Namuna: *Samarqand, …*

2. Tasavvur qiling, siz sayohatchisiz, o‘zingiz uchun sayohat xaritasi tayyorlang.

- Qayerga bormoqchisiz?
- Qanday borasiz?
- Nimalarni tomosha qilmoqchisiz?



KULOLCHILIK

(5 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: kulolchilik, hunarmanchilik bilan bog‘liq tasavvurlarni kengaytirish, ushbu jarayonda faol qo‘llanadigan til birliklaridan foydalanishga o‘rgatish, berilgan mashq va topshiriqlar yordamida og‘zaki, yozma, o‘qib va tinglab tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi. O‘quvchilarga “Kulolchilik nima?”, “Kulol kim?” kabi savollar bilan murojaat qilinadi. Ushbu mavzu doirasida kirish suhbati olib boriladi. Darslikda berilgan rasmga e’tibor qaratiladi. Rasmdagi narsalar nomlanadi, ular haqidagi ma’lumotlar aytiladi.

Asosiy qism

Tinglab tushunish

O‘quvchilar audiomatnni tinglash jarayoniga tayyorlanadilar. Audiomatn zaruriyatga qarab bir necha marta eshittirilishi mumkin. O‘quvchilar muhim deb hisoblangan o‘rinlarni o‘zlariga qayd etib borishlari mumkin. O‘qituvchi qaydlarni tez va tushunarli usulda qanday qilib belgilab olish mumkinligi haqidagi ayrim tavsiyalarni berishi maqsadga muvofiq.

Audiomatnni tinglang. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Xorazm, Marg‘ilon, Toshkent va Rishton qanday hunarmandchilik maktablari bilan mashhur? Rasmlar asosida aniqlang.

Darslikda berilgan rasmlar orqali o‘quvchilar har bir hududga tegishli bo‘lgan hunarmandchilik maktablarini aniqlaydilar. Bu topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilarda berilgan ma’lumotlarni ikkinchi shaklda berilgan ma’lumotlar bilan bog‘lay olish ko‘nikmasi rivojlantiriladi.

2. Kulolchilik buyumlari deganda nimani tushunasiz?

O‘quvchilar dars boshida va audiomatnni tinglagandan so‘ng o‘z tasavvurlarini yanada aniqlashtirib oladilar va kulolchilik buyumlari, ularning ahamiyati haqida gapiradilar.

3. Rishtonda kulolchilik rivojlanishining asosiy sababi nimada?

Audiomatnda ushbu ma’lumot ochiq holda berilgan bo‘lib, o‘quvchilar yodida qolgan ma’lumotlar asosida savolga javob beradilar.

4. Kulol o‘zi yasagan buyumlarga qanday ishlov beradi?

Bu jarayon haqida matnda ayrim ma’lumotlar berilgan. O‘quvchilarning javoblari aynan mana shu ma’lumotlar bilan bog‘liqligiga e’tibor qaratiladi. Agar o‘quvchilar ushbu mavzudagi qo‘shimcha ma’lumotlarni aytmoqchi bo‘lsalar, o‘qituvchi ulardan avval matndagi ma’lumotlarni aytishni, so‘ng qo‘shimcha ma’lumotlar haqida gapirish mumkinligini tushuntiradi.

5. Sopol buyumlar qanday talablarga javob berishi kerak?

Sopol buyumlarga qo‘yiladigan talablar haqida gapiriladi. Shu o‘rinda sopol buyumlarning ahamiyati haqida suhbat olib borilishi maqsadga muvofiq.

6. Ayting-chi, uyingizda kulolchilik buyumlari bormi? Qaysilar?

O‘quvchilar ushbu savolga javob berar ekanlar, o‘qituvchi ular nutqida kulolchilik, sopol idishlar bilan bog‘liq so‘zlarning qo‘llanishiga alohida e’tibor qaratadi.

Yozma mashq

1. To‘g‘ri ma’lumotlarni daftaringizga yozib oling.

Ushbu topshiriq tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. Noto‘g‘ri ma’lumotlar izohlanishi maqsadga muvofiq. Matnda berilgan ma’lumotlar asosida to‘g‘ri ma’lumotlar ajratib olinadi va daftarga ko‘chiriladi.

1. To‘g‘ri. 2. Noto‘g‘ri. 3. Noto‘g‘ri. 4. To‘g‘ri. 5. To‘g‘ri.

Yozma nutq

2. Tinglagan matningiz yuzasidan 3 ta savol tuzib yozing.

O‘quvchilar o‘zlari tinglagan va suhbat paytida bilib olgan ma’lumotlari asosida uchta savol tuzib, yozadilar. Bunda ularga muhimni nomuhimdan ajratish ko‘nikmasi yordam beradi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Kulolchilik haqida qisqa suhbat olib boriladi. O‘tgan darsda tinglangan audiomatndagi ma’lumotlar yodga olinadi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Bir necha o‘quvchilar “Kulol” she’rini ifodali o‘qib beradilar. Zarurat sezilsa, o‘qituvchi she’rni qayta ifodali o‘qib beradi. O‘quvchilar nutqi kuzatiladi, she’r o‘qish bo‘yicha kerakli tavsiyalar beriladi.

1. Kulolchilik qanday kasb ekan? Bu haqda she’rning qaysi bandida aytilgan?

O‘quvchilar avval aynan qaysi bandda ushbu savolga beriladigan javob borligini aniqlaydilar. Shundan so‘ng she’rda kulolchilik kasbiga berilgan ta’rif asosida javob beradilar.

2. She’rda kulolning qanday yumushlari aytib o‘tilgan? Tartib bilan ayting.

Savolga javob berishda ham she’rda berilgan ma’lumotlardan foydalaniladi. O‘quvchilarning javoblari tartib bilan berilayotganiga alohida e’tibor qaratiladi. Javoblar qanday holatda tartib bilan berilishiga namuna keltirish mumkin.

3. Kulol qiyinchiliklarni qachon unutar ekan? Bu haqda she’rning qaysi bandida aytilgan?

Ushbu savol ham o‘quvchida matn qismlarini ajrata olish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar savolga javob bo‘la oladigan qismni aniqlaydilar, ulardan qayta o‘qib berish hamda o‘z so‘zlari bilan aytib berish so‘raladi.

4. Siz ham xuddi kuloldek biror hunar bilan faxrlanishni istaysizmi?

Shu o‘rinda o‘qituvchi hunar nima ekanini, uning ahamiyati haqida rangli rasmlar yordamida qo‘shimcha ma’lumot berishi maqsadga muvofiq. Shu asosda o‘quvchilar qanday hunar bilan shug‘ullanishni ma’qul ko‘rishlarini aytadilar.

Yozma mashq. Leksikologiya

3. She’rdan kulolchilik bilan bog‘liq so‘zlarni ajratib, yozing.

Namuna: naqsh.

O‘quvchilar aynan kulolchilik bilan bog‘liq so‘zlarni ajratadilar, ular haqida og‘zaki suhbat olib boriladi. Ajratib olingan so‘zlarni daftarga ko‘chiradilar.

Hunarmand, sopol, loy.

4. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini lug‘atdan toping. Ushbu so‘zlarning ma’nosiga mos gaplarni aniqlab yozing. Izohlangan so‘zlarning tagiga namunadagidek chizing.

Namuna

Dovrug‘i: rassom chizgan suratlarning ovozasi podshohga yetib boribdi.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning so‘z ma’nolarini izohlash va ularni nutqda qo‘llay olish bilan bog‘liq ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar she’r matnida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohlarini lug‘atdan aniqlaydilar, so‘ng ushbu izoh yordamida ularni boshqa gap tarkibida qo‘llab ko‘radilar.

*Asqatadigan: sumkam sayohatda **kerak bo‘ladigan** narsalar bilan to‘la edi.*

*Mengzab: vaqtni oltinga **o‘xshatamiz**.*

*Asil: do‘konda **a’lo sifatli** matolar ko‘p.*

*Zahmat: muvaffaqiyatga **qiyinchilik** bilan erishamiz.*

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Kulolchilik, ushbu hunar, u bilan shug‘ullanuvchi inson haqidagi ayrim savollar asosida suhbat olib boriladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

O‘quvchilarning e’tibori darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi. Rasmni kuzatish uchun vaqt beriladi. Savollarga javob berishga tayyorlanish aytiladi.

1. Rasmda qanday buyumlar tasvirlangan? Nomini ayting.

O‘quvchilar rasmda berilgan narsalarning nomini aytadilar, ushbu buyumlardan qachon foydalanish haqida so‘raladi.

2. Bu buyumlarni kim, qanday xomashyodan tayyorlaydi?

O‘quvchilar ushbu buyumlarni kulollar tayyorlashi haqida gapiradilar, qanday xomashyolardan foydalanilishi haqida ma’lumot beradilar. Shu o‘rinda o‘qituvchi hunarmandlar, ular nimalar bilan shug‘ullanishi, hunarmandlarning vazifalari, ular ishlatadigan asbob-uskunlar haqida suhbat olib borishi mumkin.

3. Siz yana qanday kulolchilik buyumlarini bilasiz?

O‘quvchilar kulolchilik buyumlaridan yana nimalarni bilishi haqida, o‘zlari kuzatgan, ko‘rgan narsalari haqida ma’lumot berib, odamlar ulardan nima maqsadda foydalanishi haqida gapiradilar.

4. Ushbu buyumlarning qanday tayyorlanishini bilasizmi? Ketma-ketlikda aytib bering.

Ushbu savolga har bir o‘quvchi o‘zi tasavvur qilgan jarayon haqida gapirib berish orqali javob beradi. Jarayonda qo‘llanadigan asbob-uskunalar, kerakli xomashyo haqida ma’lumot beriladi. Ehtiyoj sezilsa, o‘qituvchining o‘zi ushbu jarayon haqida ma’lumot berishga tayyor turishi kerak.

5. Kulolchilik buyumlaridan nima maqsadda foydalanamiz?

Kulolchilik buyumlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning boshqa buyumlardan farqi haqida suhbat olib boriladi. Ushbu hunarga yurtimizda berilayotgan e’tibor haqida ma’lumotlar beriladi.

Yozma mashq. Leksikologiya

5. Rasmda berilgan kulolchilik buyumlarining nomini yozing. Sizning shevangizda ular qanday atalsa, uni ham yozing.

Namuna: lagan – quyuq ovqat solinadigan katta yassi idish. Shevada: tovoq, charqi, la’li.

Yuqoridagi rasmda berilgan sopol buyumlarning nomlari yoziladi, ular yana qanday atalashi mumkinligi so‘raladi. Shu orqali shevaga xos so‘zlar, ularning qo‘llanishi, nutqimizdagi ahamiyati haqida suhbat olib boriladi.

Piyola, kosa, qoshiq, lagan, likop, oftoba, xum, ko‘za.

6. Tasavvur qiling: siz kulolsiz, yaqin do‘stingiz uchun qanday buyum yasab berasiz? Uni ta’riflab yozing.

Har bir o‘quvchi o‘zi tayyorlamoqchi bo‘lgan buyum haqida yozadi, o‘qituvchi o‘quvchilarga berilgan ko‘rsatmalar asosida matn yaratishni tavsiya etadi. Har bir savolga javob berishda kerakli til birliklarini tanlash uchun bir nechta so‘zlarni xattaxta orqali namoyish etishi yoki og‘zaki aytib ularga yordam berishi mumkin.

O‘quvchilar o‘z yozma ishlarini namoyish etishadi. O‘qituvchi ushbu yozma ishlarning yutug‘i va kamchiliklari haqida ma’lumot berib, ularga munosabat bildiradi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, hiyla nima?

O‘quvchilarga ushbu savol bilan murojaat qilinadi, bu boradagi fikr-mulohazalari tinglanadi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

O‘quvchilar darslikda berilgan ertakni o‘qish jarayoniga tayyorlanadilar. Avval matnni har bir o‘quvchi ichida o‘qib chiqadi. O‘qish bilan bog‘liq muammolari bor o‘quvchilardan esa alohida qayta o‘qish so‘raladi. Ular nutqida uchragan kamchiliklar qayd etib boriladi va tuzatiladi.

1. Atrofdagilarning havasi va hasadini keltiruvchi orol qanday ekan?

Ushbu savolga javob berishdan oldin o‘quvchilardan “hasad” va “havas” tushunchalari haqida so‘raladi. Shundan so‘ng berilgan savolga javoblarni tinglash mumkin.

2. Hukmdor orol ahlini yengish uchun qanday taklifni qabul qildi? Bu taklifni kim berdi?

Savolga javob berishda o‘quvchilar matnni qay darajada o‘qib tushunganliklari baholanadi, ya’ni matnda ochiq ko‘rinishda berilgan ma’lumotni aniqlash so‘ralgan.

3. Oroldagi nuroniy chol nima uchun kuyindi? Unga quloq solishdimi?

O‘quvchilar matnning tafsilotlarini aniqlay olishi, sabab va natijaning o‘zaro aloqadorligini matn asosida tushuntirib berishlari kerak.

4. Nima uchun orol ahli yashab turgan joyini tark etdi? Ular nima uchun yashashga boshqa qulay joy topisha olmadi?

Ushbu savolga javob berishda o‘quvchilarning matnda berilgan ma’lumotlarni tushunish darajasi baholanadi. Bundan tashqari, ushbu voqeaning ro‘y berishiga sabab bo‘lgan omillarni aniqlash, qahramonlar xatti-harakatlarini baholash, ularga munosabat bildira olish ham muhim sanaladi.

5. Orol ahli nimani anglab yetdi? Sizningcha, bu to‘g‘rimi? Nima uchun?

O‘qituvchi o‘quvchilardan ushbu savolga javob bo‘la oladigan qismni aniqlashni va uni qayta o‘qishni so‘rashi mumkin. Javob aniqlangandan so‘ng o‘quvchilar ushbu voqeaga nisbatan o‘z munosabatlarini bildiradi.

Yozma mashq. Imlo

7. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ko‘chiring. Imlosiga e’tibor bering.

Matnda juft so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan. O‘quvchilarga misollar asosida juft va takroriy so‘zlar va ularning imlosiga oid ma’lumotlar beriladi. Ularning bir-biridan farqi tushuntiriladi.

8. Matndan orol tasviri berilgan gaplarni aniqlang va ko‘chiring.

Berilgan savolning mohiyatidan kelib chiqqan holda orol tasviri bilan bog‘liq gaplar yozib olinadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning e’tiborini tasvirda qo‘llanayotgan til birliklariga qaratadi. Ularning ma’nolari, so‘roqlari haqida qo‘shimcha savollar beriladi.

Qadimda to‘rt tomoni suv bilan o‘ralgan bir orol bor ekan. Uning tabiati juda go‘zal, mevalari bolday shirin, havosi toza, suvlari zilol bo‘lib, atrofdagi o‘lkalarda yashovchilarning havasini, hatto hasadini keltirar ekan.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

“Kulol cholning hiylasi” matni qayta hikoya qilinadi, o‘quvchilar matnni qismlarga ajratgan holda uni aytib beradilar. Matnni qismlarga ajratishda nimalarga e’tibor qaratish kerakligiga alohida to‘xtalib o‘tish zarur.

Asosiy qism

Muhokama

1. Langarning matndagi ma’nosiga mos rasmni aniqlang.

Ushbu mashqni bajarish orqali o‘quvchilar “langar” so‘zi ko‘p ma’noli so‘z ekanini tushunib oladilar, ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’nolari matn yordamida aniqlanishini bilib oladilar. “Langar” so‘zining qolgan ma’nolari ustida ishlash uchun o‘quvchilar ushbu ma’nolarni qo‘llab, yangi gaplar hosil qilishlari va og‘zaki aytib berishlari mumkin.

2. Donishmandning fikricha, orol nimaga o‘xshaydi?

Matndan donishmandning fikri berilgan jumlalar aniqlanadi va savolga javob beriladi. Donishmand odam orolni kemaga, tepalikni esa langarga o‘xshatgani aniqlanadi. O‘quvchilar esa ushbu o‘xshatishni izohlashi kerak bo‘ladi. Orol qaysi jihatlari bilan kemaga o‘xshashi haqida ma’lumot beriladi. O‘quvchilar orolni yana nimalarga o‘xshatish mumkinligi haqida qo‘shimcha fikr bildirishi mumkin.

3. Ushbu ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

Har bir o‘quvchi o‘z xulosalari haqida o‘ylab ko‘radi va ularni og‘zaki bayon etadi. Xulosa va fikrni ifodalashda qo‘llanadigan til birliklarini tanlashda, ularni qo‘llashda o‘qituvchining tavsiyalariga tayaniladi.

Yozma nutq

9. “Kulol cholning hiylasi” matni asosida 3 ta savol tuzib yozing va partadoshingizga bering. Partadoshingiz tuzgan savollarga esa qisqa javob yozing.

Berilgan matn asosida savollar tuziladi, so‘ng ularni yozish so‘raladi. Berilayotgan savollarning mazmuni, ularning shakli, so‘roq so‘zni tanlash bilan bog‘liq tavsiyalar berib boriladi. O‘quvchilar tuzgan savollarini partadoshlari bilan almashadilar, savollarga qisqa javob yozadilar. O‘quvchilarning yozma ishlari tekshiriladi va munosabat bildiriladi.

10. Rasmni diqqat bilan kuzating. Ushbu rasm asosida suhbat matni yozing.

O‘quvchilarga rasmni kuzatish aytiladi. Rasm asosida suhbat matni yoziladi. Ularga matn tuzish uchun ba’zi tavsiyalar va ko‘rsatmalar beriladi, o‘quvchilar o‘z g‘oyalari asosida fikrlarini izchil, ketma-ketlik bilan, imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozib beradilar.

Matnda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan til birliklarining imlosi xattaxta yoki elektron doska orqali namoyish etilishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilardan qaysi so‘zni yozishda ikkilanayotganlari haqida tez-tez so‘rab turiladi.

Berilgan topshiriqni bajarishda muammoga duch kelayotgan o‘quvchilarga alohida shaklda kerakli amaliy tavsiyalar berib boriladi.

O‘quvchilar ijodiy ishlarining taqdimoti bo‘lib o‘tadi, ularga munosabat bildiriladi va baholanadi.

KITOBDAN YAXSHISI YO‘Q

(6 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarni kitobxonlikka yo‘naltirish, kitob o‘qish qoidalari haqida tasavvur paydo qilish, berilgan matn tarkibidan ibora, maqol va hikmatli so‘zlarni ajrata olish, ma’nosini tushunish, ularni o‘zaro farqlash, mavzu bilan bog‘liq holda berilgan matn tarkibidan belgi bildiruvchi so‘zlarni ajrata olish, ularga so‘roq berish orqali sifat bog‘langan so‘zni aniqlash, uning ot so‘z turkumida ekaniga e’tiborni qaratish, tinglangan matn tarkibidan his-hayajon, quvonch, hayratlanishning ifodalanishi bilan bog‘liq so‘zlarni aniqlash, his-hayajon gap, his-hayajon gapning ma’nolari, ularda tinish belgisining qo‘llanishini o‘rgatish hamda mavzu doirasida matn yozish ko‘nikmasini shakllantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar bo‘lim hamda yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirib olish uchun og‘zaki suhbat o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qilinadi:

“Sizningcha, bo‘sh vaqtlaringizda foydalanish uchun kitob yaxshimi yoki telefon? Nima uchun?”

O‘quvchilarning javobi tinglangach, darslikdagi topshiriqlar bajariladi.

Asosiy qism

Tinglab tushunish

“Kitob kompyuterdan yaxshi” audiomatnini tinglang. Savollarga javob bering.

Audiomatn eshittirilgach, daslikdagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Muhammadjon ko‘p kitob o‘qishning qanday foydali jihatlarini aytib o‘tdi?

Bu savolga javob berishda o‘quvchilar qahramon tilidan aytilgan bir necha gaplarni integratsiya qilib, kitob o‘qish darslarni tushunish hamda uy vazifalarini qiynalmay bajarishda muhim ekanini aytib bera olishi lozim.

2. U qaysi asarlarni sevib o‘qigan? Siz bu asarlarni bilasizmi?

Bu savolning javobini matndan topib, qahramon sevib o‘qigan kitoblar Xudoyberdi To‘xtabo-

yevning “Sariq devni minib” asari, “Go‘ro‘g‘li” dostoni, “Ezop masallari” ekanini aytishi hamda o‘zi yoqtirgan asarni ham aytib o‘tishi lozim.

3. Kitobning kinodan farqi nimada?

Bu savolning javobi matnda ochiq ifodalanmagan. O‘quvchilar qahramonimizning kino bilan kitobni taqqoslab aytgan o‘rinlarini topib, mulohaza qilgan holda kitobdan ko‘proq tasavvur olish mumkinligini aytib bera olish lozim.

4. Sizning ham shaxsiy kutubxonangiz bormi? Unda nechta kitob bor?

Bu o‘quvchining o‘ziga qaratilgan savol. O‘quvchilar bu savolga erkin javob berishi lozim.

5. Yaqin kelajakda qaysi kitoblarni o‘qimoqchisiz?

Bu o‘quvchilarning kitoblarga qiziqishini oshirishga qaratilgan savol bo‘lib, ular o‘qimoqchi bo‘lgan kitoblari haqida o‘zaro fikr almashadilar. Bu jarayonda o‘qituvchi ham faol bo‘lib, o‘quvchilarga qiziqarli kitoblardan tavsiya qilishi maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi savollarning javoblari taxminiy bo‘lib, o‘quvchilar aynan shu so‘zlarni, shakllarni qo‘llab javob berishi shart emas, shu yo‘nalishda javob bersa yetarli. Agar o‘quvchi bu yo‘nalishni topa olmasa, namunaviy javoblar asosida o‘qituvchi yakuniy xulosani e’lon qiladi.

Yozma nutq

1. Audiomatn asosidagi fikringizdan kelib chiqib kitobning televizor va kompyuterdan yaxshi ekanini asoslovchi beshta gap tuzing.

Bu topshiriqda o‘quvchilar tinglagan matnlari asosida kitobning afzal tomonlarini yoritib berishlari lozim. Bunda kitobning televizor va kompyuterdan ustun jihatlarini matnda aynan keltirilgan gap bilan ifodalash talab etilmaydi.

O‘quvchi matndagi ma’lumotni tushungan holda erkin fikrlab, xulosa yozib berishi maqsadga muvofiq. Yozishda namunadan foydalanishi mumkin.

Namuna: *Kitob tasavvurni kengaytiradi.*

Muhokama

Maqollarni o‘qing. Mazmunini muhokama qiling.

Darslikda maqollar berilgan. O‘qituvchi ushbu maqollarni doskaga yozib qo‘yadi hamda har bir o‘quvchidan bittadan maqolning ma’nosini izohlab berishini so‘raydi.

Bu jarayonda diqqat o‘quvchining maqol mazmunini tushunishi hamda og‘zaki nutqida ifodalab berishi, maqollardagi so‘zlarning o‘rni hamda o‘xshatishlarni tushunishga qaratiladi.

Yozma nutq

2. Ayting-chi, kitob nimalarga o‘xshatilar ekan? Ularni yozing.

Bu topshiriq maqollar muhokamasidan so‘ng bajariladi. O‘quvchi maqollardagi o‘xshatishlar, hayotiy kuzatishlari asosida kitoblarni nimalarga o‘xshatilishini namunada keltirilgan gap singari yozib yakunlashi lozim.

Namuna: *Kitob – xazina, ...*

Bajarib bo‘lganlaridan so‘ng har bir o‘quvchiga yozgan o‘xshatishlari o‘qitiladi. O‘xshatishlarini isbotlab, mazmunini yaxshi ochib berolgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Sizningcha, kitoblarning bizga qanday foydasi bor?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan “Kitobxon bolalarga 9 tavsiya” matni o‘qiladi. O‘quvchilar ushbu matnni avval ichlarida o‘qib olishlariga vaqt beriladi. Keyin matnni navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Sinfdagi hamma ovoz chiqarib o‘qishi lozim. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning o‘qishlari nazorat qilib boriladi.

O‘quvchilar o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi tomonidan bir marta ifodali qilib o‘qib beriladi. So‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollar o‘quvchining o‘ziga qaratilgan bo‘lib, javobini topishda matn mazmuniga asoslanishadi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar matndan savolda nazarda tutilgan o‘rinni topib, munosabat bildira olishi lozim. Bunda o‘quvchining o‘qib tushunish malakasi, matndagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lab ma’no-mazmun chiqara olishi, matn mazmunidan yaxlit xulosa chiqarib, uni hayotiy kuzatishlari bilan bog‘lab, erkin fikrlab javob aytishiga asosiy e’tibor qaratiladi.

Og‘zaki nutq

Berilgan topishmoqlarning javobini toping. Topishmoqlarning javobini topishda sizga nima yoki qaysi so‘z yordam berdi? Izohlab bering.

Darslikda uchta topishmoq berilgan bo‘lib, o‘quvchilarga mustaqil ravishda o‘qib, javoblarini topish aytiladi. Har bir o‘quvchi topishmoqning

javobini va uni qanday topganligi, qaysi so‘zlar unga ko‘maklashganini aniqlab yozishi lozim.

Barcha topishmoqlarning javobi: *kitob.*

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, kitobsevar deganda nimani tushunasiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish. She’rni o‘qish

Darslikda berilgan “Kitobsevar” she’ri hamda muallifi tanishtiriladi. O‘quvchilarga she’rni mustaqil ravishda, ovoz chiqarmay o‘qishlari aytiladi.

She’rni o‘qib bo‘lishgach, o‘qituvchi bir marta baland ovozda o‘qib eshittiradi.

So‘ng darslikdagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollarning barchasi o‘quvchining o‘ziga qaratilgan bo‘lib, she’r matni mazmunidan kelib chiqqan holda javob berishlari lozim. Bunda asosiy maqsad – o‘quvchining o‘qib tushunish malakasini shakllantirish. O‘quvchilar she’r matniga munosabat bildira olishi, so‘zlarni o‘zaro bog‘lab mazmun chiqara olishi hamda matn mazmunida qo‘llangan o‘xshatishlarni tushunib, hayotiy kuzatishlariga bog‘lab erkin fikr bildira olishiga diqqat qaratiladi.

Muhokama

Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zga so‘roq bering. U qaysi so‘zga bog‘lanib kelgan? Bu so‘z orqali qanday ma’no tushunyapsiz? Fikringizni izohlang.

Bunda o‘quvchilar she’r matni tarkibidan *bolalarbop* so‘ziga so‘roq beradilar hamda ushbu so‘zning qaysi so‘zga bog‘lanib, nima ma’no anglatishini tushuntirib berishi lozim.

Bu topshiriq orqali o‘quvchiga biror narsaning belgisini ifodalab keladigan so‘z orqali shu narsa haqida aniqroq ma’lumotga ega bo‘lishimiz mumkinligi aytiladi. Masalan, bolalarbop dasturlar deyilganda aynan bolalarga moslashtirilgan dasturlar nazarda tutiladi, ya’ni bunda dastur so‘ziga yana bitta qo‘shimcha ma’no yuklanyapti.

Yozma mashq. Morfologiya

3. Berilgan so‘zlarni kitob so‘zi bilan birgalikda o‘qing. Bu birliklar bitta ma’noni anglatib kelganmi? Ularni izohlab yozing.

Chiroyli
Qiziqarli — ***kitob***
Katta

O‘quvchilarga ushbu sxema bilan mustaqil ravishda tanishishlari aytiladi. So‘ng ushbu sxemada nima ifodalanganini aytib berishlari so‘raladi. O‘quvchilarning javoblari tinglangandan so‘ng ularga ushbu sxema orqali kitob so‘zining bir qancha xususiyatlari bo‘lishi mumkinligi haqida ma’lumot beriladi. Unga ko‘ra,

chiroyli kitob – tashqi ko‘rinishi;
qiziqarli kitob – kitobning mazmuni;
katta kitob – kitobning hajmi.

Ko‘rib turganingizdek, *kitob* so‘ziga bitta so‘roq berish (qanday?) orqali turli ma’nolarini anglashimiz mumkin.

4. Berilgan so‘zlarni moslashtirib yozing.

Darslikda matn tarkibida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar bir ustunda va ularning sifatlarini ifodalaydigan so‘zlar ham bir ustunda berilgan. O‘quvchilar ushbu so‘z va ularning sifatlarini ma’nosiga ko‘ra moslashtirishlari lozim. Bu topshiriq mashq daftarida bajariladi.

Javob: *rangli qalam, tikanli gul, uzun ko‘ylak, katta sumka, baland bino.*

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Sizningcha, kitoblar nima uchun yoziladi?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan “Kitobning mag‘zi” matni o‘qiladi. O‘quvchilar ushbu matnni avval ichlarida o‘qib olishlariga vaqt beriladi. Keyin matnni navbat bilan ovoz chiqarib o‘qiydilar. Sinfdagi hamma ovoz chiqarib o‘qishi lozim. O‘qituvchi tomonidan ularning o‘qishlari nazorat qilib boriladi.

O‘quvchilar o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi tomonidan bir marta ifodali qilib o‘qib beriladi. So‘ng matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

1. Yosh hukmdor nima uchun kitob o‘qimasdi?

Bu savolning javobi matnda ochiq ifodalangan. O‘quvchi ushbu o‘rinni topib, yosh hukmdorning dangasa ekani, otasiga o‘xshab ma’ri-

fatparvar bo‘lmagani bois umuman kitob o‘qimasligini aytishi lozim.

2. Ayting-chi, shoh nega kitoblarning mazmuniga qiziqdi?

Bu savolning javobini o‘quvchi matndagi gaplar mazmunidan xulosalab aytib berishi lozim. Bunda shoh ko‘p kitob o‘qimagani uchun uning mazmuniga qiziqishi aytilgan o‘rinni topib, mulohaza qilib aytishi kerak.

3. Nima deb o‘ylaysiz, shoh kitoblarni o‘qiganda uning hayoti qanday kechardi?

Bu savol o‘quvchining erkin fikrlab, ijodiy yondashib javob berishiga qaratilgan bo‘lib, o‘qilgan matn mazmunidan kelib chiqib javob berilishi lozim.

4. Rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz? So‘zlab bering.

Bu savolga har bir o‘quvchining bergan javobi tinglanadi. Bunda o‘quvchilar matnga munosabat bildirishi, xulosa qilib, hayotiy kuzatishlari asosida erkin fikrini ifodalab berishi lozim.

O‘quvchilarning javobi tinglangach, o‘qituvchi tomonidan umumiy xulosa aytiladi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, “Kitobning mag‘zi” rivoyatidan nimalarni bilib oldingiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Berilgan gaplarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlab, ayting. Fikrlaringizni matn orqali isbotlang.

Darslikda matndagi ma’lumotlar asosida gaplar berilgan. Ushbu gaplarning ayrimlarida ma’lumotni yetkazishda xatolik uchraydi. O‘quvchilar ushbu ma’lumotlar orasidan to‘g‘ri deb hisoblaganlarini aniqlab, ko‘chirib yozishlari lozim.

Javob:

• Shohning kutubxonasini ko‘rish uchun turli mamlakatlardan olimlar kelgan.

• Olimning aytishicha, kitoblarning mavzusi turli xil bo‘ladi.

• Olim kutubxonadagi kitoblar mazmunini 500 kitobga jamlab kelgan.

Yozma nutq. Leksikologiya. Sintaksis

5. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohini darsligingiz oxiridagi lug‘atdan topib, yozing.

Bu topshiriq orqali o‘quvchida lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish hamda uning so‘z boyligini oshirish maqsad qilib olingan.

Bunda o‘quvchilar matn tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni darslikning oxiridagi lug‘atdan topib, yozishlari lozim.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, birma-bir yozganlari o‘qitiladi. Maqsad – ularda ushbu so‘zlar bilan bog‘liq tushunchalar paydo qilish.

6. Berilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang. Bu so‘zlardan hozir ham foydalanamizmi? Nima uchun? Ayting-chi, bu so‘zlarning o‘rniga boshqa so‘z qo‘llash mumkinmi? Ularni yozing.

Berilgan so‘zlar doskaga yoziladi. Har bir o‘quvchidan ushbu so‘zning ma’nosi so‘raladi. O‘quvchilar ushbu so‘zlar matn tarkibidagi ma’nolari asosida nimani anglatib kelishini izohlab berishi lozim. So‘ng izohlangan so‘zning hozirgi ma’nosiga teng keladigan so‘z topib, aytadi.

Bu topshiriq orqali o‘quvchiga tarixiy so‘zlar haqida ma’lumot beriladi va hozirgi kunda ushbu so‘zlar o‘rnida boshqa so‘zlar qo‘llanishi haqida izoh berib o‘tiladi.

7. O‘qigan matningiz yuzasidan 3 ta savol tuzib, yozing.

O‘quvchilar o‘qigan matnlarining ma’no-mazmunidan kelib chiqib, uning ma’nosini anglashga qaratilgan, namunadagi kabi savol tuzib, yozishlari lozim. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining matnni tushunishiga qaratiladi.

O‘quvchilar yozib bo‘lgach, ularga tuzgan savollari o‘qitiladi hamda eng yaxshi savollar doskaga yozilib, nima uchun yaxshi ekani izohlab beriladi.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, qaysi kitobni sevib o‘qigansiz? Uni sizga kim bergan?

Asosiy qism

Yozma nutq

8. Do‘stingiz uchun biror kitobni tavsiya qilib xat yozing.

Bu topshiriqni har bir o‘quvchi mustaqil ravishda yozishi lozim. Dastlab o‘quvchilar bilan sevib o‘qigan kitoblari haqida suhbat o‘tkaziladi. So‘ng har bir o‘quvchi do‘stiga sevib o‘qigan kitobini tavsiya qilib xat yozishi aytiladi. Xatida quyidagi ma’lumotlar bo‘lishiga e’tibor qaratishi eslatiladi:

- *kitobning nomi;*
- *kitobning muallifi;*
- *kitobning turi (badiiy kitob, darslik, ilmiy kitob);*
- *kitobni qayerdan topish mumkinligi;*
- *kitob ta’rifi;*
- *nima uchun bu kitobni o‘qish kerakligi.*

Topshiriqni bajarib bo‘lishgach, bir necha o‘quvchiga yozgani o‘qitiladi, xato va kamchiliklari to‘g‘rilanadi.

ERTAKLAR – YAXSHILIKKA YETAKLAR

(7+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘quvchilarning ertak qahramonlari, ularning salbiy va ijobiy xislatlari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Sinonimlik hodisasi bilan chuqurroq tanishtirish, asar qahramonlarining xarakterlarini aniqlash hamda ularga mos sifatlarni bera olishni o‘rgatish. Tinglangan hamda o‘qilgan matndagi ochiq va yopiq ifodalangan ma’lumotlarni tushunish, ko‘p bosiqchli topshiriq shartini o‘qib tushunish, chunki bog‘lovchisini qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ertak qahramonlariga tanqidiy baho bera olish ko‘nikmasini shakllantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Tashkiliy qismdan so‘ng o‘quvchilar yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirishib olish uchun ular bilan og‘zaki suhbat, muhokama o‘tkaziladi. Muhokamada quyidagi savollar navbati bilan beriladi:

- *Ertak nima?*
- *Ertakning oddiy matnlardan qanday farqi bor?*
- *Siz qaysi ertaklarni bilasiz?*
- *Ertaklar asosida ishlangan multfilmlarni bilasizmi?*

Savollarni bir necha kishidan so‘rash talab etiladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasm asosida suhbat

Darslikda 6 ta ertakdan epizodlar keltirilgan. Ertaklar yo o‘tgan yillar davomida o‘qilgan, yo juda mashhur, o‘quvchi uni o‘qimagan bo‘lish ehtimoli juda past.

1-rasm: “Zumrad va Qimmat”	2-rasm: “Ur, to‘qmoq!”	3-rasm: “Sharikning tug‘ilgan kuni”
4-rasm: “Bo‘ri va uloqchalar”	5-rasm: “Qizil qalpoqcha”	6-rasm: “Bo‘g‘irsoq”

O‘quvchilar bilan har bir rasmga alohida to‘xtalish, o‘sha ertak haqida eslaganlarini aytib berishlarini so‘rash lozim. Suratlar asosida suhbat quyidagi savollar doirasida amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

1. Bu rasm qaysi ertakdan olingan?
2. Ertakda qanday qahramonlar qatnashgan?
3. Ertakning voqelari qanday kechadi?
4. Ertakning sizga yoqqan joyi qaysi?
5. Ertakdagi qaysi qahramon sizga yoqadi? Nima uchun?

Har bir surat bo‘yicha suhbat nihoyasiga yetgach, darslikdagi savollarga o‘tish mumkin. Ushbu savollar orqali o‘quvchilarda ertak qahramonlari haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash va ularda ertak qahramoni degan tushunchani paydo qilish nazarda tutilgan.

1. Ertak qahramoni deganda nimani tushunasiz?

Ushbu savolga o‘quvchilar o‘zlari istagandek javob berishi mumkin, lekin o‘qituvchi javoblarni umumlashtirib, yakuniy izohni aytishi lozim:

Ertak voqelarida qatnashuvchilar ertak qahramonlari deyiladi. Ertak qahramonlari yaxshi yoki yomon bo‘lishi mumkin. Qahramonning yaxshi yoki yomonligi u bajarayotgan ishlar, aytayotgan gaplar orqali aniqlanadi.

2. Ushbu ertaklarning qahramonlarini sanab bering.

Endi o‘quvchilarga istalgan rasmni ko‘rsatib, o‘sha ertakdagi qahramonlarni sanab berishni so‘rash mumkin.

3. Siz yana qaysi ertaklarni bilasiz? Ulardagi qaysi qahramonga o‘xshashni istardingiz? Nima uchun?

O‘quvchilar navbati bilan qaysi ertaklarni bilishi haqida gapirar ekan, o‘sha ertaklarda o‘zlari havas qiladigan, unga o‘xshashni istaydigan qahramoni haqida batafsil so‘zlab berishlari kerak bo‘ladi.

Yozma nutq

1. O‘quvchilar o‘zlari bilgan ertak haqida darslikda so‘ralgan ma’lumotlarni yozib berishlari lozim. Ular mashqni mashq daftari yoki oddiy daftarga bajarishlari mumkin. Bu topshiriq bilan mavzuning 1-soati yakunlanadi. Bunda o‘quvchilardan qisqalik talab qilinishi eslatiladi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quvchilarda ijobiy va salbiy qahramon degan tushuncha yaxshiroq shakllanishi uchun “*Ertakning ijobiy qahramoni qanday xislatlarga ega bo‘ladi deb o‘ylaysiz? Salbiy qahramonlar nimasi bilan salbiy?*” kabi savollar beriladi.

Asosiy qism

Tinglab (ko‘rib) tushunish

O‘quvchilarga “Oltin tarvuz” ertagi asosida ishlangan multfilm qo‘yib beriladi. Multfilmni o‘qituvchi ora-orada to‘xtatib, ba’zi savollarni berishi mumkin, masalan:

Dehqon nima uchun soy bo‘yiga bordi?

Laylak nima uchun yerga qulab tushdi?

Dehqon nima sababdan laylakni uyga olib bordi? va h.k.

Savol-javob

Multfilm to‘liq tomosha qilib bo‘lingach, o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Nima uchun laylak dehqon va savdogarga ikki xil tarvuz urug‘i berdi?

O‘quvchilar bunda savdogar hamda dehqonning laylakni topib olish voqealarini eslashi, tarvuz urug‘larining ikki xil bo‘lishi ko‘ngildagi niyatga bog‘liq ekanini tushunishlari va imkon qadar yetkazib berishlari kerak.

2. Bozordagi odamlar nima uchun dehqonga rahmat aytishdi?

Bozorda dehqonga ikki insonning nima sababdan rahmat aytgani haqida fikr bildirishlari lozim.

3. Nima deb o‘ylaysiz, savdogar nima uchun hamma yoqni tambalab, keyin tarvuzni so‘ydi?

Bunda o‘quvchilar savdogarning qizg‘anchiq ekani, hamma narsaga faqat o‘zim egalik qilsam degan xayoli borligi haqida aytishi kerak.

Yozma mashq

2-topshiriq. Ikki ustunda ma’lumotlar berilgan. Birinchi ustunda ijobiy qahramonlarga tegishli sifatlar, ikkinchi ustunda ularning izohi. O‘quvchilar bu ikki ustunni o‘zaro moslashtirishlari kerak bo‘ladi. O‘qituvchining bu yerdagi roli darslikdagi izohni o‘z o‘quvchisi tilida qayta so‘zlab berishdan iborat. Barcha izohlar moslashtirib bo‘lingach, topshiriqning ikkinchi qismi – “Oltin tarvuz” ertagidagi dehqon obrazida uchraydigan sifatlarni aniqlash va mashq daftariga ko‘chirib yozishga o‘tish mumkin. Bunda topshiriqning ikkinchi qismini avval og‘zaki bajarib olgan ma’qul. Har bir o‘quvchi nima sababdan aynan shu sifat dehqon obrazida mavjud ekanini tushuna olishi lozim. Ushbu topshiriq orqali shunga erishish maqsad qilingan.

3. Ikki ustunda ma’lumotlar berilgan. Birinchi ustunda salbiy qahramonlarga tegishli sifatlar, ikkinchi ustunda ularning izohi. O‘quvchilar bu ikki ustunni o‘zaro moslashtirishlari kerak bo‘ladi. O‘qituvchining bu yerdagi roli darslikdagi izohni o‘z o‘quvchisi tilida qayta so‘zlab berishdan iborat. Barcha izohlar moslashtirib bo‘lingach, topshiriqning ikkinchi qismi – “Oltin tarvuz” ertagidagi savdogar obrazida uchraydigan sifatlarni aniqlash va mashq daftariga ko‘chirib yozishga o‘tish mumkin. Bunda topshiriqning ikkinchi qismini avval og‘zaki bajarib olgan ma’qul. Har bir o‘quvchi nima sababdan aynan shu sifat savdogar obrazida mavjud ekanini tushuna olishi lozim. Ushbu topshiriq orqali shunga erishish maqsad qilingan.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ushbu soat sinonimlar borasidagi tushunchalarni yanada chuqurlashtirish, salbiy va ijobiy obrazlar haqidagi tushunchalarni umumlashtirishga bag‘ishlanadi. O‘qituvchi avvalgi sinflar, mavzularda o‘tilgan ma’nodoshlik xususiyati haqidagi savollarni berish bilan darsni boshlaydi:

Bir necha so‘z bir xil ma’no anglatishi mumkinmi? Shunday so‘zlardan qaysilarini bilasiz?

Asosiy qism

Leksikologiya

O‘qituvchi xattaxtani to‘rt ustunga bo‘ladi, 4 ustunning har biriga bittadan so‘z yozadi: *baxil, saxiy, aqlli, yolg‘onchi*. O‘quvchilar qolgan so‘zlar orasidan shu so‘zlarning ma’nodoshlarini topib, yozishlari kerak bo‘ladi. Mashq to‘laligicha xattaxtada bajariladi. Har bir so‘z yozilganda o‘qituvchi ularning izohini ham tushuntirib berishi talab etiladi.

Mana shu topshiriq davomida “Ma’nosi bir-biriga o‘xshaydigan so‘zlar ma’nodosh so‘zlar deyiladi” degan qoidani ham singdirib ketish maqsadga muvofiq.

Muhokama

O‘quvchilar bilan muhokama o‘tkazish tavsiya etiladi. Mavzu: ijobiy va salbiy qahramonlar haqida nimalarni bilishimiz kerak? Darslikda jadval berilgan bo‘lib, ikki ustunida ijobiy va salbiy qahramonlarga tegishli sifatlar berilgan. O‘qituvchi o‘quvchilarga bularni bilish har qanday asar o‘qiganda, tahlil qilganda qaysi qahramon ijobiy, qaysi qahramon salbiy xarakterda ekanini ajratib olish uchun kerakligini tushuntirishi lozim. Ushbu qoidalarini tushuntirishda o‘qituvchi biror o‘yinni qo‘llamasligini tavsiya etamiz. Bu juda muhim ko‘nikma hisoblangani uchun bolaning ongini o‘yin bilan chalg‘itish tavsiya etilmaydi. Darsda o‘yinlarning o‘rinsiz qo‘llanishi oqibatida bolaning diqqati o‘yinni o‘ynashga yo‘naltiriladi, asosiy maqsad esa chetda qolish ehtimoli yuqori. Bu qoidalarni muhokama usulida tushuntirish tavsiya etiladi. Har bir sifatdan keyin o‘qituvchi bolalarga tanish bo‘lgan biror ertak qahramonini misol qilib keltirishi samarani yanada oshiradi. Misol keltirganda qahramonning aynan shu sifati yaqqol namoyon bo‘ladigan qismni misol qilish lozim. Ya’ni ertakning aynan shu qismini esga oldirish kerak bo‘ladi.

Uyga vazifa

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanida kamdan kam uchraydigan holat – uyga vazifa berilishidir. Ushbu mavzuda uyga vazifa berilishidan maqsad o‘quvchi uyda aynan ota-onasi, aka-opasi bilan bugun o‘rganganlarini muhokama qilsin, ular bilan birgalikda ishlasin. Darslikda o‘quvchi uyda bajarishi lozim bo‘lgan ishlar ketma-ketligi aniq berilgan, o‘qituvchi shu qadamlarni birma-bir tushuntirib berishi lozim bo‘ladi. Topshiriqning nutq tayyorlash qismi eng asosiy vazifa hisoblanadi, bunda o‘quvchi uyda tayyorgarlik ko‘radi, mashq qiladi, kattalar bilan birga ishlaydi. O‘qituvchi uyda oynaning oldida yoki o‘zini videoga olib, keyin ko‘rish orqali o‘z ustida ishlash mumkinligini o‘quvchilarga tushuntirishi lozim bo‘ladi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Kim uyda kattalar bilan ertaklarni muhokama qildi?

Sizga kattalardan kimlar yordam berdi?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Ushbu soat o‘tgan darsda uyga vazifa qilib berilgan nutqni tinglashga bag‘ishlanadi. Bundan tashqari, bitta yozma topshiriq mavjud bo‘lib, jadvalni to‘ldirish lozim bo‘ladi.

DIQQAT! *Agar mavzuning 3- va 4-soatlari bir kunga to‘g‘ri kelib qolsa, 4-soatni ortga surish va keyingi mavzuga o‘tib ketaverish mumkin. Shunday hollarda mavzuning 4-soati mavzuning 6-soatidan keyin, oxirgi soatdan bitta oldindan joy egallaydi.*

Yozma nutq

4. O‘quvchilar quyidagi shaklni to‘ldirib berishlari kerak bo‘ladi. Ushbu shaklni har kim o‘zi to‘ldiradi. Har kim o‘z sinfdoshi so‘zlagan nutq asosida ishlashi kerak bo‘ladi. O‘quvchilarga qisqa va lo‘nda javob yozish kerakligini eslatib o‘tish joiz.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Siz o‘qigan ertaklarda ayyorlik qilganlar, yolg‘onchilar doim jazosini olganmi? Shunday sahnalar mavjud ertaklardan qaysilarini bilasiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish. “Tulki va sher” ertagi asosida

O‘quvchilar bilan “Tulki va sher” ertagi o‘qiladi. Matn ostida berilgan savollar umumiy muhokama qilinadi. Individual javob berishni istaganlarning fikrlari tinglanadi.

1. Nima uchun tosh tulkining ko‘ziga quyruq bo‘lib ko‘rindi deb o‘ylaysiz?

Ushbu savolning taxminiy javobi quyidagicha: tulki juda och edi, ochlikda esa hamma narsa ko‘zga yemish bo‘lib ko‘rinadi. Buning ustiga tosh ham quyruqqa o‘xshab oq edi.

2. Tulki hushiga kelgach, nima uchun yashashdan umidini uzdi?

Ushbu savolning taxminiy javobi quyidagicha: tulki jarlik chuqur ekanini keyinchalik anglab qoldi, pastda yemish deb o‘ylagani oddiy tosh bo‘lib chiqdi, bu esa uni tushkunlikka tushirib qo‘ydi, och hamda chuqurlikda qolib ketgan har kim ham shunday xayolga borishi mumkin.

3. Shoqol ham toshni quyruq deb o‘ylashiga nimalar turtki bo‘ldi?

Ushbu savolning taxminiy javobi quyidagicha: shoqol ham och edi, buning ustiga tulki uni aldadi, tumshug‘ini toshga ishqab: “Qara, men quyruq yeyapman, kel, senga ham yetadi”, dedi. Shundoq ham och turgan shoqolning ko‘zlariga tosh quyruqday ko‘rinib ketdi.

4. Tulki nima uchun jazo oldi deb o‘ylaysiz?

Ushbu savolning taxminiy javobi quyidagicha: tulki yolg‘onchiligi, hasadgo‘yligi uchun o‘z jazosini oldi, chunki u toshni quyruq deb o‘yladi, buning noto‘g‘ri ekanini bilib turib, boshqalarni ham aldadi. Sher ana shu yolg‘onni sezib qolib, uni jazoladi.

5-, 6-, 7-savollar o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga bog‘liq bo‘lgani uchun javoblarni avvaldan taxmin qilish imkonsiz.

DIQQAT! *Yuqoridagi savollarning javoblari taxminiy bo‘lib, o‘quvchilar aynan shu so‘zlarni, shakllarni qo‘llab javob berishi shart emas, shu yo‘nalishda javob bersalar yetarli. Agar o‘quvchi bu yo‘nalishni topa olmasa, o‘qituvchi ko‘maklashib yuborishi lozim. Bundan tashqari namunaviy javoblar asosida o‘qituvchi yakuniy xulosani ham e’lon qiladi.*

Yozma nutq. Leksikologiya

5-topshiriq. Ushbu topshiriqda o‘quvchilar darslikning oxirgi sahifalarida berilgan lug‘atdan *hasadgo‘y, ikkiyuzlamachi, o‘g‘ri* so‘zlarining izohini topib, daftarlariga yozishlari kerak bo‘ladi. Bunday qilinishidan maqsad keyingi soatda aynan shu so‘zlar bilan ishlanadi. O‘quvchilar keyingi soatda samarali harakat qilishlari uchun shu uch so‘zning ma’nosi bilan qisman tanish bo‘lishlari kerak. Bu topshiriqni o‘quvchilarning qabul qilishiga ko‘ra o‘yin tarzida o‘tkazsa ham bo‘ladi. Qanday o‘yin yoki pedagogik texnologiyani qo‘llash o‘qituvchi ixtiyorida qoladi. Asosiy maqsad – o‘quvchilarni shu uch so‘z bilan tanishtirish.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quvchilar, o‘tgan darsda tanishgan ertagimiz hammaning esidami?

Qanday voqealar bo‘lgan edi? Ertakda qanday qahramonlar qatnashgan edi?

Ertakning xulosasi esingizdami?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

O‘quvchilar berilgan so‘zlar orasidan “Tulki va sher” ertagidagi tulkiga tegishli bo‘lgan sifatlarni ajratishlari kerak bo‘ladi. Har sifat ajratilganda o‘quvchilar nega shunday o‘ylayotganlarini, shu qarorga kelishlarida matnning qaysi qismi asos bo‘lganini ko‘rsatib, o‘qib berishlari kerak bo‘ladi.

Yozma nutq

6. Ushbu topshiriq yuqoridagi topshiriqning mantiqiy davomi bo‘lib, o‘quvchilar tulkiga oid sifatlarni va nega shunday ekanini yozishlari kerak. Masalan:

hasadgo‘y *– tulki boshqalarning erkinlikda yurganini ko‘ra olmadi, ularga hasad qildi. Shoqol va sherning ham o‘zi kabi holga tushishini istadi* kabi.

DIQQAT! *Yuqoridagi javob taxminiy bo‘lib o‘quvchilar aynan shu so‘zlarni, shakllarni*

qo‘llab javob berishi shart emas, shu yo‘nalishda javob bersalar yetarli. Agar o‘quvchi bu yo‘nalishni topa olmasa, o‘qituvchi ko‘maklashib yuborishi lozim.

Guruhda ishlash

Sinfdagi o‘quvchilar soniga qarab 3 yoki 4 guruhga ajratiladi. Har bir guruh qo‘liga bittadan quyidagi jadval beriladi.

Qahramon	Qahramonning xususiyati	Qahramonning sifatlari
		aqlli
		mehribon
		rostgo‘y
		epchil
		saxiy
		mehnatkash
	ijobiy	jasur
		nomard
	salbiy	va’daboz
		yolg‘onchi
	ikkisi ham emas	baxil
		dangasa
		zolim
		g‘iybatchi
		ikkiyuzlamchi
		o‘g‘ri
		hasadgo‘y

Har bir guruh o‘zi biror hikoya, rivoyat, ertakni tanlaydi va ma’lumotlarni to‘ldira boshlaydi. O‘quvchilar asarni aniqlab olgach, birinchi ustunga tanlangan asar qahramonini yozadilar. Ikkinchi ustunda qahramonning ijobiy yoki salbiy obraz ekanini aniqlaydilar va belgilaydilar, o‘quvchilar na ijobiy, na salbiy deb baholasalar, uchinchi variantni tanlashlari mumkin, chunki qaysidir qahramon ertak boshida salbiy bo‘lib, oxirida o‘z qarashlarini o‘zgartirib, ijobiy obrazga aylanishi mumkin. Uchinchi ustunda esa o‘quvchilar qahramonga xos sifatlarni belgilab chiqadilar. O‘zlari boshqa qaysidir sifatni qo‘shmoqchi bo‘lsalar, bunga ham ruxsat beriladi.

Har bir guruh o‘zi to‘ldirgan jadvalni boshqa guruh a’zolariga ta’riflab berishi kerak bo‘ladi.

7-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Ma’nodosh so‘zlar haqida o‘rganganlarimiz esingizdami? Qanday so‘zlar ma’nodosh bo‘la olar edi? Kim misollar aytadi?

Asosiy qism

Yozma mashq. Leksikologiya

O‘quvchilar uchun 6 ta rasm berilgan, har bir rasmga ikkitadan so‘z mos keladi. O‘qituvchi doskani 6 ga bo‘ladi va raqamlab qo‘yadi, o‘quvchilar navbati bilan chiqib, so‘zlarni yozishlari mumkin.

1) rasm, surat; 2) barg, yaproq; 3) quyosh, oftob; 4) muz, yax; 5) bola, chaqaloq; 6) olov, o‘t.

Yozma mashq. Leksikologiya

7. Darslikda va mashq daftarida ma’lum kayfiyatlar aks etgan yuzlar va ularga mos so‘zlar berilgan. O‘quvchilar shularni o‘zaro moslashtirishlari va keyingi qadamda har bir yuz ifodasiga mos gap tuzib yozishlari kerak bo‘ladi. Topshiriqni mashq daftarida ham, oddiy yo‘lli daftarda ham bajarish mumkin.

1) baxtli, xursand, quvnoq; 2) ma’yus, xafa, g‘amgin; 3) hayron, lol; 4) darg‘azab, qahrli.

Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilarda kayfiyatni so‘zda ifodalash, shu kayfiyatga olib keluvchi vaziyatni to‘g‘ri tanlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Namunada quyidagicha gap berilgan:

Bugun Salima xafa, chunki mushugi kasal bo‘lib qolgan.

Agar o‘quvchi kayfiyatning sababini xato ko‘rsatgan bo‘lsa, bu unga tushuntirilishi kerak. Masalan, o‘quvchi *“Salima bugun juda xursand, chunki u matematikadan 2 oldi”,* deb yozsa, bu mantiqiy xato bo‘ladi.

Yozma nutq

8. O‘quvchilar darsning so‘ngi qismida o‘zlariga tanish inson haqida ma’lumot matni yozishi kerak bo‘ladi. Ma’lumot matnida quyidagilar albatta aks etishi lozim:

- u insonning kimligi;
- ijobiy va salbiy xislatlari;
- u bilan sodir bo‘lgan biror voqea;
- kayfiyati o‘zgargan paytlari.

O‘quvchilar ma’lumotlarning tartibiga amal qilishlari shart emas, lekin amal qilishni o‘rganishsa, maqsadga muvofiq. O‘qituvchi topshiriqni bajartirishdan oldin o‘zi yozgan ma’lumot matnini o‘qib bergani ma’qul.

MUSTAHKAMLASH

DARS JARAYONI

Kirish

Quyidagi savollarni berish orqali o‘quvchilar dars jarayoniga olib kiriladi:

• *“Zumrad va Qimmat” ertagini o‘qiganmisiz? Biror voqeasi esingizda qolganmi?*

• *Ikki so‘z bir-birining o‘rnida ishlatilsa, ular qanday so‘z bo‘ladi?*

Asosiy qism

O‘qib tushunish. Leksikologiya

Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni berilgan qaysi so‘zlar bilan almashtirish mumkin? Almashtirib qayta o‘qing.

go‘zal, dangasa, kekkaygan, oqila,
tarbiyali, yalqov, yumshoq tabiatli, esli.

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda, katta soy bo‘yida kichkina uy bo‘lar ekan. Bu uyda chol, uning Zumrad degan qizi, o‘gay ona va uning Qimmat ismli arzanda qizi turar ekan. Kampirning Zumradni ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q ekan. U hadeb qizni urib, qarg‘ab, ertadan kechgacha ishlatarkan, bechoraga birpas ham tinchlik bermas ekan.

*Zumrad juda **chiroyli, odobli, muloyim, aqlli** qiz ekan. Uni bir ko‘rgan kishi yana ko‘rsam, deb orzu qilar ekan.*

*Qimmat esa **ishyoqmas,** injiq va **dimog‘dor** bo‘lib, uning butun kuni urush-janjal va to‘polon bilan o‘tar ekan.*

O‘quvchilarga “Zumrad va Qimmat” ertagidan olingan parcha havola qilingan. O‘quvchilar avval shu parchani monitordan yoki tarqatmadan o‘qishi kerak. Undan keyin ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni matn yuqorisida berilgan qaysi so‘zlar bilan almashtirish mumkinligini topishi va o‘sha so‘zlarni qo‘yib, qayta o‘qishi kerak bo‘ladi.

Javoblar: *chiroyli – go‘zal; odobli – tarbiyali; muloyim – yumshoq tabiatli; aqlli – esli, oqila; ishyoqmas – dangasa, yalqov; dimog‘dor – kekkaygan.*

Yozma nutq. Leksikologiya

Har bir qatorni shu qatorga mos so‘zlar bilan davom ettirib yozing.

aqlli, odobli, esli, ….
danagasa, tanbal, ….
kekkaygan, …
xursand, …

O‘quvchilar berilgan so‘zlarga mos keladigan boshqa so‘zlar bilan qatorni davom ettirishlari kerak bo‘ladi. Har bir qatorda bir yoki ikkitadan so‘z qo‘shish yetarli. Taxminiy javoblar:

aqlli, odobli, esli, oqil, oqila, dono;
danagasa, tanbal, yalqov, ishyoqmas;
kekkaygan, dimog‘dor;
xursand, baxtli, shod, xushnud.

Yozma nutq. Leksikologiya

Quyidagi so‘zlarni ikki ustunga ajratib yozing.

aqlli, g‘amgin, quvnoq, dangasa, xafa, baxtli, xursand, odobli, ma’yus, yalqov, muloyim, tanbal, ishyoqmas, lol, hayron, dimog‘dor

O‘quvchilar berilgan so‘zlarni ikki ustunga ajratib yozishlari kerak bo‘ladi. Bunda ularni kayfiyatni hamda xarakterni ifodalovchi so‘zlarga ajratish kerak bo‘ladi. Javoblar:

Kayfiyatni ifodalovchi so‘zlar	Xarakterni ifodalovchi so‘zlar
quvnoq	aqlli
xafa	dangasa
baxtli	odobli
xursand	yalqov
g‘amgin	muloyim
lol	tanbal
ma’yus	ishyoqmas
hayron	dimog‘dor

O‘ZIM XARID QILAMAN

(8+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: xarid jarayoni, unda qatnashish, iste’molchi huquqlari bilan bog‘liq tasavvurlarni kengaytirish, ushbu jarayonda faol qo‘llanadigan til birliklaridan foydalanishga o‘rgatish, berilgan mashq va topshiriqlar yordamida og‘zaki, yozma, o‘qib va tinglab tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi.

Xarid nima?

Siz ham oldi-sotdi jarayonida ishtirok etganmisiz?

Ota-onangiz asosan qayerlarda savdo-sotiq qiladi? Siz ularni kuzatganmisiz?

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmlar asosida savollarga javob bering.

O‘quvchilarning e’tibori darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi. Ular rasmlarni diqqat bilan kuzatadilar. O‘qituvchi rasmlarni kuzatish davomida hozir berilishi kutilayotgan savollarning umumiy mazmuni haqida gapirib beradi. Bunda o‘quvchilar ushbu savollarga javob topish uchun suratda berilgan vaziyatlar bilan bog‘liq qanday ma’lumotlarni yodga olish kerakligini tushunib oladilar hamda suhbatga tayyorlanadilar.

1. Qaysi rasmda do‘kon tasvirlangan? Nima uchun bu yerni bozor demay, do‘kon deymiz?

O‘qituvchi o‘quvchilarning bozor va do‘kon haqidagi tasavvurlarini aniqlash uchun berilgan javoblarni tinglaydi. O‘quvchilar imkon qadar do‘konning o‘ziga xos tomonlarini, u yerdagi savdo-sotiq jarayoni haqida gapirib berishlari kerak.

2. Qaysi rasmda bozor tasvirlangan? U qanday joy? Bozorga borish sizga yoqadimi? Nima uchun?

Ushbu savolga javob berish jarayonida o‘quvchilar bozor va do‘konning o‘zaro farqi haqida gapiradilar, kimga qaysi biri afzal ekanini, ikkinchisining noqulay tomonlari haqidagi fikrlarini tushuntirishga harakat qiladilar. O‘qituvchi o‘zi kutayotgan natijaga erishmagunicha o‘quvchilarga qo‘shimcha savollar berib, ularni yo‘naltirib borishi lozim.

3. Dorixona tasvirlangan rasmni toping. Dori olish uchun nima kerak bo‘ladi? Siz dorixonaga borib, dori olganmisiz? Sotuvchiga qanday murojaat qilgansiz?

Dorixonada savdo-sotiq jarayoni qanday amalga oshirilishi haqida suhbat olib boriladi. O‘quvchilar dorixonadagi navbat, dorilar haqidagi ma’lumotlar, xarid qilish va tavsiya etish jarayonida qo‘llanadigan til birliklari haqida ma’lumotlarni aytadi.

4. Qaysi rasmda uy-ro‘zg‘or buyumlari tasvirlangan? Bunday mahsulotlar sotiladigan joy qanday nomlanadi?

O‘qituvchi savolga javoblarni tinglash orqali o‘quvchilarning alohida buyumlar sotiladigan do‘konlarning tarmoqlari haqida, ularning nomlanishi, xaridni amalga oshirishda mana shunday do‘konlarning ahamiyati haqidagi ma’lumotlarni yodga olish uchun imkon yaratadi, yo‘naltiruvchi savollar bilan murojaat etadi.

5. Sizga qaysi rasm yoqdi yoki yoqmadi? Nima uchun?

O‘quvchilarning xarid qilish jarayoniga bo‘lgan munosabatini aniqlash maqsadida suhbat olib boriladi. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini aytishi, uni bir nechta asoslar keltirish orqali tushuntirib berishiga erishish lozim.

Yozama nutq. Leksikologiya

1. Narsa, buyum sotiladigan joylarni yozing.

Namuna: bozor, supermarket.

O‘tkazilgan suhbat asosida savdo-sotiq jarayoni amalga oshiriladigan joylar haqida yoziladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga umumiy joy nomlarini yozishni aytadi, atoqli joy nomlarining umumiy joy nomlaridan farqi, ularning imlosi haqida qo‘shimcha ma’lumotlar beradi.

2. Biror mahsulot yorlig‘ini diqqat bilan o‘qib chiqing va zarur o‘rinlarni daftaringizga ko‘chiring. O‘yinchoq yorlig‘idan olingan ushbu ko‘rsatmadan foydalanishingiz mumkin.

O‘yinchoq yorlig‘ida berilgan ma’lumotlar asosida zarur o‘rinlarni yozib olish so‘ralgan, ammo zarur o‘rinlarni aniqlash uchun o‘quvchilar ushbu yorliqni o‘qib tushunishi, qaysi ma’lumotlar qanday ahamiyatga ega ekani, ular nima uchun berilganini yaxshilab anglab olishlari zarur.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi o‘tgan darsdagi ma’lumotlarni yodga oladi.

Xarid qilish jarayonida qanday til birliklaridan foydalanish mumkinligi haqida suhbat olib boradi.

Asosiy qism

Tinglab tushunish

O‘quvchilar audiomatnni tinglash jarayoniga tayyorlanadi. Muhim deb hisoblangan o‘rinlarni qayd etib borish so‘raladi.

Xaridor istasa, sotuvchi ko‘rsatishi shart bo‘lgan ayrim narsalarni bilib oling:

- buyumning nomi;
- buyumning shtrixli kodi (mavjud bo‘lganda);
- buyumdan xavfsiz foydalanish qoidalari va shartlari;

• buyumning yaroqlilik muddati;
• buyumning narxi va uni sotib olish shartlari.

Abduqahhor Rahimov, huquqshunos

1. Oldi-sotdi nima? Unda kimlar ishtirok etadi?

O‘qituvchi ushbu jarayon, unda kimlar ishtirok etishi haqidagi fikrlarni tinglaydi. Shundan so‘ng o‘quvchilardan ushbu jarayonni, jarayon ishtirokchilarini yana qanday atash mumkinligi haqida so‘raydi.

2. Qonunga ko‘ra, siz oldi-sotdi ishtirokchisi bo‘lishingiz mumkinmi? Agar 5 yoshli ukangiz yoki singlingiz bo‘lsa-chi?

Ushbu savol o‘qib tushunilgan ma’lumotlardan foydalana olish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivolantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan ma’lumot asosida savolga javob qaytaradilar, ushbu ma’lumotlarni turli hayotiy vaziyatlarga tatbiq etishni o‘rganadilar.

3. Qanday holatlarda sotuvchi qonun oldida javobgar bo‘ladi?

Savolga javob berish jarayonida o‘quvchilar imkon qadar matnda berilgan ma’lumotlarga qay darajada asoslanayotganiga e’tibor qaratiladi. Ular qo‘shimcha fikr aytmoqchi bo‘lishsa, avval matnda berilgan ma’lumotlarni, undan keyin qo‘shimcha fikrlarini aytishlari mumkinligi eslatib turiladi.

4. Yaroqli buyum qanday bo‘ladi?

Xarid qilinayotgan narsa qanday talablarga javob berishi haqida suhbat olib boriladi. O‘quvchilar ushbu jarayonda qo‘llanadigan yangi til birliklari bilan tanishadilar. O‘qituvchi esa ularni izohlashga, qo‘llanish o‘rinlariga oid ma’lumotlarni yetkazishga tayyorlanadi.

5. Siz sotuvchidan buyumga oid nimalarni so‘rashga haqlisiz?

Xarid jarayonida buyumning qaysi jihatlariga e’tibor berish kerakligi, sotuvchi bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida, qo‘llanuvchi til birliklarining o‘rni va vaqti haqida qo‘shimcha ma’lumotlar aytiladi.

Yozma mashq. Sintaksis

3. Audiomatn asosida to‘g‘ri fikrlarni aniqlab, yozing.

Ushbu topshiriq eshitib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish bilan bog‘liq. O‘quvchilar berilgan ma’lumotlarning qaysi birlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlaydilar, noto‘g‘ri bo‘lgan ma’lumotlar izohlanadi. Izohlash orqali berilayotgan javoblar matnga asoslanishini o‘quvchilar tushunib olishlari kerak.

1. To‘g‘ri. 2. Noto‘g‘ri. 3. To‘g‘ri. 4. Noto‘g‘ri. 5. Noto‘g‘ri.

4. Xaridorning istagiga ko‘ra sotuvchi mahsulotga tegishli bo‘lgan qaysi xususiyatlar bilan tanishtirishl lozimligini yozing.

Namuna: buyumning yaroqlilik muddati.

Yuqoridagi suhbat hamda audiomatnda berilgan ma’lumotlar asosida topshiriq bajariladi.

5. Savollar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib, matnni ko‘chiring.

Ushbu topshiriq orqali o‘quvchilar so‘zlarga so‘roq berish, so‘zning o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan aloqadorligi haqidagi tushunchalarga ega bo‘ladilar, ularni rivojlantiradilar. So‘z tanlashda ularning so‘roqlariga ahamiyat berish tushuntiriladi, atrofdagi so‘zlar ham tanlanayotgan so‘zning ma’nosi bilan bog‘liq bo‘lishi lozimligi aytiladi.

Qonunga ko‘ra, bolalar olti yoshdan oldi-sotdi ishlarining ishtirokchisi bo‘la oladilar. Bolalar shu yoshdan boshlab sotuvchidan huquqlarini talab qilishi mumkin.

Sotuvchi xaridorga yaqorli buyumni sotishi shart. Agar sotuvchi birovning o‘g‘irlangan buyumini yoki sifatsiz narsani xaridorga sotsa, qonun oldida javob beradi.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi o‘tilayotgan darslar qaysi nutqiy mavzu doirasida ekanini eslatib o‘tadi. Darslikda berilgan rasm hamda sarlavhaga asoslangan holda matn nima haqida ekanini so‘rash orqali kirish suhbatini tashkillashtiradi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan matnga e’tibor qaratiladi. Matnni to‘liq o‘qib chiqish uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Shundan so‘ng ayrim o‘quvchilarga matn qayta o‘qitiladi. Matnni o‘qish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar talaffuzida uchragan kamchiliklarni qayd etib boradi. Matn o‘qib bo‘lingach, ushbu kamchiliklar ustida ishlanadi.

1. Ubaydullo bobo nima uchun bozorda aynan olmaning narxini so‘radi?

Savolga javob berish uchun matndan kerakli qismni qayta o‘qish va Malikaxonning holatini tasvirlab berish, ushbu jumlada qo‘llangan til birliklarini izohlash talab etiladi.

2. Sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi suhbatni qayta o‘qing. Sotuvchi: “Xarajatni qoplamaydi”, deganda nimani nazarda tutdi?

O‘quvchilar suhbatni qayta o‘qiydilar. Shundan so‘ng berilgan birikmaning qo‘llanish sabablari, u anglatgan ma’no haqida suhbat olib boriladi. Shu orqali o‘quvchilarga oldi-sotdi jarayoni, mahsulotlarning bozorga kirib kelishi bilan bog‘liq jarayonlar haqida ma’lumot beriladi.

3. Savdo jarayoni kimning foydasiga hal bo‘ldi? Nima uchun?

Ushbu jarayonda xaridorning o‘ziga xos xususiyatlari, sotuvchining javobi, ushbu jarayonda qanday ishtirok etishi haqida gapiriladi. Jarayonning har bir ishtirokchisiga ta’rif beriladi.

4. Sizningcha, Malikaxonning buvasi qo‘shnisini aldadimi? Javobingizni izohlang.

Malikaxonning buvasi nima uchun bunday javob berganiga o‘quvchilarning munosabatlari so‘raladi. O‘quvchilar o‘z javoblarini izohlashga urinadilar. O‘qituvchi esa ularni umumlashtirib, oxirgi xulosalarni aytib o‘tadi.

5. Buva Malikaxonga nimalarni tushuntirdi? Savdolashish deganda nimani tushundingiz?

O‘quvchilarning matndan olgan xulosalari tinglanadi. Kerakli xulosalarni chiqarish uchun yo‘naltiruvchi savollar berib boriladi.

Yozma mashq. Leksikologiya

6. Ushbu so‘zlarning ma’nosiga mos gaplarni aniqlab, yozing.

Berilgan so‘zlarning ma’nolarini aniqlash, shundan so‘ng gaplarni moslashtirgan yoki aksincha, avval gaplarni moslashtirish, shundan so‘ng ularning ma’nolarini izohlagan holda mashq bajariladi.

SO‘ZLAR	GAPLAR
Sarxil	Dono mevalarning eng yaxshilaridan saralab ukasiga berdi.
Bitim	Sotuvchi va bog‘bon o‘zaro kelishiv asosida qaror qabul qilishdi.
Peshtaxta	Sotuvchi ustiga mollar qo‘yilgan stolni artdi.
Rasta	Keksa odam do‘konlar qatori oralab ketdi.
Manfaat	Sotuvchi va xaridor o‘z foydasini o‘ylab savdolashadi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi ushbu darsda o‘tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar bajarilishini aytadi. Ayrim o‘quvchilar matnni qismlarga bo‘lgan holda qayta so‘zlab berishlari mumkin.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Sotuvchi olmaning narxini 25 so‘mdan 20 so‘mga tushirdi. Uning bu narxga rozi bo‘lishiga 2 ta sabab bor. Matndan aniqlab, ayting.

Ushbu topshiriq matndagi ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lay olish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar matndan aynan berilgan sabablarni aniqlaydilar va ularni tushuntirishga harakat qiladilar.

Yozma nutq. Morfologiya. Sintaksis

7. Sotuvchi va xaridor manfaatlariga mos holatlarni aniqlab, ularni ikki ustunga ajratib yozing.

Berilgan matn asosida qaysi holatlar kimning manfaatiga mos kelishi haqida og‘zaki suhbat olib boriladi, shu asosda berilgan so‘zlar yordamida jadvallar to‘ldiriladi.

8. Mahsulotni narxlashda nimalarga e’tibor berish kerakligini yozing.

Namuna: mahsulotning miqdori.

Savdo qilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan talablar, qolaversa, narxni qo‘yishga oid bo‘lgan ma’lumotlar asosida topshiriq bajariladi.

9. Quyidagi bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirib, yozing.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning hisob so‘zlar haqidagi bilimlarini rivojlantirishga qaratiladi. O‘quvchi kerakli hisob so‘zni tanlaydi va o‘z o‘rniga qo‘yib, birikmalarni ko‘chirib oladi.

10 qop kartoshka, 3 litr sut, 5 bog‘ ko‘kpiyoz, 4 yashik meva, 2 hovuch suv, 1 qoshiq shakar, 8 qarich yer, 25 kilogramm olma.

10. Ubaydullo buva va sotuvchi o‘rtasidagi suhbatni ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar nimaning ifodasi ekanini aniqlang va yozing.

Berilgan topshiriq munosabat ifodalovchi til birliklariga e’tiborni qaratish va ulardan foydalanishga o‘rgatish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. O‘qituvchi har bir ajratilgan so‘zning ma’nosini, uning matndagi vazifasini tushuntirishi lozim.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi o‘quvchilar e’tiborini darslikda berilgan rasmga qaratadi. Rasmda qanday

jarayon tasvirlangani haqida suhbat olib boriladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan “Eh, rosa shirin ekan!” she’ri bir necha nafar o‘quvchi tomonidan ifodali o‘qiladi. O‘quvchilar she’rning o‘qilish ohangini yaxshiroq anglab olishlari uchun she’rni avval o‘qituvchining o‘zi, shundan so‘ng o‘quvchilar o‘qib bergani ma’qul.

1. Qovun bozoriga kimlar qaysi payt bordi? Bozor nimaga o‘xshatilgan?

She’rda berilgan ma’lumotlarga tayangan holda qovun bozoriga nima uchun saharda borish kerakligi, uni qachon uzib olingani va bozorga olib kelinganiga o‘quvchilarning e’tibori qaratiladi. Buning sabablari tushuntiriladi. Bozorning qovunzorga o‘xshatilishi haqida suhbat olib boriladi.

2. Akasi ukasining bozorga birga borishidan xursand bo‘ldimi? Ayting-chi, nima uchun?

She’r matnidan aynan mana shu voqea tasviri berilgan misralar qayta o‘qitiladi. O‘quvchilar ukasining xatti-harakatlarini o‘z so‘zlari bilan tasvirlaydi, unga munosabat bildiradi. Akaning ukasining xarxashasiga munosabati haqida gapiriladi, buni qaysi misralardan aniqlab olish mumkinligi so‘raladi.

3. Bozorda qovunning qanday navlari bor edi? Ular qanday ta’riflangan? Siz qovunlarning qaysi turlarini bilasiz?

She’rda berilgan qovun navlari aniqlanadi, shundan so‘ng ularga berilgan ta’riflar o‘qib beriladi. Qovun navlariga berilgan nomlar nima uchun bunday atalgani haqida o‘ylab ko‘rish so‘raladi.

4. Dehqon: “*Kimki olmasa buni, Tushib qoladi puli*” deganda rost gapirdimi? Javobingizni izohlang.

Avval dehqonning ushbu fikriga o‘quvchilarning munosabati so‘raladi, shundan so‘ng ushbu jumla nima uchun qo‘llanganini tushuntirish mumkin. Sotuvchilar bozorda xaridorlarni jalb qilish uchun yana qanday gaplardan foydalanishi mumkinligi haqida so‘raladi.

5. Qahramonning aqli nimadan shoshdi?

O‘quvchilar aql shoshishi bilan bog‘liq hodisani aniqlab, uni o‘z so‘zlari bilan ta’riflaydilar. Shundan so‘ng o‘qituvchi aql shoshishi bilan bog‘liq yana qanday vaziyatlarga duch kelinganini so‘raydi, shu asosida suhbat olib boriladi.

6. Dehqon xaridorga “inim” deb murojaat qildi. Nima uchun?

Savolga javob berish orqali o‘quvchilar xaridor bilan sotuvchi o‘rtasidagi munosabatni, iliqlikni ifodalovchi til birliklari haqida suhbat olib boradilar. Yana qanday iltifotli so‘zlardan foydalanish mumkinligi haqida ma’lumotlar beriladi.

Yozma nutq. Leksikologiya. Sintaksis

11. Matndan qovun navlarini topib, yozing.

She’r matnida berilgan qovun nomlari daftarga yoziladi. Qovun navlarini aniqlashda yuqoridagi suhbat hamda o‘qituvchining yordami kerak bo‘ladi. O‘qituvchi oldindan tayyorlangan rangli rasmlar orqali aniqroq ma’lumot berishi, tasavvur hosil qilishi maqsadga muvofiq.

Bosvoldi, cho‘gir, Mirzacho‘l qovuni

12. She’rdan sotuvchining xaridorni o‘ziga jalb qilishi uchun aytgan gaplarini aniqlang va ko‘chiring.

Yuqorida bo‘lib o‘tgan suhbat asosida o‘quvchilar matndan mana shunday gaplarni aniqlaydilar va ko‘chiradilar. Ayrim o‘quvchilar mana shunday iltifotni bildiruvchi so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shib yozishi ham mumkin.

– Kelib qol, ey xaridor,
Vaqting o‘tmasin bekor!
Bu – Mirzacho‘l qovuni,
Kimki olmasa buni,
Tushib qoladi puli...
Eh, yeganlar darmonda,
Yemaganlar armonda.
Olib qol, shinavanda,
Uzdim shudring tushganda.
Olmasangiz ham, inim,
Yeb ko‘ring-a bir tilim.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qib tushunish

O‘quvchilar oldi-sotdi jarayonini amalga oshirishga tayyorlanadilar. Bir o‘quvchi sotuvchi, ikkinchisi xaridor rolini ijro etib, bu jarayonda o‘zlari o‘rgangan til birliklarini qo‘llashni amaliy jihatdan sinab ko‘radilar. Ushbu holat bir necha o‘quvchilar juftligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Asosiy qism

Darslikda berilgan “Eh, rosa shirin ekan!” she’rining ikkinchi qismi bir nechta o‘quvchi

tomonidan ifodali o‘qiladi. She’rning o‘qilish ohangi biroz o‘zgacharoq bo‘lgani uchun she’rni avval o‘qituvchining o‘zi, shundan so‘ng o‘quvchilar o‘qib bergani ma’qul.

1. Bola nima uchun terga botib ketdi? Izza bo‘lish deganda nimani tushunasiz?

O‘quvchilar she’rning mazmunidan kelib chiqqan holda bolaning holatini ta’riflab beradilar, izza bo‘lish deganda qanday holat tushunilishi, qanday vaziyatlarda odamlar izza bo‘lib qolishi mumkinligi haqida suhbat olib boriladi.

2. Dehqonning o‘g‘lini ta’riflang. Dehqon o‘g‘lini nima deb maqtadi?

O‘quvchilar she’r matnida dehqon o‘g‘lini qanday ta’riflaganini aytib berishi kerak. Shu o‘rinda “mehnat bilan pishgan” iborasi qanday insonlarga nisbatan qo‘llanishi haqida so‘raladi va izoh beriladi.

3. Bola ukasiga qarata: “Rosa chaladi karnay”, deganida nimani tushundingiz? Aytingchi, karnay chalish bilan bu voqea o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

Berilgan iboraning ma’nosi izohlanadi, shoir nima uchun aynan shu iboradan foydalangani so‘raladi, shu orqali fikr ifodalashda iboralarning o‘rni va ahamiyati haqidagi xulosalar chiqariladi.

4. Bolaning uyalib qolishiga sabab nima? U bu voqeadan keyin qanday qarorga keldi deb o‘ylaysiz?

Voqea tafsilotlari asosida qahramonning uyalib qolishiga sabab nima ekani aniqlanadi, bolaning qarori haqida so‘raladi. O‘quvchilar kuchli bo‘lish uchun bolaga yana qanday tavsiyalar berish mumkinligi haqida gapiradilar.

5. Siz ham she’rdagi qahramonning holatiga tushganmisiz? Qanday voqea bo‘lgan?

O‘quvchilardan hayoti davomida qayerlarda, qanday holatda izza bo‘lib qolganlari haqida so‘raladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan yuqorida o‘zlari bergan tavsiyalarga qay darajada rioya qilishi haqida o‘ylab ko‘rish kerakligini aytadi, o‘quvchilarning bu boradagi fikr-mulohazalari tinglanadi.

Yozma nutq. Sintaksis

13. Matndan dehqon o‘g‘lidan faxrlangan satrlarni aniqlab, yozing.

Dehqon o‘g‘lini qanday ta’riflagani haqidagi satrlar aniqlab olinadi, ularni daftarga she’riy usulda yoki nasriy usulda yozib olish mumkinligi tushuntiriladi. She’r matnidan boshqa misralar misolida namuna ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

– Bizning o‘g‘ilcha – polvon,
Ota o‘g‘li chinakam,
Menga beradi yordam.
Mehnat bilan pishigan,
Barcha xursand ishidan.

14. Siz ushbu she’r uchun qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz? 3 ta sarlavha tanlab, yozing.

She’r uchun uchta sarlavha tanlash kerakligi aytiladi. O‘quvchilardan sarlavha tanlashda nimalarga e’tibor qaratish kerakligi, uning shakli va mazmuni haqidagi ma’lumotlar so‘raladi. Ushbu qoidalar asosida sarlavhalar tanlanadi.

She’rning ma’lum bir qismini yodlab kelish uyga vazifa sifatida berilishi mumkin.

7-soat

DARS JARAYONI

Kirish

“Eh, rosa shirin ekan!” she’rini yodlab kelgan o‘quvchilar she’rni ifodali aytib beradilar. Ushbu darsda she’r matni ustida ishlash aytiladi.

Asosiy qism

Leksikologiya

Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. She’rda qo‘llangan *tilim* so‘zining izohini aniqlang.

“Tilim” so‘zi uchun keltirilgan izohlar ichidan mos kelgani tanlab olinadi, o‘quvchilarda aniqroq tasavvur hosil bo‘lishi uchun rasmlar namoyish etiladi.

2. She’rdagi voqea qaysi qovun navi bilan bog‘liq?

O‘quvchilar she’rni qayta o‘qib chiqib, aniq ma’lumotni topishi orqali ushbu savolga javob beradilar.

Yozma nutq. Leksikologiya. Sintaksis

15. She’r matnidan poliz mahsulotlariga berilgan ta’riflarni topib, ko‘chiring.

Namuna: *Bosvoldi* *taram-taram, Kiyganday to‘n – beqasam.*

Ushbu topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilarning poliz mahsulotlari nomini aniqlash, ularni qanday ta’riflash mumkinligi haqidagi bilimlari rivojlantiriladi. O‘qituvchi ta’riflashda qo‘llanayotgan so‘zlarga so‘roq berishni, ular qanday ma’noni anglatayotganini aytib berishni so‘raydi.

16. Matndan darak, so‘roq va buyruq gaplarni aniqlab, har biriga bittadan misol yozing. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘ying.

She’r matnidan namunalar aniqlanadi, ularni ham she’riy misra shaklida, ham oddiy gap shaklida yozish so‘raladi.

Namuna:
Buvim, oyim va dadam
Supada bo‘lishdi jam.
– Buvim, oyim va dadam supada jam bo‘lishdi.

17. She’r yuzasidan 3 ta savol yozib, partadoshingizga bering. Uning savollariga esa javob yozing.

Berilgan matn asosida savollar tuziladi, so‘ng ularni yozish so‘raladi. Savollarning mazmuni, ularning shakli, so‘roq so‘zni tanlash bilan bog‘liq tavsiyalar berib boriladi. O‘quvchilar tuzgan savollarini partadoshlari bilan almashadilar, savollarga qisqa javob yozadilar. O‘quvchilarning yozma ishlari tekshiriladi va munosabat bildiriladi.

8-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quvchilarning e’tibori darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi.

Rasmda qanday vaziyatlar berilgan?
Unda kimlar ishtirok etmoqda?
Ular nima haqida suhbatlashyapti deb o‘ylaysiz?

Asosiy qism

Yozma nutq

18. Quyidagi vaziyatlardan biri asosida suhbat matni yozing.

Yuqorida o‘tkazilgan suhbat asosida o‘quvchilar suhbat matnini, ya’ni dialog yozishni boshlaydi. O‘qituvchi dialog matni qanday yozilishi haqidagi ma’lumotlarni o‘quvchilarga yetkazadi. Namunalar tavsiya etiladi.

Aziza: Assalomu alaykum!
Sotuvchi: Vaalaykum assalom!

Aziza va sotuvchining suhbati:
– Assalomu alaykum!
– Vaalaykum assalom!

Shuningdek, darslikda berilgan ko‘rsatmalarga rioya qilish kerakligi eslatib turiladi.

O‘quvchilarning yozma ishlari nazorat qilib boriladi, ularga so‘z tanlash, imlosi va qo‘llanish o‘rinlari haqidagi tavsiyalar berib boriladi.

MUSTAHKAMLASH

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi bugungi darsning mustahkamlash darsi ekanligini aytadi va kirish suhbatini olib boradi.

Asosiy qism

Muhokama

Oldingi darsda yozgan suhbat matningizni tekshirish uchun partadoshingizga bering. Partadoshingiz tuzgan dialogni esa siz tekshiring.

O‘tilgan darsda yozilgan matnlar o‘zaro almashinib, tekshiriladi. O‘quvchilar matnni tekshirishda nimalarga e’tibor qaratish zarurligini o‘qituvchi yordamida tushunib olishlari kerak. Matnda qo‘llangan imloviy va ishoraviy xatolar ustida ishlash aytiladi.

Yozma nutq

1. Uyingizdagi biror buyumning yorlig‘ini o‘qing. Zarur o‘rinlarni ajratib yozing.

O‘quvchilar o‘zlari olib kelgan yorliqlarni o‘qiydilar. Yorliqlarda ko‘rsatilgan ma’lumotlar nima uchun kerakligi haqida suhbat quradilar. Zarur o‘rinlarni ajratadilar va daftarlariga yozib oladilar. Yorliqdagi ma’lumotlarning berilish shakliga e’tibor qaratiladi. Ma’lumotlar qaysi shaklda berilishi ma’qul ekani haqida suhbat olib boriladi.

2. Olgan ma’lumotlaringizga tayangan holda sotuvchi va xaridor uchun tavsiyalar yozing.

O‘quvchilar o‘tilgan darslarda berilgan ma’lumotlarga asoslangan holda xaridor va sotuvchi uchun bir nechta tavsiya yozadilar. O‘qituvchi ularning imlosi va uslubiga e’tibor qaratadi. Ham xaridor uchun, ham sotuvchi uchun birdek zarur bo‘lgan tavsiyalarni ajratib oladilar.

BIROVNING MULKI

(8+1 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: mulk, unga egalik qilish, mulkni boshqarish, boshqalarning narsalaridan foydalanish jarayoni bilan bog‘liq tasavvurlarni kengaytirish, ushbu jarayonda faol qo‘llanadigan til birliklaridan foydalanishga o‘rgatish, berilgan mashq va topshiriqlar yordamida og‘zaki, yozma, o‘qib va tinglab tushunish bilan bog‘liq nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Yangi nutqiy mavzu e’lon qilinadi.

Mulk nima?

Shaxsiy mulk deganda nimalarni tushunasiz?

Sizning ham shaxsiy mulkingiz bormi?

Ushbu savollarni berish orqali kirish suhbati olib boriladi. O‘quvchilarning mulk, shaxsiy mulk hamda undan foydalanish bilan bog‘liq tasavvurlari aniqlashtirib olinadi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmga qarang, savollarga javob bering.

O‘quvchilarning e’tibori darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi. O‘quvchilar rasmlarni diqqat bilan kuzatadilar. O‘qituvchi rasmlarni kuzatish davomida hozir berilishi kutilayotgan savollarning umumiy mazmuni haqida gapiradi. Bunda o‘quvchilar ushbu savollarga javob berish uchun rasmdagi narsalar haqida qanday ma’lumotlarni yodga olish kerakligini tushunib oladilar hamda suhbatga tayyorlanadilar.

1. Mulk nima? U bizga nima uchun kerak?

Mulk tushunchasi, nima uchun narsalarning egasi bo‘lishi, buning ahamiyatli jihatlari haqida suhbat olib boriladi. Rasmda tasvirlangan narsalar kimga tegishli ekani so‘raladi, mulk egasi tushunchasi haqida ma’lumot beriladi.

2. Birinchi rasmda nimalar tasvirlangan? Bu mulkning egasi bormi?

Birinchi rasmda davlatga tegishli mulk haqida gap boradi. O‘qituvchi davlat mulki, uning egasi, davlat mulkni qayerdan olishi, davlat mulkiga nimalarni kiritish mumkinligi haqida suhbat olib boradi. Davlat mulkini asrab-avaylashning ahamiyati haqida tushunchalar beradi.

3. Hammaga tegishli mulk qanday bo‘ladi?

Davlat mulki kimlar uchun xizmat qilishi, undan odamlar qanday foydalanishi kerakligi haqida suhbat olib boriladi. Nima uchun mulkning egasi bo‘lishi kerakligi, agar mulkning egasi bo‘lmasa, u bilan nimalar sodir bo‘lishi mumkinligini anglashga qaratilgan savollar asosida suhbatlashiladi.

4. Ikkinchi rasmda nimalarni ko‘ryapsiz? Bular kimning mulki?

Ushbu rasmda shaxsiy mulk ifodalangan. Nimalar shaxsiy mulk bo‘la olishi, mulk shaxsiy bo‘lishi uchun nimalar qilish kerakligi bilan bog‘liq savollar beriladi. Olib borilgan suhbat orqali o‘quvchilar shaxsiy mulk va undan foydalanish qoidalari haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar.

5. Sizning ham shaxsiy mulkingiz bormi? Ularning nomini ayting.

O‘quvchilar o‘z shaxsiy mulklari haqida gapiradilar. Shu yoshida ular qanday shaxsiy mulkka ega ekani, ular qanday nomlanishi haqida gapiradilar.

6. Uchinchi rasmda kimlarni ko‘ryapsiz? Ular nima qilishyapti?

Uchinchi rasm asosida shaxsiy mulkdan qanday qilib foyda olish mumkinligi, umuman, shaxsiy mulk nima uchun kerakligi haqida suhbat olib boriladi. O‘quvchilar shaxsiy mulk tushunchasini anglaganlaridan so‘ng yon-atrofdagi insonlar qanday qilib shaxsiy mulkdan foydalanayotganliklari haqida gapirib berishlari mumkin.

7. O‘zganing mulki deganda nimalarni tushunasiz? Undan kimlar foydalanadi?

O‘zganing mulki va undan kimlar foydalanishi mumkinligi haqida suhbatlashiladi. Undan boshqalar qanday foydalanishi, foydalanish shartlari va qoidalari haqida suhbat olib boriladi.

Yozma nutq

1. O‘zingiz va o‘zgalarning mulkini ustun shaklida yozing.

Ushbu topshiriqda o‘quvchilar shaxsiy mulk va boshqalarning mulki haqida hosil bo‘lgan tasavvurlarini yozma shaklda ifodalaydilar. Mulk nomlari yozilayotganda ularning imlosi haqidagi qoidalar eslatib turiladi.

2. O‘zgalarning mulkidan foydalanish qoidalarini yozing.

O‘zgalarning mulkidan qanday foydalanish bo‘yicha yuqorida olib borilgan suhbat asosida qoidalar yoziladi. Qoidalarni yozishda ularni alohida satrdan maxsus belgilar (raqam, shakllar, ramziy belgilar) yordamida yozish kerakligi tushuntiriladi. Shu shaklda biror narsadan foydalanish qoidalari keltirilgan matn namuna sifatida ko‘rsatiladi. Qoidalarni alohida satrdan yozishda tavsiya etilgan belgilardan foydalanish yoki ijodiy yondashgan holda alohida belgi tanlash mumkinligi aytiladi.

O‘quvchilar uylarida kattalar bilan shaxsiy mulk haqida suhbat qurib kelishi kerakligi tayinlanadi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi o‘tilgan darsdagi ma’lumotlarni yodga soladi.

O‘quvchilar uylarida kattalar bilan suhbat asosida bilib kelgan ma’lumotlarini gapirib beradilar. Mulk turlari, ulardan kimlar, qanday foydalanishi mumkinligi haqida kichik suhbat olib boriladi.

Asosiy qism

Tinglab tushunish

O‘quvchilar audiomatnni tinglash jarayoniga tayyorlanadi. Muhim deb hisoblangan o‘rinlarni qayd etib borish so‘raladi.

1. Maktab jihozlarini ayting. Ular qanday mulk?

Maktabda qanday jihozlar borligi, ular kimning mulki ekani haqida ma’lumot beriladi. Maktab mulki kimga tegishli ekani, undan qanday foydalanish kerakligi so‘raladi.

2. Matnda qanday shaxsiy mulk haqida fikr keltirilgan? Shunday misollardan ayting.

Matnda shaxsiy mulk haqida qanday ma’lumot keltirilgani so‘raladi. Ushbu ma’lumot nima uchun keltirilganini so‘rash maqsadga muvofiq. O‘quvchilar velosiped haqidagi ma’lumot maktabdagi jihozlarning ham egasi borligini tushuntirish uchun keltirilganini anglashlari kerak.

3. Javobgarlik deganda nimani tushunasiz? Jarima nima?

O‘quvchilarga javobgarlik, javobgarlikni his qilish, birovning mulkiga zarar yetkazganda inson o‘zini qanday his qilishi, nima uchun bunday holga tushishi haqidagi qo‘shimcha savollarni berish orqali javobgarlik hissi haqida suhbat olib boriladi. Javobgarlik qanday yo‘llar bilan amalga oshirilishi haqida qo‘shimcha ma’lumotlar beriladi.

4. Birovning mulkiga qanday qilib qasddan zarar keltirish mumkin? Shunday holatlarni ko‘cha-ko‘yda, mahallangizda ko‘rganmisiz? U qanday sodir bo‘lgan?

Savolga javob berish uchun avval o‘quvchilardan biror harakatni qasddan sodir etish deganda nima nazarda tutilishi haqida so‘rash kerak. Shundan so‘ng atrofda birovning mulkiga zarar yetkazish bilan bog‘liq qanday hodisalar ro‘y berayotgani, ushbu hodisalarning sabablari haqida suhbat olib boriladi.

5. Jinoyatchilarga qanday jazolar qo‘llanadi?

Jinoyatchi kimligi, u qanday jazolanishi haqida so‘raladi. Mulk bilan bog‘liq jinoyatlar qanday amalga oshirilishi va jinoyat uchun qanday jazolar qo‘llanishi bilan bog‘liq suhbat olib boriladi.

6. Foydalanayotgan darsliklaringizni nima uchun yil yakunida qaytarib berasiz? Do‘kondan sotib olgan kitobingiz-chi, u qanday mulk?

Shaxsiy va birovning mulki haqida so‘raladi. Ijara, ijaradan foydalanish qoidalari, shartnoma, shartnoma shartlari buzilganda qanday jarimalar qo‘llanishi haqida qo‘shimcha savollar va ma’lumotlar beriladi.

Yozma nutq. Sintaksis. Imlo

3. To‘g‘ri yozilgan gaplarni ko‘chiring.

O‘quvchilarga audiomatnda berilgan gaplarni xatosiz ko‘chirib olish kerakligi aytiladi. Gaplar tarkibida qaysi so‘zlar xato yozilgani aniqlanadi, ushbu so‘zlarning to‘g‘ri shakli qanday bo‘lishi kerakligi tushuntiriladi. Xato yozilgan so‘zlarning talaffuzi va imlosi haqida tushunchalar beriladi.

1. Siz har kuni o‘zgalarning mulkidan turli ko‘rinishda foydalanasiz.

2. O‘rtog‘ingizning velosipedini bir marta minish uchun uni qanchalik ehtiyot qilishingizni tasavvur qiling.

3. Maktab buyumlarining ham ana shunday jim qarab turmaydigan egalari bor.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Bugungi darsda “O‘g‘rining qismati” ertagi bilan tanishish aytiladi. O‘quvchilardan ushbu ertak nima haqida bo‘lishi mumkinligi so‘raladi. O‘g‘ri o‘z qilmishi uchun qanday jazolanishi

mumkinligi haqida suhbat olib boriladi. *Qismat* so‘ziga izoh beriladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan ertakka e’tibor qaratiladi. Uni to‘liq o‘qib chiqish uchun ma’lum vaqt ajratiladi. Shundan so‘ng ayrim o‘quvchilarga qayta o‘qitiladi. Matnni o‘qish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar talaffuzida uchragan kamchiliklarni qayd etib boradi. Matn o‘qib bo‘lingach, ushbu kamchiliklar ustida ishlanadi.

1. Ertak qahramonlarini ayting. Ularga ta’rif bering.

Ertak qahramonlari kim ekani birma-bir sanaladi. Ularga ta’rif berishda ertakda qanday so‘zlardan foydalanilgani aniqlanadi, muallifning bergan ta’rifini izohlash so‘raladi.

2. Sichqon jonzotlar safiga qo‘shilishni kimdan iltimos qildi? Nima uchun?

Ushbu topshiriq ertakda ochiq ko‘rinishda berilgan ma’lumotni aniqlashga qaratilgan. O‘quvchilar nima uchun sichqon aynan itdan safga qo‘shilishni so‘ragani sabablarini tushuntiradilar.

3. Qaysi jonzot o‘g‘rilik qilayotgan sichqonni ko‘rib qoldi? Shundan so‘ng u qanday holatga tushdi?

Savolga javob berish jarayonida o‘quvchilar sichqonni kim ko‘rib qolganini aytishadi. Sichqonning holatini ta’riflab berishadi. Insonlar ham shunday holatga tushsa, o‘zlarini qanday his qilishlari, sichqonning xatti-harakatlarini takrorlash yaxshi emasligi haqidagi xulosalarni chiqarib olish uchun qo‘shimcha savollar bilan murojaat etiladi.

Yozma mashq. Leksikologiya

4. Majlisda o‘g‘riga qanday jazo belgilandi? Bu qaror to‘g‘ri edimi? Nima uchun?

O‘quvchilar savolga javob berish orqali o‘g‘rilik qanday jazolanishi haqida suhbat olib boradilar. Ushbu vaziyat hayot bilan bog‘lanadi, insonlar ham o‘g‘rilik qilsa, mana shunday jazolanishi mumkinligi haqida tushunchalar beriladi.

5. “Ko‘pning haqqiga xiyonat qilish” deganda nimani tushundingiz?

Ushbu ibora avval sichqonning taqdiri bilan bog‘liq holatda izohlanadi, keyin esa insonlarning birovning haqqiga xiyonat qilishi, ko‘pchilikning haqqi, haq qachon ko‘pchilikniki bo‘lishiga misollar keltirish orqali tushunchalar beriladi.

4. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohini darsligingiz oxiridagi lug‘atdan topib, yozing.

On – vaqt, payt.

Razvedkachi – ma’lumot to‘plovchi, xabar beruvchi.

O‘lja – tutib yoki otib olinadigan narsa; ov.

Mo‘rt – sinuvchan.

Ravo ko‘rmoq – munosib ko‘rmoq.

Tayin bo‘ldi – aniq bo‘ldi.

Hang-u mang – hayratga tushgan.

Pand yemoq – aldanmoq, zarar ko‘rmoq.

Mahrum – ayrilgan.

Butkul – butunlay, tamom.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi ushbu darsda o‘tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar bajarilishini aytadi. O‘tilgan darsdagi she’riy ertakni rollarga bo‘linib o‘qishga tayyorlanish aytiladi. O‘quvchilardan guruhlar hosil qilinib, rollar bo‘lib beriladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Ertakni rollarga bo‘lib, ifodali o‘qing.

O‘quvchilar o‘zaro guruhlarga bo‘lingan holda ertakni qayta-qayta rollarga bo‘lib o‘qishadi. Buni musobaqa tarzida tashkillashtirish ham mumkin. Avval qaysi ertakni ifodali qilib o‘qib bergan guruh baholansa, keyin guruhdagi aynan qaysi o‘quvchi g‘olib bo‘lishga o‘zining ko‘proq hissasini qo‘shgani aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

Ertak matni asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Sichqonning jonivorlar safiga qo‘shilishi haqidagi satrlarni ko‘chiring. Uning gaplari qanday ohangda aytilgan: iltimos, buyruq yoki maslahat?

Bir kuni kelib sichqon
Debdi: “Ruxsat et, Itjon,
Safingizga qo‘shilay,
Men ham sizga do‘st bo‘lay!
Lekin juda zaifman,
Ravo ko‘rsang agar san,
Og‘ir ishdan ozod qil,
Men bo‘layin qorovul.
Mol-mulklaring asrayin...”

O‘quvchilar ushbu parchani qayta o‘qiydilar, qaysi ohangda ekanini aytadilar. Shundan so‘ng she’rni shunday ohangda ekanini bildirib turuvchi tinish belgilari hamda til birliklarini aniqlash so‘raladi.

2. Itning sichqonga bergan savollarini yozing. Bular qanday gaplar?

“Xo‘sh, qani ayt, – dedi It, –
Senga tayyordir tobut.
Nega ombor o‘marding,
Donni qayga ko‘marding?!”
O‘zin his qilib g‘alat,
Sichqon so‘ylar qaltirab:
“Kechiring, ne bilibman,
Sal ochko‘zlik qilibman.
Takrorlanmas endi hech...”
“Bas qil endi, bo‘ldi kech!
Bizlar senga rahm etsak,
*Yaxshilik-chun **pand** yesak?!*
Qilgan ishing to‘g‘rimi?
Sen muttaham o‘g‘rini
Eng og‘ir jazo bilan
Chiqarmoq kerak safdan”.

O‘quvchilar ushbu parcha ichidan itning bergan savollarini ajratib yozadilar, yozilgan gaplar so‘roq gap ekanini aytadilar. O‘qituvchi shu o‘rinda berilgan so‘roq gaplar g‘azab va hayrat aralash aytilayotgani uchun so‘roq belgisidan keyin undov belgisi ham qo‘llanayotganini tushuntiradi.

Yozma nutq

3. Mushukning sichqonni jazolash haqidagi taklifini yozing.

Berilgan parcha she’r matnidan aniqlanadi va yozib olinadi. Ushbu parchada nima uchun Oy va Quyosh so‘zlari bosh harf bilan yozilgani tushuntiriladi.

4. Ertakdan chiqargan xulosangizni yozing.

Ertakdan chiqarilgan xulosalar yoziladi. Xulosa yozishda gaplar qanday shaklda bo‘lishi kerakligi tushuntiriladi, ayrim namunalar ko‘rsatiladi.

Masalan:

Men ushbu ertakni o‘qib shunday xulosaga keldim: ...

Ushbu ertakdan shuni angladim: ...

Ertak shunisi bilan ahamiyatli: ...

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘tilgan darslar asosida quyidagi savollarga javob bering.

Mulk nima?

Mulkning egasi bo‘lishi kerakmi?

Birovning mulkidan qanday foydalanish mumkin?

Ijara deganda nimani tushunasiz?

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Chiroqning moyi kimniki?” mavzusidagi ibratli hikoya o‘quvchilar tomonidan o‘qib beriladi. Matn tarkibida qo‘llangan ayrim so‘zlarning izohi keltiriladi.

Xalifa – davlatning boshlig‘i.

Oshna – do‘st, birodar.

“O‘g‘ri topildi” hikoyasi bir necha o‘quvchi tomonidan ifodali o‘qiladi. Ushbu hikoyadagi ayrim so‘zlarning izohi keltiriladi.

1. Hazrati Umar do‘stidan nima uchun uzr so‘radi?

O‘quvchilar matnda berilgan ma’lumotlar asosida ushbu savolga javob beradilar. Shu o‘rinda Hazrati Umar, ya’ni xalifaning o‘z do‘stidan uzr so‘rashiga o‘quvchilarning munosabati aniqlanadi. Ushbu harakat Hazrati Umarning odobidan darak berishi haqidagi xulosalar chiqariladi.

2. Hazrati Umar nima uchun yonib turgan chiroqni o‘chirdi?

Ushbu savolga javob berilgandan so‘ng o‘quvchilar o‘z kundalik hayotlarida boshqalarning mulki, ayniqsa, davlatning mulkiga atrofdagi insonlarning munosabati haqida suhbat olib boriladi. Hazrati Umarning xatti-harakatlari o‘rnak sifatida ko‘rsatiladi.

3. Davlat ishlari bilan shug‘ullanish deganda nimani tushundingiz?

O‘quvchilar o‘z tasavvurlari asosida savolga javob beradilar. O‘qituvchi ayni zamondagi davlat ishlariga misol keltiradi, o‘quvchilarning tasavvurlarini aniqlashtiradi.

4. “Davlatning moli xususiy ishlarga qo‘llansa, yorug‘lik o‘rniga qorong‘ilik va uyat bo‘ladi” gapini izohlang.

Hazrati Umarning ushbu fikri sharhlanadi, atrofdagi insonlarning davlat mulkiga munosabati haqida suhbat olib boriladi. O‘quvchilardan qanday xulosaga kelganlari so‘raladi.

5. Ikkinchi hikoya nima haqida?

O‘quvchilar hikoyaning umumiy mazmuni haqida gapiradilar. Ushbu hikoyada o‘g‘rilik, o‘g‘rilikdan keladigan yomon nom haqida so‘z boradi. Ushbu voqea kundalik vaziyat bilan bog‘lanadi.

6. Abu Hanifa qanday qilib o‘g‘rini aniqladi?

Abu Hanifaning uslubi, o‘g‘rining shu holat-

dagi ahvoli, u o‘zini qanday his qilgani haqida suhbat olib boriladi. Chiqarilgan xulosalar haqida so‘raladi.

Yozma mashq. Sintaksis

5. Ikkinchi hikoyadagi buyruq gaplarni aniqlab, ko‘chiring. Ular qanday mazmunni ifodalayapti?

O‘quvchilardan buyruq gap, uning ifodalanishiga oid ma’lumotlar so‘raladi. Yodga olingan ma’lumotlar asosida buyruq gaplar ko‘chirib yoziladi.

Buni hech kimga gapirmang.

Borib qo‘shningning tovusini qaytarib ber.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi nutqiy mavzuni eslatadi. O‘tilgan darsdagi kichik hikoyalarni gapirib berishga tayyorlanish aytiladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

O‘quvchilar o‘tilgan darsdagi kichik hikoyalarni aytib berishadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning nutqini, ular qo‘llayotgan til birliklarini kuzatadi, so‘z tanlashda yordam beradi. O‘quvchilar nutqida uchragan ayrim so‘zlarning izohini so‘rashi mumkin. Shuningdek, har bir o‘quvchidan matnni so‘zlab bergandan so‘ng ushbu matnga tegishli bo‘lgan xulosani so‘raydi. O‘quvchilar o‘z xulosasini aytib beradilar.

Yozma nutq

6. Maqollarni qaysi hikoya mazmuniga mos kelishiga ko‘ra ajratib yozing.

Berilgan maqollarning mazmuni tahlil qilinadi, shundan so‘ng ular guruhlarga ajratilib yoziladi. Maqollar nima uchun aynan bir guruhga tegishli ekani izohlanishi lozim.

7. Har ikki hikoyadan olgan xulosangizni yozing.

O‘quvchilardan har ikkala hikoyadan olgan xulosalarini yozish so‘raladi. Xulosa yozishda gaplar qanday shaklda bo‘lishi kerakligi tushuntiriladi, ayrim namunalar ko‘rsatiladi.

Masalan:

Men ushbu hikoyalarni o‘qib shunday xulosaga keldim: ...

Ushbu hikoyadan shuni angladim: ...

Hikoyalar shunisi bilan ahamiyatli: ...

7-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Bugungi dars jarayoni, uning qisqacha mazmuni bilan tanishtiriladi. Loyiha tayyorlash, buning uchun nimalar kerak ekanligi haqida gapiriladi. Muxbirning vazifalari, uning maqsadi haqida suhbat olib boriladi.

Muxbir kim?

Gazeta nima, siz gazeta o‘qib turasizmi?

Qanday bolalar gazetalarini o‘qigansiz?

Asosiy qism

Loyiha

Berilgan gazeta va jurnallarning bosh sahifasi bilan tanishing. Ularda nimalar aks etgan? Partadoshingiz bilan muhokama qiling.

Darslikda o‘quvchilarning gazeta va jurnallarning sahifalari qanday tartibda bo‘lishi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish uchun rasmlar berilgan. Bu rasmlardagi tasvirlarni bolalar partadoshlari bilan birgalikda muhokama qilishi lozim. Muhokama jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning diqqat-e’tiborini oshirish, rasmdagi tasvirlarni kengroq tasavvur qildirish uchun savol bilan murojaat qilishi maqsadga muvofiq. Xususan:

1. Gazeta va jurnallarning nomlari nima ekan? Nega ular turlicha atalgan?
2. Nega har xil yozilgan deb o‘ylaysiz?
3. Sahifaga rasm qo‘yish shartmi? Bu nega kerak?
4. Qaysi biri sizga ko‘proq yoqdi? Nima uchun?

8. Tasavvur qiling, siz yangi gazeta chiqaryapsiz, u qanday bo‘ladi? Gazetangizning bosh sahifasini tayyorlang.

O‘quvchilarning javoblari tinglangach, ushbu rasmlar asosida o‘zlari gazeta sahifasini yaratishi aytiladi hamda tayyorlash uchun quyidagi ko‘rsatmalar beriladi:

- gazetaga nom bering;
- gazetangiz uchun rasm chizing;
- bezash uchun turli shakl va ranglardan foydalaning;
- unda chop etiladigan narsalar (hikoya, ertak, she’r, topishmoq, maqol, boshqotirma) nomini yozing. Ularni o‘zingiz xohlagandek joylashtiring.

Keyin har bir o‘quvchiga taqdimot qilishi aytiladi. Eng yaxshi taqdimot tayyorlagan o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

8-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Bugungi darsda loyiha taqdimoti bo‘lishi aytiladi. O‘quvchilar o‘z loyihalarini taqdimot qilishga tayyorlanashadi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq. Taqdimot

“Bolalar dunyosi” gazetasi uchun tayyorlagan loyihangizni taqdim eting.

O‘qituvchi taqdimot loyihasini boshlashdan oldin loyihani qanday taqdim etishni, o‘quvchilarning nutqi qanday bo‘lishi, o‘zini tutishi haqidagi tavsiyalarni beradi. Shundan so‘ng avval xohlovchilardan, keyin esa boshqa o‘quvchilardan taqdimot qilish so‘raladi.

Yozma nutq

9. Sinfdoshlaringiz tayyorlagan taqdimotlardan biriga izoh yozing. Uning sizga yoqqan va yoqmagan jihatlari, buning sabablarini yoriting.

O‘quvchilar sinfdoshlarining loyihasi uchun izoh yozadilar. Izohda nimalar aks etishi mumkinligi haqida suhbat olib boriladi. O‘quvchilar loyiha haqida fikr bildirar ekanlar, o‘z fikrlarini izohlash kerakligi tushuntiriladi.

MUSTAHKAMLASH

DARS JARAYONI

Kirish

Bugungi dars mustahkamlash darsi ekanligi aytiladi. “Birovning mulki” mavzusi doirasidagi barcha o‘tilgan darslar, hikoyalar, ertaklar yodga solinadi. Ular mazmuni to‘g‘risida qisqa suhbat olib boriladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Ushbu bo‘limda sizga ko‘proq qaysi matn yoqdi? Javobingizni izohlang.

Nutqiy mavzu doirasida o‘tilgan matnlar mazmuni haqida o‘ylab ko‘rish, ulardan ma’qul kelgani haqida fikr bildirish so‘raladi. Ushbu topshiriqqa imkon qadar barcha o‘quvchilar javob beradilar. O‘quvchilarning nutqi kuzatiladi, og‘zaki nutqda so‘z tanlash, o‘quvchining o‘zini tutishi, fikrni izchil va tushunarli qilib yetkazish bilan bog‘liq og‘zaki nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

Yozma nutq

1. O‘quvchilar tomonidan maktabingiz mulkiga qanday zarar yetkazilyapti? Ro‘yxat tuzing.

O‘quvchilar o‘rganganlari asosida atrofdagi birovning mulkiga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liq holatlar haqida gapirishadi. Ularni daftarga yozadilar. O‘qituvchi ro‘yxat qanday shakllantirilishiga oid kerakli tavsiyalarni berib boradi.

2. Maktab mulkiga zarar yetkazayotgan bolalarga xat yozing. Tuzgan matningizda buyruq, iltimos va maslahat mazmunidagi gaplardan foydalaning.

Yuqoridagi suhbat asosida maktab mulkiga zarar yetkazayotgan bolalarga xat yozish kerakligi aytiladi. Xatni qanday boshlash mumkinligi, unda nimalar aks etishi kerakligi oldindan muhokama qilib olinadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning yozayotgan ishlarini nazorat qilib turadi, kerakli tavsiyalarni berib boradi. Dars so‘ngida ayrim o‘quvchilar o‘z yozma ishlarini taqdim etishi, ular yozgan ishlar muhokama etilishi va kerakli xulosalarni chiqargan holda qolgan o‘quvchilar o‘z xatlarini uyda davom ettirib kelishlari mumkinligi aytiladi.

O‘QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

(8 SOAT)

Nutqiy mavzuning maqsadi: o‘tilgan nutqiy mavzular yozasidan umumiy takrorlash, hosil bo‘lgan nutqiy ko‘nikmalarni mustahkamlash va rivojlantirish, nutqiy mavzular yuzasidan kerakli xulosalarni chiqarish.

1-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quv yilining oxiridagi mustahkamlash darslarining umumiy mazmuni, mustahkamlashdan

maqsad, ushbu soatlarda nimalar haqida suhbatlashish mumkinligi haqida qisqacha suhbat olib boriladi. O‘tilgan nutqiy mavzular yodga solinadi, ular yuzasidan qisqa xulosalar aytiladi.

Asosiy qism

Tinglab tushunish

Nay nima? Uning ko‘rinishi qanday?

Ushbu savol bilan o‘quvchilarga murojaat qilinadi. O‘quvchilar nay haqidagi mavjud tasavvurlarini aytib beradilar. Hozirgi audiomatn nay haqida ekanligi aytiladi. O‘quvchilardan darslikda berilgan rasmlarga qarab ertakning mazmuni qanday bo‘lishi mumkinligi so‘raladi. Javoblar tinglangach, audiomatn qo‘yib eshittiriladi. Nay ovozi eshittirilishi ham mumkin.

1. Nay poyasining nima uchun odamlarga havasi kelibdi?

Savolga rivoyatda berilgan ma’lumotlar asosida javob beriladi. Bu narsa butun voqealarning rivojiga sabab bo‘lganini anglashga doir qo‘shimcha savollar beriladi. Qolgan voqealar tahlili ham aynan shu holat bilan bog‘lanishiga e’tibor qaratiladi.

2. Nay poyasi dehqondan nega norozi bo‘lganini tushuntiring.

Dehqonning nay poyasiga bo‘lgan munosabati haqida so‘raladi. Nay poyasining orzusi va ushbu holat o‘zaro taqqoslanadi.

3. Nay poyasini topib olgan ovchining maqsadi nima edi? Nay poyasi nimadan g‘amgin bo‘ldi?

Ushbu savol ham o‘quvchining tinglab tushunish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar bilan ovchi nay poyasidan qanday foydalangani, nayning holati haqida suhbat olib boriladi.

4. Nay poyasi bolalar bilan qolishni ma’qul ko‘rdi. Nima uchun?

5. Bolalar nayga qanday munosabatda bo‘lishdi?

4- va 5-savollarda bolalar nay poyasiga qaysi jihatdan yoqib qolgani so‘raladi. Buning natijasi haqidagi mulohazalar tinglanadi.

6. Cho‘pon nay poyasini nima qildi?

Cho‘ponning nay poyasiga munosabati haqida suhbat olib boriladi. Nay nima uchun bu holatdan xursand bo‘lganini tushuntirish so‘raladi.

7. “Odamlarning koriga yarash” deganda nimani tushunasiz? Siz ham shunday qila olasizmi? Qanday qilib?

Rivoyatni xulosalash uchun o‘quvchilar ushbu savolga javob beradilar. Rivoyat mazmuni hayot bilan bog‘lanadi. Atrofdagi insonlar, ularning xatti-harakatlari haqida gapiriladi. O‘quvchilarning rivoyatdan chiqargan xulosalari tinglanadi.

Yozma mashq

1. Berilgan so‘zlarning izohini kitobingizdagi lug‘at orqali aniqlab, ko‘chiring.

Namuna: ko‘k – osmon, ...

To‘fon, kor, aziyat, tarashlamoq, maroq.

Kitobda berilgan lug‘at bilan ishlanadi. So‘zlarning izohi ko‘chirib olinadi.

2. To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlab, yozing.

Osmon-u falakka	Osmonu falakka
Hafa	Xafa
Mustahkam	Mustaxkam
Kichgina	Kichkina
Chiroyli	Chiroyliy
Sug‘urib	Sug‘irib

Ushbu topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilarning yozma savodxonligi mustahkamlanadi. Noto‘g‘ri yozilgan so‘zlar izohlanadi. Talaffuzi va yozilishida farq mavjud bo‘lgan so‘zlarning imlosi alohida ta’kidlanadi.

Yozma nutq

3. Rivoyatdan olgan qisqa xulosangizni yozing.

Rivoyatdan olingan xulosalar yoziladi. Xulosani ifodalash, qanday fikrlar xulosa bo‘la olishi haqida tushunchalar beriladi. O‘quvchilarning yozayotgan xulosalari nazorat qilinadi va munosabat bildiriladi.

2-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Darslikda berilgan rasmlarni kuzatish so‘raladi. Yil davomida o‘tilgan mavzular, hikoyalar, she’rlar yodga olinadi, dars davomida ushbu mavzular haqida suhbat bo‘lib o‘tishi aytiladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

Rasmlarga qarang. O‘rganganlaringiz asosida fikr bildiring.

O‘quvchilar o‘rganilgan mavzulardan qaysi biri ularda ko‘proq taassurot qoldirganini aytishadi. Ushbu mavzu haqida fikr bildiriladi. Nima uchun

ushbu mavzu unga ko‘proq yoqqanini tushuntirishga harakat qiladi. Imkon qadar ko‘proq o‘quvchi bilan og‘zaki suhbat olib boriladi.

Partadoshingiz bilan yil davomida tanishgan mavzularingizdan biri haqida suhbatlashing.

O‘quvchilarga suhbatga tayyorlanish uchun vaqt beriladi. Suhbatning mazmuni nima haqida bo‘lishi mumkinligi aytiladi. Imkon qadar qanday savollar bilan murojaat qilish haqida tavsiyalar beriladi.

Sizga qaysi mavzu ko‘proq yoqdi? Nima uchun?

Ushbu mavzu bilan bog‘liq taassurotlaringiz haqida so‘zlab bering.

O‘rganilgan mavzudan qanday xulosaga keldingiz?

Ushbu mavzuda yana suhbat bo‘lishini xohlaysizmi?

Yozma nutq

Suhbatni dialog shaklida yozing. Yozuvda nuqta, so‘roq va undov belgilaridan to‘g‘ri foydalaning.

O‘tkazilgan suhbat dialog shaklida yoziladi. O‘qituvchi elektron doska orqali dialog matnining yozilishiga misollar keltiradi. Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarida qo‘llanadigan tinish belgilarini yodga soladi. Jarayon davomida o‘quvchilarni nazorat qiladi, ularga imlo, uslub, so‘z qo‘llash bilan bog‘liq tavsiyalarini berib boradi.

3-soat

DARS JARAYONI

Kirish

Kirish suhbati bo‘lib o‘tadi. Shundan so‘ng bugungi darsning qisqacha mazmuni haqida gapirilib, bugun “Momoning sirli sandig‘i” hikoyasi bilan tanishish aytiladi. Momoning sirli sandig‘ida nima bo‘lishi mumkinligi so‘raladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

Darslikda berilgan matnga e’tibor qaratiladi. Matnni to‘liq o‘qib chiqish uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Shundan so‘ng ayrim o‘quvchilarga matn qayta o‘qitiladi. Matnni o‘qish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar talaffuzida uchragan kamchiliklarni qayd etib boradi. Matn o‘qib bo‘lingach, ushbu kamchiliklar ustida ishlanadi.

1. Hikoyadagi suhbatdoshlar kimlar?

O‘qib tushunish ko‘nikmasini aniqlashga qaratilgan ushbu savolga o‘quvchilar hikoyadagi suhbatdoshlar nomini aytish orqali javob beradilar.

2. Buvi va nabiraning suhbati nimadan boshlandi?

Suhbatning boshlanishiga sabab bo‘lgan voqea haqida gapiriladi. Buvining nabirasiga bo‘lgan munosabati haqida o‘quvchilarning fikri so‘raladi. O‘quvchilar buvilari bilan qanday munosabatda ekanligi haqida qisqa suhbat olib boriladi.

3. Nortosh momo erinmasdan Olimjonga nimalarni tushunitirdi?

Suhbatning umumiy mazmunini bir yoki ikkita gap bilan ifodalash so‘raladi. O‘quvchilar imkon qadar qisqa qilib suhbatning umumiy mazmunini ifodalab beradilar.

4. Buvi Olimjonni nima deb erkalatar ekan?

Suhbat matnidan aynan shu jumlani aniqlash so‘raladi. Unga berilgan izoh haqida suhbat olib boriladi. Ayrim o‘quvchilar buvilari ularni qanday erkalatishini gapirib berishi, ushbu so‘zlarning ma’nolari haqida suhbat olib borilishi mumkin.

5. Hamida buvisidan nimalarni bilib oldi? Siz bu narsalarni bilarmidingiz? Qaysilari siz uchun yangilik bo‘ldi?

Matnda buvi aytib bergan so‘zlarning izohiga e’tibor qaratiladi. So‘zlarning qo‘llanishida ular anglatgan ma’no muhim ekani, so‘z ma’nolarini bilishning ahamiyati tushuntiriladi.

6. Momoning sirli sandig‘i nima ekan?

Momoning sirli sandig‘i uning bilimdon, zukko, hozirjavob bo‘lgani holda so‘z ma’nolarini yaxshi bilishi ekanini anglatish yuzasidan suhbat olib boriladi.

7. Matndagi ajratib ko‘rsatilgan gapni qayta o‘qing. Momoning gaplarini qanday tushundingiz?

O‘zbek tilining jozibali, boy til ekani haqida suhbat olib boriladi. Ayrim so‘zlarning izohi, tilimiz haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.

Yozma mashq. Leksikologiya

5. Matn yordamida bilib olgan so‘zlaringizning izohini yozing.

Namuna: qulun – otning bolasi.

Matnda izohlangan so‘zlar sanab o‘tiladi, o‘quvchilar matnga asoslangan holda ushbu so‘zlarning izohini daftarlariga yozib oladilar. Shu o‘rinda matnning ahamiyati haqida gapiriladi.

Sovliq – bolali qo‘y.

Baytal, biya – qulunlagan urg‘ochi ot.

Moya – urg‘ochi tuya.

Bo‘taloq – tuyaning bolasi.

Toychoq – otning bolasi.
Buzoq – sigirning bolasi.
Uloq – echkining bolasi.
Quralay – kiyikning bolasi.

6. Momoning nabiralarini erkalatib aytadigan so‘zlarini yozing.

Erkalashni ifodalaydigan so‘zlar ajratib yozib olinadi, ular ko‘chma ma’noda qo‘llanishi, yana qanday so‘zlar erkalatish ma’nosini anglata olishi haqida suhbat olib boriladi.

Bolajonim, bo‘talog‘im, erkatoyim, dastyor qizim.

Yozma nutq

7. Olimjon aslida nima deyishi kerak edi? Gaplarni o‘qiganlaringiz asosida to‘g‘rilab ko‘chiring.

1. Buvijon, buvijon, anavi ona qo‘yni qarang.
Buvijon, buvijon, anavi sovliqni qarang.
2. Qo‘ychasini ham yetaklab olgan!
Qo‘zichog‘ini ham yetaklab olgan!
3. Bizni tishlab olmaydimi?
Bizni suzmaydimi?

Matnga asoslangan holda ushbu jumlalarning g‘alizligiga sabab bo‘lgan so‘zlar aniqlanadi, ularni qaysi so‘zlar bilan almashtirish ma’qulligi haqida so‘raladi. Bo‘lib o‘tgan suhbat asosida berilgan parcha ko‘chirib olinadi.

4-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘tilgan mavzu yodga solinadi. Matnning mazmunini so‘zlab berish aytiladi. O‘quvchilarga ushbu jarayonga tayyorlanish uchun vaqt beriladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“Momoning sirli sandig‘i” hikoyasining davomi borligi, u bilan bugungi darsda tanishish aytiladi. O‘quvchilar matnni ifodali o‘qiydilar. O‘qish jarayonida ularning nutqi kuzatiladi. Nutqida kamchiliklar uchragan o‘quvchilarga xatolari tushuntiriladi.

1. Momo Olimjonning savolidan keyin qanday holatga tushdi? Nima uchun?

Ushbu holatni ifodalagan jumla matndan aniqlanadi. Buning qanday sabablari borligi haqidagi xulosalar haqida so‘raladi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini izohlashlari lozim.

2. Momoga yaxshi niyat bilan qo‘yilgan ismning ma’nosi nima ekan? Siz ham shunga o‘xshash ismlarni eshitganmisiz?

Nortosh ismi haqida gapirilar ekan, shunga o‘xshash ismlarning ma’nosi izohlanadi. Agar o‘quvchilar bunday ismlarga misollar keltira olmasa, o‘qituvchining o‘zi misollar keltirishi, ularning ma’nosi haqida o‘ylab ko‘rishni aytishi lozim. O‘quvchilar o‘z buvilari va bobolarining ismlarini aytib, ularni izohlab berishlari ham mumkin.

Munozara

3. “Hozir odamlar ismlarning ma’nosiga emas, jarangdorligiga qarab qo‘yishyapti”. Buvining ushbu fikriga qo‘shilasizmi? Nima uchun?

Qanday ismlar jarangdor ism ekani haqida so‘raladi. Ular qanday ma’no anglatishi mumkinligi haqida suhbat olib boriladi. O‘quvchilarning o‘z ismlari haqidagi fikrlarini, uning izohi, qanday ismlar yoqishi haqida so‘rash mumkin.

4. Chiroyli gapiraman deb qanday xatoga yo‘l qo‘yish mumkin ekan?

Chiroli gapirish qanday bo‘lishi haqidagi fikrlar so‘raladi, buning uchun qanday qoidalarga amal qilish kerakligi aytiladi. Hikoya matnidan kelib chiqqan holda kimlar chiroyli gapira olishi haqidagi xulosalar chiqariladi.

5. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

Hikoyadagi momoga ta’rif beriladi, momoning tilimiz haqida aytgan fikrlari tahlil qilinadi. Hikoya mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning xulosalari tinglanadi.

Yozma mashq

8. Matn yordamida bilib olgan so‘zlaringiz izohini yozing.

Namuna: *Halima – yumshoqko‘ngil, yumshoq fe’lli.*

Matnda izohlangan so‘zlar sanab o‘tiladi, o‘quvchilar matnga asoslangan holda ushbu so‘zlarning izohini daftarlariga yozib oladilar. Shu o‘rinda matnning ahamiyati haqida gapiriladi.

9. To‘g‘ri fikrlarni yozib oling. Noto‘g‘ri fikrlarning to‘g‘risini ayting.

Berilgan fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekani aniqlab olinadi, noto‘g‘ri fikrlar qanday berilsa, to‘g‘ri bo‘lishi aytiladi. To‘g‘ri fikrlar yozib olinadi.

1. Noto‘g‘ri. 2. To‘g‘ri. 3. To‘g‘ri. 4. Noto‘g‘ri. 5. To‘g‘ri. 6. Noto‘g‘ri. 7. Noto‘g‘ri.

Yozma nutq

10. Kattalar bilan suhbatlashganingizda ularning nutqida qanday o‘zgacha so‘zlarni uchratgansiz? Ularni yozing.

Kattalar nutqida uchragan so‘zlar haqida suhbat olib boriladi. Qanday so‘zlarni uchratganliklari, ularning izohi haqida so‘raladi. O‘quvchilarni qiziqtirgan so‘zlarning izohini aytishga tayyorgarlik ko‘riladi.

5-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘git deganda nimani tushunasiz?

Ushbu savol bilan murojaat etiladi va mavzu yuzasidan suhbat olib boriladi.

Asosiy qism

O‘qib tushunish

“O‘qituvchining o‘gitlari” mavzusidagi she’r matni bir nechta o‘quvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi.

1. She’r nima haqida ekan?

She’rning umumiy mazmuni haqida fikrlar so‘raladi. Imkon qadar ko‘proq o‘quvchining fikri tinglanadi, hammaning fikri asosida she’rning umumiy mazmuni haqida xulosa chiqariladi.

2. 1-to‘rtlikda til va so‘z nimaga o‘xshatilgan?

She’rning birinchi 4 misrasi qayta o‘qib eshittiriladi. Til va so‘zning nimaga o‘xshatilgani haqida, buning sababi so‘raladi. Til va so‘zni yana nimalarga o‘xshatish mumkinligi haqida suhbatlashiladi.

3. Yot yurt deganda nimani tushundingiz? Millat nima?

Ushbu birikmaning ma’nosi izohlanadi, insonlar nima uchun, nima maqsadda yot yurtga ketishi haqida so‘raladi. U inson o‘zini qanday tutishi, Vatani haqida nimalarni gapirib berishi mumkinligi haqidagi qo‘shimcha savollar bilan murojaat etiladi.

4. Tilimiz va yurtimiz 3-to‘rtlikda qanday ifodalangan?

Bobolarimiz, ularning qilgan ishlari yodga olinadi. Yana qanday faxrlanish mumkin bo‘lgan ajdodlarimiz borligi haqida so‘raladi. O‘zidan yaxshi nom qoldirish, o‘z nomini butun dunyoga tanitish uchun nimalar qilish kerakligi haqidagi yo‘naltiruvchi savollar asosida suhbat olib boriladi.

5. Siz nimalar bilan faxrlanishingiz kerak ekan?

She’rning 4-bandi tahlil qilinadi. Har kim o‘zining kelajakda xorijga safar qilishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘rishi aytiladi. Xorijga ketsa, u yerda yurtimiz haqida nimalarni gapirib berishi mumkinligi haqida aytish so‘raladi.

6. Odamning ham narxi bo‘ladimi? She’rdagi satrlar asosida izohlang.

Odamning narxi nimalar bilan baholanishi haqida suhbat olib boriladi. She’rdan qanday xulosa chiqarish mumkinligi so‘raladi.

Yozma nutq

1. She’r mazmunini ochayotgan kalit so‘zlarni aniqlab, yozing.

Namuna: yurt.

Qanday so‘zlar matnning kalit so‘zi vazifasini bajarishi mumkinligi tushuntiriladi. Bunda matnning sarlavhasiga ham e’tibor qaratish lozimligi yodga solinadi.

Nondek aziz, nondek uvol, so‘z, nihol, ona tili, Navoiy, Ulug‘bek, Bobur, Temur, bilim, kasb, Vatan, millat, til.

12. O‘zingizga yoqqan satrlarni ko‘chiring va yodlab oling.

O‘quvchilar o‘zlariga yoqqan satrlarni ko‘chirib oladilar, keyingi darsga ushbu satrlarni yodlab kelish aytiladi.

6-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quvchilar bilan kirish suhbati o‘tkaziladi. O‘tilgan darsdagi ma’lumot asosida savol-javob o‘tkaziladi.

Asosiy qism

Og‘zaki nutq

“O‘qituvchining o‘gitlari” she’ridan yod olgan satrlaringizni ifodali aytib bering.

O‘qituvchi she’rni ifodali aytish qoidalarini eslatadi, namuna sifatida she’rni ifodali o‘qib berishi mumkin. O‘quvchilar she’rni ifodali, yoddan aytib beradilar. O‘quvchilarning og‘zaki nutqi kuzatiladi, unga munosabat bildiriladi.

“Topgan topaloq” musobaqasi

- 3 ta guruhga bo‘lining.
- Topishmoqlarni o‘qing.
- Guruhingiz bilan javobini toping.
- Xattaxtadan sizga ajratilgan qismga javoblarni yozing.
- To‘g‘ri javob bilan solishtiring.

Berilgan ko‘rsatmalar asosida musobaqa o‘tkaziladi.

1. Arslon. 2. Bulbul. 3. Bedana 4. Bo‘ri. 5. Burgut. 6. Asalari

Yozma mashq

13. Daftaringizga o‘zingizga yoqqan topishmoqlarni ko‘chirib yozing.

O‘quvchilar topishmoqlarni daftarlariga ko‘chirib olar ekanlar, bu orada topishmoqning javobini aniqlashda ularga nimalar yordam berganini so‘rash mumkin. “Kalit so‘z” hamda qofiya singari tushunchalarga oid bilimlarni ushbu topishmoqlar orqali mustahkamlash tavsiya etiladi.

7-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quvchilar bilan qisqacha kirish suhbati o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzular yuzasidan savol-javobdan so‘ng bugungi darsning mazmuni haqida gapirib beriladi.

Asosiy qism

Loyiha

Sinfdoshingiz ta’til paytida o‘qishi uchun “O‘qishingiz kerak bo‘lgan kitob” mavzusida loyiha tayyorlang.

- kitob nomi;
- muallifi (agar bo‘lsa);
- kitob turi (badiiy, ensiklopediya);
- aynan shu kitobni tavsiya qilayotganingiz sababi;
- tengdoshlaringizni qiziqtirish uchun kitobdan olingan matnlar;
- bu kitob haqida xulosangiz.

Ushbu topshiriqni bajarishga kirishishdan oldin kitoblar haqida suhbat bo‘lib o‘tadi. Kim qanday kitob o‘qiyotgani, u nima haqida ekani so‘raladi. Kitoblarning umumiy mazmuni o‘quvchilar tomonidan so‘zlab beriladi. Shundan so‘ng loyiha tayyorlashga kirishiladi. Loyiha turli ko‘rinishda: matn, rasmli, grafikli ma’lumot, reklama ko‘rinishida bo‘lishi mumkinligi tushuntiriladi. Mana shunday ma’lumotlar aks etgan ayrim namunalarni elektron doska orqali namoyish etish maqsadga muvofiq. Loyiha tayyorlashga kirishiladi. Uni tayyorlash davomida o‘qituvchi yuqorida berilgan ko‘rsatmalarni yodga solib turadi.

Yozma mashq

15. Sinfdoshlaringiz tavsiya qilgan kitoblardan qaysilari sizga yoqdi? Yozib oling.

Har bir o‘quvchi o‘z loyihasini taqdim etadi. O‘quvchilar uni baholaydi. Baholash jarayonida ushbu loyihaning o‘zlariga yoqqan tomonlarini aytib o‘tishlari so‘raladi. Shu tariqa o‘zlariga yoqqan kitoblarni yozib oladilar.

8-soat

DARS JARAYONI

Kirish

O‘quvchilarga bugungi darsning mazmuni haqida gapiriladi.

Yil davomida qaysi ertak, hikoya yoki she’r yoqqanligi haqida o‘ylab ko‘rish aytiladi.

Asosiy qism

Yozma mashq

16. Yil davomida o‘qiganlaringiz asosida “Menga yoqqan she’r, hikoya, ertak” mavzusida matn tuzing.

- Sizga qaysi she’r, hikoya, ertak ko‘proq yoqdi?
- Nimasi yoqdi?
- Qanday taassurot oldingiz?

O‘qituvchi yil davomida o‘tilgan mavzularni yodga soladi, unda uchragan she’r, hikoya va ertaklar haqidagi rasmli ma’lumotlarni elektron doska orqali namoyish etadi. O‘quvchilar yil davomida qaysi hikoya, ertak yoki she’r yoqqanligi haqida suhbat olib boradilar. Ba’zi o‘quvchilar o‘z fikrlarini og‘zaki tushuntirib berishga harakat qiladilar. Bo‘lib o‘tgan suhbat hamda yuqorida berilgan ko‘rsatmalar asosida matn tuzish topshirig‘i bajariladi.

O‘quvchilarning yozma ishlari kuzatib boriladi. Ularga so‘z tanlashda yordamlashish, ba’zi so‘zlarning qo‘llanishi, imlosi bilan bog‘liq tavsiyalarni berib borish maqsadga muvofiq.

Og‘zaki nutq

Yozgan matningizni o‘qib bering.

Har bir o‘quvchi dastlab o‘z yozgan matnini o‘qib beradi, o‘qituvchi matnlarning mazmuniga munosabat bildiradi, so‘ng matnda uchragan imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolar ustida ishlanadi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

O‘quv nashri

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI



O‘QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO‘LLANMA

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Musahhih *Xurshid Ibrohimov*
Sahifalovchi-dizayner *Alimardon Aqilov*

Bosishga 07.05.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{8}$.
Arial garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 18,60. Nashriyot-hisob tabog‘i 14,69.
Adadi _____ nusxa. Buyurtma № ___.